

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ASHUROVA GULBAHOR NURULLAYEVNA**

**MUSTAQILLIK DAVRI  
O‘ZBEK ADABIYOTIDA  
ALISHER NAVOIY OBRAZI**

**MONOGRAFIYA**

**Toshkent - 2023**

УДК  
ББК

**Ashurova Gulbahor Nurullayevna. MUSTAQILLIK  
DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTIDA ALISHER NAVOIY  
OBRAZI/ – Toshkent: «Qamar media», 2023. – 408 б.**

*Ushbu monografiyada o‘zbek xalqining buyuk mutafakkiri, daho shoiri Alisher Navoiy siymosining mustaqillik davri o‘zbek adabiyotidagi badiiy talqini muammosi o‘rganilgan. Muallif mazkur ilmiy mavzu tadqiqida bir nechta dolzarb masalalar, jumladan, badiiy adabiyotda tarixiy shaxs tasvirining mezonlari, prototip va estetik ideal, Alisher Navoiy obrazining lirik, epik va dramatik turga xos talqinlari tadriji, tarixiy manbalar haqiqati, obrazga zamonaviy yondashuv kabi masalalar tahlil qilingan. Navoiy obrazining yangi davr o‘zbek adabiyotidagi talqinlarining o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratilgan. Monografiyada mustaqillik davri adabiyoti Alisher Navoiy obrazini yaratish, uni badiiy ifodalashda erishilgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar zarur darajada, ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Yangi talqinlar kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Ushbu monografiya mustaqillik davri navoiynomasining ilmiy-badiiy tadqiqi sifatida ahamiyatli bo‘lib, kitob ilmiy xodim, soha mutaxassislari, filologiya fakulteti talaba-magistrilari, hamda Alisher Navoiyning barcha muxlis, muhiblarining foydalanishlari uchun mo‘jallangan.*

*Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy kengashining 2023-yil 31-oktyabrdagi 3-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN:

© Gulbahor Ashurova. 2023 й.

© «Qamar media». 2023 й

УДК  
ББК

**Ashurova Gulbahor Nurullayevna. MUSTAQILLIK  
DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTIDA ALISHER NAVOIY  
OBRAZI/** – Toshkent: «Qamar media», 2023. – 408 б.

Bosh muharrir:  
**Shuhrat SIROJIDDINOV,**  
filologiya fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:  
**Boqijon TO‘XLIYEV,**  
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:  
**Nurboy JABBOROV,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Almaz ULVI BINNETOVA,**  
**filologiya fanlari doktori, professor**

**Uzoq JO‘RAQULOV,**  
filologiya fanlari doktori, professor

ISBN:

© Gulbahor Ashurova. 2023 й.

© «Qamar media». 2023 й

*Mehrli va rahimli Alloh nomi bilan boshlaymiz.  
Ushbu kitobimni padari buzrukvorim  
Ashurov Nurullo Sayfullo o‘g‘lining  
porloq xotirasiga bag‘ishlayman.*

## KIRISH

Zamonaviy adabiyotda moziy voqeligini tasvirlashdan asosiy maqsad – insoniyatni ezgulikka chorlash, bugungi kun uchun muhim xulosalar chiqarish, kelajak uchun zarur dasturulamalar ko‘rsatish va shu orqali milliy tafakkurni tarbiyalashdan iboratdir. Har bir ijodkorning tarixiy mavzu va shaxslar hayotini tasvirlashdagi mahorati esa uning o‘sha xalq o‘tmishi, tarixiy ildizlarini qanchalik aniq tasavvur qilishi va asarlarida haqqoniy tasvirlashi bilan belgilanadi.

Dunyo adabiyotshunosligi tarixidan ma’lumki, tarixiy mavzuda yozilgan, tarixiy shaxs obrazi yaratilgan badiiy asarlarning xalq ongi va qalbiga ta’sirini yoritish, o‘tmish voqeligining zamonaviy adabiyotdagi poetik ifodasi va tarixiy shaxs tasviridagi o‘ziga xos qonuniyatlarni aniqlash – milliy qadriyat va umumbashariy timsollarni yuzaga chiqarish, estetik did va tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd etish kerakki, zamonaviy adabiyotda tarixiy mavzuga murojaat, buyuk tarixiy shaxslarni badiiy gavdalantirish muayyan davrning

tabiiy taqozosi bilan sodir bo‘luvchi, muhim axloqiy-estetik ehtiyojning natijasi o‘laroq yuzaga keluvchi jarayondir. Adabiyotning asosiy maqsadi olam va odam haqidagi haqiqatlarni badiiy aks ettirishdan iborat ekan, mustaqillik davri adabiyotdagi tarixiy shaxs tasvirini ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida, ham zamonaviy adabiy-estetik ehtiyoj mahsuli sifatida tadqiq etilishi zarur.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach o‘zbek adabiyotida buyuk mutafakkirlar, jumladan, Alisher Navoiy siymosini badiiy talqin etish yangi bosqichga ko‘tarildi. Chunki bu davrda milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash bosh masalaga aylandi. Mazkur maqsadga esa milliy qahramonlar, mutafakkirlar va buyuk siymolar hayoti, shaxsiyatidan ibrat olmay erishib bo‘lmasdi. Shu ma’noda, Alisher Navoiy adabiyotda ma’naviy-axloqiy kamolotning timsoli sifatida haqli e’tirof etildi. Uning ibratli hayoti, shaxsiyati namuna o‘laroq tasvirlandi. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida buyuk mutafakkirga bag‘ishlab yaratilgan asarlar o‘ziga xos ulkan navoiynomaning alohida-alohida sahifalarini tashkil etdi.

Globalashuv jarayoni tobora avj olib borayotgan hozirgi paytda buyuk shaxsiyat egasi va milliy qadriyatlar tajassumi bo‘lgan Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratish va shu turdagi asarlarni tadqiq etishga katta zarurat sezilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohi-

yatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug‘ shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ‘ib etish”<sup>1</sup> nihoyatda muhim. Ayniqsa, mamlakatimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning millat rahnamosi sifatidagi badiiy obrazini yaratish va uni tadqiq etish har qachongidan ham ahamiyatlidir. Buyuk ijodkor obrazi tasvirining yangi davrga xos takomil tendensiyalarini belgilash, bu uzluksiz ijodiy jarayonga xos qonuniyatlarini ochish, ularni tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima mezonlari asosida baholash kabi zaruratlar esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash kerakki, biz ushbu monografiyada yoritishni maqsad qilgan ilmiy muammo hozirgacha

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.

bir necha aspektlarda tadqiq etilgan. Xorij<sup>2</sup> va o‘zbek<sup>3</sup> adabiyotshunosligida tarixiy haqiqatning badiiy tasvirga aylanish jarayoni, tarixiy obraz yaratishdagi

---

<sup>2</sup>Шеллинг Ф.В. Философия искусства. – М.: Мысль, 1966; Цейтлин А. Г. Труд писателя. – М.: Советский писатель, 1962; Ауэзова Л. Исторические основы эпопеи “Путь Абая”. – Алма-ата: Наука, 1969; Андроникова И. От прототипа к образу. – М.: Педагогика, 1974; Велик А. Художественный образ Ф.М. Достоевского. – М.: Просвещение, 1974; Пospelов Г. Н. Теория литературы: учебник для филол. спец. ун-тов. — М.: Высшая школа, 1978; Боров Ю. Эстетика. – М.: Политиздат, 1988; Храпченко М. Б. Художественное творчество, действительность, человек. Издание 3-е – М.: Советский писатель, 1982; Карпушкина Л. А. Образ А.С. Пушкина в русской литературе конца XIX – начала XX веков и проблема литературной рецепции: дисс. канд. филол. наук. – М., 2000; Александрова С.В. Проблема идеала в русской литературе, критике, публицистике первой половины XX века. Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – М., 2005.

<sup>3</sup>Самандаров И. Ўзбек тарихий романларида тарихийлик: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1992; Каримов Х. Тарихий шахс ва бадий образ: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1999; Носиров А. Тарихий хақиқат ва унинг бадий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида): Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1999; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Карим(ов) Б. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2004; Юнусова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темуррийлар образининг бадий талқини: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005; Раҳимжонов Н. Бадий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008; Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006; Жабборов Н. Ойбекнинг “Навойи” романида тарихий ҳақиқатнинг бадий талқини. / “Ойбек – ўзбек халқининг буюк мутафаккири” мавзuidaги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Ангрен, 2005; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015; Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сеҳри, – Тошкент, 2011; Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент: 2018; Улуғов А. Тарихнинг тиниқ тасвири, турмушнинг теран таҳлили / Муҳаммад Саид Ўрдубодийнинг “Қилич ва Қалам” романига сўзбоши. – Тошкент, 2022; Муродов Ф. Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қахрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2012; Тўлаганова С. Ижодкор шахси ва адабий қахрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Омонова М. Истиқлол даври ўзбек романларида шайх ва валийлар образининг бадий талқинлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. – Жиззах, 2022; Муҳаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Фарғона, 2022.

mezonlar, ijodkor laboratoriyasi, ijodkor shaxsning badiiy inkishofi kabi masalalar atroficha o'rganilgan. Ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida Alisher Navoiy obrazi yaratilgan asarlar maxsus tadqiq etilmagan bo'lsa-da, ularning muayyan qismi romanlar poetikasi tadqiqi doirasida, tarixiy yoki ijodkor shaxs obrazini yaratish kontekstida tahlilga tortilgan.

Aslida, Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga qiziqish, uning betakror siymosini badiiy tasvirlash jarayoni shoir yashagan davrdayoq boshlangan. Alisher Navoiy obrazining tasviri va talqini, dastlab, Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida yaratilgan edi. Asarda Alisher Navoiy yuksak ma'naviyatli shaxs, donishmand inson, komillik sifatleri sohibi, mutafakkir, go'zal axloq egasi sifatida tasvirlangan. Zayniddin Vosifiyning "Badoyi' ul-vaqoe" asarida esa Alisher Navoiy go'zal fazilat va sifatlar kasb etgan, real hayot kishisi, oddiy inson qiyofasida gavdalantirildi. Boburning "Boburnoma"da Alisher Navoiyga bergan ta'rifi esa originalligi, buyuk mutafakkir siyrati ohorli ifodalangani bilan ajralib turadi.

Alisher Navoiy merosi va shaxsini o'rganish olti asrdan buyon davom etib kelayotgan uzluksiz jarayon. Alisher Navoiyning ijtimoiy, siyosiy, ijodiy faoliyati zamondosh ijodkorlar: olimlar, shoirlar va tarixchilar asarlarida talqin etilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn" , Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" , Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Habib us-siyar" va Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning "Tarixi



Rashidiy” asarlari ham shu an’aning sarchashmalarini tashkil etadi.

Sobiq sho‘ro davri o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazini talqin etish muammosi kam sonli ishlarda o‘rganildi. Xususan, S.D.Panchenkoning nomzodlik va N.Ahmedovning doktorlik dissertatsiyalari, shuningdek, M.Yusupovanning tadqiqoti ayni muammoni maxsus o‘rganishga qaratilgan. Panchenkoning ishida asosiy e’tibor Oybekning “Navoiy” romani hamda Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi tahliliga qaratilgan. Ishda Alisher Navoiy siymosining badiiy talqini sobiq sho‘ro tuzumi mafkurasi asosida qisqa va tor doirada yoritilgan. Nurilla Ahmedov esa Alisher Navoiy siymosi talqinlarini o‘zbek va turkman folklori, sovet davri mafkurasi singdirilgan asarlar qahramoni sifatida o‘rgangan. Mazkur davr adabiyotida Alisher Navoiy badiiy obrazini yaratishda tuzumning talabi bilan haqqoniy hayot tasviridan ko‘ra davrga moslashtirib tavsiflashga moyillik kuzatilishi asoslangan. Olim ayrim ijodkorlar ushbu mavzuni jiddiy mushohada qilgani, buyuk shoir obrazini yaratishga katta tayyorgarlik ko‘rgani haqida ham yozadi. Alisher Navoiy obrazini yaratishda badiiy mahoratning yetishmasligi, hayot haqiqatini teran anglamaslik, uni badiiy haqiqat darajasiga ko‘tara olmaslik kabi kamchiliklar hukmron vulgar-sotsiologik talqin natijasi sifatida baholanadi. Alisher Navoiyning dinga va hukmronlar, xususan, Husayn Boyqaro va temuriylarga munosabati sinfiylik o‘lchovlari asosida tasvirlangani ko‘rsatib berilgan. Xullas, bu davr ada-

biyotida shoir obrazi tarixiy haqiqatga zid talqin etilgani dalillangan. Madina Yusupovaning tadqiqotida esa, asosan, Alisher Navoiy haqidagi romanlar va XX asr o‘zbek she‘riyati namunalari ko‘zdan kechirilgan.

Ta’kidlash kerakki, mustaqillik davrida Alisher Navoiy hayoti, ijodini badiiy talqin etish va ilmiy asosda o‘rganish o‘zaro bog‘liq holda kechdi. Shoir biografiyasi va adabiy merosiga doir asl haqiqatlarning aniqlanishi—yangima’lumotlarning badiiy asarlar mohiyatiga ko‘chishida asos vazifasini o‘tadi. Qo‘lyozma manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili orqali Alisher Navoiy ilmiy biografiyasining tiklanishi, shoir hayoti va faoliyatining noma’lum bo‘lib kelgan tomonlari yoritilgan professor Sh.Sirojiddinovning tadqiqoti ana shu jihatdan alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu tadqiqot mustaqillik davri adabiyotida Alisher Navoiy obrazini yaratish bilan bog‘liq quyidagi masalalarni yoritish uchun asos sifatida xizmat qildi:

ulug‘ mutafakkirning benazir shaxsiyati, yoshligi, oilasi, o‘smirligi, qiziqishlari, e’tiqodi, tengsiz iste’dodi va ijodkorligi, biografiyasining Samarqand va umuman Movarounnahr bilan bog‘liq qirralari;

ustozlari, ularga munosabati, mutafakkirlik sifat-lari, do‘stga sadoqati va muhabbati mavzusining haq-qoniy ifodasi;

yosh iste’dodlarga homiyligi, mulkdor sifatida butun mol-mulkini el-yurt manfaati yo‘liga tikkani, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, Husayn Boyqaro bilan munosabatlari.

Istiqlol davrida nashr etilgan Alisher Navoiy biografiyasiga doir manbalar va uning badiiy obraziga oid talqinlar nechogʻliq mutanosib ekani, buyuk shoir sifatida shakllanishida islomiy-irfoniy manbalarning oʻrni va ahamiyati, asarlarining tasavvufiy mohiyati, Alisher Navoiy va Sharq mumtoz poetikasi, gʻazallari sharhi, ijodkor adabiy-estetik anʼanalarining keyingi davr ijodkorlari sheʼriyatidagi poetik sintezi kabi masalalarga doir Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilov, Suyima Gʻaniyeva, Ibrohim Haqqul, Muhammadjon Imomnazarov, Almaz Ulvi Binnetova, Nusratullo Jumaxoʻja, Boqijon Toʻxliyev, Nurboy Jabborov, Uzoq Joʻraqulov, Maqsud Asadov, Karomat Mullaxoʻjayeva, Dilnavoz Yusupova kabi olimlarning tadqiqotlari ulugʻ mutafakkir obrazining badiiy talqini uchun boy material berib kelmoqda.

Taʼkidlash kerakki, ushbu ilmiy muammo mustaqillik davri adabiyoti misolida maxsus tadqiq etilgan emas. Mavjud tadqiqotlar, asosan, XX asr adabiyotidagi talqinlarni oʻrganishga qaratilgan. Ushbu monografiya esa ulardan istiqlol davri adabiyoti oʻrganish uchun maxsus talab olinganligi, Alisher Navoiy obrazi tasvirining badiiy takomili masalasi yaxlit adabiy-estetik jarayon sifatida tadqiq etilganligi bilan jiddiy farq qiladi.

Bizning asosiy maqsadimiz mustaqillik davri adabiyotida Alisher Navoiy obrazi tasviridagi yangilanishlarni aniqlash, shoir shaxsi va ijodiga munosabatidagi yetakchi tendensiyalarini belgilash, asosiy

adabiy talqinlarni tarixiy haqiqat va badiiy to'qima mezonlari asosida baholash, Alisher Navoiy obrazi tasvirining adabiy tur, janr va uslubga xoslanishini ko'rsatib berish, shuningdek, ijodkorlarning badiiy mahoratini ochib berishdan iborat.

Alisher Navoiy dahosi hali ko'p asrlar davomida inosoniyatni, ijodkorlarni o'ziga rom etishda davom etadi. Bu buyuk shaxsiyat va uning ijodi haqida yana ko'plab asarlar yuzaga keladi. Alisher Navoiy obrazini tasvirlash o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lganidek uni tadqiq etish ham jarayon sifatida davom etadi.

# I BOB. TARIXIY SHAXS TASVIRIDA ME'YOR VA MEZONLAR

## 1.1. Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi

Mustaqillik badiiy adabiyotda tarixiy shaxs fenomenini ro'yi rost badiiy tasvirlash imkonini berdi. Bu davr o'zbek adabiyotida ko'plab tarixiy shaxslar<sup>4</sup>, jumladan, Alisher Navoiy siymosi tasvirlangan badiiy asarlar – she'r, hikoya, roman, poema va dramalar yaratildi. Ularning soni va hajmi ancha katta.

Shuningdek, bu davrga kelib adabiyotshunoslik ilmida Alisher Navoiy shaxsining haqqoniy tarixi, hayoti va faoliyati bilan bog'liq jihatlar ilk qo'lyozma manbalar asosida qayta ko'rib chiqildi<sup>5</sup>. Ularni qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlildan o'tkazish orqali XX asrgacha bo'lgan davrda yaratilgan manbalardagi ma'lumotlarning

---

<sup>4</sup>Qarang: Эрматов Б.С. Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. автореф. – Тошкент: 2019; Расулмухамедова Д.Т. Истиклол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2000; Юсупова Г.А. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадий талқини: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2005; Хамраева М.А. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (нарий асарларда Амир Темур образи): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2010; Исаева Ш. Адабий жараён: ўзбек тарихий асарларида характерлар руҳияти. – Тошкент: ТДПУ нашриёти, 2004.

<sup>5</sup>Qarang: Сирожидинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.

asl ma'lumotlardan farqi ko'rsatib berildi, Navoiy hayoti va faoliyatining noma'lum tomonlari oydinlashtirildi, chalkash o'rinlari tuzatildi. Bu kabi tadqiqotlar shoir siymosi haqqoniy, tarixiy fakt va voqelikka asoslangan holda yoritilgani, Navoiyni ijodkorlar va oddiy kitobxon qalbiga yanada yaqinlashtirgani bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy adabiy jarayon ko'pincha an'ana-ga tayanadi. Binobarin, millat poetik tafakkurining Alisher Navoiyni anglash darajasi an'ana va yangilik, obrazning tarixiy asoslari, badiiy mahorat va ijodiy individuallik kabi masalalar bilan bog'lanadi.

Alisher Navoiy siymosi mustaqillik davriga qadar folklor va mumtoz adabiyotda ham o'zining tegishli in'ikosini topgan. XX asrga kelib bu yo'nalish yanada kuchaydi. Ayni shu davrda bevosita mazkur muammoga bag'ishlangan maqola va tadqiqotlarning paydo bo'lgani ham bejiz emas. Akademik B. Nazarov Amir Temurning badiiy adabiyotda tasvirlanishi tarixi haqida gapira turib, shunday yozadi: "Shu vaqtgacha bu dahlo siymosi haqida o'nlab tillarda yuzlab, ehtimol, minglab tarixiy bitiklar, maqola va tadqiqotlar, turli janrlarda badiiy asarlar yozildi. Ular ichida xolis niyat bilan yozilganlari oz emas. Biroq ba'zilarlari yetarlicha aniq manbalarga ega bo'lmay turib, ayrimlari borib turgan noxolislik va g'arazgo'ylik tufayli, qanchadan-qancha namunalari esa, mafkuraviy tushovda yaratilgani sabab bu ulug' zot va u bilan

bog‘liq tarix ko‘pdan-ko‘p hollarda bir yoqlama, hatto, buzib ko‘rsatildi, noto‘g‘ri talqin etildi, mahoratdagi noqisliklar bois badiiy jihatdan teran va to‘laqonli aks ettirilmadi... Buyuk mustaqillik Amir Temurni nainki o‘zbek xalqi, balki umuman, jahon xalqlariga qaytarib berdi. Murakkab, to‘zonli va to‘fonli tarix sarhadlarida yotgan ma‘lumotlarning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish, haqiqatlar yuzini g‘uborlardan tozalash imkoniyatlari ochildi. Yangi zamon, o‘z navbatida, muarrix olimlar va adiblar oldiga yangi yangi vaziflar qo‘ydi”<sup>6</sup>. Mazkur mulohazalar ko‘p jihatdan Alisher Navoiy siymosining badiiy adabiyotdagi tasviri muammosiga ham mos ekaini e’tirof etish kerak.

Mustabid tuzum mafkurasi Navoiy shaxsiyati va ijodiga nisbatan ham o‘z talablari asosida qaradi: uning diniy-tasavvufiy dunyoqarashi, olam va odamga munosabati masalasi haqqoniy tarixiy voqelik asosida yoritilishi cheklandi yoxud ayrim hollarda mutlaqo biryoqlama talqinlarga yo‘l berildi, tarixiy faktlarga zid tasvirlar yaratildi. Boshqa narsalar haqida to‘xtab o‘tirmasdan, birgina Navoiy va Husayn Boyqaro yoki Navoiy va Binoiy munosbatalari talqini haqida eslashning o‘ziyoq bu boradagi cheklanishlar ko‘lamini tasavvur qilish imkonini beradi.

---

<sup>6</sup> Назаров Б. Барҳаёт асар. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: “MASHHUR-PRESS”, 2019. – Б. 50 – 51.

Badiiy adabiyot – hayotning in’ikosi. Bu aksiomani keltirishdan maqsad shuki, yuqorida aytilgan noo’rin mulohazalarning paydo bo’lishi, ularning badiiy adabiyotga ko‘chib o’tishi ham, aslida, ilmiy doiralardagi ayrim nojoiz mulohazalarning aks-sadolari edi. O‘z vaqtida akademik A. Mirzoyev Navoiy shaxsining badiiy talqiniga davr mafkurasi ko‘rsatgan ta’sirning oqibatlarini ixcham va haqqoniy ko‘rsatib bergan: “Ushbu noxolis iddaolar badiiy adabiyotga ham ta’sir qildi. Oybek “Navoiy” romanida Navoiy va Binoiy o‘rtasidagi buzib ko‘rsatilgan munosabatlar tasviridan chetda qola olmadi”<sup>7</sup>. Bunga qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, ayni hodisa Mirkarim Osim, Uyg‘un va Izzat Sulton asarlarida ham qisman namoyon bo‘lgan. Umuman, XX asr adabiyotida yuzaga kelgan Navoiy obraziga oid badiiy tasvirlar uchun mafkura tazyiqi bilan tarixiy faktlarni buzib talqin etish hodisasi xos.

Ta’kidlash joizki, tarixiy siymolarning badiiy talqini muammosi jahon adabiyotshunosligining muhim ilmiy muammolari sirasiga kiradi. Faqat yozuvchi va shoirlarning o‘ziga bag‘ishlangan ilmiy ishlar hajmini bor qamrovi bilan tasavvur qilish ham oson emas. Bu jarayonda turli janr imkoniyatlarining o‘rni masalasi esa alohida ahamiyatga molik.

---

<sup>7</sup> Мирзоев А. Камал ад-Дин Бинаи. – Москва: Наука, 1976. – С. 363.



Tarixiy mavzu–zamonaviy adabiy-estetika ehtiyoj mahsuli. Badiiy adabiyotning bosh vazifasi, odam va olam haqidagi haqiqatlarning badiiy ifodasini yaratishdan iborat bo‘lib, tarixiy mavzu mana shu silsilaning tarkibiy bo‘lagi hisoblanadi. “...tarixiy temaga qo‘l urgan yozuvchi o‘tmish hayotdan bugungi hayotimizga bog‘liq, aniqrog‘i, hayotning barpo bo‘lishiga xizmat qilgan tomonlariga nazar tashlaydi. Tarixni yaratishda yozuvchi yoki san’atkorning realistik quvvati bugungi hayotning tarixdagi ildizini aniq ko‘ra bilishda va haqqoniy aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Zotan, tarixning bugungi hayot tasdiqlaydigan tomoni, tarixiy davrning ilg‘or tendensiyalari – go‘zalliklaridir”<sup>8</sup>. Adabiyot nima uchun yaratiladi, badiiy asarni yozish va u bilan boshqa odamlarning tanishishi nima uchun kerak degan savollarga javob qanday bo‘lsa, nazarimizda, “tarixiy mavzu nima uchun tanlanadi” degan savolga ham shunga yaqin javob berilishi zarur, faqat bunda ayrim o‘ziga xosliklarni nazardan qochirmaslik lozim.

Falsafada “ehtiyoj” degan tushuncha bor. “Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo‘lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalarga bo‘lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida

---

<sup>8</sup> Қўшжонов М. Адабиётда эстетик категориялар. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-жилд. Адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 163.

taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir...”<sup>9</sup>. Albatta, ehtiyojlar tizimida adabiy-estetik xarakterdagilari alohida o‘rin tutadi. Insonning moddiy ehtiyojidan tashqari olam va odamga oid masalalarni yanada ko‘proq, buning ustiga zavq va huzur bilan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlari ham bor. Bu ko‘proq san‘at asarlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Ayni paytda insonda o‘z atrofida bo‘layotgan barcha hodisalar mohiyatini bilishga bo‘lgan doimiy ijtimoiy ehtiyoj ham mavjud.

Ehtiyoj bor ekan, uni qondirish zarurati ham yuzaga kelaveradi. Bu silsilada, tabiiyki, ajdodlar yodi, o‘tmishdan ibrat olish yoki o‘z muammolariga tarixdan javob izlash alohida o‘rin tutadi. Xuddi mana shu ehtiyojlar tufayli jamiyat a‘zolari turli ijtimoiy faoliyat bilan band bo‘lishadi. Kimdir o‘zi yashab turgan sharoit va muhit doirasida qo‘shimcha bilimlar olishga, ularning mag‘iz-mohiyatini anglashga intiladi, kimdir bu muammolarning tarixiy, ilmiy asoslarini izlaydi, kimdir uning san‘atdagi ifodasi ustida bosh qotiradi. Oxirgi toifani, nazarimizda, ikki guruhga ajratishga to‘g‘ri keladi: ijodkorlar va muxlislar. Ijodkorlar bu ehtiyojlarni boshqalarga qaraganda teran va nozik his etadi. Shuning uchun ularda bilganlarini ifodalashga bo‘lgan ehtiyoj ham ba-

---

<sup>9</sup>Ehtiyoj. URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ehtiyoj> (20.10.2021)

land bo‘ladi, ulardagi tabiiy iqtidor mana shunday yo‘l tutishga imkon beradi. Ikkinchi toifa esa ular yozgan asarlarning mohiyatini o‘rganish bilan kifoyatlanadi. Shunga qaramay, bu jarayon ancha murakkab bo‘lib, bunda san‘at asarini, jumladan, badiiy adabiyotni tushunish va his etishga oid “savqi tab” muhim ahamiyat kasb etadi. Bir asar haqida turli-tuman baholarning yuzaga kelishi mana shunday jihatlarga bog‘liq.

Tarixiy mavzudagi asarning yuzaga kelishi qadimdan adabiyotshunoslikning e‘tiborida bo‘lgan. Bu masala Aristotelning “Poetika”sidayoq kun tartibiga qo‘yilgan edi: “...tarixchi va shoir bir-biridan biri vazn – nazmda, boshqasi esa nasrda yozishi bilan(gina – G.A) farqlanmaydi, (Axir Gerodot asarlarini ham she’rga solish mumkin, biroq uning asarlari xoh nazm, xoh nasrda bo‘lsin, baribir tarixligicha qolaveradi). Tarixchi va shoir shu bilan tafovutlanadiki, ularning biri haqiqatan bo‘lgan, ikkinchisi esa bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea haqida so‘zlaydi. Shuning uchun poeziya tarixga qaraganda falsafiyroq va jiddiyroqdir: poeziya ko‘proq umumiy, tarix esa alohida voqealarni tasvirlaydi. Poeziyada qandaydir xarakter ehtimol yo zaruriyat tufayli bunday yoki unday so‘zlashi, harakat qilishi kerak. Mana shu umumlashuv deyiladi”<sup>10</sup>. Aristotelning xarakter-

---

<sup>10</sup> Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2011. – Б. 12.

ning ehtimol yoki zaruriyat tufayli soʻzlashi haqidagi qaydi tarixiy prototipning obrazga aylanish jarayoniga ham bevosita daxldor. Yaʼni ijodkor qahramonning tarixiy roli va u bilan bogʻliq real voqelikni qabul qilib, uni poeziya shaklida taqdim etishi kerak. Ijodkor tarixiy mavzuga qoʻl urar ekan prototipdan obrazgacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtishi, ham tarixiy haqqoniyat, ham oʻz ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi oraliqni topishi kerak. Badiiy umumlashmalarni tarixiy voqelikni buzmaganda holda taqdim etishni uddalashi zarur.

Tarixiy mavzu har bir xalq adabiyotidagi abadiy mavzular sirasiga kiradi, shu bois bu muammoga jahon adabiyotshunosligida alohida eʼtibor qaratiladi. Jumladan, V.E.Xalizev “badiiy asarlardagi falsafiy, ijtimoiy, maʼnaviy, diniy” ruknlar sanogʻida “tarixiy mavzu”ni<sup>11</sup> ham qayd etadi. Buni izohlashda esa muammoning bevosita qadriyatlar bilan aloqadorligini taʼkidlaydi: “Ak-sosfera” deb nomlanadigan qadriyatlar olami boy va rang-barang. Bu olamning markazini ontologik, yaʼni oliy qadriyatlar tashkil etadiki, ularga qarab moʻljal olish insoniyatning maʼnaviy olamini shakllantiradi. Barchasidan oldin bu turkumga bilishning oliy maqsadi boʻlgan haqiqat, maʼnaviyatning oʻzagi boʻlgan ezgulik, ilk estetik

---

<sup>11</sup> Хализев В. Е. Теория литературы: Учебник. 4-е изд., испр. и доп. – Москва: Высшая школа, 2004. – С. 110.

kategoriya bo'lgan go'zallik kiradi. Mana shu mantiqiy qatorda insonparvarlik, e'tiqod, ozodlik, adolat (haqiqat, to'g'rilik), shaxsiyat ham bor. Ontologik qadriyatlar ayrim toifadagi kishilar hamda ularning jamiyati uchun mo'ljal, o'ziga xos mayoq vazifasini ado etadi. Bu B.P.Visheslavsev topib aytganiday, rul emas, balki kompasdir”<sup>12</sup>. Darhaqiqat, qadriyatlar orasida shaxsiyat muhim o'ringa ega, aslida, mazkur kategoriya qolgan barcha qadryatlarni yuzaga keltiradi va ularga xos eng muhim sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Zamonaviy adabiyotda tarixiy mavzuga murojaat, tarixiy shaxslar badiiy obrazini yaratish jarayonining zamirida ham, aslida, qadriyatlar falsafasining tabiiy mantig'i va idealga intilish ilinji yotadi. Mustaqillik davri adabiyotida Navoiy shaxsiyati butun bir jamiyatga ma'naviy mayoq sifatida taqdim etilganida buning isbotini ko'rish mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligi ham adabiyotda tarixiy mavzuga murojaat, tarixni badiiy gavdalandirish masalalari tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratgan. Jumladan, akademik Izzat Sultonning kuzatishlari bu borada alohida o'rin tutadi: “tarix adabiyotni tushuntirib bergani kabi, adabiyotning o'zi ham xalq hayotini tushuntirib beradi”<sup>13</sup>.

---

<sup>12</sup> Там же. – С. 31.

<sup>13</sup> Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 14.

Olimning ta'kidlashicha, bunda yozuvchining tasvirlash tamoyiliga ayrim shartlar qo'yiladi: "muammolar muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq holda qanchalik chuqur yoritilsa, asarning qimmati shunchalik baland bo'ladi"<sup>14</sup>. Tabiiyki, bu jarayonda tarixiy mavzuning tasviri ham adabiyotning umumiy qonuniyatlaridan tashqarida qolmaydi: "Yozuvchi muayyan tarixiy davr va sharoitning mahsuli bo'lgan insonni tekshiradi, uning ruhiy holatlariga kiradi, ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur beradi. Bu vazifani badiiy adabiyot obraz yaratish yo'li bilan bajaradi. Obraz – insonning ozmi-ko'pmi batafsil tasviri bo'lib, u hayotdagi odamning jo'n nusxasi emas, balki yozuvchining ma'lum davr va sharoitda yashovchi inson haqidagi tasavvurining ifodasidir"<sup>15</sup>.

Akademik N.Karimovning tarixiy mavzuga yondashuvi esa ham adib, ham olim nuqtayi nazaridan amalga oshgani bilan e'tiborga molik. Olim Abdulla Qodiriy haqida mulohaza bildirar ekan, uning buyuk xizmatlaridan biri sifatida XX asr adabiyotiga "tarixiy davr va tarixiy muhit tasvirini olib kirgani"ni<sup>16</sup> qayd etadi. Olimning "XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va milliy istiqlol mafkurasi" tadqiqotida ham tarixiy mavzuning ayrim qir-

<sup>14</sup> O'sha yerda. – B. 44.

<sup>15</sup> O'sha yerda. – B. 52.

<sup>16</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб – Тошкент, "O'ZBEKISTON", 2008. – Б. 169.

ralari Cho'lon, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Usmon Nosir singari adiblar misolida izohlab berilgan<sup>17</sup>. U. Normatov tadqiqotlarida ham tarix va tarixiy shaxslarga oid muammo va mavzularning o'ziga xos tadqiqi ko'zga tashlanadi<sup>18</sup>. Q. Yo'ldosh tadqiqotlarining katta qismi mustaqillik davri adabiyoti namunalariga bag'ishlangan bo'lib, ularda tarix va tarixiy shaxsning badiiy talqinlaridagi o'ziga xosliklar teran tahlillarini topgan<sup>19</sup>.

H. Karimovning<sup>20</sup> tadqiqotlarida ham mustaqillikkacha bo'lgan davr adabiyoti misolida ushbu mavzuga oid qiziqarli mulohazalar bildirilgan. Ularning ayrim xulosalaridan mustaqillik davrida yaratilgan tarixiy mavzudagi asarlar tahlilida foydalanish mumkin. N. Rahimjonov ham muam-

---

<sup>17</sup> Ўша ерда. – Б. 346. Яна қаранг: шу нашр. – Б. 298-328; – Б. 348-359; – Б. 360-372; Қўшжонов М. Ҳаёт ҳақиқати ва бадий ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 60; Карим Ғулом. Соҳибқирон ва аллома. Тарихий қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 3-9; Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ями ўзбек дostonлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Самарқанд: 2004. – 258 б; Сабирдинов А. Ойбек дostonларининг бадий-услубий хусусиятлари. – Тошкент: Истиклол, 2003. – Б. 5-26; Ёкубов И. Бадий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент: 2011. – Б. 38-348.

<sup>18</sup> Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. Адабий-танқидий мақолалар, эссе, хотира ва суҳбатлар. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2015.

<sup>19</sup> Ўлдosh Қозoқбой. Ёниқ сўз. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006. – Б. 402-416; 441-454; шу муаллиф. Моҳият реаллиги ифодаси. – // Асад Дилмурод. Паҳлавон Муҳаммад. Роман. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 417-431.

<sup>20</sup> Каримов Ҳ. Истиклол даври адабиёти. Дарслик. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2010. – Б. 247-265; шу муаллиф. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). – Тошкент: “Yangi nashr”, 2018. – Б. 24-58.

mo talqinidagi o‘ziga xos yondashuvlari bilan ajralib turadi<sup>21</sup>. Tarixiy sharoit va badiiy ijod muammolarining ayrim qirralari Sh. Hasanov, D. Tajibayeva, I. Jabborov, G‘. Murodov tadqiqotlarida<sup>22</sup> ham ko‘zga tashlanadi. Ular bildirgan ayrim mulohazalarni Alisher Navoiy siymosi aks etgan asarlarga nisbatan ham tatbiq etish mumkin.

Qayd etish lozimki, tarixiy siymolar hayoti va ijodi ijodkorlarning ko‘pi uchun sevimli mavzu. Ayniqsa, Alisher Navoiy siymosi haqida qalam tebratganlardan ko‘ra, bu haqda yozmagan ijodkorlarni sanash osonroq. Alohida tarixiy asarlarda o‘sha davr va alohida shaxs timsolida (masalan, Alisher Navoiy siymosida) vatanga, millatga fidoyilik, umuminsoniy tuyg‘ular tasviri ustuvorlik qiladi. Hatto Husayn Boyqaro bilan do‘stlik munosabatlari tasvirlarida ham mualliflar bu tuyg‘ularning yurt va vatanga muhabbat bilan eshligi, yaxlitligini urg‘ulashadi. Ushbu jarayondagi yuksak axloqiy-ma’naviy sifatlar bilan tarixiy fakt va haqiqatlar o‘rtasidagi tabiiy uyg‘unlik Alisher

---

<sup>21</sup> Раҳимжонов Н. Бадий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008; Каримов Ҳ. Пиримкул Қодиров ижодий олами. – Тошкент, “ТАФАККУР”, 2020, – Б. 540; шу муаллиф. Аскар Маҳкам феномени. – Тошкент, “Yosh avlod matbaa”, 2022. – Б. 324.

<sup>22</sup>Qarang: Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Самарқанд: 2004; Тажибаева Д. Э. XX асрнинг сўнгги чораги ўзбек шеъриятида поэтик услуб муаммолари. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Жабборов И. Абдулла Орипов шеъриятида тарихий шахс талқини. – Тошкент: Фан, 2008; Мurodov F. Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. Филол. фан. док-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2018.



Navoiy siymosining go‘zal va salobatli obrazlarini paydo qildi.

Badiiy adabiyotda tarixiy shaxs tasviri bir necha alohida xosliklarga ega. Tarixiy shaxs tasviridagi o‘ziga xoslikning asosi shundaki, unda mavzu aniq va uning qamrov, chegarasi ham taxminan belgili, ammo “aniqlik” va “chegaralarning belgili” ekanligiga qaramay, uning butun hududini tasavvur qilish imkonsiz. Ayni paytda, aniqlik va chegaralanganlik ijodkorni o‘z izmida tutib turadi.

Tarixiy shaxs talqinida qahramonlarning “bugunimiz uchun qadrli va qimmatli bo‘lgan xususiyatlarini badiiy talqin markaziga tortish”<sup>23</sup> ham muhim o‘rin tutadi. Shu maqsad taqozosi bilan jalb etilgan tarixiy fakt va materiallar tasviri ham o‘ziga xos yondashuvlar tizimi bilan ajralib turadi. Bu boradagi tanlov asarning hayotiy, jonli, ta’sirchan bo‘lib kitobxonga huzur bag‘ishlashini ta’minlaydi. Nazarimizda, yozuvchi Risolat Haydarova buni juda ixcham va ta’sirchan ifodalay olgan: “Tarixiy mavzuda bitiladigan asarda tarixiy voqelik, obrazli qilib aytganda, go‘yo bir avra va astar, xolos. Mag‘iz va bichim esa badiiy asarga qo‘yiladigan bosh mezon – badiiylkdir”<sup>24</sup>.

Tarixiy shaxsning badiiy siymosini yaratish yo‘li murakkab va mas’uliyatli. Bunday mavzuga

<sup>23</sup> Назаров Б. Барҳаёт асар. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: “MASHHUR-PRESS”, 2019. – Б. 6.

<sup>24</sup> Тарихий ҳақиқат, бадий тўқима ва уйдирма. URL: <http://uchildiz.uz/тарихий-ҳақиқат-бадий-тўқима-ва-уйди/> (10.12.2019)

murojaat bevosita millat taqdiri bilan bog‘lanib ketadi. N. Karimov bu haqda shunday yozadi: “Har bir milliy adabiyotning o‘ziga xosligi va millat oldidagi tarixiy vazifasini belgilovchi narsa tarixiy mavzudir. Agar asrlar davomida tug‘ilib, shakllanadigan har bir avlod o‘z millati tarixini bilmasa, nafaqat shu avlod, balki butun bir millat ma’naviyat va madaniyat olamidan chetda yashaydi. Shunday vaziyat yuzaga kelmasligi uchun yozuvchilar tarixiy mavzuga murojaat etadilar va tarixiy mavzu har bir milliy adabiyotning yetakchi mavzusi bo‘lib qoladi”<sup>25</sup>.

Har qanday daho, avvalo, o‘zini o‘rab turgan muhitda tarbiyalanib kamolga yetadi, shu jihatdan olib qaraganda, Navoiy shaxsini shu darajasiga olib chiqqan omillardan biri, shubhasiz, u yashagan tarixiy-madaniy sharoit, adabiy muhit edi. Buyuk shoir va mutafakkir shaxsiyatining shakllanishini, avvalo, temuriylar davlatchiligining hosilasi sifatida qarash kerak. Navoiy ham siyosiy arbob sifatida amaliy ishlari, ham qalamkash sifatida badiiy asarlari bilan jamiyat, xususan, davlat arboblarning dunyoqarashini o‘zgartirishga harakat qildi. Mazkur real haqiqatlar shoir haqidagi asarlarda buzilmasligi, aksincha, go‘zal bir shaklda qayta badiiy jonlanishi kerak. Badiiy to‘qimalar ham mana shu umumiy doiradan chetga chiqmasligi zarur.

---

<sup>25</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб – Тошкент, “О‘ЗБЕКISTON”, 2008. – Б. 536.

Tarixiy asarlardagi fakt va hayot haqiqati bilan badiiy talqin o'rtasidagi mutanosiblik xilma-xil, hatto mutlaqo ikki qutbda bo'lishi ham mumkin. Masalan, Nizomiy va Navoiylar tasvirlagan Iskandar adolatli, insofli, xalqparvar va darveshtab obraz sifatida tasavvur hosil qiladi:

*Dedikim: Manga ganj emastur havas,  
Sipoh-u raiyat manga ganj, bas*<sup>26</sup>.

Aslida ham shunday bo'lganmi? Antik davr tarixchilarining Aleksandr haqidagi romanlarini o'rgangan I. Ismoilovning yozishicha, "Osiyo yurishining asosiy sabablaridan biri boylik orttirish bo'lgan. Agar shon-sharaf, hukmdorlik, adolat o'rnatish buyuk harbiy yurishlarning siyosiy maqsadi bo'lsa, keng imkoniyatlarga ega bo'lish, mamlakatlar va ularning qimmatbaho narsalarini o'zlashtirish hisobiga boyish harbiy yurishlarning iqtisodiy maqsadi bo'lgan. Aksar antik tarixchilar Osiyo yurishining siyosiy maqsadlariga urg'u berishgan bo'lsa, Ruf ulardan farqli ravishda iqtisodiy maqsadlarni ham ochiq qayd etadi<sup>27</sup>. Yunon-u makedonlarning Osiyoni zabt etib boyish istagi, qasos haqidagi orzulari ifodalangan bashoratomuz epizodlar, turli follar

---

<sup>26</sup> Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – B. 152.

<sup>27</sup> Руф Квинт Курций. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. редактор А. А. Вигасин. – Москва: Изд-во МГУ, 1993. – С. 200.

tasviri keyinchalik sharqlik ijodkorlar asarlarida tushirib qoldirilgan. Ya'ni Aleksandr timsoli Sharq tarixi, adabiyotiga turlicha moslashtirish, qayta ishlashlar bilan o'tgan. Aleksandr va yunon-makedonlarning Osiyo haqidagi yomon tasavvurlari, orzu-armonlari tasviri ham Sharqda xiralashib ketdi yoki batamom tashlab yuborildi. Shu bois xamsanavislarning Iskandar haqidagi dostonlarida yunon tarixchilari zo'r berib yozgan Osiyo va uni zabt etish haqidagi bashoratlar, orzu-armonlar ifodasini uchratmaymiz"<sup>28</sup>. Bu – tarixning badiiy adabiyot mulkiga aylanish jarayonida mana shunday o'ziga xosliklar kuzatilishiga yorqin misol. Ko'rinib turganidek, sharqlik adiblarning Iskandar obraziga oid talqinlari (boylik masalasida) tarixiy haqiqatdan tubdan farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, o'tmish mavzusidagi asarlardan tarixiy fakt va badiiy talqin muvofiqligini talab qilish qanchalik tabiiy bo'lsa, ularda bu ikki hodisaning mutlaqo zid kelishi mumkinligi ham shunchalik mantiqli. Chunki mavzu tarixiy xarakterda bo'lsa ham uni qayta ishlayotgan, badiiy kashf etayotgan inson – ijodkor. U masalaga bugunning ko'zi bilan qaraydi, zamonining saviyasi va tafakkuri bilan fikrlaydi va o'z ijodiy konsepsiyasi asosida qayta tasvirlaydi. Shu ma'noda, zamonaviy ijodkorning ba'zida

---

<sup>28</sup> Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезиси ва поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 43.

ijobiy va ijodiy maqsad taqozosi bilan tarixiy fakt va voqelikni qisman “buzib” talqin etishi normal holat hisoblanadi.

Inson tabiatida tarixiy mavzu va tarixiy shaxslarga qiziqish bo‘ladi. Birinchidan, bu insonning tabiatidagi hamma narsani bilishga intilishi bilan izohlansa, ikkinchidan, o‘z ajdodlarining shonli tarixiga daxldorlik hissi bilan belgilanadi. Bularning yonida ajdodlarning turli jabhadagi tajribalari bilan yaqindan tanishish orqali o‘zi uchun to‘g‘ri yo‘lni belgilab olish ham turadi. Ayni mana shu hodisalar mohiyatini puxta o‘zlashtirish bugungi zamondoshning ertangi rejalarini tuzish va amalga oshirishida asqotadi.

Tarixiy hodisa yoki tarixiy shaxslar tasviri, dastlab, o‘sha hodisalar yuz bergan tarixiy muhit yoki muayyan tarixiy shaxs yashagan davr haqidagi ma’lumotlarni ham taqazo etadi. Tarixiy muhit muayyan hodisaning o‘tmish bag‘ridagi butun murakkabliklari, sharoiti, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, shu hayot bag‘ridagi tabiat va jamiyat, alohida shaxslar va u mansub bo‘lgan jamiyatning o‘y-orzulari, turli holatlarini tasavvur va tasvir qilishni anglatadi. Bularning barchasi garchi alohida olingan bir shaxs – ijodkor tomonidan amalga oshirilishiga qaramasdan ushbu jarayonning ijodiy natijasi boshqalarga, ya’ni ijodkorning zamondoshi bo‘lgan kitobxonlarga havola etiladi. Xuddi mana

shu holat tasvirga olingan hodisalar mantig'ini, ulardagi tasvir maromining muayyan mezon va talablar bilan uyg'un bo'lishini taqazo etadi. Jumladan, tasvir haqqoniyligi, uning ishontirish kuchi, tarixiy fakt va dalillardan foydalanishdagi me'yor, tabiiyki, badiiy til unsurlarining tarixiy mavzuni yoritishdagi ishtiroki va hokazolar uyg'unligini ham ko'zda tutadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hirot shahriga borganida Alisher Navoiy dunyodan o'tganiga ham bir necha yillar bo'lib qolgan edi. Bobur bir necha hafta Navoiy yashagan Unsiya uyida yashaydi. U o'sha tarixiy uy holatini o'z ko'zi bilan ko'rgan odam. Ammo, afsuski, u uyning na ichki, na tashqi tavsifini bergan emas. Uy haqidagi bor-yo'q gap mana bunday: "Bog'i Navda bir kecha bo'ldum, ani munosib ko'rmay Alisherbekning uylarini ta'yin qildilar. Hiriydan chiqquncha Alisherbekning uylarida edim"<sup>29</sup>. Bu yerda interer tasviri: uyning tuzilishi, shakli, hajmi, jihozlari haqida gap yo'q. Shunga qaramay, oradan besh-olti asr o'tganidan keyin ayni mana shu epizod badiiy asarlarda paydo bo'la boshladi. Endi bu holat ijodkorning tasavvuridagi manzara tasviriga aylanganini sezish qiyin emas. Xususan, To'lan Nizomning "Navoiy yashagan uyda"<sup>30</sup> she'rida ayni holat uchraydi.

<sup>29</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарк, 2002. – Б. 144. (336 бет)

<sup>30</sup> Низом Тўлан. Навоий яшаган уйда. // ЎзАС, 2016, 15 апрель, № 16 (4363).

She'r sarlavhasining o'ziyoq e'tiborni tortadi. Shoir nima uchun qator poetik detallardan aynan "uy"ni tanlab olgan. Uning tanlash imkoniyatida "imorat", "qasr", "koshona", "kulba" singari so'zlar ham mavjud edi. Nazarimizda, "uy" mazkur sinonimik qatorda o'zining nisbiy neytralligi, xalqonaligi bilan xoslanib turadi. Ayni jihatlar shoir uchun Navoiy siymosini chizishda ko'proq xizmat qiladi. Birinchi misrada Boburning Navoiy siymosini ko'rishga bo'lgan so'ngsiz ishtiyoqi samimiy aks etgan. Shoir bu uchun Alisher Navoiyning uyiga oid "poetik jihoz"larni yaxshi topgan:

*Boburshoh Navoiy yashagan uyda,  
Besh doston – "Xamsa"ni naqshlagan uyda,  
Asl javohirot – "Chor devon"ini  
Turkiy el poyiga tashlagan uyda –  
Bir oy tunab qoldi, kecha-yu kunduz  
Hazrat ruhi bilan so'zlashdi tanho:  
Pirim, oxir keldim, qani qaydasiz?  
Bu kun kulbangizga yo'l berdi Xudo<sup>31</sup>.*

So'ng Boburshoh kechinmalari tasviriga o'tiladi. Albatta, bu kechinmalar ham yana Navoiy bilan bog'lanadi. Buning uchun esa buyuk mutafakkirning ustozlari, Navoiy ilhom olgan manbalar, shogirdlari, do'stlari, ularga aloqador bo'lgan

<sup>31</sup>Хазрат Навоийга эҳтиром. Шеърлар, дostonлар, мухаммаслар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Р.Мусурмон, Г.Ашурова. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 69.

nuqtalar tilga olinadi. Bu uydagi jihozlar “yashar egasidan ayro noiloj...”, “gulchinsiz gulzorlar, bulbulsiz chorbog’”, “Tun bo‘yi qo‘riqlab, yurib chiqar oy” ham poetik topildiqlar qatorida sanalishi joiz.

Shundan keyin tasvir maromi o‘zgaradi. Shoir poetik fantaziyaga keng o‘rin bera boshlaydi: “Hushyor tortdi zamin, ko‘k – yetti qavat, Tashqida sezildi yengil bir qadam”. Tabiiyki bu qadam egasi Hazrat Navoiy edi. U o‘z qahramonlari kuzatuvda kirib kelmoqda:

*Eshik lang ochildi. Farhod va Shirin,  
Layli Majnun ila bo‘ldilar paydo.  
Qushlar to‘lib ketdi surib bir-birin,  
Navoiy ko‘rindi tutganча aso<sup>32</sup>.*

Mumtoz adabiyotda talmeh deb yuritiladigan mazkur she‘r san‘ati, ayni paytda kitobxonni tarix sari yetaklaydi, qadimiy dostonlarning ajoyib qahramonlari tarixi va taqdirini eslash orqali shoir muddaosini ilg‘ashiga yordam beradi. Ushbu she‘rda “Navoiy yashagan uy”ning obrazi chizib beriladi. Aslida, bu uy haqida yuqoridagi qayddan boshqa hech qanday fakt mavjud emas. Ushbu misol ham tarixiy fakt va badiiy talqin munosabatini, ham tarixiy mavzudagi asarlarda badiiy to‘qimaning o‘rnini anglashga yordam beradi. Bularning barchasi tarixiy mavzudagi asarlarning yaratilishi

---

<sup>32</sup> Шу нашр. – Б. 75.



hamda ularning badiiy talqiniga oid o‘ziga xosliklar haqida tasavvurlarni oydinlashtiradi.

Professor Ummat To‘ychiyevning yozishicha, “IX asrda yashagan arab filologi Ibn al-Mu‘tazz suyangan fikrga qaraganda, arabcha “badaa” masdari (fe’li), “yangilik” degan ma’noni bildiradi. “Badiiylik” iborasi esa go‘zallik, ohorlilik, nafislik demakdir”<sup>33</sup>.

Ayni mana shu aqida tayanch nuqta – badiiy obraz yaratilishidagi eng muhim shartlardan biridir. Har qanday obraz mana shu xislatiga ko‘ragina kitobxon uchun manzur bo‘ladi. Tarixiy obraz yaratish haqida gap ketganida ham xuddi mana shu mezon uning o‘zak mohiyatini tashkil etadi. Alisher Navoiy obrzini yaratishda ham bosh mezon xuddi shudir. Zero, bu borada shu paytgacha yaratilgan ko‘plab badiiy asarlar orasidagi bog‘lanishlar ham ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlar me‘yoriga qarab belgilanadi.

Bu jarayonda Navoiy obrazining tasviri uchun asos bo‘lgan tayanch manbalar alohida o‘rin tutadi. Nazarimizda, Navoiy obrazini yaratishda mustaqillik davri ijodkorlari uchun zarur bo‘lgan manbalar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

1. Ijodkorning olam va odamga nisbatan umumiy qarashlarining mazmun va mohiyati.

2. Qalamkashlarning adib asarlarini o‘rganishdagi mavjud holati.

<sup>33</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2011. – Б. 3.

3. Ularning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid manba va materiallar bilan tanishish darajasi.

4. Alisher Navoiyning hayot va ijodi haqida yaratilgan ilmiy, tarixiy va adabiy fakt va materiallar bilan tanish yoki tanish emaslikning umumiy holati.

5. Buyuk adib haqida yaratilgan folklor manbalaridan foydalanish darajasi.

6. O‘zbek va jahon olimlarining Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida yaratgan ilmiy-adabiy tadqiqotlari.

7. XX asrda yaratilgan ilmiy, ilmiy-ommabop hamda badiiy asarlar tizimi.

8. Alisher Navoiy haqida asar yozayotgan ijodkorning o‘z salaflari yoxud zamondosh ijodkorlar tajribasiga bo‘lgan munosabatlari.

Mazkur ilmiy muammolarning asosiy qismi nazariy jihatdan birinchi bobda, amaliy jihatdan esa keyingi boblarda atroflicha ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Alohida ta’kidlash joizki, ijod ahlining birortasi Alisher Navoiy badiiy siymosini yaratishi ayni mana shu muammolarni chetlab o‘tgan emas. Aslida, ijodkorning adabiy-poetik mahorati ham mazkur muammolarning hal etilish darajasiga qarab begilanishini e’tirof etish joiz bo‘ladi. Olimlar va ijodkorlarning, tabiiyki, navoiyshunos olimlar va shu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlarning,

shuningdek, ijodkorlarga yaqin bo'lgan alohida shaxslar va adabiy munaqqidlarning o'zaro suhbat va muloqotlari bu borada ko'plab mulohaza, kuzatishlarni o'zida mujassam etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Alisher Navoiyning o'zidan boshlab, ko'plab so'z ustalari (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek, P.Qodirov, E.Vohidov, A.Oripov va b.)ning kuzatish va ma'lumotlari, navoiyshunos olimlarimizning mulohzalari ushbu fikrning tasdig'i uchun qo'shimcha dalil bo'la oladi.

Zamonaviy adabiyotda tarixiy material va prototipni badiiy voqelik – obrazga aylantirish jarayoni bir necha jihatlarga tayanadi. Bu jarayonda tarixiylikni ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri sifatida yozuvchining tili, uning qahramonlari tilidagi ifodasi ayricha o'rin tutadi. Inson nutqi esa o'zi yashab turgan ijtimoiy-ma'naviy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Qahramon nutqi tarixiy muhit, tarixiy sharoitdagi holatni tasvirlash va tasdiqlash uchun ko'proq xizmat qiladi. Ayni paytda u qahramonni zamonamiz bilan yaqinlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Tarixiy asarning zamonaviyligi, ehtimol, bir jihatdan ayni mana shu nuqtalarga ham bog'liq. “Badiiy obrazni yaratish jarayoni dastlab, materiallarning qat'iy, saralanishi demakdir: san'atkor tasvirlanayotgan obrazning

eng xarakterli jihatlarini oladi, barcha tasodifiy narsalardan voz kechadi, u yoki bu qirralarini to‘liq yorqinlashtirganiga qadar yiriklashtirish yoki o‘tkirlashtirish hisobiga rivojlantirib boradi”<sup>34</sup>. Mana shu muhim talablar sirasida inson, aniqrog‘i, qahramon nutqi ham mavjudligini ta’kidlash zarur.

Har qanday yozuvchi tasvir davomida nutqning funksional-mantiqiy tiplariga murojaat qilib boradi. Ular ko‘proq tavsif, hikoyalash, mulohaza shakllarida namoyon bo‘ladi. Tavsif muayyan narsa hodisa, makon yoki zamonni, alohida yoki bir necha shaxslarning so‘z vositasidagi tasvirlaridir<sup>35</sup>. Hikoyalash hodisalar haqidagi hikoyadir. Hikoyalashning matni – turli harakatlar, hodisalarni izchil ko‘rsatib berish deganidir<sup>36</sup>. Mulohaza esa muayyan fikrni so‘z vositasida bayon etish, tushuntirish, izohlash va tasdiqlashdan iborat<sup>37</sup>. Ayni mana shu shakllar adabiy qahramon va unga bog‘liq bo‘lgan tasavvurlarning to‘liq yoki to‘liq bo‘lmasligiga sabab bo‘lishi mumkin<sup>38</sup>. Shu ma’noda til faktori tarixiy mavzu talqinida

---

<sup>34</sup>Введение в литературоведение. Под общей редакцией Л.М.Крупчанова. – М.: ОНЙКС, 2009. – Б. 40.

<sup>35</sup> Bu haqda qarang: Русский язык и культура речи. Семнадцать практических занятий. Под редакцией Е.В.Ганапльской, А.В. Хохлова. – СПб: Питер, 210. – С. 48.

<sup>36</sup> Там же.

<sup>37</sup> Там же.

<sup>38</sup>Qarang: Эрматов Б.С. Фарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талкинлар): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 12-13.

juda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy mavzuga qo‘l urgan ijodkor oldida hayot haqiqati va tanlov imkoni turadi. Badiiy talqin jarayonida real haqiqatlar bilan hisoblashmaslikning imkoni yo‘q. Bu holatda kitobxonga ma‘qul mezonni topa bilish jiddiy izlanish, mahorat talab qiladi, ammo badiiy talqin har doim ham hayot haqiqatlariga muvofiq bo‘lmasligi mumkin. P. Qodirov badiiy ijoddagi ayni holatni shunday qayd etadi: “Shayboniy-noma” dostonining bir bobini “ul hazratning hilm (halimligi, rahmdilligi)” deb ataladi:

*“Harna kelsa kechirur hilm bila,  
Lutfjomin ichirur hilm bila”.*

Ammo boshqa tarixiy manbalar Shayboniyxonning o‘rni bilan o‘ta shafqatsiz bo‘lganidan ham dalolat beradi. Uning sobiq ittifoqdoshi va qarindoshi Mahmudxon birinchi marta mag‘lub bo‘lganda Shayboniyxon uning Toshkentdagi mol-u mulkini talaydi, o‘n olti yashar qizini o‘ziga nikohlatib oladi, yana bir qizini o‘g‘li Temur Sultonga o‘lja qilib beradi, singlisini Jonibek Sultonga nikohlaydi”<sup>39</sup>.

O‘z-o‘zidan gap hayot haqiqati va tanlov imkoniyati ustida bormoqda. Ijodkor qalamga olayotgan mavzu ustida uzoq ishlaydi, tegishli fakt va materiallarni to‘playdi, ularni saralaydi, guruhlariga bo‘ladi. Ana endi bularning qay

<sup>39</sup> Qodirov P. Тил ва эл. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – Б. 4.

biridan qay tarzda foydalanish muammosi ro'para keladi. Birgina misol: Alisher Navoiy va bizning zamonamiz o'rtasidagi ayirma muddat nuqtayi nazaridan oz emas. Uni hatto juda katta vaqt deyish mumkin. Shunga qaramasdan, Alisher Navoiy zamonini, zamondoshlarini, u yashagan muhitni tasavvur qilish uchun ko'plab omillar mavjud. Jumladan:

- 1) Navoiyning o'z asarlari;
- 2) Zamondoshlari qoldirgan ilmiy, tarixiy va adabiy asarlar;
- 3) Turli xil adabiy-tarixiy yozishmalar.

Ta'kidlash joizki, ijodkor uchun bu omillarning barchasi muhim ahamiyatga ega. Ammo, shunga qaramasdan, ulardan foydalanish jarayonida bir qator o'ziga xosliklar uchraydi. Bu boradagi eng asosiy omil sifatida, nazarimizda, quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Asarning janr xususiyatlari.
2. To'plangan va tanlangan materiallarning ijodiy tasnifi.
3. Ijodkorning saviyasi va poetik mahorati.

Asarning janr xususiyatlari ham ko'p narsani belgilaydi. She'r, nasr yoki dramatik turga mansublik o'z-o'zidan yondashuvlar tabiatini ham aniqlab beradi.

Hayotiy voqea-hodisalar badiiy asar ruhiga tabiiylik, samimiylilik, real hodisani aniq tasavvur

qildirishdan tashqari, ishonch va go‘zallik ham singdiradi. Masalan, Habibulla Qodiriy otasi-ning ijodiy izlanishlari borasida gapirganida, quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi: “Qodiriy asarni ishonchli tasvirlashga qanchalik e‘tibor berganlari haqida “Yozuvchi o‘z ishi to‘g‘risida” nomli maqolasida shunday misol keltiradilar: “O‘tkan kunlarni yozish chog‘ida Marg‘ilonga borganimda, bir ko‘chadan o‘ta turib, nomozshom mahalida, dog‘ qilinayotgan zig‘irning hidi burnimga urildi, men buni esda tutib qolishga tirishdim. “O‘tkan kunlar”ning bir joyiga shu kichkina detalni kirgizilganida, berilayotgan tasvirning yana ham ishonarli bo‘lib chiqqani esimda”<sup>40</sup>.

Tarixiy muhit tasviri, xususan, tarixiy joylar, shaxslarning nomlari, istorizm va arxaizmlar, peyzaj, interer tasviridagi narsa va jihozlarning nomlari, ayrim urf-odatlar tasviri o‘sha tarixiy sharoitni tasavvur qilishda ko‘mak beruvchi unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif ko‘zda tutgan ideal obraz esa mana shu realliklarni to‘ldirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. “Alohida olingan ijodkorning prototipga munosabati esa asarning “konkret tarixiy-adabiy tahlilidagina” aniqlanadi”<sup>41</sup>.

Tarixga, tarixiy shaxsga har bir davr o‘z sharoiti va muhitidan kelib chiqib yondashadi. Bun-

---

<sup>40</sup> Қодирий Ҳабибулла. “Ўткан кунлар” // Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Роман. – Тошкент: SHARQ, 2014. – Б. 396.

<sup>41</sup> URL: <http://www.feb-web.ru/feb/litenc/encyclop/> (05.02.2021)

da mafkuraviy qarashlardan tashqari ijodkor shaxsining xosliklari ham tegishli rol o‘ynaydi. Dunyo adabiyoti tarixida bunga yaxshi bir misol bor: “Napoleon Bonapart XIX asr jahon tarixidagi eng yorqin shaxsiyatlardan biri hisoblanadi. Napoleonning hukmronligi davrida va undan keyin uni yaxshi ham ko‘rishgan, yomon ham ko‘rishgan. U jahon ayvonidan ketganidan keyin unga kitoblar bag‘ishlay boshlashdi, mashhur yozuvchilar Napoleonnini o‘zlarining qahramonlari qilib olishdi, shoirlar uni o‘z she‘rlarida maqtashdi yoki yerga urishdi. Napoleon jahon adabiyotida yoqimsiz figura bo‘lib qoldi”<sup>42</sup>.

Yoki yozuvchi Aleksandr Lazarevning (1861–1927) eslashicha, “Peterburg gazetasi” uchun bir necha hikoyalarni, “Dasht” qissasining bir necha sahifalarini Chexov aynan u bor paytda qog‘ozga tushirgan ekan. Bir gal u A.P.Chexovning ish stolidagi qayd daftarida juda ko‘p qiziqarli fakt va detallarning yozib qo‘yilganini ko‘radi. Ular orasida “Barcha malla kuchuklar tenor ovozda huradi”, degan qayd ham mavjud ekan. “Bu gapni ko‘p o‘tmay “Dasht”ning so‘nggi sahifalarida uchratdim”, – deb yozgan ekan u<sup>43</sup>.

---

<sup>42</sup> Гребенкина Е. Образ Наполеона в стихотворениях поэтов XIX века. URL: <https://nashahistory.ru/materials/obraz-napoleona-v-stihotvoreniiyah-poetov-xix-veka> (03.11.2020)

<sup>43</sup> Ориф Толиб. Mashhur ёзувчилар қандай ижод қилган? URL: <https://saviya.uz/hayot/mashhurlar-hayoti/mashhur-yozuvchilar-qanday-ijod-qilgan/?imlo=k> (01.07.2022)



Aslida, asarning qaysi mavzuga bag‘ishlanganidan qat’iy nazar, unda insoniyatning hozirgi muammolariga u yoki bu darajada daxl etiladi. Tarix bahona zamonaviy muammolar borasidagi mulohazalar o‘z badiiy ifodasini topadi. Bu jihatdan M. Qo‘shjonovning quyidagi mulohazalariga qo‘shilish mumkin: “...tarixiy temaga qo‘l urgan yozuvchi o‘tmish hayotdan bugungi hayotimizga bog‘liq, aniqrog‘i, bugungi hayotimizning barpo bo‘lishiga xizmat qilgan tomonlariga nazar tashlaydi. Tarixni yaratishda yozuvchi yoki san’atkorning realistik quvvati bugungi hayotimizning tarixdagi ildizlarini aniq ko‘ra bilishida va bu ildizlarni haqqoniy aks ettira bilishida namoyon bo‘ladi. Zotan tarixning bugungi hayotimizni tasdiqlaydigan tomonlari, tarixiy davrlarning ilg‘or tendensiyalari – go‘zalliklaridir”<sup>44</sup>. Ayni holat Alisher Navoiy hayoti va uning o‘ziga xos ruhiy olamini ko‘rsatib berishda Navoiy asarlari yoki o‘sha zamon ijodkorlarining asarlarida aks etgan voqealarga murojaatda ham ochiq ko‘rinadi. Buning yorqin misolini Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida keltirilgan bir voqea tasvirida kuzatish mumkin: “Bir yili qish faslida adolatli Sohibqiron Marvda qishlagan, olam ulug‘larining pushti panohi bo‘lmish ul Hazrat esa uning

---

<sup>44</sup> Қўшжонов М. Адабиётда эстетик категориялар. Адабиёт назарияси. Ики томлик. 2-жилд. Адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 163.

osmon bilan bo‘ylashgan qarorgohida xizmatda bo‘lgan chog‘ida bir musicha bir necha marta ul hazratning chodiriga uchib kirdi va hech kim unga tegmaganidan keyin o‘sha yerda in qurib, tuxum qo‘ydi.

Sayyoralar podshohi hut qishxonasidan o‘zining buyuklik va ulug‘lik manzili tomon harakat qilgach, sohibqiron Sulton saltanat poytaxti Hirrotga qarab yo‘l oldi. Biroq bu paytda o‘sha musicha qo‘ygan tuxumlar hali ochilmagan edi.

Shu sababli ul oliy hazratning tabiatida mavjud bo‘lgan rahmdillik va undagi tug‘ma xislat bo‘lgan yumshoqko‘ngillik o‘sha musicha jo‘ja ochib, bolalarini katta qilmaguniga qadar ushbu chodirni yig‘masdan shunday qoldirishni taqozo qilib qoldi. Shunga ko‘ra, [ul hazrat] Xoja Hasan Baxtiyorga ushbu chodirga ko‘z-quloq bo‘lib turishni, musicha bolalarini uchirganidan keyingina uni o‘zining xizmat haqi sifatida o‘zi bilan birga olib ketishini buyurdilar.

Xoja Hasan Baxtiyor bu yumushni bosh ustiga qabul qilib, musicha bolalarini katta qilib olguniga qadar o‘sha jonivorga ko‘z-quloq bo‘lib turdi va shundan keyingina u chodirni yig‘ib oldi”<sup>45</sup>.

Tarixiy faktning tafsiloti mana shundan iborat.  
Ayni mana shu detal Alisher Navoiy siymosini

<sup>45</sup>Ғиёсиддин Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. Форс тилидан Комилжон Раҳимов таржимаси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 97.

yoritishda ko‘plab ijodkorlar uchun qo‘l kelgan. Mazkur detal mutafakkir adibning sergak va hushyorligi, faqat insonlarga emas, balki butun jonzotlarga bo‘lgan mehr-u muhabbatining chek-u chegara bilmasligini ishonchli va ta’sirchan tarzda tasvirlashda qo‘shimcha imkon bergan. Navoiy obrazida rahmdillik sifati tajassum topishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ushbu tarixiy faktdan Oybek, Isajon Sulton va boshqalar unumli foydalanishgan. Muhimi, ular tufayli badiiy asarlarda qo‘shimcha axborotgina emas, balki Alisher Navoiy shaxsiyatiga oid samimiyat, mehr-u muhabbatning cheksizligiga kitobxon e’tiborini qaratishning munosib shakli topilgan. Asarning ishontirish kuchi, inson ongi va ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri favqulodda ortgan.

Chumoli detali bilan bog‘liq voqealar tasviri haqida ham shunday deyish mumkin. “Chumoliga ham ozor bermaslik” iborasi bu o‘rinda o‘z kuchini yo‘qotadi. Endi u ko‘chma emas, balki o‘zining tabiiy, tom ma’nosini anglatadi. Ayni mana shu holat Navoiy dahosidagi buyuklikning kichik, ammo unutilmas qirralaridan birining kitobxon ongida muhrlanib qolishiga zamin yaratadi.

Faqat Oybek yoki Maqsud Shayxzoda, Uyg‘un va Izzat Sulton, Mirkarim Osim asarlarida emas, mustaqillik davrida yaratilgan ko‘plab asarlarda ham ushbu an’ananing mantiqiy davomi

sifatida Navoiy siymosini badiiy qayta yaratish jarayonida ko‘plab fakt va materiallardan unumli foydalanilgani ko‘zga tashlanadi. Bular:

1. Shoirlarimiz she‘riy san‘atlarning asosiy qis-miga murojaat qilishga harakat qilishgan. Shunga qaramasdan, talmeh san‘ati ular orasida nisbatan faol qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Mavzuning tarixiyligi esa tarixiy fakt va hodisalarga murojaatni taqazo etadi. Ayni shu holatning bu san‘at mag‘iz-mohiyatidagi o‘zak nuqta ekani undan foydalanish darajasi oshib borishiga zamin bo‘lgan.

2. Tarixiy shaxs tasviriga tayyorgarlik jarayoni.

Adhambek Alimbekovning guvohlik berishi-cha, Muhammad Ali Alisher Navoiy haqidagi ilk misralarini Oybek va boshqa adiblar asarlari bilan tanishish asnosida hali 14 yoshidayoq, kundalik daftoriga yozib qo‘ygan ekan<sup>46</sup>. Olim yana qu-yidagilarni qayd etadi: “Shu paytlarda yosh shoir ijodiy o‘rganish ma’nosida Alisher Navoiy g‘azallarini ko‘p o‘qiydi, o‘zicha ularning nasriy bayonini amalga oshiradi. Kundalikda Navoiyning o‘ndan ortiq g‘azallari nasriy bayoni berilgan”<sup>47</sup>. Muhammad Alining “Boqiy dunyo” she‘riy roma-ni “Navoiy va Boyqaro” (2018) dramasidan oldin yozilgani ham e‘tiborga molik faktlardan biridir<sup>48</sup>.

---

<sup>46</sup>Алимбаев А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: “О‘QITUVCHI” нашриёт матбаа уйи, 1920. – Б. 13.

<sup>47</sup>Шу нашр. – Б. 30.

<sup>48</sup>Али Муҳаммад. Навоий ва Бойқаро: тарихий драмалар. – Тошкент: Чўлпон, 2018. – Б. 352.

Tarixiy mavzudagi asarlar poetikasidagi muhim hodisalardan biri tarixiy fakt va uning badiiy talqini bilan bog‘liq. Ayni mana shu talqinlar adabiy qahramon sajiyasining umumiy bahosiga ta’sir o‘tkazadi. Bu hodisa ijodkorning poetik mahoratiga o‘ziga xos ko‘rsatkich ham bo‘la oladi. Masalan, Omon Muxtor “o‘ziga xos yo‘l tutadi. Bosh obrazni shoirning ijodi orqali yaratadi. Navoiyning she’r va dostonlaridan olingan misra va parchalari orqali shoir siymosini ko‘z oldimizda gavalantiradi”<sup>49</sup>. Bu usul Navoiy siymosi tasvirlangan ko‘plab epik asarlar, ayrim lirik asarlar uchun ham xos. Ayni mana shu usul goh nihoyatda yarashib tushgani, hatto, sujet va kompozitsiyada jiddiy rol o‘ynagani kuzatilsa (bunday holat ko‘proq), gohida uning zo‘rma-zo‘rakiligi sezilib turadi, natijada, tasvirning umumiy maromiga putur yetadi. “Alisher Navoiy” dramasiyning yozilganiga yetmish besh yil bo‘ldi. Zamonasozlikka borib bo‘lsa ham (boshqa iloji ham yo‘q!) Alisher Navoiyni jamiyat ichiga olib kirish (sal bo‘lmasa, shoirni “saroy adabiyoti”ga kiritib qo‘yishlar ham mumkin edi), uni adabiyotimiz quyoshi ekanini ta’riflash, xalq vakili qilib ko‘rsatish, podshoga muxolif sifatida talqin etish (esingizdami, farzandlar janjallaridan horigan, bemor Boyqaroning “Saroyda qoling, Alisher!” degan iltijosiga, Navoiy qat’iy qilib:

---

<sup>49</sup> 2001, № 1. – B. 15.

“Ketaman! Xalqimga, ijodimga!” deydi va bizlar sahnada bu manzarani ko‘rib, olqishlab qarsaklar chalganmiz!) yo‘lidan borilgan. Tarixan chekinishlar ham kuzatiladi. Chunonchi, Mo‘min Mirzo qatl etilishida Majididdinning hech aloqasi yo‘q, Majididdin Mo‘min Mirzo fojiasidan uch yil oldin olamdan o‘tgan edi. Navoiy sevgilisi Gulini haramga olib ketganlarini eshitib, podsho haramiga (?) tap tortmay kirib keladi, hatto, Husayn Boyqaro ko‘z o‘ngida Gulini qo‘lida ko‘tarib olib chiqib ketadi. Bunga aql bovar qilmaydi, ko‘ngil ko‘tarmaydi. Bu holatlar, albatta, mantiqan to‘g‘ri emas!”<sup>50</sup>. Albatta, badiiy talqinda tarixiy fakt va haqiqatning buzib talqin etilishi, garchi bu muayyan mantiqqa ega bo‘lsa ham, maqtagulik holat emas. Bu jarayonda badiiy to‘qima tarixiy fakt va haqiqat chegarasidan chiqmasligi, haqiqatga soya solmasligi kerak. Shu ma’noda, mustaqillik davri adabiyotida tarixiy va adabiy haqiqat mutanosibligiga jiddiy e’tibor qaratilayotgani, bu borada ijobiy natijalarning ko‘payib borayotganini qayd etish joiz.

Bugungi kunda Navoiy yashagan tarixiy davr, adabiy muhitning haqqoniy tasviri tarixiy shaxs tasviridagi talqin muammosini o‘rganish ehtiyoji tug‘ildi. Bu davr ko‘plab tarixiy shaxslar hayotiga oid mavzularni kengroq miqyoslarda mushohada

---

<sup>50</sup> Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: О‘QITUVCHI, 1920. – Б. 180-181.

qilish imkonini berdi. Xususan, bu davrda hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiga e'tibor kuchaydi. Navoiy insonparvarlik g'oyalari targ'ibotchisi bo'lish bilan birga, ularni hayotga tatbiq etishga intilgan faol va jasur inson edi. Binobarin, uning tengsiz shaxsiyati, o'zi yaratgan asarlaridagi g'oyalar bilan uyg'unlashib shoirning hayotlik davridanoq tarixiy-badiiy asarlarning qahramoniga aylandi.

Navoiy va bugungi kun o'rtasida ancha vaqt o'tgani til bobida turli to'siqlarni yuzaga keltirdi. Navoiyning tili bugungi kitobxon uchun "og'irlik qilishi" ham sir emas. Lekin tarixiy mavzudagi zamonaviy asarda til faktori, qahramon nutqi uning tarixiy muhit, tarixiy sharoitdagi holatini tasvirlash va tasdiqlash uchun ko'proq xizmat qiladi. Ayni paytda u qahramonni bizning zamonamiz bilan ham yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Tarixiy asarning zamonaviyligi, ehtimol, bir jihatdan ayni mana shu nuqtalarga ham bog'liq. "Badiiy obrazni yaratish jarayoni, dastlab, materiallarning qat'iy saralanishi demakdir: san'atkor tasvirlanayotgan obrazning eng xarakterli jihatlarini oladi, barcha tasodifiy narsalardan voz kechadi, u yoki bu qirralarini to'liq yorqinlashtirganiga qadar yiriklashtirish yoki o'tkirlashtirish hisobiga rivojlantirib boradi"<sup>51</sup>. Har qanday yozuvchi tasvir davomida nutqning

---

<sup>51</sup>Введение влитературоведение. Под общейредакцией Л.М.Крупчанова. – М.: ОНИКС. 2009. – С. 40.

funksional-mantiqiy tiplarga murojaat qilib bo'radi. Ular ko'proq tavsif, hikoyalash, mulohaza shakllarida namoyon bo'lishi yuqorida ham qayd etdik. Ayni mana shu shakllar adabiy qahramon va u haqdagi tasavvurlarning to'liq yoki aksincha bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu tezisning isboti uchun Alisher Navoiy haqida yaratilgan asarlar tahlilidan oldin Amir Temur nutqida qo'llangan birgina so'zning ijtimoiy hamda adabiy-estetik quvvatini tasdiqlaydigan bir faktga e'tiborni qaratmoqchimiz. Bu faktni Amir Temur obrazining G'arbiy Yevropa adabiyotidagi talqinlari bilan shug'ullangan S. Ermatov tavsiya etadi: "Kastiliya qiroli Enrike (Genri)ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning 1404-yilda Samarqandga tashrif buyurganligi va uning buyuk Sohibqiron tomonidan iliq qabul qilinganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Klavixo ushbu qabul marosimi haqida quyidagilarni yozadi: "... Shunda Temurbek bizga onhazrat qirolimiz haqida savollar berdi: "Qirol o'g'limning ishlari qalay? Sog'ligi joyidami?" Bir qarashda nima uchun Amir Temurdek buyuk zot yiroqdagi Kastiliya qirolini "o'g'lim" deb atagani o'quvchiga qorong'uligicha qoladi. "Yetti iqlim sultoni" kitobining muallifi, angliyalik Hilda Hukhem bu haqda so'z yuritar ekan, "o'g'il" so'zi tobeinlarga nisbatan murojaat shakli edi", deb yozadi. Bunga o'zbek olimi, tarix



fanlari nomzodi (endilikda tarix fanlari doktori – G.A.) A. Ziyoyev ham qo‘shiladi: “O‘sha zamon diplomatiyasi tilida “o‘g‘lim” degani – “menga tobe” degani bo‘lgan”. Biz, afsuski, ularning bu fikriga qo‘shilmaymiz. Bunga sabab, birinchidan, ingliz adibasi va A.Ziyoyevdan boshqa na sharqlik va na g‘arblik biror muarrix bunday fikrni bildirmagan. Ikkinchidan, Kastiliya va Leon qiroli Enrike Amir Temurga tobe bo‘lmagan. Sohibqiron Enrikeni nima uchun “o‘g‘lim” deb ataganini bilish uchun esa Enrikening hayotiga va Amir Temur bilan Kastiliya qiroli o‘rtasidagi munosabatlar tarixiga nazar solmoq lozim.

Enrike 1379-yili Burgos shahrida Kastiliya qiroli oilasida dunyoga kelgan. 1390-yili otasi otdan yiqilib tushib, bevaqt vafot etgan. 1393-yili o‘n to‘rt yoshida taxtga o‘tirgan Enrike qisqagina hukmdorligi davrida mamlakatda tinchlik o‘rnatdi, iqtisodiy ahvolni o‘ngladi. U tashqi siyosat borasida ham mohir diplomat sifatida tanildi. Enrike nomiga yoshligidanoq “xasta” (el Dolente) so‘zini qo‘shib aytishardi, biroq uning nima bilan og‘rigani haqida tarixda aniq ma’lumotlar yo‘q. Enrike o‘sha paytda Kichik va Markaziy Osiyolarda ro‘y berayotgan voqealardan yaxshi xabardor bo‘lgan, Yildirim Boyazid Yevropaga solayotgan tahdiddan tashvishga tushgan. Shu sababli ham u Amir Temur haqida to‘liqroq ma’lumot olish uchun

Sharqqa o‘z elchilari Payo Gomes de Sotomayor va Hernan Sanches Palasuelosni yubordi. Ular 1402-yili 28-iyulda Anqara jangining shohidlari bo‘lishgan, Amir Temurni zafar bilan qutlashgan. Ispan tarixchisi Gil Davila Gonsales “Kastiliya qirolu Enrikening hayoti va faoliyati” kitobida yozishicha, Amir Temur elchilarga jangovar qurollar tuhfa etgan. Sohibqiron tomonidan iliq qabul qilingan Sotomayor va Palasuelos Enrikeni ko‘klarga ko‘tarishgan, uning Amir Temur bilan do‘stona aloqalar o‘rnatish niyatida ekanligini ma’lum qilishgan. Elchilar 1403-yili fevralida Kastiliyaga qaytib borishadi. Ularni va Sohibqiron yo‘llagan elchi Muhammad Keshiyni qirol Enrike o‘zining Segoviyadagi qasrida qabul qiladi. Amir Temurning ehtiromidan Enrike bag‘oyat ta’sirlanadi va do‘stona munosabatlarni rivojlantirish uchun zudlik bilan Samarqandga yangi elchi Rui Gonsales de Klavixoni jo‘natadi. Amir Temur Samarqandga yetib kelgan Klavixodan qirolning sog‘ligi haqida so‘raganida tamoman haqli edi. Zero, u dastlabki ispan elchilari va Kastiliyaga borib qaytgan o‘z elchisi orqali Enrikening xastaligidan xabardor bo‘lgan. Bu bilan u o‘zining nafaqat o‘ta madaniyatli va dono davlat rahbariligini namoyon etgan, balki o‘z saltanati bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatgan uzoq Kastiliya qiroliga otalaracha g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Amir Temurning

qirol elchilariga aytgan quyidagi soʻzlari ham aynan shundan dalolat beradi: “Qirol sizlarni sovgʻasiz, faqat (birgina) maktub bilan yuborganida ham men oʻgʻlimning sogʻligini bilib, sovgʻa olganday xursand boʻlur erdim”<sup>52</sup>.

Tarixni tiriltirish uchun voqelik tafsiloti, sanalar yoki maʼlumotlarni bilishning oʻzi kamlik qiladi. Oddiy, quruq maʼlumot bayoni, xabar matnlari oʻquvchini zeriktiradi. Tarixiy fakt haqiqat va talqinda teranlik, tarixni tilga kiritish, tarixiy shaxslarni “soʻzlatish”, “kiyintirish”, ishonchli portretlarini chizish, moziy muhitiga mos fikrlatish, qalbiga quloq tutib, dard-u alamini anglash – bularning bari yozuvchidan tarixiy haqiqatni tarixiy fakt va mezonlarga asoslanib yozishni talab etadi. Yuqorida keltirilgan misol esa bu jihatning nechogʻli muhimligini koʻrsatuvchi birgina holatdir.

Zamonaviy ijodkor Alisher Navoiyning oʻzbek adabiyoti tarixidagi mavjud obrazini takrorlamaslik uchun izlanishi, tarixi manbalarni oʻqishi, buyuk shoirning koʻnglini tushunishi, u bilan bogʻliq muhim faktlarni bilishi, saralashi hamda eʼtiqodini anglashi, shuningdek, keng koʻlamli dunyoqarashga ega boʻlishi, yuqoridagi kabi tarixiy faktlardan xabardor boʻlishi kerak.

<sup>52</sup> Эрматов Б.С. Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Тему́р сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 12-13.

## **1.2. Alisher Navoiy – estetik ideal obyektini sifatida**

Badiiy adabiyotning o‘z oldiga qo‘ygan ko‘p-  
lab maqsad va muddaolari orasida inson idealini  
yaratish ustuvor mavqelardan birini egallaydi. Agar  
qadimiy mif, afsona va rivoyatlar, folklordagi tas-  
vir maromiga qaralsa, ayni haqiqatning nihoyatda  
ochiq va bardavom tarzga egaligini tasavvur qilish  
mumkin.

Idealning asosini tasdiq yoki inkor tashkil etadi.  
Tasdiq shaklida go‘zallik, ezgulik, insonparvarlik,  
ahillik, vatanparvarlik, jur‘at, jasorat, kamtarlik,  
olijanoblik, saxiylik, himmatlilik, rostgo‘ylik, sa-  
mimiylik va hokazo fazilatlar targ‘ib etilsa, inkor  
shaklida u tanqid, satira va yumor tusini olishi ham-  
da riyokorlik, xunuklik, ichiqoralik, badkirdorlik,  
xudbinlik, sotqinlik, qo‘rqqoqlik, jaholat, nodonlik,  
hasadgo‘ylik, manmanlik, yolg‘onchilik va hoka-  
zo salbiy xususiyatlar sifatida namoyon bo‘lishi  
mumkin. Bu jarayonni Abdulhamid Cho‘lpon ni-  
hoyatda aniq va ta’sirchan tarzda aks ettirgan:  
“Mana shuni o‘qub albatta bir ta’sir ila alarning  
qayg‘usiga qo‘shulurmiz. Bir bola uxlamasa alla  
aytarlar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir  
lazzat his qilur. Eski bobolarining bir ma’shuqa  
uchun Qoshg‘ar taraflariga yayov borganini va  
yo‘lda o‘g‘rilar tarafidan o‘lturulgani g‘oyat yaxshi

ohang bilan aytilur. Ul vaqtda bola ta'sirindan uxlab ketar. Shunga o'xshash o'zining shavkat va g'ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor va dahshatga solg'on jahongirlarning o'tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko'rsa va eshitsa har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo'linur"<sup>53</sup>. Bu o'rinda Cho'lpon nazarda tutayotgan ta'sir, his bevosita estetik ideal bilan bog'liq bo'lib, u insonni o'z ta'siriga oladi va mohiyatiga ko'ra o'zgartiradi. Shu ma'noda, "Estetik ideal badiiy ijodga xos eng muhim tushunchalardan biri bo'lib, u ijodkorning xohishi, istagi asosida yotuvchi narsa yoki shaxsning qanday bo'lishini anglatadi"<sup>54</sup>.

Ideal – (grekchada namuna, norma): 1) ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'noga ko'ra: a) biror narsaning eng oliy darajasi, biror ko'rinishning takomiliga yetgan darajasi; b) biror bir narsaning sifatini belgilash uchun olingan alohida bir qolip, me'yor ma'nolarini anglatadi. 2) qat'iy olingan etik va estetik mazmun va nazariy mazmunda: a) axloqning yuksak ma'nodagi tushunchasi; b) kishilar yoki jamiyatning yuksakligi; v) yuksak axloqli shaxs tushunchasini bildiradi<sup>55</sup>. Nemis faylasufi Kant tomonidan ilk bor ideal

---

<sup>53</sup> Чўлпон Абдулҳамид. Адабиёт надир? – Тошкент: “Чўлпон”, 1994. – Б. 36.

<sup>54</sup> Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.116.

<sup>55</sup> Bu haqda yana qarang: Идеал. URL: <http://caute.ru> (20.01.2018)

masalasi ichki maqsadlar bilan bog‘langan holda tahlil etilib, estetik qobiliyat doirasida tahlil qilingan. Uningcha, o‘z maqsadini obrazli tarzda taqdim etishga qodir bo‘lmaganlar o‘z ideallariga ham ega emaslar<sup>56</sup>. Kantning fikricha, estetik ideal – insoniyatning eng yuqori va mukammal darajaga erishgan ko‘rinishi bo‘lib, individ va jamiyat o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning chegarasi sanaladi. Individning ichida, uning ongida bu holat umumiylik va alohidalik, butunlik va bir bo‘lak va boshqalar o‘rtasidagi chegara sifatida tasvirlanadi. Kantga qadar bu qarashlar nazariy asoslanmagan bo‘lib, u tomonidan idealning falsafiy ta’rifi berilgan. Lekin Kantning bergan ta’rifi darajasiga erishish mumkin bo‘lmagan hol yoki bunga erishish abadiyatga daxldor degan qarashlar bo‘lgan. Kantning fikricha, idealning faqat shaklini tasvirlab berish mumkin emas. Uni faqat xayol qilish mumkin. Kant va Fixte kabi faylasuflarning fikriga ko‘ra, ideal (individ) “inson sha’ni”ning axloqiy takomilga erishish yo‘lidagi eng so‘nggi yuqori nuqtasi sanaladi<sup>57</sup>. Ideallar shaxs va jamiyatni ezgulik sari boshlaydi, jamiyatning taraqqiy etishi, barqarorlikning bosh omili bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiyni Husayn Boyqaro saroyining tinchligi, osoyishtaligi uchun tinimsiz faoliyatda bo‘lgan vatanparvar inson ideali sifatida ham ko‘rish mumkin.

---

<sup>56</sup> Там же.

<sup>57</sup> Там же.

Bir jamiyatning ideali o'sha jamiyatda yashaydigan kishilar uchun birdek ideal darajaga ko'tarilsa, ana shunday jamiyat taraqqiy topadi. O'sha jamiyatdagi fuqarolar yagona ideal atrofida birlashib, unga ergashib ezgu maqsadlar uchun og'ishmay harakat qiladilar. Bunga tarixdan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Husayn Boyqaro mamlakatida Navoiyning rolini eslash mumkin. Bu davrda Alisher Navoiy o'z davlatining taraqqiy etishida ideal bo'la olgan edi.

Badiiy-estetik idealning shakllanishi, adabiyotdagi ifodasi juda uzoq va murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. H. Boltaboyev va M. Mahmudovlarning badiiy-estetik tafakkur tarixiga bag'ishlangan ikki jildli tadqiqoti buning ancha jiddiy va muntazam xalqalarini ko'rsatib berishi bilan e'tiborga molik<sup>58</sup>.

Estetik ideal muammosiga rus adabiyotshunosligida XIX asrdan boshlab jiddiy e'tibor qarati-la boshlangan. V.Belinskiy va N.Chernishevskiy-lar san'at va real hayot, ideal va turmush o'rtasidagi munosabatlarni yaxshi ochib berishgan. V.Belinskiy yozadi: "Ideallar reallikda yashiringan bo'ladi; ular fantaziyaning dabdurustdan chiqargan o'yinlari emas, to'qima ham emas, xayol ham emas, ayni damda ideal haqiqatni inkor qilmaydigan, aql bilan

---

<sup>58</sup> Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 2-жилд: Ўрта асрлар. Уйғониш даври (IV-XVI). – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – Б. 434.

hal qilingan va fantaziya bilan o‘ylab topilgan, u yoki bu narsaning mumkinlik ko‘rinishidir”<sup>59</sup>. Belinskiy va Chernishevskiylar tomonidan ishlab chiqilgan estetik ideal tushunchasi rus adabiy tanqidchiligi uchun xos bo‘lib qoldi. Rus adabiyoti haqida gapira turib, masalan, Savina shunday deydi: “Amalda birorta yirik asar yo‘qki, unda hayot mazmuni, ideal qahramon, haqiqat, ezgulik, go‘zallik masalalari qo‘yilmagan bo‘lsin. Bu abadiy muammolar savollar tarzida qo‘yilarkan, har safar yangicha shaklga ega bo‘lib boraveradi”<sup>60</sup>.

Ideal qahramon, birinchi navbatda, o‘zining axloqi bilan ibrat namunasidir. Buning uchun ijodkorlar mantiqiy, beqiyos, ideal xatti-harakatlar tizimini ham ishlab chiqadilar. Adabiy idealning o‘ziga xos ko‘rinishlarini yaratish tajribasi har bir adabiyotda o‘zgacha tarixiy bosqichlarni bosib o‘tadi. Unga ko‘ra, dastlab, bu an‘analar qadimiy folklor asarlarida yuzaga keladi. Yozma adabiyot esa ularni asta-sekin o‘z mulkiga aylantira boradi. Ayni hodisa o‘zbek adabiyoti uchun ham begona emas. Jumladan, Alpomish yoki Go‘ro‘g‘li o‘zbek xalqining birligi uchun kurashgan botir, alp inson, vatanparvar shaxslar timsoli sifatida ideal obraz bo‘lib gavdalanadi.

---

<sup>59</sup> Александрова С.В. Проблема идеала в русской литературе, критике, публицистике первой половине XX века. Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – М., 2005. – С. 40.

<sup>60</sup> Валентина Славина. Религиозный идеал в соловьева как синтез истины, добра и красоты. URL: <http://rl-online.ru/articles/2-05/329.html> (31.08.19)



Yoxann Xeyzinga fikricha, “barcha zamonlarda ham odamlar go‘zal, baxtli hayot kechirishni orzu qilgan. Buning uch yo‘li bor. Aziz-avliyolar bu dunyoda xor-zor yashaganlar oxiratda, u dunyoda baxtga yetishadi, deb yo‘l ko‘rsatadilar. Baxtli hayotga yetishning ikkinchi yo‘li shu dunyoning o‘zida adolatli, odil podshohlar va dono davlat arboblarning jamiyat, xalq farovonligi uchun jon kuydirishidir. Ammo, afsuski, faqat o‘zini, istak-xohishlari tez bajarilishini o‘ylaydigan takabbur, xudbin hukmdorlar xalqning ahvolini yaxshilashni o‘ylamaydilar. Ba’zi buyuk podshohlar bundan mustasno. Muallif fikricha, baxtli, go‘zal hayotga yetishuvning uchinchi yo‘li – orzu, xayolot, idealga intilishdir. Bu yo‘lning yetakchilari badiiy adabiyot, san‘at vakillari, yorqin iste’dod egalaridir. Adabiyot va san‘at asarlarida tasvirlangan, qiynalgan bechora xalqni himoya qilib, zolimlarga qarshi kurashga yetakchilik qilgan Robin Gud, Tiyl Ulenshpigel, Vilxelm Tell, Janna d‘Ark kabi ideal qahramonlar asrlar davomida necha-necha avlodlarni, amalda emas, xayolida bo‘lsa ham zolimlarni jazolashi sofdil insonlar qalbida va ongida yovuzlikka nafrat, mard, olijanob, adolatli insonlarga, bunyodkor mehnat ahliga muhabbat uyg‘otadi”<sup>61</sup>. Forobiy qarashlari buning tasdig‘i bo‘la oladi.

---

<sup>61</sup> Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 2-жилд: Ўрта асрлар. Уйғониш даври (IV-XVI). – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – Б. 58-59.

“Forobiy badiiy asarda qahramonlarning xarakterlari qanday ochilishi haqida quyidagicha fikrlaydi: “Shunday qilib, (badiiy asarda tasvirlangan) insonning fe’l-atvori ko‘proq o‘zining xayollariga (ya’ni hayot haqidagi tasavvurlariga) bog‘liq bo‘ladi. Bular, ko‘pincha, (adib, shoirning) bilimi yo andishasiga bog‘liq bo‘ladi”. Bizningcha, Forobiy bu yerda shuni aytmoqchiki, adib, shoir, rassom (taqlidchi, tasvirlovchi)ning xayollari (hayot, odamlar haqida tasavvurlari), bilimi, fikr-o‘ylari badiiy asar qahramonining fe’l-atvoriga, xarakteriga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy barkamol, yetuk – daho ijodkorlarning asarlarida qahramonlar ham (agar u ideal yoki ijobiy qahramon bo‘lsa) jasur, adolat va haqiqat, ozodlik uchun kurashuvchi bo‘ladi. Mabodo mana shu yetuk adiblar, shoirlar, rassomlarning qahramonlari salbiy bo‘lsa, adolatsiz, tuban fe’l-atvorli bo‘lsa ham – hayotdagiday tasvirlanadi. Uning quyidagi fikriga e’tibor qaratamiz: “Ammo shunisi ham borki, ko‘pincha, uning (ijodkorning) bilimi va andishasi xayolidagi narsalariga (ya’ni, tasvirlanayotgan narsalarga, ehtimol, tuban fe’l-atvorli qahramonlarning qilmishlariga) teskari kelib ham qoladi. Bunday paytlarda u (ijodkor) o‘z fe’l-atvori, o‘z bilimi va andishasiga ko‘ra emas, balki (o‘sha tasvirlanayotgan odamlar, qahramonlar xayoliga ko‘ra ish tutadi”<sup>62</sup>. Ya’ni ijodkorni ham

---

<sup>62</sup> Ўша нашр. – Б. 176.

o‘z estetik ideallari boshqaradi, muallif ongli yoxud ongsiz holda ideal doirasida harakatlanadi.

H. Boltaboyev Rabg‘uziy asarida ham estetik ideal muhim o‘rin tutishini ta’kidlab, jumladan, shunday yozadi: “Ularda estetik ideal masalasi birlamchi planga chiqarilgan va insoniy ideallar ularning yo‘lboshchilari nabiy – payg‘ambarlarning hayotini namuna qilib ko‘rsatish orqali hal etilishi lozimligiga e‘tibor qaratgan”<sup>63</sup>. X. Lutfiddinova ham estetik ideal muammosiga A. Qodiriy va Cho‘lpon asarlari orqali munosabat bildirib, maxsus tadqiqotini amalga oshirgan<sup>64</sup>, bir qator maqollarini e‘lon qilgan<sup>65</sup>. Olimaning kuzatishlarida ideal qahramonning yaratilish jarayoni, asl mohiyati ham, nazarimizda, ancha mantiqli va ishonarli dalillangan: “Ijodkor o‘zining badiiy niyatini to‘laroq amalga oshirish maqsadida, ko‘pincha, asar bosh qahramonini ham tashqi qiyofasi, ham ichki dunyosi go‘zal bo‘lgan yetuk shaxslar qilib yaratadi. Go‘zallik namunasi — yozuvchining estetik idealini ifodalovchi badiiy qahramon o‘quvchini hayotda mukammallikka yetaklaydi. Asarni mutolaa qilganda

<sup>63</sup> Ўша нашр. – Б. 216.

<sup>64</sup> Лутфиддинова Х. Эстетические идеалы писателя и женские образы (на примере романов “Утган кунлар” и “Кеча ва кундуз”): автореф. дис. доктора филологических наук. – Ташкент, 1994.

<sup>65</sup> Лутфиддинова Х. Эстетик идеал йулида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. № 3; шу муаллиф. Кумушбиби – эстетик идеал намунаси // Ўзбек тили ва адабиёти 1994. -№ 4-5; шу муаллиф. Эстетик идеал ва ҳаётий ҳақиқат // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 1. – Б. 21-24.

ruhiyatimizdagi o‘zgarish, sofflik va go‘zallik Zebi tufayli, uni yaratgan ijodkorning estetik ideali ta’sirida tug‘iladi”<sup>66</sup>. Olimaning asosiy xulosalaridan biri shuki, ideal qahramonning munosib tasviri kitobxonga juda kuchli ruhiy ta’sir ko‘rsata oladi, shunga ko‘ra, “Zebi obrazi bilan oshno bo‘lgan o‘quvchi uni shunchaki asar qahramonigina emas, balki yozuvchining ezgu idealidagi mukammal obraz sifatida tan oladi”<sup>67</sup>. Muhimi, u bitta shaxsni – yolg‘iz kitobxonni emas, butun boshli jamiyatni ham tarbiyalay oladi.

Folklor janrlarida ham go‘zal va baquvvat, mard va jasur, oqil va dono timsollarning ulug‘langaniga duch kelish mumkin. Yozma adabiyot esa bu borada faqat folklordan emas, balki qardosh xalqlar adabiyoti, shuningdek, jahon adabiyoti tajribalaridan ham o‘rganib boradi. O‘zbek romanchilik maktabining paydo bo‘lish va rivojlanish yo‘llarining tarixi buning yorqin namunasi bo‘la oladi. Bunda Alisher Navoiyning o‘z tajribalari ham tegishli xulosalarni bera oladi. Yozma adabiyotimiz tarixi, ixcham tarzda aytiladigan bo‘lsa, komil inson timsolini yaratish yo‘lidagi oltin tajribalar sifatida baholanishi mumkin.

Xalqimiz tarixi ko‘p asrlik ildizlarga ega. Maz-

<sup>66</sup> Лутфиддинова Х. Зеби, Зеби зебона (Кеча ва кундуз: Чўлпонни ўқиб...). – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 39.

<sup>67</sup> Лутфиддинова Х. Зеби, Зеби зебона (Кеча ва кундуз: Чўлпонни ўқиб...). – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 38.

kur davrlar oraliq'ida xalqimiz boshidan turli kunlar o'tgan. Ana shunday kunlarda ijodkorlar Alpomish va Go'ro'g'li singari xalqini birlashtira oladigan, o'z oldiga qo'ygan yangi marralar sari boshlay oladigan qahramonlarni ko'rishni istaydi. Bu hol esa adabiyotda yangi estetik idealning kashf etilishi bilan xarakterlanadi. Turkiy xalqlarning Afrosiyob haqidagi tarixiy va badiiy asarlarida ayni holatni ko'rish mumkin: "Turkiy xalqlarga xos bahodirlik, mardlik, donolik, zukkolik, davlatni adolat bilan boshqarish, turkiy qavmlarni birlashtirish siyosati Alp Er To'nga – Afrosiyob obrazi yaratilgan asarlar g'oyasida mujassam"<sup>68</sup> bo'lgan. Keyinroq bu silsilaga Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Avaz O'tar, Muqimiy, Furqat kabi ijodkorlarning an'analari qo'shilgan.

Ushbu an'analar fonida XX asr adabiyoti, uning davomi sifatida esa mustaqillik davri adabiyotida estetik idealning o'z davriga xos va munosib bo'lgan tasvir yo'lini izlash harakatlari ko'zga tashlanadi. Bu borada adabiyotning butun arsenali ishga solingan va chetda qolgan birorta janr yo'q.

Mustaqillik davrida, ayniqsa, tarixiy shaxslar siymosini yaratishga jiddiy e'tibor qaratildi. Amir

---

<sup>68</sup> Абдурахмонов А. Туркий халқлар адабиёти. – Самарканд: СамДУ, 2007. – Б. 56-57.

Temur, Zahiriddin Muhammad Boburlar buyuk davlat arbobi, mohir sarkardalar sifatida ko‘plab asarlarning bosh qahramoniga aylanishdi. Buyuk mutafakkirlar: Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Bobur va boshqalarning hayoti, ijodi ham adabiyotimizdagi eng yaxshi badiiy obrazlar timsoli yaratilgan namunalar qatoridan joy oldi. Alohida ijodkorlar: Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Bobur, Mashrab, Nodira, Muqimiy va boshqalar adabiy qahramonlar sifatida ham, ayni paytda badiiy-estetik ideal sifatida ham qalamga olindi. Bularning orasida Alisher Navoiyning badiiy obrazini yaratishga oid urinishlarning eng katta va salmoqli natijalar keltirganini alohida e‘tirof etish lozim. Chunki bu davrda Navoiy shoir yoki ijodkor arxetipining klassik namunasi sifatida ko‘rildi. L.A.Karpushkina yozadi: “Pushkin hayoti va ijodi shoir arxetipining ideal darajadagi mazmuniy davomi sifatida gavdalanadiki, mana shu holat ko‘p jihatdan rus adabiyotidagi Pushkin obrazi fenomenining sirini izohlab beradi”<sup>69</sup>. Ta’kidlash kerakki, ayni holat shu turdagi yondashuvlar, xususan, zamonaviy o‘zbek adabiyotida Navoiy fenomeni tasviriga ham xosdir.

Mustaqillik yurtimizning barcha ijodkorlariga yangicha imkoniyatlar, o‘zlarining yuksak adabiy-

---

<sup>69</sup> Карпушкина Л. А. Образ А.С. Пушкина в русской литературе конца XIX – начала XX веков и проблема литературной рецепции: Д-я канд. филол. наук. – М., 2000. – С. 12.

estetik idellarini targʻib qilish yoʻllarini ochib berdi. Badiiy adabiyotdagi bunday evrilishlar ijodkorlarning asarlarida ham oʻz aksini topgan. Adabiy-estetik ideal kategoriyasi xorij va oʻzbek adabiyotshunoslari hamda adabiyotshunoslikka yondosh boʻlgan bir qator fan tarmoqlari vakillari tomonidan turli darajada tadqiq etilgan<sup>70</sup>.

Adabiy-estetik ideal borasida maxsus tadqiqotlar olib borgan I. S. Turgenev, O. Larmin, B. Kristensen, A. V. Fedorov, Y. Nigmatullina, N. Yastrebova, E. Karimov, I. Sulston. U. Normatov, B. Qosimov, N. Karimov, U. Dolimov, B. Sarimsoqov,

---

<sup>70</sup>Лармин О. Эстетический идеал и современность. – М.: 1964; Муриан В. Эстетический идеал. – М.: 1966; Нигматуллина Ю. Национальное своеобразие идеала и искусство. – Казань: Татгосиздат, 1970; Осичнюк Е. Идеал и деятельность. – Киев, 1981; Муродов О.М., Полякова Е.А. Трансформация мифологических и легендарных образов в таджикско-персидских хрониках XI – XV вв. – Душанбе: Дониш, 1986; Муҳаммадиев Н. Эстетик идеал ва адабиёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 1973; Қосимов Б. Излай-излай топганим... – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983; Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2008; Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007; Ганиев И. Фитрат. Эътикод. Ижод. – Тошкент, 1994; шу муаллиф. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994; Қуронов Д. Чўлпон поэтикаси (Насрий асарлари мисолида): Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1998; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Тошкент: 2004; Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент: Университет, 2003; Багиров А. Бадий идеал ва тарихий ҳақиқат // ЎТА, 1997. № 2. – Б. 17-22; Лутфиддинова Х. Эстетик идеал йулида // ЎТА, 1994. № 3; Давлатова А.Р. Миллий ўйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси: Филол. фан. номз. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 21; Туропова П. Адабий-эстетик идеал категориясининг трансформациялиниш жараёни (жиззахлик ижодкорлар мисолида). – Тошкент: MUMTOZ SOʻZ, 2020; Тронский И.М. История античной литературы. – М.: Высшая школа, 1983.

H. Boltaboyev, D. Quronov, B. Karimov, Sh. Rizayev, X. Lutfiddinova, A. Davlatova, P. Turpova singari xorij va o'zbek olimlarining tadqiqotlarida adabiy-estetik ideal muammosi turli rakurslarda o'rganilgan.

I. M. Tronskiy idealning tarixiy kategoriya ekanini ta'kidlab, qadimiy xalqlar adabiyotida ularning yashash tarzi, tasavvur va adabiy tafakkur tarzlariga mos ravishda obrazlarning qahramonlikka aloqador holdagi tasvirlarining ustuvorlashgani haqida gapiradi. Qadimgi Yunonning arxaik san'ati uslubida "jasur, atletik kuch-quvvatga ega" qahramonlar tizimining tasodifiy emasligi ko'rsatiladi. Bu fikrni dunyo xalqlaridagi epos namunalari, jumladan, o'zbek "Alpomish"i, shuningdek, "Go'ro'g'li" turkum dostonlaridagi qahramonlar tipi to'la tasdiqlaydi.

Mustaqillik davri adabiyotida Amir Temur va temuriylar, buyuk sarkardalar, yirik mutafakkir olimlarning, zukko qalam ahlining badiiy siymosini yaratishga bo'lgan intilishlar sezilarli darajada ko'paydi. Ushbu tendensiya, nazarimizda, bu davrda milliy o'zlikni anglash va yorqin kelajak orzusi tufayli yuzaga keldi. Tabiiyki, ushbu jarayonda Alisher Navoiy siymosini badiiy aks ettirishga bo'lgan intilish juda keng qamrovni tashkil etadi. Bu borada lirikaning yetakchi mavqega ko'tarilgani ko'zga ochiq tashlanadi. Mustaqillik



davrida adabiy turlarning nisbatan murakkab deb hisoblanadigan dramaturgiya sohasida ham tarixiy mavzuda yozilgan asarlar salmog‘ining ortishi kuzatildi. O‘zbek nasri Alisher Navoiy siymosi tufayli yangi-yangi asarlar va takrorlanmas obrazlar tasviri bilan boyidi.

Mustaqillik davri adabiyotida, jumladan, bu davr nasrida mavzu va janrlar, qahramonlar tizimining boyib borishi va inson ruhiyatini ifoda etishning xilma-xilligiga erishildi. Nasriy asarlar, shu jumladan, romanlar “qiziqarli voqealar” tasviri, “harakatchan va mehnatkash inson” obrazini yaratish tamoyillaridan bir oz chekinib (balki voz kechib), ko‘proq inson ruhiyatining badiiy ifodasini ko‘rsatishga intilishning ustuvorlashib borishi bilan xarakterlanadi. Tafakkurning chekchegarasi bo‘lmagani kabi, uning mahsuli ham muayyan qoliplarga sig‘maydi. Garchi tarixiy mavzudagi hikoya va qissalar ham anchagina ekani inkor etilmasa-da, bu borada salmog‘iga ko‘ra o‘zbek romanchiligi peshqadamlikni qo‘liga oldi. Y. Solijonov qayd etganidek, “mustaqillikka erishganimizdan keyin tariximizga munosabat tubdan o‘zgardi. Shu paytgacha qora bo‘yoq bilan chaplangan tarix sahifalaridan nur va haqiqatni izlashga e‘tiborkuchaydi. Dostonlar, dramalar, qissa va hikoyalardan tashqari, har yili tarixiy mavzuda yozilgan talay romanlar dunyoga kelayotganligi

ana shu sa'yi harakatning samarasidir. Bu tabiiy hol va tariximiz nechog'lik ko'p yoritilsa, kelajagimiz shunchalik ravshan bo'ladi. Shunga qaramay, hali xalqimiz tarixida "ochilmagan qo'riq"lar juda ko'p va ular o'zlashtirilishini intizorlik bilan kutib turibdi"<sup>71</sup>.

Estetik ideal kategoriyasi xalqning buyuk sar-chashmalari, ulug' ajdodlarning Vatan ravnaqi, ozodligi, taraqqiyoti, jamiyat rivojiga qo'shgan olamshumul xizmatlari tarannumi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, hamjihatlik, sadoqat, kelajakka ishonch ruhi yosh avlodning ilmli, ma'rifatli, ajdodlar an'anasiga munosib insonlar bo'lishi kerak, degan idealga bog'liqligi g'oyasi – aynan hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Tabiiyki, Alisher Navoiy mustaqillik davri ijodkorlari uchun estetik ideal obykti bo'la oldi. Buni ta'minlagan muhim asos esa shoirning ibratli prototipidir. Ijodkorlar bu prototipni qanchalik o'zlashtirishiga qarab, ular yaratgan obrazlar ham farqlanib bordi.

Alisher Navoiy obrazi o'zbek millatining estetik ideali sifatida uning milliy tili, adabiyoti, madaniyatining dunyo xalqlaridan kam emasligini ko'rsatib, o'zbek xalqi ruhiyatini ko'tarish, kela-

---

<sup>71</sup> Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий танқидий мақолалар, суҳбатлар. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. — Б. 44.

jakka ishonchini orttirishga erishgan buyuk daho, shoir, mutafakkir, davlat arbobidir. Aytish mumkinki, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida yaratilgan asarlarning bosh qahramoni bo‘lgan Alisher Navoiy – adabiy-estetik ideal timsoliga aylandi.

Mustaqillik davri ijodkorlari Navoiy ideali asosida obraz yaratish jarayonida, asosan, shoirning o‘z qaydlari va asarlari mazmuniga tayannishdi. Nurilla Ahmedov: “Alisher Navoiy o‘z asarlarida (“Majolis un-nafois”, “Munshaot” kabilar) zamondoshlari va yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan shoir, fozil-u fuzalolar, din arbobi va olimlar, ularning faoliyati ham betakror xususiyatlari, jamiyatda tutgan mavqelari, kasb-korlari haqida o‘ta-qimmatli tarixiy ma’lumotlar qoldirgan bo‘lsa ham, o‘zi to‘g‘risida “faqir ul haqir...” deyishdan nariga o‘tmaydi”<sup>72</sup>, – deb yozadi. Albatta, bu Navoiyga oid barcha fakt va xulosalar haqidagi gap emas, balki tadqiqotchining o‘z davridagi bilim va dunyoqarashi bilan belgilanadigan mulohazalar, xolos. Haqiqiy ahvol esa bundan boy va kengroq.

Birinchidan, Navoiyning “zamondoshlari va yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan shoir, fozil-u fuzalolar, din arbobi va olimlar, ularning faoliyati ham betakror xususiyatlari, jamiyatda tutgan mavqelari, kasb-korlari haqida o‘ta-qimmatli

---

<sup>72</sup> Ахмедов Н. Тарихий шахс талқини. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 27.

tarixiy ma'lumotlar"i faqat "Majolis un-nafois", "Munshaot" emas, ayrim istisnolarni e'tiborga olmaganida, deyarli barcha asarlarida ham u yoki bu tarzda aks etganligini inkor etib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, Navoiyning o'zi haqidagi fikrlari uning butun ijodiy merosida bo'y ko'rsatib turibdi. Navoiyshunos olimlarimizning bu borada hozirgacha olib borgan kuzatish va tadqiqotlarida ham mazkur muammoga oid ko'plab fakt va xulosalar qayd etilgan. Ularning o'ziyoq Navoiyning o'zi haqida faqat "faqir ul haqir" degan ta'kid bilan kifoyalangan, degan aqidani rad etadi. Ularning barchasi alohida-alohida, batafsil va sinchiklab o'rganilishi kerak. A.Abduqodirov, Sh.Sirojiddinov va boshqalarning yangi izlanishlari hali bu boradagi ehtiyojlarni qondirish uchun yangidan yangi tadqiqotlarning amalga oshirilishiga imkon kattaligini yana bir marta tasdiqlab turibdi.

Ulug'bek Hamdam va Abdug'ofir Qosimovlar masalaning nazariy jihatlariga to'xtab, jumladan, shunday yozishadi: "go'zallikni ko'rish va uni nozik his qilish bilan unga qanday munosabatda bo'lish boshqa-boshqa narsalar ekan. Zero, go'zallikni ko'rib, his qilish ortidan unga egalik qilish xurujiga muhtalo bo'lish barcha muammolarning ibtidosi hisoblanadi. Insoniyat hayotida go'zallik (estetika kategoriyasi)dan boshqa ezgulik, adolat, haqiqat

(etika kategoriyalari) degan tushunchalar ham bor bo‘lib, bular ham inson ehtiyojlari hosilasidir. Go‘zallikka munosabatda inson axloq normalarini chetlab yoki buzib o‘tdimi, demak, qalbda ego (xudbinlik) zulmatidan oziqlangan yovuzlik tug‘ilib keladi. Bunday vaqtlarda hatto go‘zallik shaydosidan ham himoyalaniş kerak bo‘ladi”<sup>73</sup>.

Alisher Navoiy o‘zidan oldingi davrga yakun yasadi. Ayni paytda uning bir o‘zi ko‘plab ijodkorlar birgalikda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan juda katta hajmdagi ilmiy-adabiy faoliyat samaralarini yuzaga chiqardi. Shunga ko‘ra, Navoiy ijodiyoti insoniyat ma’naviy olamidagi buyuk hodisalar sirasiga kiradi. Mutafakkir adibdan so‘ng yashab ijod qilgan o‘zbek shoirlari asarlarida Navoiy ijodiyotining ma’lum bir jihatlari o‘ziga xos shakllarda aks etdi. Boshqacha qilib aytilganda, deyarli har bir o‘zbek ijodkori Navoiydan nimanidir o‘rgandi. Ijodkorlarning katta qismi buni o‘z umrlari davomida u yoki bu tarzda e’tirof ham etishgan. Ushbu mulohazalar tarixiy mavzuda yozilgan asarlar uchun ham to‘la daxldor.

Mustaqillik arafasidagi ijtimoiy hayot taqazosi bilan shu mavzuga urg‘u tushgani bejiz emas. Ushbu jarayonlarda yurt, vatan taqdiri, shu vatanda yashayotgan millionlarning taqdiri va kelajagi ijod ahlini ham bezovta qildi. Ular

<sup>73</sup> Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adaboyoti // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017. – B. 342.

yaratgan badiiyat namunalarida xalqning o‘y va orzulari, istak va xohishlari tobora ochiqroq, aniqroq va mukammalroq aks eta boshladi. Ana shu jarayonda vatan, millat tarixiga nazar tashlash ham ijodkorlarning diqqat markaziga ko‘chdi. Ayni o‘sha damlarda “O‘zbekim”, “O‘zbekiston” singari she’riy qasidalarining yaratilgani mutlaqo tabiiy edi. Bu asarlarda, aslida, millatning kelajak bilan aloqador bo‘lgan ideali ham mujassamlashib ketgan edi. Ushbu jarayonlar ayni paytda o‘zbek adiblarining badiiy adabiyotdagi idealni tanlash va yaratish yo‘lidagi ilk dadil qadamlari edi. Bu jarayonda ko‘plab tarixiy mavzudagi asarlarning yuzaga kelishi, ularda tarixiy siymolar: buyuk davlat arboblari, sarkardalar, sharqning ulkan mutafakkirlari, ijod ahli siymosini yaratish yo‘lidagi harakatlar ham mana shu estetik idealni izlash va yaratish yo‘lidagi katta tajribalar bo‘lganini e’tirof etish zarur. Ular orasida bevosita Alisher Navoiy siymosini yaratishga bo‘lgan urinishlarning ham salmoqli o‘rin tutgani alohida e’tiborga molik.

Badiiy adabiyotdagi ideal hayotiy prototipga ega bo‘lishi ham, mutlaqo to‘qima obraz bo‘lishi ham mumkin. Har bir asarda personajlar yashaydi, nafas oladi, o‘z taqdiriga ega bo‘ladi. Ular yozuvchining maqsadidan kelib chiqib, asarda turli holatlarda namoyon bo‘ladi. Shuhratning “Oltin zanglamas”dagi obrazlar haqida: “romandagi ba’zi

obrazlarning nusxasi hayotda naqd edi, ba'zilarini esa niyatimga moslab o'zim to'qidim"<sup>74</sup>, – deyishi bejiz emas.

Tarixiy, tarixiy-biografik asarlar “prototip” tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Aslida, prototip “badiiy obraz(tip)ga asos bo'lgan real shaxs. Avtobiografik va memuar asarlarda, lirika va hujjatli nasrda, shuningdek, portret san'ati va haykaltaroshlikda boshqa janrlardagiga nisbatan kengroq foydalaniladi. Oshkora shartlilikka asoslangan fantastika, romantizm va boshqa uslublarga qaraganda realizmda prototip san'atkorga voqelikni badiiy o'zlashtirish uchun hayotiy material bo'lib xizmat qiladi”<sup>75</sup>. Tarixiy shaxs va prototip tushunchalari ancha murakkab talqinlarga ega. Bir tomondan bu yerda real tarixiy shaxsning mavjudligi e'tirof etilsa-da, uning nisbatan uzoq davrlarda yashab o'tgani muammoni biroz murakkablashtiradi. Bu yerda prototip tushunchasi o'sha davrdan buyon shakllanib kelayotgan ilmiy-tarixiy hamda adabiy hodisalar vositasida shakllangan tasavvur va tushunchalar silsilasidan iborat bo'lad. Agar tasavvur va tushunchalarning individual hodisa ekani nazarga olinsa, unda “prototip”ning ham mazmun va mundarajasini ko'z oldimizga keltirish qulaylashadi, ya'ni bu yerda shartlilik

<sup>74</sup> Шухрат. Танланган асарлар. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969. – Б. 9.

<sup>75</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2004. – Б. 183.

qonunlari ustuvor mavqe kasb etadi. Asar qaysi janrda bo‘lishidan qat’iy nazar, gap real tarixiy shaxs ustida borishiga qaramasdan asosiy urg‘u badiiyat qonunlariga tushaveradi. Shunga ko‘ra, bu yerda shoir va yozuvchining individualligi, poetik mahorati hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

“Bu usulda badiiy obraz yaratishning xarakterli xislati shundaki, bunda hayotda mavjud bo‘lgan tarixiy shaxs badiiy obrazning asosida turadi. Yozuvchi hayotdagi favqulodda shaxslar – prototiplarga tayanib badiiy obraz yaratadi. Prototipli obraz yaratish jarayonida ham, xuddi jamlash yo‘li bilan obraz yaratilayotganidagidek, hayot hodisalari tipiklashtirilib ko‘rsatiladi, badiiy to‘qimadan ma’lum me’yorda foydalaniladi. Ta’kidlash kerakki, badiiy obraz hayotiy material – prototip, yozuvchining ijodiy fantaziyasi – badiiy to‘qima va olg‘a suriladigan g‘oya – estetik idealning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi”<sup>76</sup>.

Navoiy shaxsiyati oddiy shaxsiyat emas. Tarixiy va adabiy asarlardan ma’lum bo‘ladiki, u insonparvarlik g‘oyalari targ‘ibotchisi bo‘lish bilan birga, ularni hayotda joriy etishga intilgan faol inson bo‘lgan. Binobarin, uning tengsiz shaxsiyati o‘zi yaratgan asarlaridagi g‘oyalar bilan uyg‘unlashib hayotlik davridanoq tarixiy-badiiy asarlarning qahramoni – estetik ideali bo‘lishiga olib kelgan.

---

<sup>76</sup>Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002. – Б. 55-56.



Alisher Navoiyning real inson sifatidagi tiynati, yuksak axloqi uning o‘z asarlarida, zamon-doshlarining esdaliklarida, tarixiy va adabiy manbalarda aks etgan. Tabiiyki, zamonaviy ijodkorlarning barchasi bu manbalar bilan to‘la tanishib chiqmagan, ayrim ijodkorlarga bu borada juda katta sa’y-harakat qilishgan.

Omon Muxtor, Muhammad Ali va Isajon Sultonlarning bir-biriga yaqin tomonlaridan biri shundaki, ularning har uchovlari ham masalaga mutlaqo yangicha nuqtayi nazardan qaray olishdi. Bu ayniqsa, Husayn Boyqaro va Navoiy juftligining tasvirida juda ochiq namoyon bo‘ladi. Ularning o‘z asarlarini yozishdan oldin ko‘plab tarixiy va adabiy manbalarni sinchiklab o‘rganishlari, bunda ko‘proq adibning asarlariga murojaatning kengayishi ochiq seziladi. Ular o‘rtasidagi ayirma esa o‘zlari tayangan manba va materiallardan foydalanish bobida ularning har biri o‘zgacha yo‘ldan borganida, janr imkoniyatidan foydalanishida (ularning ikkitasi roman, bittasi drama), shuningdek, asosiy qahramonlar tiynatini ko‘rsatish usullarida va nihoyat, muammoga yondashish manerasida ko‘rinadi.

“Navoiy o‘z adabiy va ilmiy asarlarida tasavvufiy qarashlardan, estetik idealidan kelib chiqib, komil inson nazariyasini olg‘a surar ekan, bu mavjud hayotdan uzilgan, quruq gaplar emas edi. Buning ildizlari XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy va

madaniy hayotda bor edi. Ya'ni ulug' shoir o'z asarlarida inson va uning faoliyati bilan bog'liq, amalga oshishi mumkin bo'lgan orzularni kuylagan va shu yo'nalishdagi g'oyalarni ilgari surgan edi. Navoiy va uning zamondoshlari ijodi va faoliyatini to'g'ri anglab yetish uchun bu davrni yanada chuqurroq va kengroq ilmiy tadqiq etishimiz zarur"<sup>77</sup>. Ushbu qaydlar Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratishni istagan ijodkorga ham, mana shu siymodagi butun xislat va fazilatlar mohiyatini mujassam etgan tarixiy-adabiy obrazning mohiyatini his etishga intilayotgan kitobxonga ham birdek zarur.

Alisher Navoiy siymosi tasvirida vatanga, mil-latga fidoyilik tuyg'ulari ustuvorlik qiladi. Hatto Husayn Boyqaro bilan do'stlik munosabatlari tasvirlarida ham mualliflar bu tuyg'ularning yurt va vatanga muhabbat tuyg'ulari bilan eshligini, yaxlitligini maxsus urg'ulaydi. Ushbu jarayondagi yuksak axloqiy-ma'naviy talablar bilan tabiiy uyg'unlik Alisher Navoiy siymosini yanada go'zal, salobatli va yuksak insoniy qiyofada gavalantirishga asos beradi.

Buyuk mutafakkir Gegel qayd etganidek: "San'atkor vaziyat, tarixiy hodisa va xarakterlarni ko'hna zamonlardan tanlab olar ekan, tasodifiy tashqi belgilarni e'tibordan soqit qiladi, xususi

---

<sup>77</sup>Хайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 83. .

moment va badiiy vositalarga nisbatan o‘zini ko‘proq erkin tutadi va shu bois kengroq imkonlarga ega bo‘ladi”<sup>78</sup>. Mustaqillik davri adabiyotida milliy-ma’naviy hayotdagi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy voqelikdagi jiddiy o‘zgarishlar yurt egalari – mamlakat aholisining tafakkur tarziga juda kuchli ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Sobiq totalitar tuzum va uning “keskir qilichi” bo‘lgan mafkuraviy tazyiqlardan qutulish ijod ahliga iste’dodini to‘laroq namoyon qilish uchun munosib muhitni yuzaga keltirdi. Ayni holat millatning bundan keyingi taqdiri va kelajagini taavvur qilish va belgilash sari chaqiriq vazifasini ham ado etdi.

Tarixiy mavzuga, shonli o‘tmish hodisotiga bo‘lgan qiziqishlar doirasining sezilarli tarzda kengayib va kuchayib borishi xuddi shu fenomenal hodisa bilan chambarchas bog‘liqdir. U turli tazyiqlardan xoli, tarixiy haqiqat tom ma’noda haqqoniy yoritilgan, adabiy-estetik ideal sifatida millat qahramoniga aylangan obrazning yaratilish zaruratini paydo qildi. Bu ijodkorlar uchun ham ancha jiddiy muammolarni ro‘para qildi.

Yana bir qiziqarli hodisani qayd etish mumkin. Alisher Navoiyga bag‘ishlangan asar mualliflari ijodini kuzatish shu xulosaga olib kelmoqdaki, ular bu buyuk mutafakkir adib hayoti va ijodini tasvirlash uchun o‘zlarida juda katta mas’uliyat

---

<sup>78</sup> Гегель. Эстетика. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси // Шарк юлдузи, 2014. № 4. – Б. 75.

yukini his etishgan. Ularning birortasi ham mazkur mavzudagi asarni yozishga birdaniga kirishgan emas. Oybek domla tajribasida bo‘lganidek, avval kichikroq va mo‘jazroq asarlar, keyingina yirik hajmdagi epik polotnolarga murojaat etilgan.

Yana bir fakt shundan iboratki, hatto tarixiy mavzuda qalam tebratgan yozuvchilarning aksariyati ham birdaniga bu mavzuga kirishmasdan, avval boshqa mavzu va muammolar ustida o‘z “yozuv qurollari”ni charxlab olishgan: bu borada tegishli ko‘nikma va malakalar, tajriba va ishonchga ega bo‘lganlaridan keyingina Alisher Navoiy obrazining kengroq tasviriga kirishishgan.

Alisher Navoiy haqida yozilgan dramatik asarlarning eng mashhuri Izzat Sulton va Uyg‘unlarning “Alisher Navoiy” dramasi bo‘lib, shu mavzudagi asarlarning eng saralaridan sanaladi. To‘g‘ri, asar zamonasozlikdan, tuzumning mafkuraviy tazyiqidan xoli bo‘lmagan. Umuman, sobiq sho‘rolar davrida nafaqat mazkur drama, balki o‘sha davrda yaratilgan barcha asarlarda ham shunday holatni kuzatish mumkin edi. Ammo gap hozir bu haqda emas, gap mazkur dramadagi Alisher Navoiy obrazining nechog‘li haqiqiy hayot bilan aloqasi ustida. Zero, gap prototip haqida borar ekan, bu muammoni chetlab o‘tish mumkin emas. Bu yerda I. Sultonning ham ijodkor, ham adabiyotshunos, xususan, navoiyshunos sifatidagi

imkonlaridan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ustozning maxsus asarlaridan<sup>79</sup> tashqari bir qator nazariy kitoblarida ham Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga, adib asarlariga muntazam murojaatlarni ko‘rish mumkin. “Navoiyning qalb daftari” bu boradagi oliy cho‘qqini tashkil etadi<sup>80</sup>.

Ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiy shaxsiyati butun tarix, xususan, millatimiz tarixidagi fenomenal hodisalar sirasiga kiradi. U o‘zbek adabiyotida yangi va yuksak bir davr yaratdi. Bu o‘z mohiyati va miqyosiga ko‘ra shunday bir ko‘lami keng davr ediki, unda o‘zbek adabiyotining XV asrlargacha bo‘lgan ijodiy tajribalari zo‘r muvaffaqiyat bilan umumlashtirildi, uning taraqqiyot yo‘llari belgilab berildi.

O‘zbek adabiyotida buyuk siymolarning bi-rortasiga Alisher Navoiyga bag‘ishlangan miqdor va darajadagi asarlar bag‘ishlangan emas. Mazkur holat shoir bu davr adabiyotida estetik ideal sifatida qabul qilinganini tasdiqlaydi. O‘zbek shoirlarining deyarli barchasida Navoiyga bag‘ishlangan she’r mavjud. Ulardan ayrimlari bu boradagi adabiy mulohaza va e’tiroflarini, shoirga bo‘lgan e’tiqod va hurmatlarini bir she’r doirasida ifoda etish imkoni yo‘qligini chuqur anglagani bois ko‘plab asarlar, o‘rni bilan, she’riy turkumlar yaratishgan.

<sup>79</sup> Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005.

<sup>80</sup> Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2010.

## I BOB XULOSALARI

1. Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy mavzu ustuvor mavqe qozondi. Ushbu yo‘nalishda buyuk mutafakkirlar (Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Mahmud Koshg‘ariy), davlat arboblari (Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon) hamda ijodkor shaxslar (Bobur, Pahlavon Muhammad, Mashrab, Nodira) asosiy tasvir obyektiga aylandi. Ular orasida eng katta salmoqni Alisher Navoiyga bag‘ishlangan asarlar turkumi tashkil etadi.

2. Tarixiy fakt va material o‘z-o‘zicha badiiy jonlanmaydi, adabiy material bo‘lib qolmaydi. Bu jarayonda nihoyatda murakkab kechuvchi ijodkorning saralash, tanlash, umumlashtirish prinsiplari hamda ijodiy niyati muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif tarixiy mavzudagi asar uchun muayyan fakt yoki dalilni tanlab olgach, uni o‘z ijodiy konsepsiyasi ifodasida ishlatishi, badiiy to‘qima bilan aloqalantirishi ham mumkin. Tarixiy fakt va materialni badiiy qayta jonlantirishdagi eng muhim omillar – muallifning iste’dodi, bilim darajasi va badiiy mahoratidir.

3. Tarixiy mavzudagi, xususan, tarixiy prototip asosiga qurilgan asarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ko‘p jihatdan ijodkorning o‘zi tasvirlayotgan tarixiy davrni va tasvir obykti (ha-

yoti va ijodi)ni qanchalik chuqur bilishiga bog‘liq. Agar ijodkor tasvir obyektini yaxshi bilsa, uning mohiyatini anglab yetsa, tasvirlar ham haqqoniy va ta’sirli bir shaklda yuzaga chiqadi. Eng ishonchli tarixiy material hamda badiiyat mezonlariga mos talqin uyg‘unlashgan nuqtada tarix badiiy jonlanadi.

4. Tarixiy shaxsning badiiy obrazini yaratish murakkab jarayon bo‘lib, u yuzaga kelishi uchun hayot haqiqati va badiiy to‘qima ideal darajada sintezlanishi zarur. Aniqroq qilib aytganda, bu turdagi obrazlar prototip, badiiy to‘qima va estetik ideal qo‘shilishidan (T. Boboyev) hosil bo‘ladi.

5. Tarixiy shaxs tasviridagi eng muhim masala – fakt va talqin munosabatidir. Tarixiy fakt va uning badiiy talqini o‘rtasidagi mutanosiblikning eng asosiy sharti va eng yaxshi ko‘rinishi – tarixiy haqiqatga xos umumiy mantiqning buzilmasligidir. Shuningdek, badiiy fantaziyadan foydalanishdagi me’yor ham shu siraga mansub. Ammo badiiy asarda fakt va talqin muvofiq yoki nomuvofiq bo‘lishi ham mumkin. Garchi nomuvofiq holatlar fazilat sanalmasa-da, ular ijodiy niyat, mavjud an’ana yoxud qarashlardagi tafovutlar bilan izohlanishi mumkin. Shu ma’noda, mustaqillik davri adabiyotida tarixiy va adabiy haqiqat mutanosibligiga jiddiy e’tibor qaratilayotgani, bu borada ijobiy natijalarning ko‘payib borayotganini qayd etish joiz.

6. Tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi asosiy mezonlar tarixiy sharoit va muhitni atroflicha bilish, muhim tarixiy fakt va epizodlarni ishonchli manbalardan saralash va tasniflash, davr tilini yaxshi o'zlashtirish, katta ilmiy tayyorgarlik va badiiy mahoratga ega bo'lish, badiiy to'qimadan o'rinli foydalangan holda tarixiy haqiqatning umumiy doirasidan chetga chiqmaslik hamda o'tmish va buyuk tarixiy shaxslar tasviri millat taqdiri, milliy qadriyatlar barhayotligi bilan bog'liq ulkan mas'uliyat ekanligini his etishdir.

7. Mustaqillik davridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar ijodkorlarning tafakkur tarziga kuchli ijobiy ta'sir o'tkazdi. Mafkuraviy tazyiqlardan qutulish ijod ahliga iste'dodini to'laroq namoyon qilish uchun munosib muhitni yuzaga keltirdi. Ayni holat millatning bundan keyingi taqdiri va kelajagini taavvur qilish, o'z idealini belgilash sari chaqiriq vazifasini ham ado etdi. Mustaqillik davri adabiyotida shonli o'tmish hodisotiga qiziqishning sezilarli tarzda ortib va kuchayib borishi xuddi shu fenomenal hodisa bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. U turli tazyiqlardan xoli, tarixiy haqiqat tom ma'noda haqqoniy yoritilgan, adabiy-estetik ideal sifatida millat qahramoniga aylangan obrazlarni yaratish zaruratini paydo qildi. Ijodkorlar Alisher Navoiy obrazini estetik ideal obykti sifatida qabul qildilar



va mazkur zaruratlar taqozosi bilan badiiy qayta ishladilar.

8. Ideal ilmiy kategoriya sifatida o‘tmishga aloqador. Shunga mos holda adabiy-estetik ideal ham o‘tmishdan qidiriladi. Adabiyotning bu ilmiy kategoriyasi zamirida inson ideali – komil insonni tasvirlash maqsadi yotadi. Etik va estetik normalarning tajassumi tushuniladi. Zotan, badiiy asar va undagi qahramonlar ijodkorning ideallari doirasida yuzaga chiqadi, badiiy talqin topadi. Yoki aksincha – ijodkorning xohish-istaklari asosida turuvchi narsa, mezon aynan idealdir.

9. Adabiy-estetik ideal yaratishda hamisha ideal obrazni ko‘p qirrali tarzda, to‘la farqli tasvirlash shart emas, undagi alohida olingan bir jihat yoki qo‘llangan detalning o‘zi ham bu vazifani “avtonom” tarzda ado eta oladi. Mana shu yakka tasvirlarning jamlanmasi birgalikda buyuk mutafakkir obrazining mozaikalarga o‘xshab ketadigan umumlashma tasvirini tasavvur qilish imkonini beradi. Demak, ideal obrazning birgina jihatiga urg‘u berishning o‘zi ham uning idealligini belgilay olishi mumkin. Bunday asosiy ko‘rsatkichlar amaldagi adabiy janr, ijodkorning adabiy-estetik niyati hamda uning adabiy tajribasi hamda poetik mahorati hal qiluvchi omillar sirasini tashkil etadi.

10. Ideal obraz yaratish jarayonida tasvir obyektining ijodkor ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri

ham mavjud. Bu ta'sir o'rni bilan katta salmoqqa ega bo'lishi ham mumkin. Alisher Navoiy shaxsiyatida mujassamlashgan millatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi g'oyalarning barakali ta'sirida mustaqillik davri o'zbek adabiyoti namoyandalari Navoiy obrazini adabiy-estetik ideal sifatida tasvirlash bilan birga o'z qarashlari va tuyg'ularini ham tarbiyalashga harakat qilishgan.

## II BOB. SHE'RIYATDA ALISHER NAVOIY SIYMOSINING BADIY IFODASI

### 2.1. Lirikada Alisher Navoiy obrazi tasvirlari

O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy san'at-xonasidan ta'sirlanmagan, bu ulkan merosdan ilhomlanmagan ijodkor topilmaydi. Navoiy ijodi mumtoz she'riyatimiz namoyandalari uchun o'ziga xos maktab rolini ham bajarganki, shoir yashagan davrdan buyon asarlariga muttasil naziralar, muxammaslar yozib kelingani buning isbotidir. Bu hodisaning yana bir sabab shuki, Alisher Navoiyning benazir shaxsiyati ijod ahli uchun hamisha namuna bo'lgan. Uning keng qamrovli ijtimoiy faoliyati, tengsiz ijodiy quvvatiga doir haqiqatlar hayotlik paytidayoq yozilgan tarixiy manbalarda muhrlangan. Ularda Navoiy dahosi, olijanob insoniy fazilatlari vasf etiladi, shu ma'noda, Alisher Navoiy – Sharq Renessansining yirik namoyandasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida, ayniqsa, turkiyzabon xalqlar madaniy va ma'naviy hayotining rivojida alohida o'rin tutadigan yorqin shaxs edi<sup>81</sup>. L.A.Karpushkina aytadiki, “A.S.Pushkin obrazi rus adabiyotida analogi bo'lmagan madaniy fenomen sifatida namoyon

---

<sup>81</sup>Bu haqda qarang: Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – Тошкент: Адабиёт, 2022. – Б. 198.

bo‘ladi”<sup>82</sup>. Ayni tavsifni Alisher Navoiyga nisbatan ham to‘lig‘icha qo‘llash mumkin: Alisher Navoiy obrazi o‘zbek adabiyotida o‘xshashi bo‘lmagan adabiy-estetik fenomen sifatida qalamga olingan.

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyatida Alisher Navoiy timsolining badiiy talqini haqida so‘z ketar ekan, u XX asr she‘riyati – Oybek, G‘afur G‘ulom, Shayxzoda singari zabardast ijodkorlar maktabidan o‘tib chiqqanini ta‘kidlash kerak. Shu bois bu davr lirikasiga xos asosiy talqinlarni bilmay turib mustaqillik davri she‘riyatida shakllangan tendensiyalarni tushuntirish qiyin.

XX asr she‘riyatida Navoiy obrazi talqinlari haqida fikr yuritilganda G‘afur G‘ulomning “Alisher” nomli she‘ri ayniqsa xarakterli. Bu she‘r 1968-yilda yozilgan. G‘afur G‘ulom kashf etgan bu she‘riy ohangni hech bir ijodkor takrorlay olmadi. Aynan o‘tmish mavzusi orqali she‘rxonga zamona dardlarini aytish mazkur she‘riy asarga xos xususiyat. She‘rda Navoiy obrazi Vatan va Xalq bilan doimo bir tan-u jon bo‘lganligi aks ettiriladi, erk-u baxt timsoli sifatida tasvirlanadi. Navoiyning temuriylar davri madaniyati va adabiyotining eng yorqin siymosi ekanligi “sarkash-u barhayot, bo‘ysunmas shuur” sifatida tasvirlanadi, “granit haykalday” buyuk shaxsiyati esa ulug‘lanadi:

<sup>82</sup>Карпушкина Л.А. Образ А.С. Пушкина в русской литературе конца XIX – начала XX веков и проблема литературной рецепции. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М., 2000. – С. 141.

*To'fon, quyunlarda yakka-yu yolg'iz,  
Monolit, granit haykalday mag'rur,  
Temurbek davlatin so'nggi chog'ida  
Sarkash-u barhayot, bo'ysunmas shuur*<sup>83</sup>.

Fazilatlar sohibi bo'lgan Navoiy siymosining tasviri keyingi misralarda yana ham kuchliroq yangraydi.

*Daraxshon yulduzlar sari o'kirgan,  
Bo'ynida zanjir-u, qalbi ozod sher,  
Insoniy muhabbat mehr ila vafu,  
Erk-u baxt timsoli ulug' Alisher*<sup>84</sup>.

O'quvchi ko'z o'ngida yaxlit manzara gavdalanadi: osmonda munavvar yulduzlarning chaqnaq porlashi, qizarib turgan cheksiz osmon va unga tutashgan ufq. Bepoyon kenglik qo'ynida o'kirib turgan baquvvat va kuchli sher tasvirlanadi. Ammo uning jism-u joni zanjirband. Sher zanjirband bo'lsa-da, yuragida ozodlik, erk tuyg'usi hukmron. Navoiyning o'zi chizgan suratda zanjirband sher aksi borligini bilamiz. G'.G'ulom ayni detal orqali Navoiy ruhiyati, uning qalb kechinmalarini tasvirlaydi, shuningdek, shoir shaxsiyatidagi insoniy jasorat, muhabbat, mehr va vafoni mujasamlashtiradi. Ma'lumki, Navoiy yashagan zamonning o'ziga xos murakkab va ziddiyatli to-

---

<sup>83</sup> Фафур Гулом. Алишер. — // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. Шеърлар, дostonлар, мухаммаслар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Р.Мусурмон, Г.Ашурова. — Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. — Б. 7.

<sup>84</sup> Ўша ерда.

monlari ko‘p bo‘lgan. Husayn Bayqaro davlat tepasiga chiqqunga qadar Navoiy hayotidagi qiyinchiliklar, yosh shoir duch kelgan zahmatlar tarixiy manbalarda keltirilgan<sup>85</sup>. Shoir zanjirband she‘r detali orqali mana shu haqiqatlarga ham ishora qiladi.

G‘afur G‘ulom ijodida tarixni chog‘ishtirish orqali tasvirlashda bir necha xususiyatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Zamonaviy masala mohiyatini ochish maqsadida o‘tmishga murojaat.

2. Tarixiy shaxs, tarixiy voqea tasvirini afsonaviy obrazlar yordamida tasvirlash.

3. O‘tmish mavzusi orqali zamona dardlarini umumlashtirish.

Masalan, shoir bir o‘rinda shunday yozadi:

*Hirof tongotarin tasavvur qilib,*

*Yigitlik umringning kamolin ko‘rdim.*

*Qarigan chog‘laring qaro shomida,*

*Xuroson o‘lkasin zavolin ko‘rdim<sup>86</sup>.*

Ushbu she‘rda Amir Temur tuzgan ulug‘ saltanatning qudratli bo‘lgani holda keyinchalik parchalanib ketishi, temuriyzodalarning toj-taxt

---

<sup>85</sup> Bu haqda qarang: Султон Иззат. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент, 1979; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.

<sup>86</sup> Ғафур Ғулум. Алишер. – // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. Шеърлар, дostonлар, мухаммаслар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Р.Мусурмон, Г.Ашурова. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 8.

uchun qon to‘kislari-yu, xalqning og‘ir ahvoli obrazli ifodalangan. “Xuroson o‘lkasining zavoli” shoir ko‘ksini o‘rtaydi. G‘afur G‘ulom garchi ushbu misralarda Navoiy obrazini tasvirlagan bo‘lsa-da, bu orqali vatan mustaqilligi, ozodlik haqidagi qalb kechinmalarini nazarda tutgani sir emas. Aytish mumkinki, Navoiy siymosi G‘afur G‘ulom she‘riyatida erk-u baxt timsoliga aylangan.

Adib Alisherning o‘lmas ijodi bugun ham e‘zoz va ardoqda ekanini “Yuksak tog‘ oralab o‘kirgan sherning na‘rasiga tengdir aksi sadosi” misralarida badiiy ifodalagan:

*Yuksak tog‘ oralab o‘kirgan sherning  
Na‘rasiga tengdir aksi sadosi,  
Besh yuz yil yangradi tog‘day Vatanda  
Ulug‘ Alisherning asriy nidosi*<sup>87</sup>.

G‘afur G‘ulom Alisher Navoiyga xos buyuk fenomen mohiyatini anglash va anglatishga astoydil harakat qiladi. Ustod ijodkor asarlari mohiyatini chuqur idrok etgani tufayli uni qadrlashga chaqiradi. Bu motiv tasviri “Alisher Navoiy qabri ustida” she‘rida ham davom etadi.

Zamonaviy o‘zbek lirikasini tushunishda G‘afur G‘ulom yozgan misralarning o‘rni va ahamiyati katta. G‘afur G‘ulom o‘ziga xos qamrov va tafakkur tarzi bilan Alisher Navoiyning millat tarixidagi, adabiyot va san‘at tarixidagi o‘rnini

---

<sup>87</sup> Ўша нашр. – Б. 9.

juda aniq tasavvur qiladi, shu bois ifodada ham mas’uliyat bilan yuksak badiiyat namunalari yaratadi. Navoiyning tarixiy xizmatlari va shaxsiy fazilatlarini tasviriga ustuvorlik beradi. Bu borada G’afur G’ulom erishgan yutuqlar ancha salmoqli ekani va keyingi davr she’riyatiga ta’sir etganini e’tirof etish joiz.

O‘zbek adabiyotida Navoiy obrazini yaratishda Oybekning o‘rni beqiyos. “Navoiy” romani nafaqat Alisher Navoiy, balki Oybek domlaning o‘ziga ham o‘rnatilgan ma’naviy haykal deyish mumkin. Oybek lirikada Alisher Navoiy obrazini yaratishga ham katta hissa qo‘shgan. Navoiyning xizmatlari she’riy misralarda (“Haykal oldida”) Oybekka xos lo‘ndalik va zalvor bilan aks etadi:

*Kuylagandi besh asr burun*

*Xalqni, haqni, ishqni bu inson.*

*Yuragi ham erkin, yorug‘ kun –*

*Dardi bilan tepardi har on<sup>88</sup>.*

Shoir birgina misra bilan buyuk mutafakkir qalamiga mansub mavzular qamrovi (xalq, haq, ishq)ni ko‘rsatishga erishgan. Bu misralar, ayni paytda, Navoiy shaxsiyatiga xos bo‘lgan yana bir xislat – “yuragining xalq dardi bilan tepishini” sodda va samimiy tarzda aks ettirgan. Navoiyga xos bo‘lgan portret unsurlari ham undagi salobatni

<sup>88</sup> Ойбек. Хайкал олдида // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. Шеърлар, дostonлар, мухаммаслар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Р.Мусурмон, Г.Ашурова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 13.



ham, surat go‘zalligi-yu siyrat boyligini ham mu-  
jasam etgani bilan e’tiborni tortadi:

*Ulug‘ Vatan ko‘ksida shoir  
Bugun qaddin ko‘tardi baland:  
Abadiy tosh libosidadir,  
Qo‘lda kitob, ko‘zlari o‘ychan*<sup>89</sup>.

Oybek yosh avlodning Navoiy asarlariga oshufta bo‘lib borayotganini qayd etadi. Bunda u shu avlod vakillarining o‘ziga “so‘z berish” usulidan foydalanadi. Ayni paytda, bevosita muta-fakkir adibning o‘ziga ham murojaat shaklini qo‘l-laydi:

*– Assalom, Navoiy! – deydi yosh avlod,  
Olqishlaydi xalqni baxtiyor.  
– Shoir, arzir qilsang iftixor,  
So‘zing yangrar, ko‘ngillarda yod*<sup>90</sup>.

Oybek Navoiyni gruzin, fors-tojik, rus, ukrain tillarida ijod etgan buyuk so‘z ustalari yonida xalqlar e’tirofida ekanidan iftixor qiladi. Oybekning bu she’ri 1949-yilda yozilganligiga qaramay, his-tuyg‘ular, kechinmalar zalvori bilan kishiga xuddi bugun aytilgandek ta’sir etadi. Navoiy siymosi unda Vatanga qiyoslanadi. Shoir Navoiy siymosini Ona O‘zbekiston – Vatan va o‘zbek millati timsoli sifatida gavdalantiradi.

1937-yilda yozilgan “Navoiy” dostoni esa “She’r ahliga bo‘ldi bayroqdor” misralari bilan

---

<sup>89</sup> Ўша ерда.

<sup>90</sup> Ўша нашр. – Б. 13.

tugaydi. Dostonda Husayn Boyqaro obrazi davr mafkurasi ta'sirida talqin etilgan bo'lsa-da, Navoiy obrazi haqida bunday deb bo'lmaydi:

*Sulton botgan ishratga mudom,*

*Buzuqilar boshida imom,*

*Bu majlisga begona shoir*

*Tuyg'ularin qilolmas zohir<sup>91</sup>.*

Oybek lirikada ham Navoiy bilan hamnafas bo'la oldi. Navoiy asarlari qatidagi mohiyatni chuqur idrok etdi, shu tufayl u yozgan satrlar ishonchlilik, hayot haqiqatlariga moslik va yuksak badiiyat bilan ajralib turadi.

Mustaqillik bizga o'tmish tariximizni haqqoniy yoritish imkonini berdi. Tilimiz, dinimiz, qadriyatlarimiz, tariximiz, haqqoniyatni to'g'ri ayta olishimiz aynan shu sharoitda ro'yobga chiqdi. Bugun o'zbek xalqi yigirma birinchi asr sharoitida Navoiyni yangidan tanidi, kashf etdi, bu jarayon lirikada ham muntazam tus olib bormoqda. "His-tuyg'u va kechinmani ifodalovchi lirikada shunga harjihatdanmos–emotsionalto'yintirilganvaritmik jihatdan tartibga solingani bois ifodalanayotgan his-tuyg'uga muvofiq ohangda jarang topadigan she'riy nutq shakli ustuvorlik qiladi. Shu bilan birga, nasriy yo'lda yozilgan lirik asarlar ham, kam bo'lsa-da, bor. Alohida subyekt kechinmalari ifodalangani uchun lirikada monologik nutq shakli ustuvor, unda uchraydigan dialogik nutq

---

<sup>91</sup> Ойбек. Асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 49.

ko‘rinishlari esa monologik nutqning tarkibiy elementiga aylanadi. Oniy kechinmani tasvirlovchi lirikaning badiiy vaqti hamisha – “hozir”: u ayni hozir ko‘ngilda kechayotgan his-tuyg‘ularni tasvirlaydi, she’r qachon yozilganidan qat’iy nazar, she’rxon uni hozir ko‘ngilda kechayotgan tuyg‘u kabi qabul qiladi”<sup>92</sup>. Ayni mulohazalar mustaqillik davrida Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratishga qaratilgan lirik namunalar uchun ham to‘la muvofiq.

Bu davrga xos eng xarakterli xususiyat shuki, Navoiy asarlarini mustabid tuzum qoliplari asosidagina emas, o‘z hoida, har qanday mafkura-dan xoli, chinakam san’at asari sifatida o‘qib-o‘rganish va badiiy idrok etish davri boshlandi. Endi lirika Navoiyning qalb kechinmalari, asarlarida aks etgan ma’rifiy g‘oyalarni tadqiq etish va qayta badiiy inkishof etish bilan ko‘proq shug‘illana boshladi. Professor Q. Qahramonov Alisher Navoiy siymosining zamonaviy adabiyotdagi talqinlarini o‘rganib shunday xulosa qiladi: “shoirga (Alisher Navoiyga – G.A.) atab bitilgan she’riy namunalar-da har ikki yo‘nalish – ham shoir obrazi yaratilgan, ham uning boqiyiligini ulug‘lovchi asarlar ko‘plab yaratilmoqda”<sup>93</sup>. Buning sabablari esa, yuqorida

---

<sup>92</sup> Курунов Дилмурод, Мамажонов Зокиржон, Шералиева Машхура. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akadernashr, 2010. – Б. 153.

<sup>93</sup> Қахрамонов Қ. Замонавий шеърятда Навоий образининг поэтик талқини // ТДПУ Илмий ахборотлари. Илмий-назарий журнал. 2017, № 1 (10). – Б. 83.

ta'kidlaganimizdek, Navoiyni anglash darajasi, ijodiga bo'lgan ehtiyoj va munosabatning xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Darhaqiqat, mustaqillik davri she'riyatida Navoiy siymosiga munosabat, asosan, mazkur ikki yo'sinda namoyon bo'ldi. Ularning bir guruhida Navoiy obrazi yaratilgan bo'lsa, qolganlarida buyuk shoir ko'proq ko'kka ko'tarilgan, maqtalgan, ta'rif-u tavsif etilgan. Kezi kelganda qayd etish joizki, bu davrda ikkinchi yo'nalishdagi she'rlar nisbatan ko'proq yaratilgan. Lekin ularda ham Navoiy misolida o'tmishimiz, qadriyatlarimizni anglash, buyuk shoir haqidagi tiniq tasavvurlar ifodasini uchratish mumkin. Quyida ana shu guruhlariga mansub she'r namunalari tahlil etildi.

Abdulla Oripov Navoiy obrazini yaratishda zamonamiz ijodkorlarining peshqadamlaridan biri bo'ldi. Shoir, jumladan, "O'zbekiston" she'rida mana bunday yozadi:

*Besh asrkim nazmiy saroyni,  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyni,  
Qalam bilan oldi Alisher.  
Dunyo bo'ldi chamanim manim.  
O'zbekiston Vatanim manim<sup>94</sup>.*

Abdulla Oripovning she'riyati hikmatga yo'g'rilgani, obrazli tasvirning behad yorqinligi, hayot

---

<sup>94</sup>URL: <https://ilmlar.uz/abdulla-oripov-sara-sherlari-a-oripov-sherlar-toplami/>

haqiqati hayratlanarli darajada badiiy haqiqatga yuksalgani bilan alohida ajralib turadi. Shoirning Navoiy siymosiga munosabatida ayni jihatlar bo‘rtib turadi. U bir umr Navoiy ijodi ichida yashadi, u bilan sirlashdi, bularning natijasi o‘laroq Navoiyga katta ixlos qo‘ydi, undan faxrlandi. Mana shu kechinmalarini yuqoridagi kabi go‘zal misrlarda badiiy ifodaladi. Uning sharafli umri ham Navoiy asarlarida aks etgan “muborak tuyg‘ular kahkashoni”da kechdi. Aytish mumkin-ki, Alisher Navoiy – Abdulla Oripovning ideali edi. Bu haqiqatni uning Navoiyga daxldor har bir lirik asari tasdiqlab turadi.

Abdulla Oripov buyuk salafi haqida shunday yozadi: *“Ayonki, buyuk Navoiy ijodi va faoliyati ulug‘ bir ummondir. Uning tubiga yetish yoxud bu bahrni daf‘atan baholash necha-necha avlodlarning ham umriga tatigulikdir.. Navoiy o‘z jodu san‘atini, g‘azaliyotini faqat san‘at bezagi uchungina emas, balki aniq murod-u maqsadlar uchun, ezgu g‘oyalari, niyatlari uchun xizmat qildirdi. Uning betakrorligi ham ana shunda...”*<sup>95</sup>.

Jiddiy fikr, chinakam hissiyot, samimiyat, mahorat – ana shular shoir ijodining qimmatini bildirsa, Abdulla Oripovga xos bo‘lgan tabiiy, samimiy ifoda oqimi, tarixiy fakt va dalillarni

---

<sup>95</sup> Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 129-130.

qiyoslash usuli ochiq ko‘zga tashlanadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan asrimiz, texnikamiz koinot miqyosiga ko‘tarildi, biroq ma‘naviy kamolotimizning fazosi olti yuz yil ortidan qo‘l yetmas armondek porlab turibdi.

Abdulla Oripov – Navoiyning munosib izdoshi, chunki u Navoiydan saboq ola bildi, uning mahorat sirlarini daqiq angladi, har jabhada unga ergashdi. U buyuk salafining san’atxonasidan qanday saboq olganini quyidagicha xotirlaydi: “...*Men Navoiydan masalaning mohiyatiga kirishni, she’rni sehrlı tayoqchaday o‘ynatishni o‘rgandim. U kishi mazmun ifodasining ustasi, she’r aytish mumkin, lekin she’rni mazmun bilan faqat Navoiy aytgan*”<sup>96</sup>. Navoiy siymosi Abdulla Oripov she’riyatida “nuroniy bir zot” qiyofasida gavdalanib turadi:

*Jahonki muqaddas neni ko‘ribdi, -  
Bariga onasan, ey qodir hayot.  
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,  
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot*<sup>97</sup>.

“Nuroniy bir zot” Abdulla Oripov Navoiyga nisbatan qo‘llagan ko‘plab epitetlaridan biri. Mazkur parchadagi tayanch tushunchalar ifodasi sifatida *muqaddas, hayot, besh yuz yil* kabilarni ham ajratish mumkin. Ayni mana shu so‘zlar band

---

<sup>96</sup> Ўша нашр. – Б. 62.

<sup>97</sup> Ғафур Ғулом. Алишер. – // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. Шеърлар, дostonлар, мухаммаслар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Р.Мусурмон, Г.Ашурова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-магбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 25.

mazmunining yaxlit bir holda, quyma xulosa tarzida jaranglashiga asos bo'lgan.

Abdulla Oripovning Navoiy obraziga ijodiy yondashuvi o'ziga xos: u uchun Navoiy quruq namuna bo'lmay, milliy iftixor, g'urur va sharafshon timsoli, zotan, *“Uning nomi bilan birga bitilgan Dunyo daftariga o'zbek degan nom”*. Shoir lirikasidan uning ustoz Navoiyga o'ziga xos mehri borligini his etib turamiz. “Ming yillik muysafid tarixni so'ylatar ekan, shoir Navoiy haqida so'z yuritib, “Nizomiy bolidan halvo pishirgani”-yu, “Fuzuliy bitgan devonni” (“Ozarboyjon” she'ri) bir lahza qo'lidan qo'ymaganligini ta'kidlaydi.

Shoirning “Navoiy ko'chasi” she'rida ham Navoiy obrazi yaratilgan. Buyuk siymolar izi o'chmagan ko'cha tarixida millatning qadri barqaror. Negaki, bu yo'llardan Oybek-u Mirtemirlar, Olim Xo'jayev-u Shukur Burhonlar o'tgan:

*Har biri Vatanga suyukli siymo,  
O'chmagay ulardan qolgan iz, qadam.  
Saflarda Alisher bo'lsa ham peshvo,  
Lekin tap tortmasdi Majdiddinlar ham<sup>98</sup>.*

She'r orqali Navoiy siymosi poytaxtning qadim ko'chalaridan biri timsolida yashayotganini his qilish mumkin. Bu ko'cha kechayu-kunduz gavjum. Navoiy nafasi xalq nafasiga singishib yashayotganligini she'rda tashbeh, ko'chim va

---

<sup>98</sup> Ўша нашр. – Б. 27.

boshqa tasviriy vositalar orqali ta'sirchan ifodalagan.

Bugun millat poetik tafakkurining Navoiyni anglash darajasi Navoiy siymosi tasvirining tarixiy asoslari, poetik mahorat hamda ijodiy individuallik singari ko'plab izlanishlarga obyekt bo'la oladi. Navoiyga qaytish adabiy hodisasining davrlar osha yashovchanligini o'rganish ham g'oyatda ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Navoiyning hayoti va ijodi haqiqiy saboq va ibrat maktabidirki, mutafakkir shoir tajribalariga tayanib did, saviya va mahoratni yuksaltirish har bir iste'dod egasi uchun ijodiy muvaffaqiyatning daxlsiz garovidir. Navoiy yashagan davr va bu buyuk shaxs ibratli hayotining ta'siri katta hamda ijodkorlarning yangi avlodiga ilhom baxsh etib kelayotir. Buyuk bobokalonimiz yashagan davr voqealari, murosasiz hayot haqiqati, shoir, vazir, sadoqatli do'st, ustoz, ko'ngli yarimlar suyanchiq singari fazilatlar egasi bo'lgan buyuk shaxs hayot tarzini o'rganish, falsafiy mushohadalar, ijtimoiy muhit va inson taqdiri xususidagi kutilmagan xulosalar, bir-biridan jonli va ibratli tasvirlar orqali jonlantirilmogda.

Abdulla Oripov o'z she'rlarida Alisher Navoiyni nafaqat shoir, olim yoki mutafakkir sifatida, balki ulug' ustoz siymosida ham tasvirleydi. Uning "Ustozga ta'zim" she'rida o'qituvchi – murabbiy ustoz madh etilib, "Alisherbek lutf"i qiyos uchun olinadi:



*Buyuk Alisherbek lutf etgan misol,  
Savod o'rgatdingiz qancha ranj bilan.  
Qoplab bo'larmikin bu qarzni alhol,  
Uzib bo'larmikan yuzta ganj bilan*<sup>99</sup>.

Ustozlarga nisbatan minnatdorlik va qarzdorlik tuyg'usi azaldan xalqimiz e'zozlab yashayotgan qadriyatlardan biri ekanligi ayon haqiqatdir. E'tiborlisi, shoir nafaqat Navoiy aytgan mazmuni takrorlashni xohlaydi, ayni paytda ifoda vositalarini ham uning o'zidan oladi. Bu, bir tomondan, ikki shoirning hamfikrligini bildirsa, boshqa tomondan, A.Oripovning Navoiy ijodini juda chuqur bilishi, uni yod tutishini ko'rsatadi.

Abdulla Oripovning "Alisher va talaba" nomli she'rida Alisher Navoiy ustozini yuqori darajada e'zozlovchi, har qanday yuqori martabada bo'lishidan qat'iy nazar ustozni e'zozlab, uni pir deb biluvchi shogird sifatida gavdalanadi<sup>100</sup>. U xalqning ahvolidan xabar olgan holda "Ulusning dardi ne, a'moli nechuk"ligi bilan tanishadi. Boshlangan inshootlari, xalqning turmush tarzi bilan qiziqadi. U buyuk shoir bo'lishi bilan birga shoh Husayn Boyqaro ishonch bildirgan ulug' haqqparast, elparvar vazir ham edi. Uning qo'lida juda katta hokimiyat va huquq bo'lib, unga jami fuqaro ta'zim qiladi, "shohona jonlar" tegrasida parvona bo'lishadi.

---

<sup>99</sup> Орипов Абдулла. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б. 783.

<sup>100</sup> Ўша нашр. – Б. 312.

Hatto, dastori “haybatli shayxlar” ham unga bosh egib turadi. “Sergak sarbozlar-u sodiq a’yonlar, kosib-u shoir-u naqqosh”gacha mir Alisher istiqboliga muntazir. She’rda tasvirlanishicha, ana shunday shukuhli pallada “hali lablaridan uchmay biror so‘z” hazrat atrofga ko‘z tashlaydilar. Saflar orasidan bir talabaga boqib turib mehr ila tikilgach, nogahon otdan tushadilar. Butun xalq hayron bo‘lib qoladi:

*Borib talabani quchdilar hazrat,  
Olomon ruhida yangradi hayrat.  
Sarbozlar, a’yonlar hayratda edi,  
Takabbur boyonlar hayratda edi<sup>101</sup>.*

Tag‘in otga minib vazir so‘zsiz, bekalom safarini davom ettiradi. Ancha sukunatdan so‘ng oxiri bir mulozimning sabri tugab, vaziri kabirdan bo‘lib o‘tgan voqea yuzasidan savol so‘raydi:

Mulozimga sekin ayladi javob:  
*Esimda yosh chog‘im, ko‘p yillar nari,  
Menga saboq bergan uning padari<sup>102</sup>.*

Abdulla Oripov mana shu birgina detal orqali buyuk Navoiy obrazini o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon eta bilgan. Chunki Navoiyning e’tiqodicha, ota-ona farzandni dunyoga keltirsa, uni kamolga yetkazadigan, yetuk inson qiladigan – ustozdir. Saodat manziliga yetishning o‘ziga yarasha yuki bo‘ladi. Ana shu yukning salmoqli qismi ustozlar zimmasida. Ta’kidlash kerakki,

<sup>101</sup> Ўша нашр. – Б. 312.

<sup>102</sup> Ўша нашр. – Б. 312.

A.Oripov Navoiy obraziga nisbat bergan ustozni hurmat qilish sifati, aslida, Navoiy shu tipdagi qarashlariga tayanadi, shu bois tasvirlar jonli chiqadi. Navoiyning ustozga bo‘lgan e‘zoz va izzatining juda baland ekanligi buyuk shoirning o‘z asarlarida ham rang-barang tarzda aks etgan:

*Haq yo ‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,  
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila*<sup>103</sup>.

Insonda oqibat, diyonat, vijdonlilik, burchlilik kabi his-tuyg‘ular ham borki, uni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng muhim jihat ham shudir. Abdulla Oripovning ushbu she‘ri orqali Alisher Navoiy siymosining yoshlarga o‘rnak bo‘luvchi jihati ko‘z o‘ngimizda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shoirning “Inson” nomli she‘rida Navoiyning ijodiy ta’siri yorqin aks etgan bo‘lib, undagi dastlabki to‘rtlik Alisher Navoiy ijodida ko‘p marta murojaat etilgan ijtimoiy-badiiy haqiqatning zamonaviy ifodasidir:

*Oldiga kelganni qaytarmay yemoq,  
Aslida, aqli yo‘q hayvonning ishi.  
Og‘ziga kelganni qaytarmay demoq,  
Noqis-u befahm, nodonning ishi*<sup>104</sup>.

Abdulla Oripov Alisher Navoiy ijodining azaliy oshiqlaridan. Shuning uchun uning ijodida

---

<sup>103</sup> Навоий Алишер. Махбуб ул-кулуб. МАТ. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 28.

<sup>104</sup> Ориф Ҳожи Абдулла. Ҳаж дафтари. Ҳикмат садолари. – Тошкент, 1992. – Б. 12.

Navoiy mavzusi alohida mavqega ega. Mazkur she'r Navoiy misralaridan ruhlanib paydo bo'lganiga shubha yo'q. Shoir ustoz chizib bergan yo'lning o'zi bilan cheklanmaydi. U yo'l atrofida-gi so'qmoqlardan yangilik izlaydi. Shuning uchun ham o'zak sifatida olingan mana shu haqiqat she'rning keyingi misralarida o'zining yangi qir-ralarini namoyon etadi.

“O‘zbek adabiyotining so‘nggi 30-40 yili, mubolag‘asiz aytish mumkinki, Abdulla Oripov she‘riyati ta‘sirida kechdi”<sup>105</sup>, deganda professor Begali Qosimov haq edi. Bu fikr tasdig‘ini she‘riyatda Navoiy obrazining badiiy talqinlarini o‘rganish jarayonida ham kuzatish mumkin. Ma‘lumki, Alisher Navoiy asarlaridagi asosiy g‘oya inson kamolotidir. Shoir jamiyat hayotini sinchkovlik bilan tahlil qiladi, insoniyat tarixiga nazar tashlaydi. Shu kuzatishlar asnosida ezgulik, komillik sari intilish insonni yuksaltirishiga ishora qiladi. Xuddi shu holat Abdulla Oripov she‘riyati uchun ham xos. Faqat u yigirmanchi asrning oltmishinchi yillaridan yigirma birinchi asrning boshlarigacha bo‘lgan yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitda paydo bo‘lgan.

Alisher Navoiyning ijodidan ta'sirlanib, bar-kamol shaxsiyatidan o'rnak va ilhom olib, asar-larida mutafakkir shoir siymosini yaratgan ijod-korlardan yana biri Erkin Vohidovdir. Erkin

---

<sup>105</sup> Ўша китоб. 137-б.

Vohidov o‘zining “Shoir-u she’r-u shuur” kitobida quyidagi fikrlarni ta’kidlaydi: “Biz bugun Alisher Navoiy nomisiz o‘zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. Uning nurli she’riyati, yorug‘ siymosi ruhimizga singib ketgan. Shoirning yuksak badiiyat bilan muzayyan bo‘lgan, chuqur insonparvar g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan ijodi asrlar osha bizni hanuz o‘ziga rom qiladi, ko‘ngillarimizni zavq-u shafq hamda iftixor tuyg‘ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrati bilan boyitadi, bizni adolat uchun, inson qalbining mangu erki uchun kurashmoqqa chorlaydi”<sup>106</sup>. Shoirning turli yillarda Navoiy g‘azallariga bag‘ishlab yozgan muxammaslari, “Hijron yuki” (1967), “Alisher Navoiy kemasi” (1977), “O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa...” (2000) kabi she’rlari Erkin Vohidovning Navoiy ijodiga munosabatini, uning siymosiga chuqur ehtiromini bildiradi. “O‘zbekim” qasidasida Navoiy haqida:

*Mir Alisher na’rasiga*

*Aks-sado berdi jahon,*

*She’riyat mulkida bo‘ldi*

*Shoh-u sulton, o‘zbekim,* - deb, g‘ururlanib yozadi.

Erkin Vohidov yoshlik chog‘idan buyuk mutafakkir siymosiga ehtirom ko‘rsatib, asarlarini o‘qib ulg‘aygan.

*Fuzuliy devonin qo‘limga oldim,*

*U soldi ko‘nglimga g‘azal mehrini...*

---

<sup>106</sup> Воҳидов Э. Шоиру шеър у шуур. Адабий ўйлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 220.

*Ko‘p zahmat so‘ngida*

*Anglab yetoldim*

Ustoz Alisherning buyuk sehrini<sup>107</sup>, – deya o‘sha onlarni xotirlaydi shoir. Navoiy obrazini bor bo‘y-basti bilan tasavvur qilishga intilgan shoir 1977-yilda yozilgan “Alisher Navoiy kemasi” nomli she‘rida aytadi:

*Azaliy davrada charx uradi yer,*

*Mushtariy azaldek chaqnab turibdi...*

*Besh asr so‘ngida buyuk Alisher*

*Bahri muhit aro kezib yuribdi<sup>108</sup>.*

Shoir nazdida she‘riyat – ulkan bir ummon. Unda kezishni istagan har bir ijodkor bamisoli bir qayiq. Necha-necha qayiqning dengiz tubiga g‘arq bo‘lganiga esa tarix guvoh. Besh asr o‘tsa hamki, Alisher Navoiy kemasi qarshi to‘lqinlarga ko‘krak urib, qit‘alararo kezishdan tingani yo‘q. Bu kema:

*Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,*

*Yor o‘ling bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish<sup>109</sup>,* – deya bashariyat uchun totuvlik, tinchlik, mehr-u muhabbat yukini o‘z yelkasiga ortib olgan. Ulkan

<sup>107</sup> Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 360-361.

<sup>108</sup> Воҳидов Э. Алишер Навоий кемаси. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 245-246.

<sup>109</sup> Воҳидов Э. Алишер Навоийнинг 570 йиллиги муносабати билан Тошкентда ўтказилган халқаро конференциядаги маърузасида байтдаги “ёрлик” сўзи ийҳом санъати асосида икки маънода – дўстлик ва мақтовли маъноларида қўллаганлигини илк бор таҳлил қилиб берган эди. Бу шоирнинг Навоий ижодининг назик дидли билимдони эканлигидан далолатдир.

kemaga ortilgan har bir bayt, har bir misra bemisl  
san'atkorlik mahsuli, olam-olam hikmat xazinasi.  
Shoir iqrori esa shunday:

*Hayajon ko'nglimda, hayrat aqlimda,  
Olis qirg'oqdaman – bu nechuk timsol!!  
Yarim ming yil osha o'zga iqlimda  
Bundoq uchrashuvni kim etmish xayol<sup>110</sup>.*

Navoiy siymosi va ijodi shaydosiga aylangan E. Vohidov faqatgina hayratlanib qolmay o'zi ham g'azallar bita boshladi. Ammo u aruzga kirib kelgan vaqtlarda adabiy jamoatchilikning katta qismi bu vaznni eskirgan deb kamsitar, insonning ichki dunyosini to'la ochib bera olmaydi, ijodkorni qolibga solib qo'yadi deb ayblashar edi. "Bundan tashqari uni dinga, o'tmishdan qolgan "nuqson"larimizga ulab, battar yerga urishdi. Shunga ko'ra maktab-u oliy o'quv yurtlarida g'azalni o'rganishga yuzaki yondoshildi, u tashlab qo'yildi"<sup>111</sup>. Bu jarayon nafaqat o'zbek, balki boshqa turkiy xalqlar va tojik adabiyotida ham yuz berdi<sup>112</sup>. Mana shunday og'ir bir vaqtda Jamol Kamol, Omon Matjon, Abdulla Oripovlar bilan bir qatorda Erkin Vohidovning aruzda Navoiyga ergashib yuksak g'azallar bitgani bizga ma'lum. "...xalqimiz Navoiy va Fuzuliyar,

---

<sup>110</sup> Воҳидов Э. Алишер Навоий кемаси. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 245-246.

<sup>111</sup> Камол Ж. Умрим, хайрат билан қайларга етдинг // Ёшлик, 1993, 12-сон. – Б. 9.

<sup>112</sup> Bu haqda qarang: Юнусов М. Традиция ва новаторлик проблемаси. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 19-25.

Hofiz va Bedillarning go‘zal va teran g‘azallarini biladi. Uning aruz vazniga didi ana o‘shalarni o‘qib tarbiya topgan. Shu sababdan jo‘n va sayoz misralarning xalqimiz orasida e‘tibor topmasligi tabiiy. Aruz adabiyotning, umuman san‘atning hamma turlari kabi talant va mahorat, teran xayol va ehtiros talab qiladi”<sup>113</sup>, – deydi Navoiy olamini teran anglagan shoir. Erkin Vohidovning:

*Istadim sayr aylamoqni*

*Men g‘azal bo‘stonida.*

*Kulmangiz, ne bor senga deb*

*Mir Alisher yonida*<sup>114</sup>,

deyishini Navoiy shaxsi va ijodiga intilish, unga estetik ideal sifatida qarash deb baholash mumkin. Erkin Vohidov bir suhbatida “Navoiyni bilsak, ijodiga chuqur kirib borsakgina, “Men o‘zbekman, Navoiyning avlodiman” deya olamiz!”, – degan edi<sup>115</sup>. Shoir o‘z fikrlarini davom ettirib quyidagilarni ta’kidlaydi: “Navoiyni bilish, to‘la anglash hali biron zamondoshimizga nasib etmagan. Katta-katta shoir, ulug‘ olimlarimiz bu narsani o‘z suhbatlarida, ilmiy izlanishlari, maqolalarida ko‘p bor ta’kidlashgan. Biz Navoiyni anglash yo‘lidagi odamlarmiz, xolos. Uni bilishimiz ham ma’lum bir darajada-da. Chunki unga kimdir ko‘proq,

<sup>113</sup> Вохидов Э. Шоир у шеър у шуур. Т., 1987. 21-6.

<sup>114</sup> Вохидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. Т.: Шарқ. 2000. 114-6.

<sup>115</sup> Erkin Vohidov. URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/erkin-vohidov-ozbek-navoiyni-oqimay-qoyasa-to-quyosh-sochgayki-nur-erkin-vohidov-haqida-film.html> (01.02.2021)



kimdir esa kamroq murojaat etgan bo‘lishi mumkin. Lekin Navoiyni bilmagan, tushunmagan, ijodidan umuman bexabar ijodkorni o‘zbek millatining shoiri yoki yozuvchisi deb ham bo‘lmaydi. Navoiydan begonalashgan odamdan hech qachon durust ijodkor chiqmaydi, deb o‘ylayman”<sup>116</sup>,– deb fikr bildiradi.

Erkin Vohidovning mustaqillik davri ijodida “O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa...” she‘ri alohida o‘rin tutatdi. Ushbu she‘rning oxirida uning yozilish sanasi 1971-2000-yillar deb ko‘rsatilgan. Demak, shoir bu she‘rni o‘tgan asarda yozishni boshlab, 2000-yilda tamomlagan va e‘lon qilgan. Shoir millat boshiga musibatli kunlar tushganida ham erk haqida qayg‘urgan, mustabid tuzumda ham jasorat ko‘rsatib millat qayg‘ularini “Navoiyni o‘qimaslik oqibati” deya baralla ayta olgan. Uning bu she‘ri insonlar yuragidagi armon va nadomatni ifodalaydi.

*O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,  
Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.  
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,  
Qora sochning malla bo‘lgani shudir*<sup>117</sup>.

Bedil singari buyuk ijodkorlar qolib Bedniyni (bedniy – rus tilida qashshoq ma‘nosini ham bildiradi – G. A.) suyish – oltin boshning kallaga aylanishiga olib kelishi yorqin ifodalangan. She‘rda Navoiyni anglash ko‘plab muammolarimizga ye-

<sup>116</sup> O‘sha yerda.

<sup>117</sup> O‘sha yerda.

chim bo‘lishi, milliy yuksalish va taraqqiyot zamini ham aynan Navoiy ijodi ekanligi juda yorqin badiiy aks ettirilgan. Erkin Vohidov bu she‘rida Navoiyni o‘qimaslikni ma‘rifatsizlikka yuz tutish bilan tenglashtiradi, ayni paytda, Navoiy obrazini ma‘rifat, ilm-u donish va ezgu fazilatlar tajassumi bo‘lgan shaxs qiyofasida gavdalandiradi.

Haqiqiy ijodkor o‘z xalqining fidoyi va sodiq farzandi bo‘ladi. Hamma zamonning yulg‘ichlari bilan birga azizlari, qalbi nurga, rizqqa to‘liq xalqi ham bor. Faqat u xalq, albatta, Navoiyni o‘qishi kerak, dilga nedir yuqishi kerak! Shoirning talqinida milliy o‘zlikni anglash masalasi ham bevosita Navoiy ijodini o‘qib-o‘rganish bilan aloqador:

*O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,  
Uning “Barakalla” bo‘lgani shudir.  
Olamda Navoiy nasliman degan  
Ovozi baralla bo‘lgani shudir<sup>118</sup>.*

Ushbu she‘r mustaqillik davrida o‘zbekning o‘zligi, olamda Navoiy naslining o‘z tili, erki, qadriyatlari qadr topganini ko‘rsatgani, shuningdek, Navoiy shaxsining ma‘naviyat va madaniyat sarchashmasi, milliy rahnamo sifatidagi obrazini yorqin aks ettirgani bilan xarakterlanadi.

Shoir Chustiy mumtoz adabiyotimiz va yangi davr adabiyoti oralig‘ida ko‘prik yaratgan va aruzda yozish an‘analarini rivojlantirgan shoirlar

---

<sup>118</sup> O‘sha yerda.

sirasiga kiradi. Shunga ko‘ra, u Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiy kabi zamonaviy g‘azalnavis shoirlar qatoridan munosib o‘rin egallagan. Uning mavzuga daxldor bir g‘azali shunday boshlanadi:

*Adab mulkin gulistoni – Navoiy,*

*Adiblar faxri, dostoni – Navoiy*<sup>119</sup>.

Chustiy dastlab Navoiy ijodining asl mag‘izi, mohiyatini ko‘rsatib berishga intiladi. Shoir asarlarining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutadi. Shuning uchun ham Navoiy asarlaridagi “adab mulki” xususida so‘z yuritib, u barcha ijodkorlar uchun ilhom manbai ekanligini qayd etadi. Albatta, har qanday obyekt poetik ijod uchun bardavom va jonli ilhom manbai bo‘la olmaydi. Chustiy ayni mana shu ruhiy holatni nazarda tutgan bo‘lsa kerakki, “Qalamga jon kirar madhin yozarda, G‘azallar jismining joni – Navoiy”, – deya alohida uqtirishni ma‘qul ko‘radi.

Navoiy xayolotining chek-u chegarasini belgilash qiyin. Bu adib qoldirgan beqiyos adabiy merosdan kelib chiqadigan xulosa. Uning badiiy fantaziyasi har qanday shoir-u yozuvchini hayratga sola oladi. Navbatdagi baytda Navoiyning tafakkur olamida tutgan o‘rniga e‘tibor qaratiladi.

Navoiy siymosini chizishda yangi so‘z aytish anchayin qiyin, mushkul yumush. Bunda boshqalarni takrorlab qo‘yish, boshqa ijodkorlar ta’siri

<sup>119</sup> Чустий. Асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1999. – Б. 74.

ostida qolish xavfi har doim mavjud. Chustiyda bu xavf yo‘q. U har bir misrada yangi mulohazalarning yaxshi ifodalarini berishga harakat qiladi. Bor qalamkashlarning barchasi minglab saflarni tashkil etsa, Navoiy — ularning boshlig‘i, Bosh Qo‘mondonidir:

*Qalamkashlar agar bo‘lganda ming saf,  
Bahodir, bosh qo‘mondoni – Navoiy*<sup>120</sup>.

Buni Chustiy qalamidagi ohorli ohanglardan biri sifatida qabul qilish mumkin. Xuddi shu silsilada Navoiy bog‘bonlarning bog‘boni, buyuk insonlarning insoni sifatida ham ulug‘lanadi.

Navoiydan ilhom olish, undan o‘rganish, unga ergashish haqiqiy ijodkor uchun har doim shart bo‘lib kelgan. Chustiy o‘zini bevosita Navoiy shogirdiman demaydi, balki shogirdlarining shogirdlari qatorida turadiganlardan bittasiman, deya uqtiradi. Nazarimizda, bu Navoiy an‘analarning keyingi davr ijodkorlariga ko‘rsatayotgan ijobiy ta‘sirining o‘ziga xos e‘tiroflaridan biridir. Chustiy chiqarayotgan asosiy xulosa shuki, Alisher Navoiy qoldirgan barcha asarlar ham, ularning alohida olingan bittasi ham juda katta ijtimoiy va adabiyestetik ahamiyat kasb etadi. “Hisobi yo‘q asarlar” hamda “nodir asar” ayni mana shu tushunchalar ifodasiga xizmat qilgan.

---

<sup>120</sup> Ўша нашр. – Б. 75.

*Mening she'rimga ham andoza bo'ldi,  
Yetuk mezon-u avzoni Navoiy<sup>121</sup>.*

Ushbu misralar ko'plab shoirlarga adabiy ta'sir ko'rsatgan buyuk ijodkorning shoirona kuch-u qudratiga berilgan haqqoniy baho sifatida e'tirof etilishi mumkin. Yuqoriroqda "shah-u beklar"ning o'zlariga ishora etilgan edi. Chustiy bu ifodani sal o'zgartirib "shoh va sulton" shaklida yana qo'llaydi. Ammo, bu ifoda endi istiora sifatida "suxan shohi, suxan sultoni" tushunchasini ham aks ettiradi. Buning bevosita Navoiy dahosini tasvirlashga yo'naltirilgani ochiq ko'rinib turibdi.

Navoiy haqida juda ko'p gapirish, ta'rifi uchun so'z izlash mumkin. Lekin eng qisqa ta'rif shundan iboratki, Navoiy so'z mamlakatining shohi, so'zning sultonidir. G'azal mustaqil baytlardan iborat. Shuning uchun ham uning har bir alohida baytida Alisher Navoiy siymosining u yoki bu jihatlari qalamga olinadi. Alohida misra va baytlarning poetik talablarga mos va munosib ekanligini inkor etmagan holda ularning o'zaro aloqadorligidagi zaiflikni, ba'zan zo'rma-zo'rakilikni ham e'tirof etishga to'g'ri keladi. Birgina qofiya tizimini olib ko'raylik. U bir qarashda g'azalchilik an'asi doirasidagi barcha talablarga mos va uyg'undek taassurot qoldiradi. Lekin shu silsilada "har oni", "avzoni" so'zlari ham mavjud.

---

<sup>121</sup> Ўша ерда.

Ularni qofiya tizimidagi notabiiy soʻzlar sifatida ajratish mumkin. Zero, ular zamonaviy kitobxon uchun dabdurustdan toʻla tushunarli emas.

Navoiyga qaytish – uzluksiz va ilhombaxsh jarayon. Uning davomiyligini oʻrganish ham ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Shuning uchun Navoiy yashagan davrdan boshlab bugunga qadar buyuk shoir siymosi badiiy talqin etilgan. Zero, mutafakkir shoir tajribalariga tayanib did, saviya va mahoratni yuksaltirish har bir isteʼdod uchun ijodiy muvaffaqiyat garovidir. Chunki Navoiy yashagan davr va bu buyuk shaxs ibratli hayotining jozibasi ham buyuk. Ayni jozibaning muhtalolaridan biri Halima Xudoyberdiyeva bir sheʼrida shunday yozadi:

*Navoiy — non. Toʻsma. Unga borar yoʻldan qoch,  
Gʻashlik qilma, toʻrt yonni ham yoritarkan toj.*

*Navoiyga oʻzin urisa, urma kofirni,  
Axir nonga musulmon-u kofir birday och<sup>122</sup>.*

Alisher Navoiy lirikada kimlarga, nimalarga oʻxshatilmagan. Uni yulduzga, oyga, quyoshga, mashʼalga, nurgatashbeh etishgan. Ammo bungacha hech kim uni nonga qiyoslagan emas. Har qanday haqiqiy sheʼriyatning milliy ong va tafakkur mevasi ekanligi aniq. Ammo ayni mana shu haqiqiylik uning umuminsoniy ruhini ham taʼmin etadi. Non oʻzbekning moddiy qadriyatlaridan biri. Biroq u

---

<sup>122</sup> Худойбердиева Ҳалима. Шеърлар. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 97.

shunday moddiylikki, unda millatning ma'naviyati ham yaxlit holda tajassum topgan. Non haqida xalqimizda ko'plab maqol va matallarning, aytim va udumlarning paydo bo'gani bejiz emas. Shoira mana shu nuqtayi nazarga tayanadi. Shuning uchun ham uning "kofir" so'ziga berayotgan urg'usi milliy va diniy ajratishlarni emas, balki insoniy bag'rikenglikning o'ziga xos ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shoironing o'ziga xos topildiqlaridan biri xalqimiz tilidagi mashhur iboradan unumli foydalanishda ham namoyon bo'ladi. "O'zini urmoq" ifodasi shiddat bilan harakatlanish, hech nimaga, hech qanday qarshilik va g'ovlarga qaramasdan olg'a intilishning kuchli darajasini anglatadi. Uning ikki ma'noda qo'llanishi keng tarqalgan: ijobiy va salbiy ma'noda. Halima Hudoyberdiyeva uning ijobiy ma'nosini yangi bir ma'naviy sharoit taqozosiga ko'ra qo'llaydi – "Navoiyga o'zini urmoq". Bu ayni paytda shoironing poetik kashfiyoti ham bo'lib ko'rinadi.

Shoira ijodida "non" detali tasodifiy emas. Bu detalni shoira rang-barang qirralari bilan talqin etgan ("Kiyiklar", "Kemalar tikkaga yo'l olsin" kabi she'rlarida). Non poetik detal sifatida Halima Xudoyberdiyevaning ko'pgina she'rlarida faol tasvirlangan. Shunga qaramay, uning Navoiy shaxsiyatiga daxldorligi butunlay o'zgacha. Shoira

Navoiy siymosida muhtojlar ehtiyojini to‘la qondira oladigan manba, ma’naviy buloq, balki ma’naviy xazinani ko‘radi. Navoiyga yaqinlik umidida harakat qilayotgan har qanday muhtoj qishiga yo‘l ko‘rsatish, Navoiyga yaqinlik yo‘llarini topishga yordamlashish darkor. Navoiy milliygina emas, umuminsoniy g‘oyalarning ham betakror kuychisi. Shuning uchun ham she’rda “musulmon” va “kofir” tushunchalarining qo‘llanilishi tasodifiy emas. Ular birgalikda “hamma” tushunchasini anglatadi. “Och” so‘zi ham o‘z-o‘zidan qo‘llangan emas. U qofiya tizimidagi munosib so‘z (qoch; toj; och) bo‘lishi bilan birgalikda ma’rifat bilan aloqalanib, teran mazmun ifodasiga xizmat qilgan.

Yuksak vatanparvarlik va millatparvarlik ruhi-ga ega Navoiyning ijodiy an‘analari keyingi avlod shoirlari asarlarida ham namoyon bo‘lmoqda. Navoiy siymosi tasviri qator she’rlarda u yaratgan ma’naviy merosdan faxrlanish tuyg‘usini ifoda etadi. Turli avlodga mansub atoqli so‘z san‘atkorlari G‘afur G‘ulom, Oybek, Mirtemir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Usmon Azim kabi ijodkorlar Navoiy siymosini iftixor hissi bilan poetik tasvirlagan bo‘lsalar, bugungi kun shoirlari Navoiy obrazini yaratishda “nido”, “savol-javob”, “bag‘ishlov” kabi xilma-xil shakllardan foydalanayotganini kuzatamiz. Bunday she’rlarda Navoiy tilidan avlodlarga ulug‘ mutafakkir, nuroniy



zotning o'g'itlari, falsafiy mushohadalari bayon etilsa. Gohida ulug' shoir bugungi avlod yoshlarini komillikka chorlovchi, xalqimiz nomi va shonini alqab turuvchi, ruhan madad beruvchi zot qiyofasida gavdalanadi.

Xususan, Navoiy haqidagi she'rlar Oydin Hojiyeva ijodini ham boyitib turadi. Shoira vatan va uning qadrini anglash masalasini Navoiy nomi bilan bog'laydi:

*Ey Vatan, qadringni men*

*Hazrat Navoiydan so'ray.*

*"Ming bir kecha"lar elchisi*

*Qirq mingta roviydan so'ray*<sup>123</sup>.

Shoira talqinida "ozodlik" ham Navoiy nomi bilan uyqash. "Alisher Navoiy nidosi" nomli she'rida ham falsafiy o'ychanlik, murojaat ruhi-ning ustunligi namoyon bo'ladi. She'rda Navoiy nomidan "muhabbatsiz g'arib qalblar" to'g'risida so'z boradi. "Suv so'rayotgan to'rang'illar", qurib borayotgan Amu, "suvsirayotgan suluv ohular", "dardga giriftor to'rg'aylar", "yetim orzular", "kaftdagi yonib turgan dunyo" kabi tasviriy ifodalar ortida qanday ma'nolar yashirin? Navoiyning armon-u iztiroblari qatiga qanday dard singdirilgan? Navoiydan meros bo'lib qolgan mehr qayga yashiringan? Nega "Turk Budunni omon saqlagan, o'q tonglarning ko'ksida tugun"

---

<sup>123</sup> Хожиева Ойдин. Назокаат: шеърлар, достон, қасида, бадиалар, ўйлар. — Тошкент: Шарқ, 2007. — Б. 11.

yashiringan? Navoiy orzu qilgan avlod qalbi ishqqa, mehr-muhabbatga to‘liq bo‘lsa, gunohlar yemas, savoblar ortsa, har ko‘ngilda ishq yorug‘ qo‘shiq misol aks sadolar bersa, mehru muhabbat, ezgulik qalb da‘vatiga aylansa, Navoiy kabi ulug‘lar ruhi taskin topadi. Bu she‘r ushbu holatning yorqin tasviridir.

Bu davr she‘riyatida Azim Suyunning Navoiy haqida yozganlari ham e‘tiborga molik. Shoir bir she‘rida Navoiy haqida shunday deydi:

*Neki bir so‘z izladim Navoiydan topdim,  
Qalb murodin ko‘zladim – Navoiydan topdim*<sup>124</sup>.

Albatta, bu yerdagi “so‘z” o‘z ma‘nosida qo‘l-langan emas. Uning ma‘no qamrovi ancha keng. Bu o‘rinda, ehtimolki, uni “mavzu”, “muammo”, “o‘y-orzu”, “istak-hohish” yoki “savol”, “murod”, “muddao” tarzida izohlash o‘rinli bo‘lar. Ushbu bayt mazmunidan Azim Suyun Navoiyni ham ijod bobida, ham hayot bobida ustoz maqomidagi inson deb bilgani ayonlashadi.

Azim Suyun Navoiy dahosining buyukligini o‘ziga xos tarzda ifodalashga harakat qilgan. Uning asosiy mohiyati mutafakkir adib dahosini ko‘rsatib berishga, uni anglatishga qaratilgani bilan belgilanadi. Adib she‘rining ixcham xulosasi shuki, Alisher Navoiy ijodida “Ota-ona haqiga jonso‘z”, “Vatan nadir?” degan so‘roqqa javob,

<sup>124</sup> Суюн Азим. Андиз ўсган ерларда. Шеърлар, ғазаллар, кўшиқлар. – Тошкент: Шарқ, 2012. – Б. 4.

“do‘st-yorongga hikmat yo bayt”, “yorga oshiq bo‘lib” yurganlarga “ishq xati”, “riyokor, zolim, fosiq”larni qamchilash, tuzlash singari mazmun va mundarija mujassam. Bir so‘z bilan aytganda “ne tuyg‘u, holat” ifodasi lozim bo‘lsa, Navoiydan topish mumkin. Albatta, go‘zal she‘rda hamma narsa go‘zal bo‘lishi lozim. Mazkur she‘rdagi g‘oya go‘zalligini, poetik maqsad jozibadorligini ta‘kidlash shart emas. Shunga qaramay undagi ayrim “tarkibi sust” misralardan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Azim Suyunning poetik mahorati haqida ko‘plab alabiyotshunoslar munosib baholarni berishgan. Qozoqboy Yo‘ldoshev, Boqijon To‘xliyevlarning kuzatishlari ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shunga qaramay, nazarimizda, mazkur she‘rda ayrim notugalliklar, maromiga yetmagan holatlar ham bordek. Ba‘zi satrlarda qofiyadagi zo‘rma-zo‘rakilik, Azim Suyunga xos bo‘lmagan sun‘iylik buning isbotidir. She‘rning dastlabki ikki bayti bu jihatdan istisno. Ularda mazmun va badiiyat, ohang va qofiya uyg‘unligi mujassam. “Izladim: ko‘zladim: so‘zladim” to‘liq qofiya bo‘lishidan tashqari poetik mazmuni yuzaga chiqarishda tayanch badiiy detal vazifasini ham ado etmoqda. Keyingi baytdagi “kuzladim” (“ko‘klamladim, kuzladim”)ni ham shu siraga kiritish mumkin. Biroq, shundan keyingi baytlar qofiyasi haqida

bunday deyish qiyin. “Ko‘zguladim” so‘zi oldingi qofiyalarning birortasi bilan uyg‘un emas. Har holda “iz”, “ko‘z”, “so‘z” singari so‘z o‘zaklari yoniga “ko‘zgu”ni qofiya sifatida tavsiya etish o‘rinli bo‘lmagan. U shu bandgacha tobora balandlashib kelayotgan she‘riy jarangni birdaniga yo‘qqa chiqargan. “Ko‘zgu”dan keyin “yulduz”ning keltirilishi ham o‘z o‘rnini topmagandek tasavvur uyg‘otadi. Vaholanki, “ko‘zguladim” qofiyasi ishtirok etgan bayt bo‘lmaganida she‘rning qofiya tizimi nisbatan jo‘yaliroq bo‘lar edi.

Mustaqillik bergan keng imkoniyatlar tufayli Navoiy hayoti va ijodi mazmunini asl holicha o‘rganish imkoni ortdi. Bu davr shoirlari Navoiyni nafaqat chuqur anglash boshladilar, balki unga muvofiq, u foydalangan badiiyat mezonlari mos ijod qilishga ham intilishdi. Navoiydan topganlarini Navoiyga xos usullarda tasvirlashga e‘tibor qaratishdi. Shu ma’noda, Navoiy mustaqillik davri she‘riyatida mumtoz an’analar jonlanishiga ham asos berdi.

Mazkur holat ifodasini Chorsham ijodida kuzatish mumkin. Chorsham she‘rlarida Navoiy obrazi talqini o‘ziga xoslik kasb etadi. Alisher Navoiyning hajga borish orzusi uning o‘zi tomonidan ham, zamondoshlari tomonidan ham tarixiy hujjatlarda tegishli tarzda aksini topgan. Shoir Chorsham badiiy adabiyotda bu mavzuga she‘riy

tarzda e'tiborni tortdi. Uning "Navoiy" g'azali ayni shu mavzu bilan boshlanadi:

*Qancha orzu qilgani bilan hajga ketolmagan Navoiy,  
Ayol zotin suygani bilan yorga yetolmagan Navoiy*<sup>125</sup>.

Bu yerda ikki hodisani qiyoslash Navoiy siyomosining o'ziga xos qirralari inkishof etilishiga asos bo'lgan. Chorsham matlaning har ikki misrasini grammatik jihatdan yaqin bo'lgan gap qurilishlaridan foydalangan holda tuzgan. Ushbu ritmik sintaktik parallelizm ko'zda tutilgan ma'noning jiddiy urg'u ostiga olinishiga imkon bergan: qancha orzu qilgani bilan – ayol zotini suygani bilan; hajga ketolmagan Navoiy – yorga yetolmagan Navoiy.

Keyingi baytda shu mantiq va mazmun davom etadi. Ya'ni Navoiyning orzulari bilan hayot o'rtasidagi tafovut, aniqrog'i, ziddiyat tasviri shunga imkon bergan. Bu yerda imkon va imkonsizlikning yangi bir shakli qalamga olingan. Shoirning nazarida, aslida Navoiy ikki jihati bilan: dunyoviy talablarga ko'ra ("buyuk asarlarni bitgan"), shuningdek, diniy-tasavvufiy jihatdan erishgan kamolot darajasi uchun ("fano maqomiga yetgan") ulug'lik va izzat-ikromga ("Hirot ko'chalaridan ozod" o'tishga) mutlaqo munosibdir. Shunga qaramasdan, amalda buning aksi bo'ladi:

---

<sup>125</sup> Чоршамъ. Сайланма. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2019. – Б 87.

*Buyuk asarlarni bitsa ham, fano maqomiga yetsa ham,  
Ba'zan Hirot ko'chalaridan ozod o'tolmagan Navoiy*<sup>126</sup>.

Bular Navoiy taqdiridagi anchayin iztirobli holatlarning tasviri sifatida e'tiborga molik. Keyingi misralarda yana Navoiy ruhiyatining shu holatga mos bo'lgan chizishlari davom ettiriladi. Ayni paytda, Navoiy shaxsiyatidagi qat'iyat, mehr, do'stlarga sadoqat fazilatlarini o'ziga xos shaklda misralar qatiga singdirib boriladi.

Shunday qiyin va murakkab sharoit tasviridan keyin “Boyqarosidan kechib ketolmagan” kishi tasviri favqulodda boshqacha ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Navoiy shaxsidagi ulug'vorlik, kuch va qudratning ayrim qirralari kashf etilganday ta'sir qiladi. Imkonsizlikning yonida ruhiy iztiroblar ham mavjud. Ular hassos qalbning “mukofotlari”dir. Mana shu o'ringacha asta-sekin yuqorilashib borayotgan ruhiy og'riqlar tasviridagi “sabab komponenti” xiraroq tasavvur uyg'otib turgan edi. Quyidagi baytda shu kemptiklik bir qadar to'ldirilgandek bo'ladi:

*Otasidan yosh yetim qolib, o'z inini hibsga olib,  
Onasining ismin hech yerda bir bor bitolmagan Navoiy*<sup>127</sup>.

Shunga qaramasdan, baytning keyingi misrasi bu sabablar silsilasini to'ldirishga tabiiy ohang bilan kirisholmaydi, unda qandaydir notabiiylik his etiladi. Onasining nomini qayd etolmay qolishi

<sup>126</sup> Ўша нашр. – Б. 87.

<sup>127</sup> Ўша нашр. – Б. 88.

Navoiy uchun qandaydir tazyiq yoki taqiqlarning natijasi emasligi ayon. Shu bois bu axborotning shu shaklda taqdim etilishi o‘zini oqlamaydi.

Keyingi baytdan boshlab, she‘r yana o‘z o‘zani-da davom etadi. Bunda Chorsham Navoiyning o‘z asarlaridagi ohanglardan foydalanishga harakat qiladi:

*Qochib ketmoq bo‘lib ulusdan, ko‘ngli tarki vatan istagan,  
Ammo do‘st-u yorlar yuzidan sira o‘tolmagan Navoiy*<sup>128</sup>.

Navoiy g‘azallarida shunday misralarning mavjudligini ko‘pchilik yaxshi biladi:

*Parim bo‘lsa, uchub qochsam ulusdin to qanotim bor,  
Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor*<sup>129</sup>.

Chorsham, nazarimizda, mana shu misoralarga ishora qiladi, ayni paytda o‘sha misralarning ta‘siri bilan shu ruhiy holat tasviriga kirishgandek tuyuladi. Yakun nisbiy optimizm bilan yo‘g‘rilgan. Navoiy asarlari shoir uchun har qanday holatda ham o‘rganish uchun manba bo‘lib qolaveradi.

Chorsham Alisher Navoiyga bo‘lgan hurmati, e‘tiqodini, buyuk ustoz maktabining sodiq shogirdlaridan biri ekanini turli janrlardagi asarlarida aks ettirishga uringan. Shu ma‘noda quyidagi muxammas ham shu yo‘ldagi yana bir yangi qadam bo‘lib, u sakkiz banddan tashkil topgan. Muxammasga “Navolar aylasa kimki...” deya sarlavha qo‘yilgan:

<sup>128</sup> Ўша нашр. – Б. 88.

<sup>129</sup> Навоий Алишер. Асарлар. 10-томлик. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 127.

Birinchi bayt muxammas tarixidagi bir qadar yangicharoq shakllar bilan boshlanadi. Biz bosh qofiyali sheʼrlarning masnaviyda, ruboiyda, murabba shakllarida yaratilganini bilamiz. Nazari-mizda, muxammas shaklidagi bu tajriba ilk marta Chorsham tomonidan amalga oshirilgan:

*Navolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay,  
Sadolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay,  
Binolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay,  
Ziyolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay,  
Nidolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay*<sup>130</sup>.

Ikkinchi band aynan ijodkorning ijodkorga taʼsiri, bir ijodkorning boshqa biridan oʻrganishi ustida boradi. Bunda oʻrgatuvchi Navoiy, oʻrganuvchi esa boshqalardir. Muxammasning har bir bandi nisbiy mustaqillikka ega. Shunga qaramay, unda umumiy yaxlitlikka ham putur yetmasligi shart. Quyidagi band shu fikrning yorqin misoli boʻla oladi. U oldingi bandlar mazmunidan sal farq qiladigan ohangga ega, biroq oxirgi misrada “Navoiydan najot topgay” ifodasining takrorlanishi uni oldingi bandlar bilan oʻzaro zich aloqador ekanligini taʼkidlab turadi:

*Tushimda koʻraman goho Muqanna birla Shiroqni,  
Tarobiy otni surganda hilpiragan u bayroqni,  
Alar chekkan gʻam-firoqni, koʻngildan ketmagan “oh”ni,  
Shod oʻlsin ruhlari desa bizam bosgan shu tuproqni  
Maʼvolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay*<sup>131</sup>.

<sup>130</sup>Чоршамъ. Сайланма. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2019. – Б. 97.

<sup>131</sup>Ўша китоб, – Б. 97.



Muxammasning navbatdagi bandidagi asosiy mavzu ona tili, ona yurtga daxl qiluvchilarning yovuz va yaramas basharalarini fosh qilish, ular sabab yurt egalarining chekkan azobu iztiroblarini qalamga olish bilan belgilanadi. Ammo bu niyat va amaldagi ijro o'rtasida sezilarli ayirmalar yuzaga kelganini inkor etish qiyin. Chorsham ko'zlagan ma'no bilan banddagi ifodalar mutanosibligi kuchli darajaga yetib borolmagan. Shuning uchun banddagi dastlabki uch misra bilan oxirgi ikki misra o'rtasidagi bog'lanishlar sezilsiz holga kelib qolgan:

*Tili yo 'qning – eli yo 'qdir deganlar basma-bas kelsa,  
Bori yurt boyligin shilsa, zabun ahvolidin kulsa,  
Tig'i ustuxona botsa, tomirda qonlari qotsa,  
Bir qo 'lida tutib lug'ot, bir qo 'liga olib "Xamsa",  
Hijolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay<sup>132</sup>.*

Ammo mazkur kutilmagan qoqilishdan keyin yana ravon hamda silliq va ta'sirchan misralar tizimi nazarga tushadi:

*Emas oson azim yurtda bor elni yakqalam qilmoq,  
G'animning fitnasin bilmoq, nazmboz ustidan kulmoq,  
Asog'a suyanib yurmoq, shahanshoh ko'nglini olmoq,  
Ulusdan chiqsa iste'dod hamiyat ko'rsatib har choq  
Sanolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay<sup>133</sup>.*

Bu misralarda Navoiy hayotining ayrim sahifalari, ijodining asosiy prinsiplariga oid fikrlar xayoldan kechadi. Xususan, ularda Navoiyning:

---

<sup>132</sup> Ўша китоб, – Б. 98.

<sup>133</sup> Ўша китоб, – Б. 98.

1) Butun turkiy tilli xalqlar ko‘nglini rom eta olgani;

2) Shaxsiyatiga xos bo‘lgan sezgirlik va has-soslik;

3) She‘r va shoirlikka nisbatan yuksak talab-  
chanligi;

4) Muayyan paytlardagi sog‘lig‘ining mus-  
tahkam emasligi;

5) Husayn Boyqaroga bo‘lgan samimiy va  
do‘stona munosabatlari, Husayn Boyqaro dav-  
latining muhofazasi uchun o‘zini har doim burchdor  
sifatida his etishi;

6) Ko‘plab iste’dod egalariga homiy va mu-  
rabbiy sifatidagi faoliyati nazarga olingan.

Chorsham so‘zni yaxshi his etadi, shuning  
uchun tasvir jarayonida poetik assotsiatsiyalar  
qamrovining anchayin kengligi, kutilmagan ho-  
latlarda so‘z shakllaridagi yangi ohor va ma’nolar  
kishini o‘ziga jalb etadi. Muxammas bandining  
dastlabki ikki baytida tarse’ning qo‘llanishi buning  
yaxshi misoli bo‘la oladi:

*O‘zini bilsa har sohib saxovatda muqim o‘zbek,  
So‘zini bilsa har tolib qiroatda muqim o‘zbek,  
Hamisha saqlasa iymon ijobatda muqim o‘zbek,  
Kecharga shay bo‘lib jondin maqomatda muqim o‘zbek,  
Fanolar aylasa kimki, Navoiydan najot topgay<sup>134</sup>.*

Bu band Navoiy va o‘zbek millatining cham-  
barchas aloqadorligini, Navoiy nominin millat

---

<sup>134</sup> Ўша китоб, – Б. 98.

ma'naviyatidagi o'rni va ahamiyatini ta'kidlash uchun qo'l kelgan.

Ushbu muxammas Navoiy siymosini yangidan yaratishga bag'ishlangan. Shuning uchun ham unda tarixiy shaxslar (Shiroq)ning, adabiy qahramonlar (Shirin, Farhod)ning ayrim eskirgan ("zabun", "ustuxon", "yakqalam") so'zlarning, Alisher Navoiy hayoti va ijodiga daxldor bo'lgan joy nomlari (Behustun, Hirot)ning ayrim holatlarda so'zlarning hozirgi emas, balki tarixiy (topg'usi, erdim, borki, lug'ot) shakllarining qo'llanishi tarixiy koloritni yaratish uchun ham, Navoiy siymosining to'laqonli va jonli tavsifini yaratish uchun ham yaxshi imkon bergan.

Albatta, muxammas boshqalarnikiga o'xshamagan jihatlari bilan ta'rif va tahsinlarga loyiq. Shunga qaramasdan, unda ayrim notugalliklar va kemtikliklar ham mavjud. Jumladan, oltinchi bandda qofiya talabiga ko'ragina "maqomat" so'zining qo'llanishi o'zini oqlamay turibdi. Aslida u "maqom" ("manzil", "makon", "o'rin", "joy" ma'nolarini anglatuvchi) so'zining ko'pligidir. Unga ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi bilan "maqomot" hosil bo'ladi. Shu turishida u *saxovat* : *qiroat* : *ijobat* qofiyalar tizimiga uyg'un bo'la olmaydi. O'z-o'zidan ravshanlashadiki, shoir qofiya tazyiqi bilan so'z shaklini sun'iy ravishda o'zgartiradi. Shu tariqa kitobxon uchun ma'nosini tushunish qiyin bo'lgan bir so'z paydo bo'ladi.

Chorshamning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari ham o‘ziga xos. Ulardan biri “Bir lahza” deb nomlanadi. G‘azal “Navodir ushshabob” devonidan olingan<sup>135</sup>. G‘azal yetti baytdan iborat bo‘lib, u quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

*Manga bir lahza vafo aylamading,  
Ki hamul lahza jafu aylamading*<sup>136</sup>.

G‘azalda ishq va oshiqlik mavzusi bosh o‘rin tutadi. Unda an’anaviy tarzda yorning vafosizligidan shikoyat motivlari ustuvor. Lirik qahramon bevosita yorning o‘ziga murojaat etadi. Chorsham ham mana shu ohanglarga mos va uyg‘un misralar tuzishga harakat qiladi:

*Na edi lahza ato aylamading,  
Dardima lahza davo aylamading,  
To dedim lahza safo aylamading*<sup>137</sup>,

Ko‘rinib turganidek, muxammasda radif saqlab qolingan. Qofiyalar ham to‘la va nuqsonsiz. Uning ustiga Alisher Navoiy qofiyadan oldin “lahza” so‘zini takrorlagan. Bu mumtoz adabiyotda qofiya bilan bog‘liq she’riy san’at sifatida qayd etiladi hamda “hojib” degan nom bilan yuritiladi. Chorsham ham shu an’anani davom ettirgan. Ko‘rinib turibdiki, buni ancha chiroyli va munosib

---

<sup>135</sup>Алишер Навоий. МАТ. Хазойин ул-маоний. Наводир ушшабоб. Илий-танкидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳамид Сулаймон. 20 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 251.

<sup>136</sup>Чоршамъ. Сайланма. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2019. – Б. 102.

<sup>137</sup>Ўша китоб, – Б. 102.

tarzda uddalay olgan. Keyingi baytning tayanch soʻzlari qatorida “komimni ravo aylamading” ifodasi turadi. Bogʻlangan taxmisdan ham unga urgʻu berilgan.

Mustaqil soʻzlarning qofiya yoxud radifda qoʻllanishi unchalik qiyin emas. Shuning uchun ham shoirlar bu borada istagan harakatlarini qila olishadi. Yordamchi soʻzlar, xususan, bogʻlovchilarga bogʻliq holda esa bu ishni amalga oshirish qoʻshimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Quyidagi bandda shoirning ushbu muammoni tabiiy va mos holda hal qila olgani seziladi:

*Bu jahon koni gadodur, lekin,  
Ishq aro har kim adodur, lekin,  
Har balo bunda bajodur, lekin,  
Otmoq oʻq elga xatodur, lekin  
Manga otqanni xato aylamading<sup>138</sup>.*

Alisher Navoiy navbatdagi baytda yorning jafokorligiga urgʻu bersa, Chorsham qoʻshgan misralar mazmunida yorning madhi, uning taʼrifi asosiy oʻrin tutadi.

Muxammas bogʻlashda qiyinchiliklar oz emas. Shulardan biri vazn, qofiya va radiflardan iborat shakliy talablarning qatʼiyligidir. Garchi asosiy oʻrinlarda Chorsham bu talablarga jiddiy rioya etsa-da, ayrim hollarda shaklga eʼtibor bergan holda mazmunning barkamol boʻlishi kerakligini nazardan qochirib qoʻyadi:

---

<sup>138</sup> Ўша китоб, – Б. 102.

*Bir chaman ichra manga yor yo ‘lading,  
G‘uncha-yu gulni sarosar<sup>139</sup> silading,  
Lolavor ko ‘z yoshlarim qon demading,  
Gardi<sup>140</sup> raxshingg‘a<sup>141</sup> baho jon tilading,  
Ani tufroqcha baho aylamading<sup>142</sup>.*

Dastlabki misraning o‘ziyoq kishida qandaydir notugal mazmun haqida tasavvur uyg‘otadi. Nazarimizda, bu “yo‘lading” so‘zining qo‘llanishi tufayli sodir bo‘ladi. Har holda bu yerda kutilmagan, tasodifiy bir holat nazarda tutilgan. “Yo‘liqmoq”, ayniqsa, “yo‘liqib qolmoq” so‘zlarida shu ma’no kuchliroq tarzda namoyon bo‘lgan. Tabiiyki, ular shu holida vaznga ham, qofiyaga ham sig‘maydi. Shuning uchun ham shoir “yo‘la”moq variantini tanlagan. “Gul va g‘unchani silash” ham mantiqiy me‘yor va mezonlar tashqarisida qolayotgandek tuyuladi.

G‘azalda hamma baytlar ham muhim. Shunga qaramasdan, g‘azalnavislar matla bilan maqtaga alohida diqqat qaratishgan. Ularda badiiy fikrning eng muhim va asosiy nuqtalari aks etishiga, “mazmun va badiiyat jihatdan puxta va origial bo‘lishi”ga katta e‘tibor berishgan<sup>143</sup>. Maqtada esa fikr “intihosiga yetibgina qolmay, ayni zamonda,

---

<sup>139</sup> Бошдин оёк.

<sup>140</sup> Парда.

<sup>141</sup> Нур.

<sup>142</sup> Ўша китоб, – Б. 103.

<sup>143</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 74.

shoirning o‘z-o‘ziga yoxud umumga qaratilgan salmoqli xulosa ham chiqariladi”<sup>144</sup>. Shu ma’noda, Chorsham ham mazkur an’anani davom ettirgan:

*Qancha dod etmay firoqingda kuyib,  
Boqmading bir bora Chorsham’ga kulib,  
Ma’shuqi davvormisan, bo’lmas bilib,  
Yuz vafò va’da Navoiyg’a qilib,  
Ohkim, birga vafò aylamading*<sup>145</sup>.

Mumtoz adabiyotimizda, jumladan, Alisher Navoiy ijodida ham “davvor” so‘zi ko‘p qo‘llangan. U “aylanuvchi”, “charx uruvchi”<sup>146</sup> degan ma’noni anglatadi va, asosan, osmon jismlariga nisbatan qo‘llanadi. Ammo bu so‘zning birikishi ko‘pincha umumiy ma’nosi “osmon” so‘zi bilan uyg‘un bo‘lgan holatlardagina (“gunbadi davvor”, “charxi davvor”, “sipehri davvor”, “falaki davvor”) kuzatiladi. Uning “ma’shuq” so‘zi bilan birika olish imkoniyati esa kishida ishonch uyg‘otmaydi. Bu birikma tabiiy emas. Bordiyu, taxmis bog‘lagan shoir undan “davralarda aylanib yuruvchi” degan salbiy ma’noni ko‘zlagan bo‘lsa, u g‘azal mantig‘iga umuman sig‘ishmaydi.

Adabiyotda tasvir imkonlari nihoyatda ko‘p. Uni chek-u chegarasiz deyish ham mumkin. Har holda bu sahnada “har kim o‘z arzini aytur

---

<sup>144</sup> Ўша нашр. – Б. 76.

<sup>145</sup> Чоршамъ. Сайланма. Тошкент: Фафур Ғулом нашриёти, 2019. – Б. 103.

<sup>146</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 436.

neki bor imkonida”. Tasvirdagi o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Tursun Alidir. U ham mustaqillik davri lirikasida Navoiy obrazini yaratish jarayoni, Navoiy haqiqatlari ifodasiga munosib hissa qo‘shdi. Ayniqsa, uning “Navoiyning marg‘ilonlik muxlislari” sarlavhali she’ri bu borada e’tiborli.

Boshqa she’rlardan farqli ravishda uning ko‘p-gina jihatlari anchayin aniq va ravshan. Jumladan, voqea sodir bo‘layotgan makon va zamon ham aniq. Ikki do‘st, ikki ijodkorning o‘zaro suhbatlari kuzning bag‘rida, do‘st hovlisida, baland ishkomlar tagida kechmoqda. Bu tasvirlarning ixcham va aniqligi, jonli va ta’sirchanligi shu qadarki, bularning barchasi kishining ko‘z oldida ajoyib bir manzara sifatida namoyon bo‘ladi. Mana shunday ajoyib lirik manzara og‘ushidagi suhbat mavzusi ham tayin: qadim adabiyot va navqiron she’riyat. Tursun Ali o‘zbekona so‘zlarning sehrini, turli tovlanishlarini yaxshi biladi. Shuning uchun ham ba’zan so‘zlar orasidagi bog‘lanishlar kishi hayratini orttiradi:

*Baland-baland tog‘lardan shoshgan suvlar ham,  
quvlashmashoq o‘ynab kechgan kunlar ham,  
Irmoqlarni sig‘dirolmay azim Sirdaryo,  
Bir latif g‘azalday bo‘lmish Farg‘ona.*

“Baland-baland” so‘zi qaysi so‘z bilan bog‘lanmoqda? Albatta, “tog‘lar” bilan. Uning “shoshgan suvlar”ga aloqadorligi yo‘qmi? Yoki “quvlash-



machoq o‘ynab kechgan” nima edi? Shubhasiz, “kunlar” dir. “Shubhasiz” so‘zini qo‘llaymiz-ku, lekin uning o‘sha “shoshgan suvlar”ga ham bog‘lanib turganidan ko‘z yumolmaymiz. Endi gal ijodkorlar ro‘yxatini tavsifiya etishga kelmoqda:

*Ovoz berar Uvaysiy momo,  
Nodira mohim, Andijonlik Nodira begim,  
suhbatga bosh bo‘lmish Navoiy bobo,  
Yor eshigin tong otguncha quchgan Haziniy,  
El dardini kuylab o‘tgan Maxmurgacha to<sup>147</sup>.*

Badiiy adabiyotda “anoxronizm” hodisasi mavjud. Bu shoir yoki yozuvchining ongli ravishda turli zamonlarni “qorishtirishi”dan iborat usuldir. Rang-barang makon va zamonlardagi shaxslarni bir joyga jamlash ham shu usulning ko‘rinishlaridan biri. Shunga muvofiq ravishda Tursun Ali marg‘ilonlik Uvaysiy, andijonlik Nodira begim, Chimyondagi Huvaydo, Yorkentdagi Furqat, Qo‘qondagi Muqimiylarni Navoiy hazratlari bilan bir joyga jamlaydi. Ularning yoniga zamonaviy ijodkorlarni ham qo‘shib qo‘yadi.

Bu she’rda garchi “suhbatga bosh bo‘lmish Navoiy bobo” deyilsa-da, aslida boshqa jihatlardan Navoiyning ajralib turgan biror bir xususiyatiga e’tibor tortilgani yo‘q. Ammo mana shu birgina misraning o‘zida Navoiy obrazi gavdalangan. Xususan, unda muallifning Navoiy o‘zbek shoirla-

<sup>147</sup> Турсун Али. Туйғулар ранги. Сайланма. – Тошкент: “Sharq”, 2014. – Б. 112-114.

rining rahnamosi, eng ulug‘i, degan qarashi ifodalangan. Modomiki, Navoiy “suhbatga bosh” bo‘lar ekan, bunday anjumanda adabiyot “osmonga o‘rlaydi”, she‘riyat esa “zamin-u falakni chulg‘ab” oladi. Demak, Navoiy nomi adabiyot bilan, she‘r bilan bog‘liq holda tushuniladi. Navoiyning nomi qadim adabiyotga qanchalik daxldor bo‘lsa, navqiron she‘riyatning kuchi va quvvati ham Navoiy tufayli bardavom va baland bo‘lib qolaveradi.

“Navoiy biz uchun hamma narsa” hukmi ko‘plab shoirlarimizning tabiiy xulosalari sifatida jaranglaydi. Buning uchun esa bor-yo‘g‘i birgina shart bor, xolos. Bu – Navoiyni anglashdir. Agar Navoiy shaxsiyati, uning ijodi, boy merosi zamon-doshlarimiz tomonidan to‘la anglanadigan bo‘lsa, mana shu anglash fikr egalariga istagan narsalarini berishi mumkin. Biz fikrimizni Shukur Qurbonning bir she‘ri misolida izohlashga harakat qilamiz. Unga “Navoiyni anglash” deb sarlavha qo‘yilgan<sup>148</sup>. Shukur Qurbon nazarida tarixning mazmun va mohiyatini, turkiy tilning kuch-qudratini Navoiyni o‘qimasdan, ijodini to‘la o‘zlashtirmasdan anglash imkonsiz:

*Tarix degani bu jang-jadal emas,  
So‘zdir u, so‘zlarda aks etgan ma’no.*

---

<sup>148</sup>Боймурод Ашурали. “Navoiyning avlodlarga maktubi”. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. .

*Balki turkiyni ham birov til demas,  
Navoiy nazmidan tuymasa navo<sup>149</sup>.*

Ko‘rinib turganiday, tarix so‘zga qiyoslanmoqda. Ammo u oddiy emas, balki so‘zlarda aks etgan ma‘no. Agar ayni shu mantiq bilan yondashiladigan bo‘lsa, Navoiy ijodining mohiyati to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Shoirning nazarida toki Navoiy nazmining asl ma‘no va mundariyasi his etilmas ekan, turkiy tilning asl tarovatini, kuch-u qudratini ham to‘la tasavvur etish mushkul.

Shuning uchun ham Navoiy ijodiga murojaat ongli va jonli jarayon bo‘lishi shart. Mana shu jarayonning nomi mushohada, tafakkur, shoir ifodasi bilan aytganda “xayolga tolish”dir. Ammo bu mushohada chuqur, samimiy va uzluksiz bo‘lishi kerak. “Uyg‘oq shuur” ifodasi mazkur ma‘nolarni ifodalashdagi nodir topildi, deb baholanishga loyiq. Ana shunday tafakkur tarzi bizni ko‘plab yangi va zarur xulosalarga olib boradi. Bularning qoq markazida esa ma‘naviyat, inson ruhiyatining beg‘ubor olami turadi. Shukur Qurbon buni iymon tushunchasi bilan, insonning “xudoga yaqinlab” borishi bilan bog‘lab talqin etadi.

*Uyg‘oq shuur bilan xayolga tolsak,  
Navoiy va iymon – egiz tushuncha.  
Shoirda biz qancha yaqin borolsak,  
Xudoga yaqinlab borarmiz shuncha<sup>150</sup>.*

---

<sup>149</sup> Курбон Шукур. Озорингни соғиндим. Юз қўшиқ. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 118.

<sup>150</sup> Ўша ерда. – Б. 118.

Demak, Navoiyni anglashning darajalari mavjud. Bu har kimning o'ziga bog'liq. Ammo shu narsa aniqki, yaqinlikning darajasi ortgan sari natijaning salmog'i kuchayib boraveradi.

She'r muallifi bu mulohazalarini izohlashga, sharhlashga harakat qiladi. Bunday she'riy sharhlar ham kitobxon uchun maroqli va huzurbaxshdir. Ularni o'ziga xos poetik asoslar sifatida qabul qilish mumkin. "Alomat taqdir", "teran nolalar", "ko'ngilni salomat avaylab-asramoq" singari ifodalar shu inja tuyg'ular ifodasi uchun mos va munosib tanlangani ko'rinib turibdi. Keyingi band ham ana shu poetik talqinni davom ettiradi. Endi buyuk Navoiy ijodining mohiyatiga ishora qilinadi. She'riyat insonni sokinlikka chorlaydi. Sokinlik o'y va mushohadalarning ilk omilidir. Navoiy she'rlaridagi insonga murojaat ("Ey Navoiy") hammani o'ziga qaratadi. Bu chaqiriq zamiridagi salobat barchani, butun olamni o'ziga chorlaydi, rom etadi, Hatto "quyosh tushar samodan", bugina emas, u mazkur da'vat va chaqiriqlar mazmunini hazm qilish, ularni to'laligicha anglab yetish imkonini topish maqsadida "Ketar poy-piyoda ufqlar oralab". Bu o'rinda obrazli tasvir kitobxon ko'z oldida aniq namoyon bo'ladi. Navoiy ijodiga yaqinlikning buyuk sharofati shundaki, bunday harakat sohiblarining yuraklari "entikadi toza havodan", eng muhimi, ularning "metin dardlari"

“pora-pora” bo‘ladi. She’rning xulosasi ham be-takror. She’rda Shukur Qurbonning o‘ziga xos ovozi, poetik uslubi yaqqol namoyon bo‘lgan. Ushbu she’r Navoiy siymosini badiiy aks ettirish jarayoniga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Mustaqillik davri she’riyatida Navoiy lirika-sidan kuchli ta’sirlanish, undagi mazmunni bu-gungi kitobxon uchun tushunarli tarzda qayta badiiy yaratish jarayoni tez-tez kuzatiladi. Ashurali Boymurodning “Navoiyning avlodlarga maktubi” she’ri ham shu yo‘nalishda. Uning ilk bandida o‘qiymiz:

*Xalqim, mehr ko‘rgazib,  
Mehribone topdingmu?  
Haq yo‘linda jon chekib  
Bir jahone topdingmu?*<sup>151</sup>

Ushbu misralar Navoiyning mashhur:

*“Mehr ko‘p ko‘rguzdum, ammo mehribone topmadim,  
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim”*<sup>152</sup>,

– misralari bilan boshlanadigan g‘azali ta’sirida yuzaga kelgan. G‘azalda avtobiografik yo‘nalish ustuvorlik qiladi. U lirik qahramon va shoir shaxsiyati birlashgan nuqtada paydo bo‘lgan asarlar silsilasiga mansub. Shuning uchun ham unda hayotiy haqiqatlarning badiiy-tragik manzara-si mumtoz ohang va ohorlarda namoyon bo‘ladi.

<sup>151</sup> Боймурод Ашурали. “Navoiyning avlodlarga maktubi”. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. .

<sup>152</sup> Навоий Алишер. Фаройиб ус-сифар. МАТ. Хазойин ул-маоний. 20 жилдлик. 3-жилд. Илий-танкидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳамид Сулаймон. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 326-327.

Ashurali Boymurod Navoiy she'rining shakliy-poetik tomonlariga alohida e'tibor beradi. Uning mazmuniy yo'nalishini idrok etishga va shu mazmun ruhini o'z she'rida yangidan namoyon etishga urinadi.

Navoiyning she'ri g'azal janrida. U aruzning ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan<sup>153</sup>. Uning paradigmasi shunday:

– V – – – V – – – V – – – V –

– V – – – V – – – V – – – V –

G'azalning o'qilish ohangi quyidagicha:

*foilotun foilotun foilotun foilun*

*foilotun foilotun foilotun foilun*

Ko'rinib turganiday, baytning har bir misrasida o'n beshtadan, jami o'ttizta hijo ishtirok etmoqda. Ashurali Boymurodov esa she'rini murabba' shaklida yaratgan, aniqrog'i, nashrda she'r shu shaklda berilgan. Aslida esa ushbu she'r ham g'azal janrida bitilgan. Zero, murabba shaklidagi she'rlarning qofiyalanish tartibi o'ziga xos talablarga bo'ysunadi. Bu talablarga ko'ra, undagi to'rt misraning o'zaro qofiyalanishi quyidagicha bo'ladi: a : a : a : a ; a : a : a : b ; a : b : a : b ; a : b : a : b ; a : b : s : b. Yuqoridagi murabbaning faqat birinchi baytidagina oxirgi shaklga uyg'unlik mavjud. Qolgan bandlarda esa s : d : ye : b shakli

---

<sup>153</sup> Қаранг: Навоий ғазаллари (насрий баён, шарҳ ва изоҳлар). I китоб. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Тўхлиев. – Тошкент: Bayoz, 2015. – Б. 229.

yetakchilik qiladi. Ularda murabba' talablariga uyg'unlik kuzatilmaydi. Agar murabba' bandlarini g'azal baytlari shaklida tasavvur etsak, she'ning ko'rinishi o'zgaradi. Faqat ayrim imloviy va ishoraviy o'ziga xosliklarga e'tibor berilsa, she'ning asl shakli "tiklanadi" va u quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

*Xalqim, mehr ko'rgazib, mehribone topdingmu?*

*Haq yo'linda jon chekib bir jahone topdingmu?*

Ko'rinib turganiday, shoir buyuk ustoz ohanglarida yangi va yaxshi she'r bita olgan. She'ning barmoq vaznida yozilgani ham hech bir monelik tug'dirmaydi. Uning barmoqdagi 7 + 7 turoqlanish tartibiga rioya etilishi esa Navoiy g'azalining vazniga ancha yaqinlikni (Navoiyda hijolarning soni har bir misrada o'n beshtadan) hosil qiladi. "Topmadim" radifining o'rnidagi "topdingmu" radifi, shuningdek, dastlabki baytdagi "mehribone / jahone" qofiyalarining ishtiroki ham Navoiy g'azalining ohangini yodga soladi. Uning qolgan misralarida ham ushbu xususiyatlar izchil davom ettiriladi. Unda Navoiy qo'llagan qofiyalardan yana biri "gulsiton" "Guliston" tarzida qo'llangan. Shoir bu o'rinda mazkur so'z orqali iyhom san'atini yuzaga keltira olgan. U gullarga boy, gulzorlarga to'la joy ma'nosini ham, shuningdek, Samarqand, Buxoro sanog'idagi bir viloyat (Sirdaryo)ning obod poytaxti bo'lgan Guliston shahri ma'nosini ham anglatib turibdi.

“Temuriylar qasri”, “Fil o‘ynatib”, “ot surib”, “Hindistone topdingmu?” ifodalari, Iskandar, Farhod, Ulug‘bek, ismlarining ishtiroki esa she‘rdagi tarixiy ruh – koloritni hosil qilishda tayanch tushunchalar vazifasini ado etayotir. “Haq yo‘linda”, “zabon”, “g‘animlar”, “ila”, “munajjim”, “zanjirband sher” singari so‘zlar, qofiyalarning *mehribone, jahone, zimistone, zabone, Gulistone, omone, Hindistone, imkone, haq one* shakllari esa mana shu ruhning o‘ziga xos tarzida namoyon bo‘lishi uchun qo‘shimcha omil bo‘lgan. So‘roq yuklamasining qadimgi tarixiy “mu” shakli ham shu vazifaga bo‘ysundirilgan. Bularning barchasi Navoiy tilidan aytilgani uchun ham she‘r ruhiga mos tushgan.

Navoiy she‘ridagi “topmadim” fe‘li qat‘iy hukm va xulosani aks ettiradi. U shoir qalbidagi iztiroblar ifodasi uchun nihoyatda munosib shakl bo‘lgan. Ashurali Boymurodov she‘rida esa Navoiy avlodlarga “topdingmu” deya murojaat qiladi. Bu so‘roqning, asosan, ritorik tarzda berilishi esa uning javobini ham shu so‘zning o‘zida mujassamlashtiradi.

She‘rda elas-elas ilg‘anadigan xronologik izchillik ham mavjud. U Navoiy tilidan aytilgani uchun ham nisbatan qadimgi davr “temuriylar qasri” zamonlari, zamon tushunchasining davomiyligi (hamon), o‘tmishdagi qiyin va fojiali



lahzalar (zimistone) bizning zamonamiz tomon “harakatlanadi”, “Yurtni yakdil aylagan bir zarbon”ning topilishi bilan bog‘liq ritorik savol esa voqealarni bizning zamonamizga ko‘chiradi.

She’rda mustaqillik nashidasi ham o‘ziga xos tasvirga ega. “O‘zligini aytmoqqa” qodir tilning borligi, jon shaharlar: Samarqand-u Buxoroning, “Gul husniga munosib” Gulistonning tilga olinishi shoir iftixorining juz’iy belgilari sifatida namoyon bo‘ladi. Faylasufona donishmandlik, ajdodlar ruhi bilan faxr-u iftixor tuyg‘ulari, yurt taqdiri uchun kuyinish, uni asrab-avaylashga, ma’rifat va insoniylikka, vatanparvarlikka, oqil va hushyorlikka da’vatning navoiyona yo‘sinlarini topishga urinish she’rning tayanch nuqtalarini tashkil etadi.

She’rning yakuni ham o‘ziga xos. Unda Navoiyning bizning zamondoshlarimizga nisbatan tabriyi badiiy talqin etilgan:

*Qutlug‘, senga hurriyat, o‘z elida xoqonim.*

*Menku seni topgandim, sen haq one topdingmu?*

She’rdagi “haq on”ning ikki ma’noda qo‘llanishi uni yana mumtoz she’riyat namunalariga yaqinlashtiradi. Albatta, she’rni bekam-u ko‘st, barcha she’riy-poetik talablarning mukammal ijrosi sifatida baholashdan yiroqmiz. Unda ayrim me’yoriga yetmagan o‘rinlar, biroz notabiiy jumlarlar, g‘aliz takrorlar ham ko‘zga tashlanadi. Shunga qaramay, unda Navoiy siymosining o‘ziga

xos va boshqalarnikiga o‘xshamagan bir tarzda tasvirlanganini ham inkor etib bo‘lmaydi. Bu esa ushbu she‘rning Navoiyni bizning zamonamiz, xususan, yosh avlodga tanitishda o‘ziga xos qadam sifatida baholanishga loyiq ekanini anglatadi.

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotini yuqori bosqichga ko‘targan mutafakkir san’atkor. Navoiyning tasavvur va taxayyul olami, asaridagi obrazlilik va badiiylik shu qadar kuchliki, bular-dan ilhomlanmaslik mumkin emas. Shu bois Navoiyning turli janrlardagi asarlari jahon adabiyotining durdona namunalari sifatida ham e’tirof etilgan. Albatta, bu muvaffaqiyatlar zamirida shaxs va ijod birligi turadi. Navoiyning shaxsiyati oddiy bir shaxsiyat emas edi. U insonparvar g‘oyalar targ‘ibotchisi bo‘lish bilan bir qatorda, ularni real hayotga tatbiq etishga intilgan faol inson, inson ruhiyatining murabbiysi edi. Shuning uchun, hali hayotlik paytidayoq Navoiy doston va ertak qahramonlari maqomiga ko‘tarila boshlagan. Xalq tasavvuri va talqinidagi Navoiy siymosi folklorga ham ko‘chib o‘tgan<sup>154</sup>.

Shoir Turob Niyoz Alisher Navoiyni “Betimsol shoir” deya tavsiflaydi. U tavsif uchun yangi so‘z topishga harakat qiladi. Buning uchun u obyektning o‘zidagi yangilanishlardan yangi ma’no izlaydi.

<sup>154</sup> Bu haqda qarang: Axmedov N. Manгу barxaёт образ // Шарқ юлдузи, 1988, № 4; шу муаллиф. Тарихий шахс талқини. – Тошкент: F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.

Shoirning haykallari shu nuqtayi nazardan unga ayni muddao bo‘ladi:

*Dunyo xalqlarining mehridan darak –  
Ko‘paymoqda hazrat haykallaringiz.  
Faxr-u iftixorga to‘ladi yurak,  
Dunyoni zabt etmish g‘azallaringiz*<sup>155</sup>.

Navoiyni olam ahli yaxshi ko‘radi. Bu yaxshi ko‘rishlarning hududlari ham tobora kengayib bormoqda. Endilikda olam ahli o‘z yaxshi ko‘rishlarini bildirishning yangi-yangi shakllarini o‘ylab ko‘rishmoqda. Shulardan biri o‘z yurtlarida buyuk mutafakkir adib haykallarini o‘rnatishdan iboratdir. Har holda bugun Navoiyning haykallari jahonning turli mamlakatlarida qad ko‘tardi. Turob Niyozning she‘riga mana shu tarixiy hodisalar asos bergan. Shoirning talqinida haykallarning ko‘payishi g‘azallarning dunyoni zabt etish darajasini belgilab beradigan ko‘rsatkich, dunyo “xalqlarining mehridan darak”dir. Mazkur hodisa shoir qalbini to‘lqinlantiradi.

Ijodkorning “sizlab” gapirish usuli she‘rga o‘zgacha ruh va ohang bag‘ishlagan. So‘zlar takrori, birinchi misra oxiridagi ifodaning keyingi misra boshida qaytarilishi shoir ko‘zda tutgan ma‘noning kitobxon nazaridan ham chetda qolmasligini ta‘minlagan. Mutafakkirning hayoti ham, ijodi ham ulkan e‘tirof va iftixorga munosib.

<sup>155</sup> Ниёз Туроб. Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 169.

Dunyoviy ehtiromlar esa har kimga ham nasib bo‘lavermaydi. Shu holatning o‘zigayoq “havas qilar har bitta odam”.

Turob Niyoz shoir taxllusi oldidan “hazrat” so‘zini qo‘llaydi. Ajratilgan bo‘lak sifatida esa “betimsol shoir” ifodasini keltiradi. “Ulug‘vor ishlarga munosib, qodir” sifatlashi ham, so‘zsiz, Navoiy shaxsiga aloqador bo‘lib, ayni paytda, uning “xalqimiz”ga ham bog‘lanib turganini inkor etib bo‘lmaydi:

*Hazrat Navoiysiz, betimsol shoir,  
Olis kelajakka bo‘ylab turibsiz.  
Ulug‘vor ishlarga munosib, qodir,  
Xalqimiz haqida o‘ylab turibsiz<sup>156</sup>.*

Bu ham bir o‘zbek shoirining o‘z ajdodiga ehtiromining, faxr va e‘tiqodining o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishidir. Bunday asarlarning yoshlar ongu tafakkurida Navoiy haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytirish, ularning qalbida “so‘z mulkinging sultoni”ga mehru muhabbatni yuksaltirishdagi o‘rni katta.

Alisher Navoiy hammaniki, bunga shubha yo‘q. Ammo har bir ijodkorning o‘z Navoiysi borligi ham haqiqat. Navoiy kim uchundir buyuk shaxsiyat namunasi, kim uchundir buyuk ijodkor. Uning g‘azal ustasi ekanligi qaysi bir ijodkorning e‘tiborida bo‘lsa, “Xamsa”dek buyuk asar kashfiyotchisi sifatida boshqa bir ijodkor e‘tiborida. Bu

<sup>156</sup> Ўша ерда. – Б. 169.

jihatdan qaraganda, Toshpo‘lat Ahmadning ham o‘z Navoiysi bor. Faqat bu Navoiyni anglash, to‘la tushunish va bilish uchun muxlislardan ko‘p narsa talab etiladi. She‘rga “Navoiyni bilmoq uchun...” degan sarlavha tanlangani ham bejiz emas.

Shoir nazdida, Alisher Navoiy hayoti va ijodini anglash uchun odamning keng va pokiza ko‘ngli, bir qator ilmlarni bilishi shart bo‘ladi:

*Navoiyni bilmoq uchun*

*Navobaxsh zot bo‘lmoq kerak.*

*Kalom ilmin, Hadis ilmin*

*Yurakka jo qilmoq kerak<sup>157</sup>.*

Olimlar ham shu mulohazalarni bildirishadi, ammo Toshpo‘lat Ahmad qalamida bu niyatlar yoqimliroq va ta‘sirchanroq shaklda yuzaga chiqqan. Navoiy hazratlari olamga pok nazar bilan qarash darajasiga ko‘tarila oladiganlarni tarbiyalash uchun bor umrini sarf etgan deyish mumkin. Muallifi mana shu haqiqatning she‘riy ifodasini chiroyli yo‘sinda amalga oshirgan:

*Navoiyni bilmoq uchun*

*Nigohni pok qilmoq kerak.*

*Komillikni dunyo anglab,*

*Haqqa yetgan bo‘lmoq kerak<sup>158</sup>.*

Navoiy g‘oyalarining zamonaviy targ‘ibi deb aytish mumkin bo‘lgan bu misralar insonni o‘zi

---

<sup>157</sup> Ahmad Toshpo‘lat. Navoiyni bilmoq uchun... // Xazrat Navoiyga эҳтиром. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 76.

<sup>158</sup> O‘sha yerda.

haqida ham, boshqalar haqida ham o‘ylashga undaydi. Xususan, ayrim ijtimoiy-ma’naviy muammolarga e’tibor tortish orqali har bir kishini Navoiy vositasida ma’rifiy jihatdan boyish, ma’naviy jihatdan barkamollashish ustida qayg‘urishga chorlash – bu she’rning mohiyatni tashkil etadi.

Navoiyning shaxsi va ijodiga qiziqish mustaqillikdan keyin yanada kuchaydi. Buning mahsuli Alisher Navoiy obrazi yaratilgan badiiy asarlardir. Ularda ulug‘ shoir haqidagi tasavvurlar muayyan obrazlarda tajassum topdi, yorqin aks etdi. Shu bois bugungi yoshlarimiz Navoiy obrazi tasvirlangan badiiy asarlarni o‘qimay turib, shoir dahosini tasavvur qilishlari, tushunishlari qiyin kechadi. Bu haqiqatni yaxshi anglagan mustaqillik davri ijodkorlari bolalar she’riyatida ham Navoiy obrazini yaratishga va buyuk mutafakkirni yosh avlodga tanishtirishga harakat qilishdi.

Bolalar shoiri Qambar Otaning Navoiy haqidagi quyidagi she’ri mavzusiga ko‘ra ham, ifodasiga ko‘ra ham boshqa she’rlardan farq qiladi. Hatto, dastlabki misralar bilan tanishish jarayonida uning Navoiyga bevosita daxldorligi xayolga kelmaydi. She’rning boshlanishidan bevosita Navoiy bilan bog‘liqligi yo‘qdek:

*Gurjistonda buyuk udum bor  
Qizga kelsa oshiqdan sovchi,*

*Kimligiga qilmas e'tibor,  
Kosibmi u, dehqonmi, ovchi*<sup>159</sup>.

Dastlabki to'rtlik bilan tanishgan o'quvchida Gurjistonda boshqa xalqlarda uchramaydigan bir odat haqidagi tasavvur uyg'onadi. Har holda, bu odatning sovchilik udumi bilan aloqadorligigi ishora mavjud. Lekin uning mohiyati ham to'la ochilgan emas. Bu keyingi to'rtlik bilan tanishganimizdan keyingina ochiladigan sirdir:

*Ilk savoli faqat shu bo'lar  
O'rganganmi Rustavelini?  
Shu vajdanki shoirni bilar,  
Gurjistonning kuyov-kelini*<sup>160</sup>.

Demak, Gurjistonda bo'lajak kelin va kuyovlarning Shota Rustaveli asarlarini o'qib-o'rgangan bo'lishi – bilishi milliy an'anaga aylangan hodisa. She'ning dastlabki kirish qismi mana shu axborotning ifodasi bilan yakunlanadi. Ammo, hali asosiy gap aytilgani yo'q. Shoirning muddaosi shugina emas, uning istaklari sal boshqacharoq:

*Har o'zbekning uyiga birrov,  
Buyurganda sovchilar tashrif  
"Navoiyni bilarmi kuyov" –  
Deb so'rashsin, qilurman taklif*<sup>161</sup>.

Bu bilan qanday o'zgarish yuzaga keladi? Shoirning nazarida, agar shunday yo'l tutiladigan

<sup>159</sup> Ота Қамбар. Navoiyni bilmoq uchun... // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 102.

<sup>160</sup> Ўша ерда. – Б. 169.

<sup>161</sup> Ўша ерда. – Б. 102-103.

bo'lsa, unda hech qanday salbiy holat (“Qo‘rq-mang qolmas qizlarimiz toq”) yuz bermaydi. Aksincha, butun millatning oshiq yigitlari “buyuk shoir she’rlarini darhol yod olardi”. Eng muhimi, Navoiy dahosi tufayli qalblar poklanadi.

Nima uchun boshqa bir ijodkor emas, aynan Navoiy nomi taklif etilmoqda, degan savolga ham she’rda javob bor. Buning bosh sababi Navoiy shaxsiyati bo‘lib, u ulug‘likka yorqin timsoldir. Navoiy shaxsiyati hamma uchun har doim “andoza” vazifasini ado etadi. Nihoyat, Navoiydan o‘rgangan xalqning vijdoni but, yuragi toza bo‘ladi.

Navoiy haqida bolalar uchun yozilgan she’rlar orasida Tursunboy Adashboyevning alohida o‘rni bor. Bunday asosiy belgilardan biri ularning yangi va ohorli ekanligida, tilining sodda va shiradorligida, tasvirni lo‘nda, aniq va ta’sirchanligida namoyon bo‘ladi. “Navoiy bobomlar” deb nomlangan quyidagi she’r ham shu siraga mansub. U Navoiy yashagan manzil va hamda adib yozgan bir asar nomini keltirish bilan boshlanadi:

*Hirof tuprog‘ida voyaga yetgan,  
“Qush tili” yo‘llarin munavvar etgan,  
Yillar to‘zonidan sog‘-omon o‘tgan  
Navoiy bobomlar  
Buyuk odamlar<sup>162</sup>.*

---

<sup>162</sup> Адашбоев Турсунбой. “Навоий бобомлар”. Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 59.



She'r murabba' shaklida yozilgan. So'zlarning barchasi bolalarga nihoyatda yaqin va tushunarli. Bir qarashda ko'proq yozma nutqda uchraydigan "voyaga yetmoq", "munavvar etmoq" singari fe'llarning qo'llanishi shoir qalamida ravon va yengil bir uslubga aylangan. Qofiyalarning fe'l so'z turkumiga oidligi ularning xalqona ohangini ta'minlagan. Oxirgi misraning ikkiga bo'lib berilishi esa buyuk mutafakkir nomining alohida urg'u bilan aytilishiga zamin hozirlagan, mutafakkirning qanchalik hurmatga egaligini tasavvur etishga imkon yaratgan. Agar oxirgi ikki qisqa qator o'rtasiga tire qo'yilganida shoir ko'zda tutgan ma'noning ta'kidlanishi yanada aniqroq bo'lib ajralib turardi.

Navbatdagi bandlarda Navoiyning yangi-yangi qirralari bolalar e'tiboriga havola etiladi. Bular: mutafakkir adibning "Xamsa"si, ona tiliga nisbatan namoyon etgan e'zoz va mehnatlari, adibning buyukligi tufayli uning faqat o'zbek emas, balki butun dunyo ahli uchun ham faxr-iftixor manbayi bo'lganligi yoqimli va ravon she'riy tilda yetkaziladi. Bu o'rinlarda ham qofiyalar uchun yana fe'llar tanlangan, bolalar tasavvurini oydinlashtirishga xizmat qiladigan oddiy va sodda o'xshatishlar ("ko'ngilni shamdek yoritgan"), adib mehnatlarining salmog'ini ko'rsatishga yo'naltirilgan sanoq ohangi – (e'zozlagan,

boyitgan), zid ma'noli so'zlarning keltirilishi misralardagi badiiy ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan.

Buyuk faoliyat va uning e'tirofiga mos va munosib tarzda oxirgi misraning "Alisher bobomlar, Qutlug' qadamlar" shaklida berilishi ham bandning umumiy mazmuniga yarashqli bo'lgan. Hatto "qutlug' qadamlar"ning ajratilgan bo'lak sifatida kelishi tegishli ma'noning alohida urg'u olishiga ham qo'shimcha omil bo'lgan.

Navoiy haqida har qanday maqtov va tavsif, baribir oz va nomukammaldek tuyulaveradi. Bu tuyg'u mustaqillik davri shoirlarining deyarli hammasi uchun xos. Ayniqsa, boshqalarni takrorlamasdan turib buyuk ajdodimizni ulug'lash oson emas. Shunga qaramasdan, T. Adashboyev mutlaqo yangi nuqtalarni topa oladi. U hazrat Navoiyni "otash zamon", "umrlari boqiy, omon-omon" deya ulug'laydi. Quyidagi bandda esa ikki xil tavsif imkoniga ega misralar ijod qiladi. Uni "g'azallaridagi olam-olam nozik ma'no va mazmunga kishi o'zini fido qiladi" tarzida ham, "g'azallari uchun o'z zamonidan boshlab ("azal") hozirgacha barcha insonlar jonlarini fido qilishga ham tayyordir" tarzida ham talqin etish mumkin:

*Bobom Mir Alisher otash zamonidir,*

*Umrlari boqiy, omon-omondir,*

*G'azallari azal fidoyi jondir,*

*Navoiy bobomlar –  
Buyuk odamlar*<sup>163</sup>.

Oxirgi ikkita qisqa misra she'ring o'z o'ziga xos naqoratiga aylanib ketgudek holatda turibdi. Bu shakl shoir ko'zda tutgan ma'noni yana bir marta ta'qidlash uchun qulay vosita bo'lgan.

T. Adashboyev “Alla” she'rida ham bevosita Navoiy siymosini yaratishga harakat qiladi. She'r uch banddan iborat bo'lib, dastlabki ikki band shoirning badiiy niyatlari ifodasidagi o'ziga xos “kirish” vazifasini ado etadi. Ona allasi shoir uchun eng osuda va beg'ubor pallani kuylayotgan bulbullarning dilbar qo'shiqlarini yodga soladi. Bu allaning boshqalarga o'xshamaydigan jihatlari bor. Bu ularning har bandiga xos bo'lgan alohida ohang bilan aytilishida namoyon bo'ladi. Shoir ularni “ipakdayin eshilgan” tarzidagi ifodada ko'rsatib beradi. Bu o'xshatishda ham mayinlik, ham yoqimlilik ma'nolari mavjud. Ayni ma'nolarning ona tiliga ham bevosita daxldorligini esga olsak, shoir qo'llagan ifodalarning tasodifiy emasligi ayonlashadi.

Bularning barchasi asosiy g'oyani, bosh maqsadni ifodalash uchun zamin hozirlagan. Yosh avlod o'sib kelmoqda. Ularning “vujudlariga ona tillari alla bo'lib qo'shilmoqda”. Bugungi avlod (“bugun esa nabiralalar”) bobolarning mana shu

---

<sup>163</sup> *Адашбоев Турсунбой. Навоий бобомлар // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги наириёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 59.*

gʻoyalari, qadriyatlari asosida shakllanib (“tetapoya bosdi, ha”) kelmoqda. Ularning anʻanalarga muntazam va sodiq davomchilar boʻlishi uchun esa buyuk ajdodlarning, xususan, Alisher Navoiy asarlarining muxlisi, ixlosmandi va oshigʻi boʻlishi kerak. Ularning tanglaylari Navoiy asarlari bilan koʻtarilmogʻi shart. Shoir aytmoqchi boʻlgan asosiy fikr mana shu:

*Bugun esa nabiralar,  
Teta-poya bosdi, ha!  
Navoiyning “Qush tili”si,  
Tursun yostiqlik ostida<sup>164</sup>.*

T. Adashboyev goʻzal fikrlar uchun munosib shakllarni topa olgan. Sheʼrning oʻqilishi silliq va ravon. Tanlangan vazni yengil va oʻynoqi, xuddi shuning uchun ham yoqimli va huzurbaxsh. Bunday sheʼrlarning bolalarimiz ruhiga muqim oʻrnashib, muntazam va munosib joy olishiga shubha yoʻq.

---

<sup>164</sup> Oʻsha yerda.

## **2.2. Turkum she'rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik vosita sifatida**

She'riy turkum ijodkorning muayyan mavzu yoki obrazga oid qarashlaridagi keng qamrov va chuqur mazmuni namoyon etadi. Lirikada bunday hodisa, odatda, muallif bir obraz tasviri, biror mavzu talqinidan qanoat tuymaganda yoxud atroflicha yoritish istagi bilan yuzaga keladi. Xususan, muayyan shoirning Navoiy obrazini yaratish borasidagi harakatlari tizimlashib borayotganini anglatdi. Bunda ikki holat ko'zga tashlanadi:

1. Alohida adabiy qahramonga bag'ishlangan maxsus turkum she'rlar.

2. Turkum sifatida maxsus tuzilmagan bo'lsa-da, ijodkorning tizimli qarashlarini aks ettiruvchi bir mavzudagi asarlar jamlanmasi.

Turkum she'rlar, bir jihatdan, ijodkorning bir masala yoki mavzuni chuqur bilishiga, boshqa jihatdan, o'z estetik idealini o'quvchiga taqdim etish orqali uni ruhlantirishni ko'zlaganiga dalolat qiladi.

Alisher Navoiy to'g'risida maxsus turkum she'rlar yozgan ijodkorlardan biri Abdulla Sherdir. Uning Navoiy haqidagi turkum she'rlari "Navoiy sog'inchi" degan umumiy nom bilan yuritiladi. Abdulla Sher tasvirni Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"si tarkibidagi birinchi devon "G'a-

royib us-sig‘ar”dan boshlaydi. U devonni cheksiz olamga o‘xshatadi. She’riy zamin va she’riy osmonning mehvari, tayanch nuqtasi esa “buyuk qalam” ekanini aytadi:

*“Ashraqat” dan boshlangan devon  
O‘xshab ketar cheksiz olamga.*

*Undagi yer; undagi osmon*

*Suyanadi buyuk qalamga*<sup>165</sup>.

Shundan keyin shoir Navoiy asarlarining mohiyati, mazmuni, muddaosini sharhlashga o‘tadi. Uning nazarida, bu asarlar odamzodga olam va odamga qarashdagi yangicha nuqtayi nazarlarni tuhfa etadi, odam olamga mutlaqo boshqacha nazar bilan qarashga o‘rganadi. Muhimi, ular kishiga ruhiy bedorlik bag‘ishlaydi. Navoiyning ulug‘ligi uning ma’rifatida, so‘z tufayli bashariyat qalbiga yo‘l topa bilishidadir. Shuning uchun ham Abdulla Sher Navoiy qo‘llagan so‘z tushunchasi oldidan “ulug‘” epitetini qo‘llaydi:

*Asrlarki, devondan porlab,*

*Yoritadi Ulug‘ So‘z Sharqni.*

*So‘nmas ovoz bizga der; chorlab:*

*“Angla tun-u tongdagi farqni!”*<sup>166</sup>.

Shoh va shoir qarshilantirishi Abdulla Sherda ham mavjud. U shohlar va buyuk shoir ma’naviy

---

<sup>165</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 67.

<sup>166</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 67.

olamini qiyoslaydi. Bu qiyoslar mag‘zini chaqishni o‘quvchiga havola qiladi. Chunonchi, shohlar uchun tojdagi gavhar ulug‘lik alomati, shuning uchun ham ular tojdagi gavharni Quyosh o‘rnida qabul qilishadi. Navoiy uchun esa dur – so‘zdir. U so‘z ziyosi bilan faxr-u iftixor qiladi, uni muqaddas sanaydi. Shundan hayajonga (“oh tortar ko‘rib”) tushadi. Mana bunday his-tuyg‘u egasining esa kiyim-boshlari emas (“Alisherbek kiygan bir kuloh Mingta tojdan a‘lodir, a‘lo”), balki ma‘naviy durdonalari muhimdir.

Turkumdagi ikkinchi she‘r Navoiyning asarlariga berilgan umumiy shoirona baho tavsifidan iborat. Navoiy asarlaridan gul hidi kelib turadi. Bu gulning boshqalariga o‘xshamaydigan jihatlari ko‘p. Xususan, ular “ilohiy” va “cho‘ng”dir:

*Navoiyning asarlaridan*

*Bo‘y sochadi ilohiy, cho‘ng gul.*

*Unga qo‘ngan asalaridan*

*Qanot tilab uchadi ko‘ngil<sup>167</sup>.*

“Kabi” hamda “labi”, “asarlaridan” va “asalaridan” so‘zlari bittagina harfiga ko‘ra farqlanadi, xolos. Shuning uchun ham ular to‘la va mukammal qofiyalar sifatida she‘riy ohangning tabiiyligini ta‘minlab turibdi. Keyingi bandda Navoiy asarlarning majoziy xususiyatlariga e‘tibor tortiladi. Ularning “Lison ut-tayr” qahramonlari

---

<sup>167</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт магбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 68.

haqida ekanligi ko‘rinib turibdi. Navoiyning haqiqiy muxlislari buni osongina his eta oladi.

Abdulla Sher qalami ham Navoiy misralaridagi serqirra va purma‘no an‘analar tufayli charxlanib, o‘tkirlashib borayotganini e‘tirof etish joiz. Qushni odamga, odamni qushga o‘xshatish shu o‘rinda tabiiy va o‘rinli bo‘lgan. E‘tibor berilsa, birinchi ikki misrada o‘ziga xos so‘z o‘yini yuzaga kelgan. Bu “qushlarning odamlar kabi” bo‘lishi bilan bog‘liq. Ammo o‘xshatishning asosiy unsuri – nimasiga ko‘ra degan joyida ikki xildagi talqinga imkon borligi nazarga tushadi: 1. Odamlar kabi so‘zlaydilar. 2. O‘zini unutib so‘zlaydilar. Keyingi ikki qatordagi o‘xshatish ham shu mantiqni davom ettiradi. Navbatdagi band ham istioralar silsilasi bilan muzayyan qilingan. Bunday shoirona xayol va tasavvurning mevalari sifatida nodir mulohazalar, uchqur tafakkurning ajib jilvasi, quyma misralar, yoqimli she‘riy jarang yuzaga keladi. Jonlantirish va istioralar ko‘chma ma‘nolarga qanot bergan paytda Hadichabegim singari tarixiy shaxslarning daxli she‘rning real hayot bilan yanada yaqinlashuviga zamin hozirlaydi:

Unda falak o‘z tasbehini

Misra qilib o‘giradi jim:

G‘azaldagi xushbo‘y behini

Islab yashar Xadichabegim<sup>168</sup>.

---

<sup>168</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 68.



Albatta, “falakning o‘z tasbehini misra qilib o‘girishi” Abdulla Sherning badiiy kashfiyoti. Bu yerda Xadichabegim haqidagi ishoralar ham Navoiy qaydlariga borib taqaladi. Ushbu banddan keyin Hirotning “qushuyqu”ligi, “ming yillik ishqdan” kuylab turgan “qadimiy qayg‘u” haqidagi kuzatishlar ham mana shu ishoralarga kuch beradi.

Navoiyning tasavvufona ifodalari ham shoir nazaridan chetda qolmaydi:

*Ashraqatni ko‘rasan unda,  
Ilohiy nur ochar ko‘zingni:  
Anglaysanki, dunyoi dunda  
Tanimabsan hali o‘zingni<sup>169</sup>.*

Shoirning muddaosi Alisher Navoiy she‘riyatida mujassamlashagan yuksak insoniy g‘oyalar va ko‘tarinki ohanglarning inson ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta‘siri haqida. O‘zlikni tanishning ilk ostonasi – Alisher Navoiy she‘rlaridir, degan hukm misralarning umumiy mazmunidan kelib chiqadigan xulosa sifatida his etiladi.

Navbatdagi qism yangi bir tuyg‘ular to‘lqini bilan aloqador. Unda Navoiyning keyingi avlodlarga ko‘rsatadigan ta‘siri qalamga olingan. Bizningcha, “Navoiy ozod qilgan qul” turkona she‘rining parvozi bilan bog‘liq:

*Men – Navoiy ozod qilgan qul,  
She‘r o‘sadi qutlug‘ erkimdan.*

---

<sup>169</sup> O‘sha yerda.

*Yuragimda yashaydi Bulbul,  
Yuragimda Humo berkingan.  
Jismim – gulxan, qalamim cho‘g‘dir,  
O‘zim – xato, so‘zim – bexato.  
Shoirlikda armonim yo‘qdir:  
Ashraquatga qildim iqtido<sup>170</sup>.*

Turkumning to‘rtinchi she‘ri “Zanjirband sher” deya nomlangan. Unga buyuk hazratning “Zanjirband sher – yengaman der” hikmati epigraf sifatida keltiriladi. Shoir o‘zini “Zanjirband sher” sifatida tasavvur etadi. Ammo bu birinchi, ilk tasavvurdir. Buni she‘r yakuniga yetmasdan turib to‘la tasavvur etish qiyin. Shuningdek, she‘rni to‘la o‘qimasdan turib uning bosh mazmun va mantig‘in idrok etish ham imkonsiz:

*Men bilmayman, bu ne jahd-jadal,  
Bu qandayin aql yetmas sir:  
Men tug‘ilmay, besh asr avval,  
Suvratimni chizmish Ulug‘ Pir<sup>171</sup>.*

Mening suratimni Ulug‘ Pir chizib qo‘ygan! Dabdurustdan bu jumlaning mohiyatiga yetish qiyin. Misralar mantig‘ini erinmay kuzatish zarur:

Zanjirband sher, boq, yengaman der, –

Bu Navoiy chizgan suratning o‘zginasi, xolos. Albatta, bu ham birinchi o‘qishdagi taassurot. Ikkinchi misrani o‘qishimiz bilan endi boshqacha assotsiatsiyalar paydo bo‘la boshlaydi:

---

<sup>170</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 69.

<sup>171</sup> O‘sha yerda.

*Yirtilgudek jaranglar qog‘oz.*

Nima uchun? Qog‘ozning yirtilgudek jaranglashi nimani anglatadi? Keyingi misralarni o‘qiganimizda bu savollar biroz anglangandek tuyuladi:

*Jaranglaydi zanjirlangan sher,*

*Jaranglaydi po‘lat bir ovoz.*

“Zanjirlangan” hamda “po‘lat bir ovoz” jarangning zanjir bilan aloqadorligiga ishora emasmi? Yana kutishga to‘g‘ri keladi. She‘rning kalit so‘zlari yana tavsiya etiladi:

*Zanjirband sher, boq, yengaman der, –*

*Yildan-yilga ul zanjir tarang:*

*Besh asrki, men, Abdulla – sher!*

*Men qilaman zanjir bilan jang!*<sup>172</sup>

She‘rdagi so‘z o‘yinlari qisman ochila bormoqda. Endi “Men”ning lirik qahramon sifatida “Abdulla Sher”ga tenglashishi kuzatiladi. Ammo, bu yerda yana bitta nozik qistirma mavjud. Shu jumladagi “sher” katta harflar bilan yozilgan emas. Ayni shu holat “sher”ning istiora sifatida qo‘llanganini anglatadi. Nihoyat, yakunlovchi bandni o‘qiymiz. Endi ko‘p narsa joy-joyiga tushadi:

*Besh asrki, suvratim mening*

*Na‘ra tortib yashaydi bedor...*

---

<sup>172</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 69.

*Tugamaydi muhlatim mening  
Toki She'r bor, toki Zanjir bor!*<sup>173</sup>

Demak, gap avvalo suratning o'zi haqida borayotir. Hali shoirning o'zi emas, balki u chizgan sher surati olamga dovruq solmoqda. Surat yashayotgan bo'lsa, buyuk shoirning o'zi ham yashashda davom etadi. "Bedor" degan so'z qo'llangani bejiz emas. U "yashaydi", yashaganda ham "na'ra tortib" yashaydi. Bu mangulikni ta'minlayotgan asosiy hodisa She'rdir. Oxirgi misrada ushbu so'zning katta harflar bilan yozilgani, uning tarkibidi ayirish belgisining mavjudligi shu so'zga e'tibor berishni talab etadi. Demak, She'r bor ekan buyuk bobomiz – Hazrat Alisher Navoiy ham har doim bor, har doim abadiydir.

Turkumning beshinchi qismiga "Navoiy haqida ballada" deb sarlavha qo'yilgan. U marhum olim, iqtidorli navoiyshunos Sharafiddin Sharipov xotirasiga bag'ishlangan. She'r o'ziga xos "kirish"ga ega. Unda olimning tanishtirilishi asosiy maqsad sifatida ko'zga tashlanadi:

*Yazdiyning nechun bu halol otdoshi  
Navoiy davridan keldi adashib?!.  
Bugunning xudpisand, nokas quyoshi  
Undan ijirg'andi ko'zi qamashib*<sup>174</sup>.

---

<sup>173</sup> O'sha yerda.

<sup>174</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 70.

Sharafiddin Ali Yazdiydek ulug‘ insonning tilga olinishi shu yumushga bo‘ysundirilgan. Yosh olimning buyuk otdoshi – bobokaloni bilan muqoyasasi uni ulug‘lash uchun xizmat qilgan. Navoiyshunos olim ilmda ham Navoiy an‘analarini yo‘lga qo‘yish ishtiyoqi bilan band. U shu yo‘l bilan ulug‘ boboning nomini jahonga yoyish uchun bel bog‘lagan. Bu mulohazalarga atrofda gilar-ning munosabati ham yaxshi ko‘rsatilgan. Ularda, nazarimizda, hayot haqiqati ham munosib gavidalangan:

*Hamma jim. Burchakda shivir-shivirlar:*

*“Zormi qishloqiga hazrat Navoiy?!”*

*Boshlarda fikrmas, hasad g‘ivirlar:*

*“To‘g‘ri, bu bola zo‘r, lekin... savdoyi”<sup>175</sup>.*

Agar she‘rda tasvirlanayotgan shaxs alohida bir e‘tiborni tortmaydigan bo‘lsa, she‘rxon qalbida ozgina bo‘lsa-da shubha uyg‘otsa, u she‘r o‘qilmaydi, u kitobxonning ma‘naviy mulkiga aylanmaydi. Quyidagi misralarda aynan shu qahramonning o‘ziga xosliklari tasviri kitobxonni befarq qoldirmaydi:

*U esa qunishib hujra zaxidan,*

*Navoiy shamini har tuni yoqdi.*

*Kichkina xodimlik maoshi bilan*

*Kattakon ilmni bemalol boqdi<sup>176</sup>.*

<sup>175</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 70.

<sup>176</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 70.

Albatta, she’rdagi hamma so‘zlarni o‘z o‘rnida, bekam-u ko‘st deyishdan yiroqmiz. Ayniqsa, “kattakon ilmni bemalol boqdi” singari misralarning salmog‘i tayin bo‘lib turibdi. U mavhum, uning vazni yengil. Shoir bu bilan olim qilgan ishlarning ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini ta’kidlashni istagan. Shunga qaramay, istak ifodasi sal mujmal. Ammo keyingi bandlarda olimga xos mehr va ishonch, ruhiy bezovtalik ancha tabiiy va samimiy ifodasini topgan. She’rning keyingi bandlarida tafsilotlarga berilish bor. Ayni shu holat she’r ruhining, undagi ta’sir kuchining pasayishiga sabab bo‘lgan. Badiiy tasvirning bayonga aylanishi oldingi banddagi qofiyalarning “aybg‘ina”si bilan ham bog‘liq. Qolaversa, chiptaning yo‘qligidan “melisa”ga emas, balki vokzal ma’muriyatiga murojaat etish mantiqiyroq bo‘lmasmidi? Navbatdagi bandlar yana o‘z o‘zanida davom etadi. Ifodadagi tabiiylik, voqea rivojidadagi keskinlik she’riy misralarda ham o‘z aksini topadi.

Abdulla Sher qalamidagi tasvirlar kishini loqayd qoldirmaydi. Ular inson ong-u shuuriga ham ta’sir qiladi. “G‘alaba qilgan” “aqlli olomon”ga nisbatan kishining g‘azabi ortadi. Shoir qahramonning o‘zini gapirtirish orqali ham uning ruhiyatini chizishga, ko‘rsatib berishga urinadi. O‘sha misralarda shoirning iqtidori, tasvirlash mahorati ancha bo‘rtib namoyon bo‘ladi:

*Dedi u: “Do ‘xtirlar, men adashibman,  
Navoiy ne kerak menday sho ‘rlikka!  
Navoiy yurmaydi endi men bilan,  
Amirim chidamas bunday xo ‘rlikka...”<sup>177</sup>.*

Voqealarning tashqi kuzatuvchi tomonidan hikoya qilinishi ham asar kompozitsiyasida o‘ziga xos o‘rin tutgan. Ular kitobxon diqqatini asosiy nuqtada tutishda, uning tasvir ob’ektiga nisbatan munosabatini shallantirishda ayricha ahamiyat kasb etadi:

*Qo ‘yib yubordilar ona qishloqqa,  
Navoiy o ‘lgan deb so ‘z olgach undan.  
Ketarkan, qoqildi bir kaft tuproqqa,  
Yiqilib qarasa – o ‘z qabri ekan<sup>178</sup>.*

She’rdagi lirik chekinish ham she’rning umumiy ruhidagi jiddiyat va haqqoniyatni qo‘llab-quvvatlayotgandek taassurot uyg‘otadi.

*Olimlar! Kechiring, sizlar sermajlis,  
Majlis ko ‘p, ko ‘p erur navoiyshunos.  
Lekin kim pokdil-u, kim esa kaj his, –  
Bizning bu kunlarda qiyindir taqqos!*

*Gapimdan silkinmang qilichsiz qindek!  
Mayli, men ishonay da ‘voyingizga, –*

---

<sup>177</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 71.

<sup>178</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 71.

*Agar ishonsangiz Sharafiddindek,  
O'zingiz kashf etgan Navoiyingizga!*

*Yaxshisi, bosh eging qutlug' qabrga,  
O'sha qishloqdadir ikkinchi Hirot:  
Navoiy yotibdi u bilan birga,  
Unda o'tlab yurar eng so'nggi G'irotl!<sup>179</sup>*

She'ning xotimasi “xotima o'rnida” degan eslatma bilan “Navoiy sog'inchi” nomini olgan. Unda kuzatuvchi va lirik qahramon – shoir nuqtayi nazarlari birlashib ketgan. U olamning turfaligini, odamlarning rang-barangligini, istak va imkon oralig'idagi tafovutlarni va ularning umumiy tarzda inson umriga, taqdiriga ta'sirini tilga olgandek. Ammo bir narsa har doim ustuvorlik kasb etadi. Bu – hazrat Navoiyga nisbatan buyuk ishonch va e'tiqod. She'r xotimasida ana shu tuyg'uning betakror badiiy talqini kuzatiladi:

*Netay, Hirot olisdir bugun,  
Olisdadir Navoiy bobo, –  
Hududlarga qoqilib nigun,  
Tarix yig'lar asrlar aro<sup>180</sup>.*

She'r oxirida uning yozilgan joyi va sanasi ko'rsatib qo'yilgan: *Ko'ktepali – To'ytepa,*

---

<sup>179</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 71.

<sup>180</sup> Шер Абдулла. Навоий соғинчи // Ҳазрат Навоийга эҳтиром. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижод уйи, 2016. – Б. 71.



1989, 2006, 2014. Mazkur ishoralar butun she'riy bandlar bo'ylab yoyilib ketgan tuyg'ular rang-barangligining o'ziga xos sabablarini ham ko'rsatib turgandek go'yo.

Mustaqillik davri she'riyatida Alisher Navoiyga bag'ishlab turkum she'rlar yozgan ijodkorlardan yana biri Jamol Kamoldir. Alisher Navoiy timsoli, daho shoir ijodiga bo'lgan cheksiz tavajjuh Jamol Kamol ijodini ichdan yoritib turadi. Buning sababini professor Ibrohim Haqqul shunday izohlaydi: "Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Shayxzoda, Mirtemir – bular yosh Jamolning yaxshi ko'rgan shoirlari edi. U Oybekka alohida mehr qo'ygan va bir umr uning ijodiga bog'lanib qolgandi. Biroq mash'ala – Navoiy edi. U boshqa shoirlarni ustoz hisoblagan bo'lsa, Navoiyni pir deb bilgandi"<sup>181</sup>. Umr bo'yi Navoiyni pir bilib, o'qib o'rgangan, Navoiyga suyanib, Navoiyga ergashgan shoirning o'zi bu haqiqatlarni shunday e'tirof etadi: "Men fors tili mutaxassisi emasman. Bu sohada biror joyda dars o'qib, saboq olmaganman. Qanday qilib "Masnaviy"dek ulkan bir asarni o'zbekchaga o'girdim? Ba'zan shu haqda so'rashadi. Javobim shunday: Alisher Navoiyning sharofati tufayli... Men Navoiyni ko'p o'qiganman. Hozir ham o'qimagan kunim yo'q. Xullas, bu ishga meni ruhan hazrati Navoiy tayyorladi desam, ishoning.

---

<sup>181</sup> Камол Жамол. Сайланма. Биринчи жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 7.

Bunga hech mubolag‘a yo‘q. Buyuk bobomizning ijodiy tajribasi menga qo‘l-qanot bo‘ldi. Go‘yo bir tomonda Mavlono, ikkinchi tomonda Navoiy boshimda turib, meni qo‘llab-quvvatlab turishdi. Men har kuni qo‘limga qalam olarkanman, ularning ruhiga yukindim, ulardan madad so‘radim... Buyuklar menga madadkor bo‘lishdi. Buning uchun shukronalar aytaman”<sup>182</sup>.

Yuqorida aytganimiz Navoiy ijodiga cheksiz muhabbat pirovardida shoirga go‘zal ijodiy natijalar keltirdi. Jamol Kamol “Devoni Foniyy”dan ikki yuz g‘azal, o‘n qasidani o‘zbek tiliga o‘girib, “Foniyy gulshani” nomi ostida kitobxonlarga taqdim etdi. Shoir-tarjimon kitobni taqdim etarkan, shunday yozadi: “Aziz kitobxon! Hazrati Navoiy g‘azallarini ilk bor o‘qiganimda o‘n uch yoshda edim. Oradan oltmish yil o‘tibdiki, hamon o‘qiyman. O‘qib, zavqiga to‘ymayman... Zero, Sharq adabiyotida har ikki tilda birdek qalam tebratib, mislsiz meros qoldirgan yana kim bor? Menimcha, faqat Navoiy! Xullas, sizga ham, o‘zimga ham aytadigan so‘zim shuki,

*Ishqing, yuraging esa, Navoiyni o‘qi,*

*Iymon tiraging ersa, Navoiyni o‘qi,*

*Ixlos keraging esa, Navoiyni o‘qi,*

*Har ne tilaging ersa, Navoiyni o‘qi... ”<sup>183</sup>.*

<sup>182</sup> Kamol Jamol. Сайланма. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 68-69.

<sup>183</sup> Навоий Мир Алишер. Фоний гулшани. – Тошкент: Meriyus, 2011. – Б. 2.

Shuningdek, kitobxonlar “Guli va Alisher hikoyati” degan turk xalq dostonini ham Jamol Kamol tarjimasida o‘qishdi<sup>184</sup>. Yosh Alisher olti yoshida yod olgan “Mantiq ut-tayr”ni o‘zbek tiliga tarjima qildi, Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiy bisotidan ikki yuz g‘azalni tarjima qilib, “Gulshaningda so‘lmasin gul” kitobini nashr ettirdi. Navoiyning salafi, ustozi Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sini ona tilimizga o‘girdi. Shubhasiz, Jamol Kamolning mazkur ishlari, bir tomondan, u Navoiy ijodidan tom ma’noda ilhomlangani, ijod bobida unga ergashganini asoslasi, boshqa tomondan, Navoiyning forsiy ijodi tarjimasida Navoiyga xos xarakter, tasvir va mantiqni – Navoiy obrazini saqlashga jiddiy ahamiyat berganini ko‘rsatadi. Ta’kidlash kerakki, Navoiy ijodini chuqur bilib, so‘ngra qo‘liga qalam olgan bunday ijodkorlar ko‘p emas.

Navoiy maktabi – Jamol Kamol uchun mahorat maktabi. Undagi birgina so‘z yoki birgina bayt ba’zan ixlosmand shoirga qanchalar ta’sir etgani, buning oqibati o‘laroq yangi manzumalar yaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Jamol Kamol Navoiyning “Qizil, sorig‘, yashil” g‘azalini avval sharhlab, unga muxammas bog‘laydi. “Asru”, “Istangiz” g‘azallariga bitilgan muxammaslar ham shular jumlasidan. Aytish mumkinki, maz-

---

<sup>184</sup> Камол Жамол. Сайланма. Олтинчи жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 432-450.

kur muxammaslardan Navoiyga ruhdoshlik, tuyg‘ulariga undoshlik, ma’nolariga xayrixohlik ufu-rib turadi.

Jamol Kamol 2008-yil sentyabr oyida Eronga sayohat qilib, Tehron, Mashhad, Nishopur, Tus shaharlarida bo‘lib, Imom Rizo, Shayx Fariduddin Attor, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Imom G‘azzoliy kabi buyuk zotlarning qabrlarini ziyorat etadi. Ana shu sayohat samarasi o‘laroq, safar daftari “Navoiydan qadamjo deb...” nomlangan she’riy turkum dunyoga keladi. Jumladan, undagi g‘azalda Navoiyning Mashhadga kechgan talabalik yillari shunday tasvirlanadi:

*Kezib Mashhadni, maktab, madrasa,  
balki ilmgoz deb,*

*Necha ma’voga bosh urdim,  
Navoiydan qadamjo deb.*

*Shu yerda oldi u tahsil,  
Shu yerda bitdi ilk devon,*

*Shu yerda angladi ishq ahlini  
Majnun-u Laylo deb.*

*Vafo ahlini kashf etdi,  
Junun vodiysiga yetdi,*

*Shu yerda kuyladi ilk bor,  
ko‘ngilni Ka’batulloh deb...<sup>185</sup>.*

E’tiborlisi, shoir Navoiyning yoshligini shunchaki eslatmaydi, balki uni Navoiy asarlari, un-

---

<sup>185</sup> Камол Жамол. Сайланма. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 11-12.

dagi qahramonlarni tilga olish orqali eslatadi. Kechinmalar ifodasida tarixiy faktlardan ham samarali foydalanadi, masalan, bir o‘rinda Alisher Navoiy ustози Shayx Fariduddin Attor qabri ustida maqbara qurdirganini aytib, faxrlanadi.

Jamol Kamol “Tokioda Alisher Navoiyga qo‘yilgan haykal hikoyati” nomli she‘riy hikoya ham yozgan. Unda o‘qiymiz:

*Ikeada-san – Yaponiya*  
*tuproq‘ida donishmand,*  
*Bir yaponki, bunaqasin*  
*hali dunyo ko‘rmagan.*  
*U mukammal egallagan,*  
*o‘qib dunyo ilmini,*  
*keyin unga payvand etgan*  
*aziz uqbo ilmini.*  
*Osmon ila, zamin ila*  
*suhbat qurgan alloma,*  
*Toynbining panjasiga<sup>186</sup>*  
*panja urgan alloma.*  
*Necha milyon muxlislarga*  
*a‘lim bergan ulamo,*  
*Necha milyon muridlarga*  
*o‘zi yana muqtado...<sup>187</sup>.*

Ushbu she‘riy hikoyatning asosida buyuk allomalar yurtida yashab, Navoiy tilida so‘zlashuvchi o‘zbekning faxri va bunday avlodga

---

<sup>186</sup>Тойнби – йигирманчи асрда яшаган машхур инглиз файласуф олими.

<sup>187</sup>Камол Жамол. Сайланма. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б.14.

bir ziyoli yaponning havasi yotibdi. Umuman, Jamol Kamol she'rlarida Navoiy obrazi ancha ravshan ko'rinadi, chunki u shoir ijodini ichdan biladi, uning qarash-u e'tiqodlarini qabul qilgan va ergashgan. Qayd etish kerakki, Jamol Kamol Navoiy talqinini yolg'iz she'riyatda emas, maqolalarida<sup>188</sup> ham davom ettirgan. Jamol Kamol jamiyatning Navoiyga munosabatidan qoniqmaydi, shoir uchun Navoiy shunchaki eslanadigan yoki maqtanadigan ideal namunasi emas. Jamol Kamolning boshqa shoirlardan eng asosiy farqi ham shunda – u Navoiyning ideallarini ham o'z idealiga aylantirishni xohlaydi, uning ma'naviy olamidani bahramand bo'lib, uni hayotga tatbiq etishni istaydi. Bu intilish uning barcha she'rlarida sezilib turadi.

Asqar Mahkam ham Navoiyga bag'ishlab bir qancha she'rlar yozgan. Ulardan biri "Tabriz tuprog'ida" deb ataladi. Murabba' shaklidagi ushbu she'rda misralarning mantiqiy takrorlari ruhiyatning o'ziga xos tasvirini beradi. O'xshash misra va bandlarda yangi-yangi fikr, tuyg'ular po'rtanasi namoyon bo'ladi:

*Tabriz tuprog'ida og'ir kechdi tun,  
Hatto shoirlarni bosdi salobat –  
Kel ey, Mavlononing hurmati uchun  
Menga Sheroziyning she'rlaridan ayt!<sup>189</sup>*

---

<sup>188</sup> Kamol Jamol. Сайланма. Учинчи жилд. – Тошкент: Янги асп авлоди, 2018. – Б. 257.

<sup>189</sup> Махкам Асқар. Табриз тупроғида // ЎзАС, 2016 йил, 2 декабрь. № 49 (4396).

Bir o‘zbek farzandi Tabriz mehmoni bo‘lib turibdi. U Tabriziylar yashagan, ijod qilgan bir yurtga qadam ranjida qilgan. Uning hamrohlari ham o‘ziga xos: shoirlar, ijodkorlar. Tabriz – ulug‘lar jamlangan diyor. Boshqalarni aytmagan taqdirda ham birgina Mavlono Jaloliddin Rumiyning ustoz-i Shams Tabriziyning o‘zi buyuklik timsoli. Navoiy asarlarida Shayx Abubakr Sallabof Tabriziy, Amir Said Qosim Tabriziy, Ja’far Tabriziy singari mashhur kishilarning nomlari qayd etilgan. Tabriz Xo‘ja Hofiz Sheroziy nomi bilan ham chambarchas bog‘lanib ketadi. Xuddi shuning uchun ham lirik qahramon – ijodkor shaxs, shoir aynan Sheroziy she’rlariga intiqiligini ayon etmoqda.

Shoirni Tabriz tuni o‘z bag‘riga olgan. Tasvirda ayni mana shu manzara ustuvorlik kasb etgan. To‘rt bandning barchasida ham Tabriz tuni qalamda. Dastlabki bandda bu tun “og‘ir kechdi” deyilgan bo‘lsa, keyingi to‘rtlikda uning harakati “chayqalardi” fe’li vositasida tasvirlangan:

*Tabriz tuprog‘ida chayqalardi tun,  
Niliy qubbalarda Qur‘oniy oyat–  
Kel ey, Tabriziyning hurmati uchun  
Menga Shirvoniyning she‘rlardan ayt!<sup>190</sup>*

Endi qisman birinchi bandning sharh-u izohi va, umuman, “salobat”ning mohiyati ko‘rsatib beriladi: qadim she’riyatning o‘ziga xos ohanglari,

<sup>190</sup>Маҳкам Асқар. Табриз тупроғида // ЎзАС, 2016 йил, 2 декабрь. № 49 (4396).

ayniqsa, mumtoz she'riyatdagi tasavvufona ruh ustuvorligini namoyish etish "Niliy qubbalarda Qur'oniy oyat" kabi satrlar zimmasiga yuklanadi.

Yana oldingi banddagi kabi ikki buyuk siyomoning nomlari zikr etiladi. Ularning biri Tabriziy, ikkinchisi esa Shirvoniyydir. Shoirning muddaosi tayin: u ma'naviy qadriyatlardan bahramand bo'lmoq istaydi.

Tabriz tuprog'ida tun adashganmikan? Shoir buni ongli ravishda qo'llamoqda. U tunning adashmasligini yaxshi biladi. Adashish, aslida tunga emas, odamga xosdir. Tun osmonida yulduzlar qiyofasida shoda-shoda baytlar muxlislaridan uzoqlarda turibdi. Shunga andoza sifatida uzoq tarixdagi Firdavsiydan bo'lmasa, uning hurmati uchun Shahriyorning (bo'lsa-da), she'rlaridan eshitmoqchi.

Yaxshi she'rning barcha poetik unsurlari tegishli ma'no yuklarini ko'tarib turadi. Yakun ko'pincha shu jihatdan, zalvorli vaznga ega bo'ladi. Mazkur she'r ham shu xususiyatdan xoli emas. "Buyuklar kahkashonida" Navoiy nomi eng oxirida tilga olinadi. Ya'ni, boshqa nomlarning barchasi o'z buyukligi bilan e'tiroflarga sazovor, ammo ularning barchasi Navoiy uchun umumiy bir fon vazifasini ado etadi.

Mehmon – lirik qahramon "uy egalari"ning ko'nglini ham oladi. Shu yurtning ardoqli so'z



ustalari qalamiga mansub she'rlarni aytirib, ulardan ham huzur tuyushini oshkor etadi. Shunga qaramay, o'z yurtidan uzoqda bo'lgan paytda, dil sog'inchlarini bosishning yagona yo'li sifatida o'z ona tilidagi shoirona so'zlarga intiq ekanligini ham go'zal bir shaklda izhor etadi:

*Tabriz tuprog'ida eng oxirgi tun,  
May ichmay shoirlar yashardi sarmast.  
Kel ey, mehmoningning hurmati uchun  
Menga Navoiyning she'rlaridan ayt!*<sup>191</sup>

Darhaqiqat, kunlarnigina emas, hatto, tunlarni ham sanab o'takazayotgan insondagi sog'inch tuyg'ularini tasavvur etish mumkin. Buning ustiga shoirlar davrasida faqat va faqat she'rlar jaranglaydi. Shu holatning o'zi ularning barchasini may ichmasdan turib ham sarmast qiladi. Mazkur kayfiyatning o'zi ham uning ona tilida she'r eshitish ishtiyoqining ortishiga tabiiy sabab bo'la oladi. Qolaversa, bunday holatdagi shoir unchamuncha ijodkorning emas, aynan Navoiy singari daho san'atkor she'riyatining shaydosi ekanligini ochiq aytsa, bu mehmon maqomidagi shaxsning nokamtarligi emas, balki, birinchidan, ona tilidagi she'rga bo'lgan e'tibor va ehtiromi, ikkinchidan, bunday ruhiy holatda faqat "shoirlarning sultoni deb bilgan shoir"dangina she'r eshitishning munosibligi bilan izohlanadi.

---

<sup>191</sup> Маҳкам Аскар. Табриз тупроғида // ЎзАС, 2016 йил, 2 декабрь. № 49 (4396).

Alisher Navoiy siymosini ustoz sifatida tasavvur qilish ko‘plab ijodkorlarga xos. Bu borada mumtoz adabiyotimizda ham, zamonaviy adabiyotimizda ham misollar oz emas. Ammo shunisi aniqki, ularning birortasida Sirojiddin Sayyid topgan ifoda uchramaydi:

*O‘zim tuproqman-u pirim – samoviy,  
Mening dorulfununimdir Navoiy*<sup>192</sup>.

To‘g‘ri, Navoiyni pir deb atash bor, ammo pirning “samoviy”, ya’ni ilohiy fazilatlar egasi ekanligini alohida ta’kidlash va Navoiyni dorulfununga o‘xshatish mutlaqo yangi.

Shoirning “Mutolaa” she’riga Navoiy yosh avlod uchun hamma narsani bera olishi mumkin degan aqida singdirilgan. Muhimi, bu fikr chinakam badiiy talqin etilgan<sup>193</sup>. Sirojiddin Sayyid talqinida Vatan tushunchasi buyuk bobokalonlarning nomi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Xuddi shuning uchun ham o‘z she’rlaridan birini “Vatan nadir” degan so‘roq bilan boshlar ekan, uning javobi uchun buyuk ajdodlarning ikkita vakilini keltiradi:

*Vatan nadir –  
Shoh shoirini  
Sog‘inchda yig‘latgan bir qovunidir.  
Shoir kimdir –*

---

<sup>192</sup> Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 8.

<sup>193</sup> Ўша нашр. – Б. 47.

*Mir Alisher boboning  
Birinchi va mangu muoviniidir*<sup>194</sup>.

Shundan keyin badiiy asarning, shu o‘rinda she‘riy misralarning inson hayotidagi, xususan, uning ruhiyatidagi o‘rni va ahamiyati haqidagi she‘riy mulohazalarini bayon etib, “She‘riyat – gul emas, chechakmas asli / Ruh va ko‘ngillarning kir sovunidir”<sup>195</sup>, deydi. Ya‘ni, Navoiy va Bobur misolida aytilayotgan asosiy fikr shuki, ular qoldirgan meros, inson tafakkurini boyitadi, uning ruhiyatidagi ayrim notugal va kemtikliklarni bartaraf etadi, “kir” o‘rinlarni tozalaydi. Bir so‘z bilan aytganda, badiiy adabiyot inson ruhining poklanishi uchun muhim omil vazifasini ado etadi. She‘rdagi “kirsovun” detali shu ma‘noda o‘ziga xos poetik kashfiyot vazifasini ado etgan.

Sirojiddin Sayyid uchun Alisher Navoiy ijodi poetik dalil va tasdiqlarning bitmas manbasi. Aytish mumkinki, Sirojiddin Sayyid shoirlikning andozasini ham Navoiydan oladi. Haqiqiy shoir qanday bo‘lmog‘i kerak? Birinchi talab shundan iboratki, u har doim nurli va taftli bo‘lishi shart. Yana bir mezon shuki, ulug‘ bobo uni bir nabira shogird sifatida ko‘rsa-yu bir imo bilan qarab qo‘ysa kifoya:

*Na bo‘lg‘ay menga ham imlab, meni ham bir  
nabiram deb,*

---

<sup>194</sup> Ўша нашр. – Б. 120.

<sup>195</sup> Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Шарк, 2008. – Б. 10.

*Qiyomat tongida bobo Navoiy bir qarab  
qo‘ysa*<sup>196</sup>.

Sirojiddin Sayyidning bugungi avlodga – zamonamiz yoshlariga hazrat Alisher Navoiy haqida aytadigan gaplari ko‘p. Quyidagi she‘r – g‘azal ham shu silsilaga mansub:

*Ulug‘ bobong Navoiyning yotar joyi Hirotda  
bo‘lgay,*

*Va lekin bilmasang ul zotni sen, og‘ir uyot  
bo‘lgay*<sup>197</sup>.

Yoshlar oldidagi eng muhim vazifa, uningcha, hazrat Navoiyni bilish, o‘rganishdir. Baytda “ulug‘ bobong”, “bu zot” singari ifodalar Navoiy haqidagi tushunchalar mazmunini tashkil etadi. Buyuk bobomizning Hirotda mangu qo‘nim topgani, uning o‘zi va butun merosini tom ma’noda o‘rganish zarurligi uqtiriladi. Bolalar uchun “uyat bo‘ladi” singari xalqona ta’sirchan ibora bilan murojaat etish she‘rda ifodalangan mazmun ta’sirchanligi ortishini ta’minlagan. Keyingi baytda ham shu uslub saqlanadi. Yana og‘zaki nutqqa xos unsurlarga asosiy o‘rin ajratiladi. “Senga muhtoj emas”, “dil ko‘zlarin och”, “hayoting ham hayot bo‘lgay” kabi ifodalar sodda, samimiy va tushunarililigi bilan diqqatga sazovor. Eng muhimi, u yalang‘och pand-o‘gitlarning yig‘indisi emas, balki katta kishining o‘zidan kichikka nisbatan samimiy istak va maslahatlari o‘laroq jaranglaydi.

<sup>196</sup> Саййид Сирожиддин. Ўша китоб.

<sup>197</sup> Саййид Сирожиддин. Ўша китоб.

She'r davomida ona yurt uchun, uning rivoji, kamoli uchun kamarbasta bo'lish, o'zida yuksak ma'naviy fazilatlarni egallashga kuch va rag'bat topish, o'zaro ahil va hamjihatlikka undash, Vatan muhabbati bilan yashashga, muhimi, o'zidan yaxshi va munosib nom qoldirishga da'vat ohanglari namoyon bo'ladi. Bularning barchasini egallash uchun esa Navoiyning she'riyati kifoya qiladi. Shoir ta'rifida "Navoiy nazmi – iymondir", demak, har bir kishi unga sodiq bo'lishi, so'zni sotmasligi kerak. Bu satrlarning hammasi Navoiy shaxsini, shaxsiyatini ulug'lashga, u buyuk ajdodimiz bilan iftixor qilishga undab turadi. Nurboy Jabborov qayd etganiday: "Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi yana bir fazilat – ularda ulug' salaflarga bo'lgan ehtiromning yorqin ifodalanishidir. Ahmad Yasaviy, Navoiy, Maxtumquli, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bog'ishlangan she'rlar, ular g'azallariga bog'langan muxammaslar ham buni tasdiqlaydi"<sup>198</sup>.

Sirojiddin Sayyid "Mir Alisher" she'rida Alisher Navoiy dahosiga kengroq nuqtayi nazar bilan yondashadi. U tiriklikning mazmun va mohiyatini, buyuklikning belgi va alomatini Navoiy timsolida ko'radi, Navoiy bilan bog'liqlikda deb biladi:

---

<sup>198</sup> Абдулҳаким Нурбой. "Руҳим харитаси"дан "Дил фасли"гача // Сирожиддин Саййид. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 361. (мақола 356-371-бетларда)

Tiriklikning bongi Navoiy,  
Buyuklikning rangi Navoiy<sup>199</sup>.

Navoiy butun turkiy xalqlar uchun bayroq, ularning qorong‘u kechasini yoritguvchi beqiyos manbadir. Navoiy sarob bilan haqiqatning ayirg‘ichi hamdir: *Besh asrlik ro‘yodir dunyo, Besh asrlik o‘ngi Navoiy*<sup>200</sup>. Navoiyni boshqalar ko‘z oldida aniqroq, yaqqolroq tasvirlab berish ishitivoqi Sirojiddin Sayyidni yangi-yangi o‘xshatish va sifatlashlar, epitet va qiyoslarni izlashga undaydi. “Ibtidosi ham, intihosi ham bo‘lmagan ummon” mana shu izlanish natijalaridan biridir.

Shu silsilada yana bir yangi tashbih paydo bo‘ladi, ya’ni Navoiy – Vatan timsoli, degan qiyos har jihatdan o‘zini oqlaydi:

Vatan kabi poyoni yo‘qdir,  
Vatan kabi mangu Navoiy<sup>201</sup>.

Chinakam she’rda badiiyatning barcha unsurlari mujassam bo‘ladi. Mazkur she’rda qo‘llangan badiiy tasvir vositalari, she’r san’atlari ham o‘ziga mos va munosib bo‘lgan.

Sirojiddin Sayyidning Navoiy obrazi yaratilgan “Navoiyni o‘qish” she’ri ham kitobxonlar orasida ancha mashhur. Shoir Navoiy asarlari har qanday xurofot va jaholatga qarshi kuch berishiga ishonadi. Shuning uchun ham uni “har bir kalla, har bir bosh” o‘qishi kerak, deydi. Shoir bir sinonimik qatordagi

<sup>199</sup> Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 78.

<sup>200</sup> Ўша нашр. – Б. 84.

<sup>201</sup> Ўша нашр. – Б. 84.

ikki soʻzni (*kalla, bosh*) qoʻllash bilan anglatishi lozim boʻlgan qamrov doirasini nihoyatda kengaytirib yuborgan. Natijada, xuddi juft soʻzlarga oʻxshab, ular ham shu holatda *hamma, barcha* degan maʼnolarga yaqinlashib qoladi:

*Har bir kalla,*

*Har bir bosh*

*Jaholatdan qoʻrqishi kerak.*

*Har bir bola,*

*Har bir yosh Navoiyni oʻqishi kerak*<sup>202</sup>.

Navoiyni oʻqish jarayoniga hamma daxldor boʻlishi lozim. Bu jarayonda otalar va bobolarning ham ishtirok etishi talab etiladi. Ular hayotiy hikmatni egallaganlari kabi nafs arqonlarini qir-qishni uddalasalar, yaʼniki, Navoiy oʻgitlariga amal qilsalar, farzandlari va nabiralari Navoiy asarlarini oʻqib berish bilan oʻz zimmalaridagi vazifalarni ado etishlari mumkin.

Kattalarning nazarida bolalarning hayot yoʻlaklaridagi tutumlari boshqacharoq boʻlgani yaxshidir. Ammo asl haqiqat shundan iboratki, yoshlarimiz Navoiyni oʻqimaslikning oru nomussizlik ekanligini anglashlari lozim. Navbatdagi bandda Oʻzbekistonning qadimiy va yirik shaharlari sanogʻi keltiriladi. Ular “biz oʻzbekimiz” degan haqiqatni tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Biz hech kimdan kam boʻlmasligimiz uchun esa Navoiyni oʻqish zarurati eslatiladi.

<sup>202</sup> Ўша нашр. – Б. 89.

Navbat buyuk mutafakkirlarga keladi. Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Bobur Mirzo nomlari ko‘plik qo‘shimchasini olgan holda qo‘llangan. Bu ham ongli ravishda qilingan. Shunda ularning qamrov doirasi kengayadi, ular minglab va o‘n minglab o‘zlariga o‘xshaganlarni ham ifodalaydi. Maqsad “yosh ko‘ngillar”ni qalqitishdan, shu asosda Navoiyni o‘qishga rag‘bat uyg‘otishdan iborat:

*Beruniylar, ibn Sinolar,  
Ulug‘beklar, Bobur Mirzolar  
Qurib ketmish qanday binolar!  
Yosh ko‘ngillar qalqishi kerak,  
Navoiyni o‘qishi kerak<sup>203</sup>!*

Vatan va uning ravnaqi yurtning har bir farzandiga bog‘liq. Agar u bir chaman bo‘lsa, bu chaman hech qachon so‘lmasligi kerak. Demakki, bugundan, ya‘ni “bola chog‘lardan”, “lola chog‘lardan” boshlab Navoiyni o‘qishi, toki ularning ko‘ngillariga nimadir yuqishi kerak.

Professor Boqijon To‘xliyev bu she‘r haqida quyidagilarni ta‘kidlagan edi: “Badiiy adabiyotning inson ruhiyati, hatto, shaxsiyatining shakllanishi va rivojidagi o‘rni beqiyosdir. Agar Sirojiddin Sayyid aytganidek, bola “diliga nedir yuqtirsa”, adabiyot muallimi o‘z vazifasini ado etgan, adabiyot darslarining samarasi ta‘minlangan bo‘ladi. Ko‘plab buyuk shaxslarning mashhur bo‘lishla-

---

<sup>203</sup> Ўша нашр. – Б. 92



rida, o‘zlari erishgan va yetishgan oliy darajalarda badiiy adabiyotning o‘rni va ahamiyatini e’tirof etishadi. Masalan, Alisher Navoiy yuz mingdan ortiqroq misrani yod bilgan. Bu baytlarning eng sara, eng nodir badiiy durdonalar bo‘lganligiga shubha yo‘q”<sup>204</sup>. Har bir shaxs, har bir o‘zbek Navoiyga yetmoq uchun hech bo‘lmasa Navoiyni bilish, anglash darajasiga yetish uchun urinishi zarur. Xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning she’rida bu haqiqat teran ochib berilgan. Uning talqini-cha, Navoiydan odamiylikni o‘rganamiz. Undan ko‘ngillar taskin, tuyg‘ular esa halovat topadi, chehralarga nur taraladi.

Qayd etish kerakka, mustaqillik davri she’riyatida Alisher Navoiy yaratgan obrazlar tizimining o‘zi ham ijodkorlar uchun ilhom manbayi bo‘la oldi. Bu qahramonlarning alohida donishmandligi (Iskandar), mard va tantiligi (Farhod), beqiyos go‘zalligi (Shirin, Layli, Dilorom) ishqda sobit va vafodorligi (Farhod, Majnun, Shayx San‘on, Shirin, Layli, Dilorom va boshqalar) ijodkorlarimizga ilhom beradi. Jumladan, Zulfiya Mo‘minovanning “Ishq yo‘li”, “Samarqandda”, “Siz” va “Ko‘nglim” she’rlari shu silsilaga mansub.

---

<sup>204</sup> Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Баёз, 2008. – Б. 147.

### **2.3. Dostonlarda tarixiy haqiqat va obraz uygʻunligi**

Alisher Navoiy ijodi mustaqillik davri shoirlari uchun oʻqish va oʻrganish, eʼtiqod manbayi boʻldi. Aksar ijod ahli kimdan, nimani, qanday oʻrganishi kerak degan savollarga Alisher Navoiy shaxsiyatidan, mutafakkir shoir ijodidan javob topdi. Shu bois bu davrda Navoiy siymosiga koʻplab ijodkorlarning ayni mana shu nuqtayi nazardan yondashgani koʻzga tashlanadi.

Alisher Navoiy obrazini yaratish jarayoni sheʼriyatda silliq kechayotgani yoʻq. Bu tabiiy hol. Zamonaviy sheʼriyatimizda bu jarayon baʼzan yuksalish, ayrim hollarda obrazli tasvir oʻrnini sayozlik, bayon egallashi tarzida ham kuzatiladi. Biroq taʼkidlash kerakki, bugun sheʼriyatimizda Alisher Navoiy obrazining tadriji haqida fikr yuritish imkoniga egamiz. Negaki, buyuk mutafakkir obrazini yaratish jarayoni muntazam tus oldi, nisbatan izchillik kasb etdi.

Mustaqillik davri adabiyotida Navoiy siymosi, uning ijodiyotidan ilhomlanib bir necha dostonlar ham yaratildi. Shoirlar doston janrining imkoniyatlaridan foydalangan holda Navoiy obrazini keng planda tasvirlashga harakat qilishdi. Oʻzlarini qiynagan masalalarni poetik talqin etishdi, Navoiy siymosini davrimiz kishisi nigohidan

ko‘rsatib berishdi. Mustaqillik davri adabiyotida bu tipdagi asarlar u qadar ko‘p emas, biroq ularni Navoiy obrazini yaratish jarayoniga nisbatan alohida adabiy hodisa sifatida baholash mumkin.

Mustaqillik davrida Alisher Navoiy obrazi tasvirlangan ana shunday asarlardan biri Sharifa Salimovaning “Xizr bulog‘i”<sup>205</sup> dostonidir. U Alisher Navoiy obraziga murojaat jihatidan ayricha ahamiyatga ega. Asar boshida Abdulla Oripovning asar haqidagi mulohaza – xati ham ilova qilingan bo‘lib, xat ostida 1991-yilning 13-iyul sanasi ko‘rsatilgan.

Doston shunday boshlanadi: “Turkiy jilolarda tovlangan ohang – buyuk tafakkurning buyuk qo‘shig‘i – “Qaro ko‘zum”, deya suyar yurakni... Bu qo‘shiq qanoti silkingani on, minglab farishtalar duvva qo‘zg‘alib, ipak qanotlarin yelpib noz ila ko‘ngil bo‘stonida qo‘zg‘ar g‘alayon. Yurakni zanjirlab, qiynab yotgan – to‘r – erkning yovuz, qoradil kushandasi parchalanib ketar mayda va mayda. Endi guvillagan intiq bir dunyo yurakning poyiga ingranib kelib, sochib yuboradi bor dardlarini”<sup>206</sup>.

Asar folklordagi epik asarlar – dostonlar uslubida bitilgan. Xususan, unda nasr va nazmning omuxtaligi ko‘zga tashlanadi. Dostonning nasr

---

<sup>205</sup> Салимова Ш. Ватан суврати. Тўплам. – Тошкент: Фафур  
Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 275-305.

<sup>206</sup> Ўша нашр. – Б. 277.

qismiga doir bir o‘ziga xoslikni ham qayd etish joiz. Uni, nasriy qismlarni, to‘lig‘icha nasriy she‘r deb aytish mumkin. Ular shoironing dil po‘rtanalari, falsafiy-lirik kechinmalari tasvirida juda muhim poetik vazifalarni ado etgan. Xususan, doston qismlarining bog‘lanishida o‘ziga xos “kavshar” vazifasini bajargan. Ikkinchidan, ularda voqealarning rivojiga oid ayrim “axborot”lar ixcham tarzda mujassamlashgan. Nihoyat, ular qahramonlarning ijodiy-epik biografiyasi uchun o‘ziga xos ko‘rsatkich vazifasini bajargan.

Muddao xalq tarixidagi qorong‘i va mudhish voqealarning poetik manzarasini chizishdan iborat. Bu Alisher Navoiy siymosining o‘ziga xos poetik qirralarini ko‘rsatib borish fonida obyektiv olamning ruhiyat manzillaridagi mohiyatini yoritishga qaratilgan badiiy haqiqatlar silsilasidir. Muqaddima ertakka xos boshlanmaga ega. Asosiy qism esa Navoiy siymosi tasviridan boshlanadi: “Mir Alisher hazratlari falakning gardishi birla o‘zi yakqalam qilgan turkigo‘y tuproqqa quyoshdek yarqirab qadam qo‘ydi. Bepoyon kenglikda bir tup yam-yashil daraxt quyosh ila so‘zlashmoqchiday, sirli shovullab ko‘kka yuz tutgan edi. Daraxt poyida ersa ajib chashma andoq mavj ila chuldirab qaynab yotardi.

Voajab, – xayolga toldi hazrat. Nechun bu qadar hududsiz kenglik. Va aning ko‘ksida yolg‘izgina

daraxt? O‘zga daraxtlarga ne bo‘lubdur, nechun bu yolg‘iz daraxt ham sirga, ham hasratga to‘lubdur. Bu qandoq chashmadurkim, to‘lqinlarining mavji bo‘lak? Toliqdimmu, bir nafasgina shu buloq bo‘yinda o‘ltiray!”

Ayrim leksik, morfologik hodisalardan foydalanishda hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yorlaridan chekinish doston uchun qusur emas, balki fazilatga aylangan. So‘roq va ko‘rsatish olmoshlarining, yuklamalarning egalik va kelishik qo‘shimchalari (buloq bo‘yinda), fe’llardagi hozirgi-kelasi zamon shakllarining, shuningdek, kesimlik ko‘rsatkichi (ne bo‘lubtur, hasratga to‘lubtur, toliqdimmu;) ning XV asrdagi ko‘rinishidan foydalanish unga asos bo‘lgan. Bular Alisher Navoiy tilining individuallashtirishda ham, tarixiy koloritni berishda ham muhim vosita vazifasini ado etgan.

Voqealar rivoji hayajonli manzaralar tasviri bilan davom etadi: “Bu sokin kenglikda” “bir juft soya” “zo‘rg‘a sudralardi”. Ma‘lum bo‘lishicha, ular “parishon ona” hamda “ingrangan go‘dak”lar ekan. Muallif tashqi kuzatuvchi sifatida ular bilan yaqindan tanishtiradi. Navoiy – hassos shoir. U olam hodisalariga befarq va loqayd qarab tura olmaydi. Shu ruhiy holat “Ko‘rgan manzaradan yaqosin tutdi” tarzida aks etgan. Asarda “Tongdan to tungacha tinimi yo‘q”lar, “Orom olamida qo‘nimi yo‘qlar” qalamga olinadi. Mavzu bahona,

shoira siynasini chok etgan “mudhish alamlar”ni keksa ayolning hazratga – Alisher Navoiyga murojaatlari shaklida bayon etadi. Ekologik va ijtimoiy fojialar, O‘sh va O‘zgan voqealari, “yovuz fitnalar” mohiyati ta’sirchan manzaralar tasvirida ko‘rsatib beriladi.

Xuddi ana shu lahzada Navoiy obraziga urg‘u beriladi. Uning nomi bilan voqealarga “aralashuv” sodir bo‘ladi. Navoiy tilidan shoira shunday deydi:

*Zamin – bemor, bahr – bemor, ruh – bemor,*

*El ilkidan qachon ketmish ixtiyor?*

*Qayon boqsam nigohimni – sir erur,*

*Nahot shayton haqiqatga pir erur?*

*Gullar emas, tikan gul deb saylansa,*

*Nahot, qismat tomoshaga aylansa?*<sup>207</sup>

Shoira voqealar rivojini yaxshi belgilaydi. Ularda mantiqiy izchillik ham, ruhiy muvozanatdan chiqish (“Bu hol jism-u jonin qaqshatib yana Shoir yuragiga soldi po‘rtana”) manzaralari tasviridagi marom va me‘yor ham kishida to‘liq qanoat uyg‘otadi.

Bolali ayol kutilmaganda “Bir munis og‘adek ahvol so‘raydi”gan ulug‘ zotga duch keladi. Ayol tilida Navoiyning portretiga oid “quyosh ruxsorli, tabarruk inson” ifodalari qo‘llanadi. Bir paytlar “kiyikdek yuguruk” bo‘lgan bolalarning “bedard, beqayg‘u” yashagan damlariga zid

---

<sup>207</sup> Ўша нашр. – Б. 113.

ravishda “charxi kajraftor”ning “ters aylanishi” Shaytonning “g‘avg‘o boshla”shiga sabab bo‘ladi. Oqibatda, u “millat orasiga nifoq tashladi” va “bu tillo tuproqda qiyomat qo‘pti”, “eng ulkan chinorlar o‘tin bo‘ldilar”.

Shoira ayol tilidan qisqa va ixcham bir holatda Vatan tarixidagi dahshatli sahifalar manzaralarini Navoiyga arz tariqasida yetkazadi. Ayolning ham, Orolning ham qurish jarayonlariga bog‘liq bo‘lgan satrlar zamiridagi iztirob va alamlar tasviri nihoyatda quyuq va ta’sirchan tarzda (“Yo Rab, suv ichinda baliq chirydi”) berilgan. Eng dahshati esa “Ammo topilmadi xaloskor bir zot”. Ayolning o‘sha paytdagi yurt holatiga bergan bahosi yanada dahshatli:

*“Hazrat, bu kenglikmas,  
Bu... bu... qabriston”<sup>208</sup>.*

Sariq, terlama, kamqonlik singari kasalliklarning oddiy sanog‘i qayg‘u, g‘am, fojia qamrovi va ko‘lamini tasavvur etishga yordam beradigan omillar qatorida tasvirlangan. Onaning o‘z-o‘ziga bergan bahosi (“Men bir quriyotgan bechora daraxt”) ham dahshatlidir.

Mana shu jarayonda ayol bir tush ko‘radi. Tushida “bir nurli odam” namoyon bo‘ladi va unga yo‘l ko‘rsatadi. Nihoyat: “u oppoq nurlarga qo‘shilib ketdi”. Tush tafsilotini eshitgan Navoiy bun-

---

<sup>208</sup> Ўша нашр. – Б. 114.

dan nihoyatda ta'sirlanadi hamda suhbatdoshining ismini so'raydi. Mana javob:

*Ona lablaridan uchdi shu kalom:*

*Go 'dagim Farhodur, o 'zim... Dilorom*<sup>209</sup>.

Alisher Navoiy mana shu chashma yonida turib yana bir yangi manzara ishtirokchisiga aylanadi: “Nogoh uzoqdan karvon ko'zga chalindi. Ammo yuk ortilgan tevalarni boshqaruvchi karvonboshi yo'q edi. Karvon ortida esa... qo'llariga kishan solingan bir ayol kelardi...”. Biz yana bitta ramziy-poetik tasvir ro'parasida qolamiz. Tabiiyki, u bu sir-u sinoatlar tagiga yetmoqchi bo'ladi. Navoiyning savollariga berilgan javoblar esa yanada dahshatli va fojeali voqealar bayoni bilan limmolimdir. Xususan, “yoshlik xatosi” degan mash'um bir bahona bilan “sut hididan bo'lib yiroq” uxlagan bolasini tashlab ketgan ota-onalar, “vujudida baxtsiz gumona”li ayollar, “payhon bo'lgan g'unchalar”, “ko'r, kar va gung xaloyiq” tasvirlari kishining qalbini larzaga soladigan misralarda aks ettirilgan. Ayniqsa, “Nahot otasiga qiz bo'lsa o'ynash” misralari mazmuni va uning zamiridagi dahshatli haqiqatlar tasviri kishini befarq qoldirmaydi.

Sharifa Salimova bob yakunida yana Navoiy qahramonlarining nomiga murojaat etadi:

*“Shamol olislardan keltiradi sas:*

*Bobo, ismim Layli, Layli, Laylivash”*<sup>210</sup>.

---

<sup>209</sup> Ўша нашр. – Б. 115.

<sup>210</sup> Ўша нашр. – Б. 117.



Dostondagi “ipak tomchilar”, “qamishlar shovullab qo‘shiq aytardi” (293-bet) singari ifodalar, shubhasiz, Sharifa Salimovaning badiiy topildiqlaridir.

Biz Orol fojiasiga bag‘ishlangan ko‘plab badiiy asarlarni bilamiz. Ularda Orolning fojeiy holati, unga oqib boradigan daryolar qismati badiiy talqinlarda berilgan. Sharifa Salimova esa yangi ifoda yo‘llarini izlaydi. Ikki daryoning qurishidagi bosh omillardan biri – paxta yakkahokimligining ayanchli oqibatlarini tasviri alohida bandlarni tashkil etgan. Bu ikki daryoning Oroidan ajralib qolishi uning nazarida, onasidan ajralib qolgan bo‘talarga o‘xshaydi:

*O‘simlik shaklida keldi ayg‘oqchi,  
Yurt ganjiga tushgan pinhon qaroqchi.  
Onasiga chopgan ikki bo‘taloq,  
Ko‘krakdan ajratib olinib shu choq,  
O‘zga ayol unga bo‘lgandek ona  
Begona bo‘lgandek, mudom begona.  
Ochko‘z qumliklarga singib boradur,  
Onasiga yetmay faryod soladur.  
Suvni ichib-ichib to‘ymadi paxta,  
Tinmay ichishini qo‘ymadi paxta<sup>211</sup>.  
Sipo, o‘z qadrini tutguvchi baland,  
Qo‘lda oltin uzuk, bo‘ynisida band<sup>212</sup>.*

---

<sup>211</sup> Ўша нашр. – Б. 293-294.

<sup>212</sup> Ўша нашр. – Б. 289.

Bo‘yin so‘zining ikki marta egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanishi (*bo‘ynisida*) o‘rinli emasligi ko‘rinib turibdi. Aslida, bu Sharifa Salimovaning o‘zbek tili morfologik qonuniyatlarini bilmaganligi uchun emas, balki vaznning temir qonuni talab qilib turgan holat ijrosiga yengilroq qarash natijasidir. Mullif shu o‘rinda “bo‘ynida” shaklini tanlab olganida vaznda saktalik yuzaga kelgan bo‘lar edi. Bu saktalikning mohiyati misraga bir bo‘g‘in yetishmasligida namoyon bo‘lardi. Muallif shu saktalikdan qutulishning yo‘li sifatida bir bo‘g‘indan iborat bo‘lgan egalik qo‘shimchasi “-si”ni qo‘shishni afzal biladi. Natijada vazniy saktalikka barham beriladi-yu, ammo uslubiy-mantiqiy noqislika yo‘l ochiladi.

Bu juz‘iy nuqsonga e‘tibor berilmasa ham bo‘lar edi. Ammo uni alohida izohlashga sezgan majburiyatimizning sababi bu emas. Gap shundaki, she‘riy misralar ohangiga moslashib mutolaa qilayotgan kitobxon bunday notabiiylik yonidan indamay o‘tib keta olmaydi. Uning e‘tiborini tabiiy hodisalar yonidagi notabiiylik tortadi. Buning yomon tomoni shuki, u muallif izhor etayotgan tuyg‘ular maromidan, o‘sha tuyg‘ularning maftunkor po‘rtanasidan kutilmagan holda tashqariga chiqib qoladi. Demak, lirik asarni his etish, idrok qilish, qolaversa, she‘riy lazzat lahzalaridan bahramandlikka ham putur

yetadi. Sun'iy soʻz va misralarning kitobxonga yetkazadigan maʼnaviy zarari mana shunday mohiyat kasb etadi.

*Biroq xatolaring naqadar ayanch,*

*Bugun qalbim toʻla oʻkinch, oʻch-u ranj*<sup>213</sup>.

Iztiroblarning poetik roʻyxatida, nazarimizda, oddiydan murakkabga, quyi darajadan yuqori darajaga qarab oʻsish tamoyilining amal qilishi tabiiy boʻladi. Mazkur holatda esa eng kuchli mantiqiy nuqta, yaʼni ikkinchi misraning oxirida joylashgan “ranj” shu vazifani toʻla bajara olmaydi. “Ayanch”, “oʻkinch” singari iztirob ifodalovchi soʻzlar qatorida “ranj” yuqori darajani daʼvo qila olmaydi. U qofiya nuqtayi nazaridangina misra oxiriga surilib qolgan, xolos. Vaholanki, “oʻch” ayni shu vaziyatda ancha kuchliroq salmoqqa ega boʻlishi mumkin edi. Hozirgi xolatda u hatto “begonaroq” mavqeda qolib ketgan.

Mumtoz poetika andozalarida soʻz yaratish yoki qoʻllashga intilish moziy mavzusi yoki muammosi tilga olingan asarlarning aksariyati uchun xos xususiyat. Sharifa Salimovanning shu yoʻnalishdagi asarlarida ham bu tamoyil koʻzga tashlanadi. Ularning aksariyati anchayin oʻrinli, muvaffaqiyatli chiqqanini, asarning umumiy poetikasi bilan uygʻunlik kasb etib ketganini eʼtirof etish kerak. Shunga qaramay, ayrim holatlarda bu

---

<sup>213</sup> Ўша нашр. – Б. 290.

borada ham juz'iy chekinishlar ko'zga tashlanib qoladi.

*Bizda ham bor edi bir bahri ummon,  
Ipak tomchilari xo'p oromijon*<sup>214</sup>.

“Bahri ummon” shu turishida “ummoning bahri” degan qaratqichli birikma ma'nosiga teng keladi. Agar ularning ma'nolariga real tarzda yondashsak, quyidagi manzaraga ro'para bo'lamiz:

BAHR 1. Xazar (Kaspiy), Axmar (Qizil), O'rta Yer dengizi kabi ulug' va sho'r daryolar<sup>215</sup>. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ham uning “ulkan daryo, dengiz” ma'nolariga egaligi qayd etilgan<sup>216</sup>.

“UMMON” so'zi ham okean, daryo, katta suv ma'nolarida qo'llangan<sup>217</sup>. U o'zbek tilida dengiz, okean ma'nolariga ega. Demak, ularning har ikkisi ham ayni ma'nolarga ega. Shunga qaramay, bahrning ko'proq “dengiz”, “ummon”ning esa “okean” ma'nolarida qo'llanishi ko'zga tashlanadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ular o'zaro izofa bilan bog'lanadigan so'zlar turkumiga kirmaydi.

So'z tanlashda ba'zan beparvolik, so'zlarning ma'no ottenkalariga e'tiborsizlik misralar mazmunining xiralashishiga sabab bo'ladi.

---

<sup>214</sup> Ўша нашр. – Б. 293.

<sup>215</sup> Фарҳанги забони тожики. Т. 1. – М.: Советсақа энциклопедия, 1969. – С. 363.

<sup>216</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. IV. Таҳрир ҳайъати Т.Мирзаев ва бошқалар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 284.

<sup>217</sup> Фарҳанги забони тожики. Т. 1. – М.: Советсақа энциклопедия, 1969. – С. 363.

*Behad chaqqon edi ummon bozori,  
Laqqa-yu chavog‘i dardlarga dori...<sup>218</sup>.*

Ikkinchi misrada “laqqa”, “chavoq” singari soʻzlarning ketma-ket keltirilishi taʼdid sanʼatini yuzaga keltirgan. Bu sanʼat bir turdagi predmetlarni ketma-ket keltirish orqali muayyan fikr-mulohazalarning taʼkidlanishi uchun xizmat qiladi. Bu yerda ham, bir qarashda xuddi shunday holat sodir boʻlgandek. Biroq sinchiklab tahlil qilinadigan boʻlsa, ularning shu sanoqda yonmayon turishi notabiiy ekanligini ham his qilish mumkin. Zero, “laqqa” baliqning turini bildiradi. Uning yonida “doʻngpeshona”, “zogʻora”, “ilonbosh”, “olabugʻa”, “oq kumush”, “oqcha”, “oq qayroq”, “sudak”, “tovon baliq”, “choʻrtan”, “qizilkoʻz” kabi turlari boʻlishi mumkin edi. Lekin “chavoq” baliqning turi emas, balki uning ancha kichigi –bolasidir. Uning yonida esa “laqqa” emas, balki “katta”, “semiz”, “oriq” singari soʻzlargina boʻlishi maqsadga muvofiq edi.

Aslida, bu tasvirlar Orolgacha yetib borolmayotgan Sayxun va Jayxunga, Orolning oʻziga ham tegishli. Onasini oʻldirgan farzand obrazi, bizningcha, bu holatga mansub ham, munosib ham emas. Aksincha, onasining oʻlimini his etib turib, unga yordam berishdan ojiz qolgan, uni oʻlimdan asrash imkoniyatidan mahrum farzand

---

<sup>218</sup> Салимова Ш. Ватан суврати. Тўплам. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 112.

timsoli ko‘proq mos bo‘lar edi. Umuman, ushbu dostonda Navoiy obrazi yorqin kelajakni orzu qilgan va u uchun umrini fido etgan buyuk shaxs, ammo shularga qaramay bugun yuzaga kelgan muammolar, nuqsonlarni ko‘rib ezilgan, chuqur mushohadaga tolgan, kelajakdan umidvor inson qiyofasida gavdalangan. Bu dostonning yana bir fazilati shundaki, muallif unda Navoiy nigohidan zamonamizning eng dolzarb muammolarini, shoir orzu qilgan jamiyatga zid holat va qarashlarni fosh etadi.

Mustaqillik davri dostonchiligida Barot Boyqobilovning “Navoiynoma” asari ham alohida ahamiyatga molik. Shoir ijodida Alisher Navoiy mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Shoir 1975 – 1990-yillar mobaynida Alisher Navoiy yashagan va ijod etgan davrning murakkabliklarini qamrab olgan ulkan “Navoiynoma” asarini yaratdi. “Navoiynoma” besh kitobdan iborat. Birinchi va ikkinchi kitoblari 1981- va 1985-yilda nashr qilingan. 1992-yilda “Navoiynoma”ning uchinchi va to‘rtinchi kitoblari “Sokin Xuroson” va “Qonli Xuroson” nomi bilan chop qilingan. Shundan so‘ng shoir yana moziyga qaytib, “Navoiynoma”ning beshinchi kitobini yozishga kirishadi. Oqibatda “Hayrat ul-Ahror” nomli she‘riy romani yuzaga keldi. Asarda ulug‘ pirning xayrli a‘mollari, imon-e‘tiqodi, kurash hamda intilishlari, ijod onlari,

iztirob-u dardlari she'riy yo'sinda, masnaviy shaklida poetik ifoda qilingan. "Debocha"ga diqqat qaratilsa, "Yangi Xamsa"ning yozilish maqsadi ma'lum bo'ladi:

*Navoiy nazmiga tushdiyu ko'zim,  
Hayrat gulshanida unutdim o'zim  
Navoiy ko'rinar ko'zimga mening,  
Nafasi urilar yuzimga mening.  
Qalbinga yog'ilar siymosidan nur.  
Vujudim qamraydi ilhom va surur.  
Buyuk maxzanidan olib durri nob,  
Go'yoki qalbimda balqidi oftob.  
Masnaviy qalamin tutqizib ustoz,  
Dedilar: "Paytidur, "Yangi Xamsa" yoz!"  
Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy Mavlaviy  
Imdod berdi go'yo menga ma'naviy<sup>219</sup>.*

"Yangi Xamsa"ning birinchi kitobi "Notinch Xuroson"da Navoiy hayotining "Navbahor davri" qalamga olinadi. Otasi Amir G'iyosiddin Bahodirxon "Ul sherdek qudratli va jasur bo'lg'ay" degan umidda, balki tog'asi kabi "bitsa ko'b she'rlar" deya go'dakka Alisher ismini qo'ygani; Temur bunyod etgan buyuk saltanatda toj-u taxt uchun kurash avj olgan pallada Shoxruh mirzoning ota tojini kiygani; Samarqandda Ulug'bek mirzoning; Hirotda Shohruh mirzoning hukmdorligi; poytaxt-

---

<sup>219</sup> Бойқобилов Б. Янги Хамса. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 7. (Keyingi ko'chirmalar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi)

da olib borilgan ishlar, jang-u jadallar, “zulmot tumani qo‘ngan Hirot”dagi nizolar qalamga olinadi. Muallif bu davr ziddiyatlarini kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirar ekan, tarixiylik tamoyiliga amal qilgan holda ish yuritadi. Tarix sahnasida ro‘y bergan voqealarni g‘oyaviy yoki mafkuraviy maqsadlarga “yo‘naltirish” yoki “soxtalashtirish” yo‘lini tutmaydi. Balki tarixiy voqealarga el nazari, xalq hayoti, orzu istaklari nuqtayi nazaridan haqqoniy yondashadi. Tarixiy hodisalar va shaxslar talqinida ham ortiqcha ehtiroslarga, “tahrirlarga” berilmaydi. Xalq maqollaridan ibratli, falsafiy ma‘no mazmunga ega hikmatlardan she‘riy yo‘sinda foydalanib yuz bergan hodisalar sababini kitobxon to‘g‘ri hamda odilona tarixiylik tamoyili asosida anglashiga imkon beradi:

*“Davlatning ildizi bo‘lmasa mahkam,  
Jabr dengiziga el qo‘yar qadam”.*

Yoki:

*“Guldan bol to‘plasa asalari gar,  
Alafdan, hattoki, kapalak qochar”.*

*“Dushman – do‘st bo‘lmag‘ay, tutdimi qilich,  
Mag‘lub bo‘lg‘ayman, deb o‘ylamag‘ay hech”.*

*“Aziz bo‘ldi, ko‘za sindirgan hayhot!*

*Xor bo‘ldi nechuk suv keltirgan, Hirot?” (23)*

Muallifning bunday yondashuvi uzoq o‘tmish voqeligini kitobxon chuqur idrok etishga, ayni damda tarixiy voqelik ichida yashab, ijod etgan



Navoiy siymosi, shaxsi, ruhiyatini bir butunlikda anglashga imkon bergan. Hazrat Navoiyga xos fikrlash tarzi va iymon e'tiqodi, xalqparvarlik, adolat, chuqur mushohada bilan aqlu idrokka tayanib ish yuritish salohiyati tasvirida muallifning chuqur bilimi va tuyg'ular olami namoyon bo'lib boradi. Har lahza, har bir chigal vaziyat, muammo yechimiga Navoiy atroficha mulohaza, muhokama yuritib, yechim topadi. Har bir tadbirni el osoyishtaligini saqlash, xalq istagi va farovonligini ko'zlab amalga oshiradi. Xalqqa o'tkazilgan jabrsitam, zulm haddan ortiq zakot undirish yo'lidagi amaldorlar zo'ravonliklariga qarshi kurashadi. Obodonlashtirish, kambag'allarga yordam berish, bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh, o'z mablag'i asosida kanallar qazdirib, suv chiqarish, bog'rog'lar barpo etish yo'lida fidoiy, el – yurtiga sadoqatli davlat arbobi sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiyning bolalik yillari tasviri berilgan o'rinlarda kelajakda yetuk so'z san'atkori, turkiy til ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan xalqparvar, ilmparvar, ma'rifatparvar mutafakkir ruhiyatida ota-ona va tog'alari tarbiyasi ta'sirida kurtak ochgan xislatlar yorqin suratlangan. Mavlono Lutfiy g'azallaridan yod o'qib, sulton Shohruh mirzo bilan uni qurshagan olimu fuzaloni lol qoldirgan yetti yoshli Alisherbekning is'tedod yog'dusidan sehrlangan tog'asi G'aribiy:

*“Turkiy ila forsiy-ikki tilda ham  
Alisher baravar she’r aytur ko’rkam...  
Tangriga shukrim aql-u hofiza  
Bul yoshda kam uchrrar noyob hodisa!” (1.18)*  
deya o‘z hayratini izhor etgani tasvirlanadi.

Alisherbek bilan shahzoda Husaynning bolalik, do‘stlik onlari, maktabdagi saboq damlari maroqli tasvirlangan. Yozuvchi har ikki bola ruhiyatini qiyosiy talqin etishda kichik lavhalardan mahorat bilan foydalangan. G‘iyosiddin Bahodir bilan keksa naychi huzuriga borgan Alisherbekning naychalishga ishq tushganligini izhor etishi shoir ko‘nglining nechog‘li latif va nozik ekanligini ayon etsa, g‘alayon ko‘targan dehqonlarning isyonchi sifatida dorga osilishini tik qarab, tomosha qilgan Husayn ruhiyatiga xos jangarilik, shitob, viqor bo‘rtib ko‘rinadi. Alisher esa o‘zini yig‘idan to‘xtata olmaydi, jismini titroq bosganча maydondan o‘qday otilib chiqqanicha uyiga yuguradi.

Husayn Mirzo bilan Alisherbekning yoshlikdagi eng katta orzulari Ulug‘bek Mirzoni ko‘rish va uning suhbatiga musharraf bo‘lish edi. Kunlardan bir kun ular bu ezga maqsad – muddaoga erishadilar. Hirotga kelgan Ulug‘bek Mirzo ishtirokidagi anjumanda ikki do‘st sulton qoshida ta‘zim bajo etadilar. Alisherbek Mirzo Ulug‘bekka bo‘lgan mehr-u muhabbati, hayratini quyidagicha izhor etadi:

*“Padari buzrugim ardoqlab Sizni,  
Bag‘rimga ja etmish pok mehringizni.  
Men ersam samoga boqqanim onlar  
Ko‘nglim pora etmish ko‘kdan paykonlar.  
Yulduzlar shivirlab she‘r aytur menga,  
Ilhom parisidek, sir aytur menga.  
Yulduzi nazmga ko‘ngli ishqiboz  
Alisherbek sizni etmish sarafroz” (1.31.).*

Mirzo Ulug‘bek yosh Alisherni quchib, “ofarinlar” aytadi, “she‘r ishqiqi o‘t bo‘lib yonsin, so‘nmasin aslo, Oftobdek nur sochsini el bo‘lsin rizo! Turkiyni asrasin qora cho‘g‘ qadar”, – deya duo qiladi.

Albatta, bu o‘rinda shoir adabiy anaxronizm usulidan foydalangan. Badiiy asarlarda bunday usul ko‘p qo‘llanadi. Ammo uni boshlang‘ich va umuman kichik yoshli o‘quvchilarga mo‘ljallangan kitobda qo‘llanishining o‘rinli bo‘lmagani sezilib turadi.

Ushbu dostonida ham yosh Alisher va tarix ilmining otaxoni – Sharofiddin Ali Yazdiy hazratlari uchrashuvlariga alohida joy ajratilgan. Asar to‘qimasidan joy olgan bu kabi voqealar tasviri orqali Alisherbek siyrati va suratiga xos yetakchi sifatlar o‘quvchida o‘zgacha tuyg‘ularning yuzaga kelishida turtki bo‘ladi. Muallif bayoni orqali suratlantirilgan tabiat lavhalari ham kitobxon ko‘z o‘ngida go‘zal tarzda jonlanadi:

*“Maysa gilamini to‘shab tabiat,  
Zaminga ko‘rsatmish oliy marhamat.  
Tabiat kelini – fusunkor bahor,  
To‘yida ochilmish gullar baxtiyor...  
Quvonchdan yuzlari qirmiz qizg‘aldoq,  
Bo‘tako‘z boshida anvoi qalpoq.  
Sarvqad chuchmomo o‘rab ko‘k ro‘mol  
Gulsafsar qoshida suradi hayol” (1.38).*

Beqiyos go‘zallikka burkangan tabiatning bahoriy chiroyidan ilhomlanib, ko‘ngliga zavq xissini tuyganligi Alisherbekning nigohlaridan ham sezilardi. Abulqosim Boburning Hirot taxtini egallashi natijasida G‘iyosiddin oilasining ona yurtiga qaytgani, Navoiyning navqiron yigitlik davri, Mavlono Lutfiy huzuridagi sherxonlik davralari maroqli bayon qilinadi.

Muallif Navoiy hazratlari hayotiga eng muhim voqealarni tasvirlab, sharxi bayon qilar ekan, ayni hayot yo‘lida ulug‘ mutafakkir shakllanib, voyaga yetganligiga urg‘u beradi. Hayotiy ziddiyatlar, adolatsizliklar, shaxsiy g‘araz va nifoq tufayli boshidan kechirgan iztiroblari oqibatida shoir ijodida adolatparvarlik, xalqparvarlik, qaram, saxovat, mehr-oqibat, rostgo‘ylik, insonparvarlikni ulug‘lovchi g‘oyalar yetakchi ohang kasb etadi. Sulton Abulqosim Bobur Mirzo G‘iyosiddin Bahodir va oilasiga, shaxsan yosh Alisherga jonparvar bo‘lib, boshini silagan, rahnamolik qilgan bo‘lsa

Abu Said Mirzo davrida quvg'inlikda hayot kechirishga majbur bo'lganligi; otasidan qolgan moli-mulk musodara etilishi, tog'alari esa qatl etilgani, musibat ustiga musibat Navoiy ruhiyatida bir iz qoldirganligi bilan bog'liq xodisalar asarda haqqoniy hayotiy lavhalarda chizib berilgan.

Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, Navoiy iste'dodining shakllanishida oila muhiti, oyniqsa otasi Amir G'iyosiddin Bahodirning o'g'liga puxta bilim berish, zamonasining taniqli fozilu fuзалolari, olimu donishmandlaridan saboq olishi uchun intilishlari, sa'y-harakatlari zamin hozirlagan; Onasining zukko, ilmli, oqila ayol sifatida bergan tarbiyasi, tozaligining nazmiy qobiliyat egasi sifatidagi ta'siri ham muhim omil bo'lgan. Asarda ayni tarixiy asoslar poetik talqin etilgan. Ayniqsa, ustozlari Mavlono Lutfiy bilan Jomiy hazratlarining e'tibori, mehri muhabbati Navoiy ruhiyatini munavvar etgan, ilm-u ijodga qanot bag'ishlagan. Alisherbek va Lutfiy uchrashuvlari, ulug' purning, navqiron shoirni bag'riga bosib olqishlashi tasvirlangan misralar kitobxon qalbini hayajjonga soladi:

*“Ulus nazmi deb nek qadam etdim,  
Turkiy va forsiyda ne raqam etdim.  
Shu bitta g'azalga etsam-da nisor,  
O'zimni sanardim g'olib, baxtiyor!”  
Lutfiy olqishidan Navoiy loldir,  
Niholdek qomati ta'zimga doldir” (56).*

Navqiron shoirning nazmiy dovrug‘i nafaqat Hirot, balki butun Xurosonga tarqalgan pallada zakiy tabli, zamonasining dovrug‘li valiyalaridan Ardasher ham unga yurakdan ixlos qo‘ygan edi. Asarda ulug‘ olimlar, pir-u donishmandlar, san‘atkorlar davrasida Navoiyning siymosi alohida tasvir etilgan. Navoiy urushlar suronidan, saltanatdagi buzg‘unchilar, fitna, tuhmat, ayovsiz kurashlar girdobidan ham osudalik, ma‘naviy yaqinlik, ruhiy madadni ijod va she‘riyat bag‘ridan qidiradi.

Asarda talqin etilgan Navoiy va Ardasher, Pahlavon Muhammad, Mirxond, Xondamir, Husayn Boyqaro munosabatlaridagi samimiylilik, insoniylik, sadoqat, hamfikrlilik, hamdardlik tuyg‘ulari g‘oyat ta‘sirchan poetik lavhalarda tasvirlangan. Otasining vafotidan so‘ng do‘stlari tomonidan ko‘rsatilgan mehr-sadoqat tufayli, Navoiy ruhiy tushkunlikni, g‘am-anduhni yengadi. Yana ijod sari, ilm olish ishtiyoqida yashay boshlaydi. Mashhadda, kichik hujrada hayot kechiradi. Bu yerda u hazrat Shayx Kamol Turbatiy bilan uchrashadi.

Olim-u fozillar, san‘at va nazm ahli, yetuk ijodkorlar Navoiyga hamisha hamdard, hamnafas holda ma‘naviy tayanchga aylanganliklari asarda yorqin tasvir etilgan. Navoiy ko‘ngli taskin etgan onlar ijod va do‘stlar davrasida qoniqish hissi bilan yashaydi, sokin tin oladi. G‘am-anduhlar, zamon

notinchliklari, darbadarlik mashaqqatlari chekinadi. Sirli-sehrli, osuda, jozib olam ichra yashaydi. Do'stlarining samimiyati, ishonchu sadoqatini his etishi Navoiyga ruhiy madad bo'ladi. Ayni damda zamonasining yetuk iste'dod sohiblaridan ma'naviy ilhom oladi. Ustozi mavlono Lutfiyga oliy maqsadini quyidagicha izhor etadi:

*"Menga na toj darkor va na oltin taxt,  
Menga she'r baxtidin yo'qdir o'zga baxt!  
Elu yurt orzusin etsam yakqalam,  
Odamlar ko'nqliga yoqa olsam sham'.  
Bashar tilagiga hamdam bo'lolsam,  
Hadsiz dard – g'amiga malham bo'lolsam.  
Aylasam ulusning mushkulin oson,  
Nazmimda jaranglab tursa Xuroson.  
Oliy baxt shul erur faqirga, ustod,  
Shul erur yashashdan maqsadu murod!" (99)*

Bu o'rinda muallif Navoiy hazratlarining so'fiylik ta'limotini o'zlashtirgan murshid qiyofasini ochishga uringan. Hazratning jahonda adolat o'rnatishi, har neni adolat mezoni ila o'lchash, hikmat, ilm, bilim hukmronligiga asoslangan ulug' bashariy saltanatni tiklash lozimligi haqidagi g'oyalariga urg'u bergan. Navoiy o'z ijodi, yaratig'lari orqali xalqqa, insoniyatga xizmat etish – oliy maqsadi ekanini bayon etar ekan, uning timsolida darveshlik g'oyalari: oriflik hikmati, ilmu iste'dod uyg'unligi his etiladi. Navoiy siymosiga mos dunyoviylik

va ilohiylik mushtarakligi vujudining foniyliги, amallari, gʻoyalari, maqsad-muddaosi, kurash-intilishlari abadiyatga daxldorligini ayon etadi. Navoiy yaratgan afsonaviy qahramon Iskandar besh yuz olim bilan yonma-yon, hamsuhbat, ham-fikr holda ish yuritadi.

“Yangi Xamsa”dagi olimu fozillar, adabiyot, sanʼat namoyandalaridan Mavlono Jaloliy, Lutfiy, Ardasher, Turbatiy hazratlari, Pahlavon Muhammad, Bekzod, Mirxond, Xoʻja Afzal, Fazlulloh Abulays, Sulton Ali Mashhadiy sheʼrxonlik davralarida, suhbatlar chogʻi Navoiy koʻngliga eng yaqin fikrdosh, maslakdosh sifatida gavdalanadi. Navoiy kabi ularning orzu istaklari ham el osoyishtaligi, yurt farovonligiga erishish.

Ammo afsuski hayotda ota-oʻgʻilga, oʻgʻil-otaga yov. Yana isyon, urush, fojia. Sulton xonadoni ichdan chirigan. Navoiyning yurt tashvishidan qaddi bukilgan. Temuriylar saltanati larzada! Muallif Navoiy koʻnglidagi ayni hasratlarini tabiat tasviriga uygʻunlashtirib suratlantiradi. Sulton Abu Said hukmronligi chogʻidagi Mashhad tasvirida qora rang ustivor boʻlsa, Hirotdagi obodonlik ishlari tinchlik, osoyishtalik, qor yogʻish tasviriga koʻchadi. Oppoq qor Navoiy koʻnglidagi yangi orzular, tilaklar, umidbaxsh tuygʻular ramziga oʻxshaydi.

Asarda Navoiyning martabasi ulugʻ amir, goh yirik siyosatchi, goh millatlar va elatlar oʻrtasida



tinchlik-totuvlik o‘rnatish uchun robita izlagan mutafakkir, goh ziddiyatlarini bartaraf etib, sulh tuzishga erishgan mahoratli davlat arbobi, goho shahzodalarga otaday ulug‘ maslahatchi, do‘st, goho isyonkor xalq dardiga darmon istab sulton huzuriga tik kirib soliqlarni ayovsiz sirtmoqqa aylantirgan beklarni oshkor etgan mard, odil, xalqparvar inson sifatida namoyon bo‘ladi.

*“El uchun yashadi, u bo‘lib inson,  
O‘zi uchun yashamadi hech qachon.  
Dunyo ishlaridan yuzin o‘chirdi,  
Ishratni she‘r, san‘at, ilmida ko‘rdi,  
Aql, insof, adolat tayanchi uning  
U yerda yashagan farzandi kunning” (328).*

Asarda shoirlar, olimlar, san‘atkorlar davrasiga hos ilohiy tarovat, latiflik, samimiyatga qarama-qarshi Navoiyga nisbatan hasad, kin tuyg‘usi, hiyla, fitna, fisqu-fasod “ijod qiluvchi” raqiblar davrasi ham tasvirlangan. Davra to‘rida Majdiddin...

*“G‘ussadan chiqmadi Navoiy boshi,  
Har kuni yangi g‘am, kulfat yo‘ldoshi.  
Haqgo‘y qalamini sindirmoq istar,  
Ilhom chashmasini tindirmoq istar.  
Tiliga qulf solmoq istaydi davron,  
Tiz cho‘kib yashashga qistaydi davron” (342).*

Navoiy esa aziz halqidan qarzдорlik tuyg‘usi ila “Bozori Malik”da rabot, “Chashmai Mohiyon”da xonaqoh bunyod ettirdi; “Etimxona” madrasa

qurib, ariq qazib suv keltirish maqsadi bilan yashaydi. Bog‘lar barpo etadi. O‘z hayoti, ijodi, el koriga kamarbasta faoliyati ila o‘z asarlarida ilgari surgan komillik g‘oyasini o‘zligida, o‘z timsolida namoyon etdi.

Barot Boyqobilov “Yangi Xamsa” orqali Navoiyga xos o‘zlik miqyoslarini, “olami sug‘ro” va “olami kubro” qatlamlarini poetik manzaralarga ko‘chirib tasvirlay oldi. Navoiyga xos daholik o‘z manfaati yoki mayda maqsadlar uchun emas, el-yurt farovonligi, saltanat va davlat ravnaqi, ilm-fan, san‘at, adabiyot, madaniyat, turkiy til qudrati uchun kurashda ko‘rinadi.

Badiiy haqiqat tarixiy shaxs xarakterini yanada konkretlashtiruvchi tasviriy bayon, ayni damda, uni kashf etuvchi o‘ziga xos poetik tafakkur orqali namoyon bo‘ladi. Navoiy shaxsiyatidagi daholik insoniyat ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari tarix bilan shaxs harakatining izchilligi kitobxonga fikr-tuyg‘u uyg‘otadi. Badiiy asar odam va olamni bilish, anglash, tasavvur etish orqali haqiqatga aylanadi. Tarixiy asarda hayot keng qamrovli, evristik mohiyatga ega voqealik tarzida idrok etadi. Ulug‘ shaxsiyatlar hayoti va ijodi insoniyat tamadduni-ning teran ildizini tashkil etishi Navoiy ruhiyati tahlili va talqini vositasida buyuk shaxs botiniga, qalbi qa‘riga nazar solish orqali ochib beriladi. Muallif Navoiy siymosini real tarixiy voqealar

girdobida tasvirlar ekan, o‘z davri voqealariga munosabati, ruhiy iztiroblarini yorqin tasvirlashga uringan. Epik voqelikdan liro-romantik yuksaklikka ko‘tarilish, komik, dramatik, hatto, tragedek vaziyatlar ichiga kirish, tasavvurdan xayolotgacha, undan real hayotga qaytish kabi murakkab holatlar asar mundarijasidan o‘rin olgan.

“Yangi Xamsa” Navoiy kabi ulug‘ siymoning daholik mohiyatini ijodiy o‘zlashtirishga yo‘l ochadi; insoniyat tamadduni uchun muhim ahamiyatni anglatadi. Ifodaga ko‘chgan halqchillik, ko‘lamdorlik kitobxonda ham salmoqli fikr – tuyg‘u uyg‘otada. Binobarin, Barot Boyqobilov asari yana shu jihatdan estetik qimmat kasb etadiki, unda Navoiy siymosini anglash va anglatish tomon intilish buyuk shaxs ongi ko‘ngil olami ichra kechirilgan his-tuyg‘ulariga mantiqan bog‘langan holda kuzatiladi. Navoiy tafakkuri, orzu-istaklari, kurash-intilishlari ong qatlamlarini tashkil etadi. Muallif bu qatlamlariga chuqur kirib borgan, anglashga intilgan va ishonarli ifodalay olgan. Muallif poetik konsepsiyasi negizida ezgu insoniy e‘tiqod asosida yashab, el-yurt farovonligi yulida o‘zligini fido etgan, bor iste‘dodini insoniyat sivilizatsiyasiga, ilm-fan ravnaqiga safarbar etib, millat ma‘naviyatini yuksaltirishga ulkan hissa ko‘shgan buyuk shaxs, ulkan daho, noyob iste‘dod sohibi – Navoiy siymosi millatning kurashgan,

insofkor va bunyodkor ruhi timsoli ekanligini anglatish maqsadi turadi. Navoiy kalbini iymone'tiqod sobitligi, insoniy tuygular yuksakligini nurlantirib tursa, toju taxt, mansab, nafs ilinjida halqni tashlab, boylik orttirishni ko'zlagan amaldorlar yurtni zulm, zo'ravonlik, zulmat makoniga aylantiradilar. Oxir-oqibat, o'zlari yaratgan botqoqlikka g'arq bo'ladilar. Majididdin kabilarning mug'ombirligi, tovlamachiligi, laganbardorligi evaziga, mansab egallashga intilishi oqibatida hiyla, xiyonat, yolg'on, tuhmat urug'ini sepib, saltanatni chirmovuqday o'rab olganliklari; oxir – oqibat, birlashib, jaholat va yovuzlikka xizmat qilishlari tarixiy voqealar silsilasida jonlanadi. Navoiy ruhiy olamidagi qalqishlar, iztirobu dardalam, yo'qotishlar tufayli armon tuyg'usi davr va inson, zamon va buyuk shaxs to'qnashuvi, inson bilan bog'liq muammolar tarzida talqin etilgan. Navoiy zamon va makonda kechgan alamli haqsizliklar, adolatsizliklar, ruhiy qiynoqlar tufayli goh darbadarlikda, goh quvg'inda, goh tuhmatlar girdobida jismoniy va ma'naviy talofatlarga uchraydi; ustozlaridan, do'stlari hamda hamfikir yaqinlaridan uzoqda hayot kechiradi. Otasidan, tog'alaridan, ustozlaridan, suyukli shogirdi Mo'min Mirzodan ayrilish iztiroblarini kechiradi. Salbiy obrazlar talqini orqali inson tiynatidagi nuqsonlar, uning nomaqbul amallari tufayli nafaqat Amir

Temur barpo etgan buyuk saltanat parchalanishga yuz tutdi, balki ma'naviy-axloqiy falokatlar sodir bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Navoiy yaratgan ma'naviy xazina ungagina xos ma'naviy olam buyuk qalb sohibi idrok etgan fikriy va ruhiy tuyg'ular o'zi yashagan dunyoga mutanosib emas. Navoiyga xos qalb go'zalligi qalb nodonligiga; soxtakorlik, fisq-fujr, zolimlik, axloqiy buzuqlik Navoiy shaxsiyatiga xos komillikka qarama-qarshi qo'yiladi.

Husayn Boyqaro obrazi asarda murakkab ruhiy dunyoga egaligi bilan ajralib turadi. U hayot zarbalaridan aziyat chekkanda ruhiy sokinlik izlaydi. Navoiydan madad oladi. Navoiyning samimiyati, ishonch va sadoqatni his etib taskin topadi. Nazmiy davralarda, she'riyat kechalaridan zavqlanadi. Navoiy shahsiyati badiiy ijod doirasida muayyan lahzalarda obyektiv borliq, zamon va makondan yuksaladi. Kechirilgan tuyg'ularni qayta kechirish, ma'no qatlamlarini kashf etish asnosida misilsiz ruhiy zavqni tuyadi. Yo'qotganlarini, real hayotda topmagan, boy berilgan armonlarini ijod jarayonidan, ijod onlaridan qanoatlanadi, topadi. Husaynining esa yo'l qo'ygan xatolarini boy berilgan fursatni izlash va topish yo'li o'zgacha. Mayho'rlik, yolg'on hamdu sanolar, maqtoovlar, aysh – ishrat iskanjasida real dardu armronlarini unutganday his qiladi, poklanish emas, yanada

kirilanish, tubanlashuv girdobiga kirib borayotganligini teran idrok etmaydi. Shu manoda Husayn Boyqaro bilan Navoiy do‘stligi, safdoshu hamfikirligi hayotiy sinovlarda bo‘y ko‘rsatadi. Muallif tadiq yoki inkor etish yo‘lidan bormaydi, har ikki obraz ruhiy kechinmalari ifodasi; chigal vaziyatlardagi hukm xulosalari maqsad-intilishlari, amlga oshirgan tadbirlari tasviridan surat va siyratlariga xos sifatlar orqali ular shaxsi anglab boriladi.

“Yangi Xamsa” muallifi asarni Navoiyga bo‘lgan ehtirom ila yozgan. Badiiy adabiyotning narisa hodisalarni keskin qarama-qarshi qo‘yishga asoslangan poetik usuli benihoya qadimiy va ayni paytda yashovchandir. Badiiy asarning til, sujet, xarakter, sharoit, kompozitsiya singari barcha sathlari qabariq tasvir imkoniyatlariga ega. Masalan, til sathidagi oshkora va pinhona ziddiyatga asoslangan o‘xshatish, jonlantirish, tazod, mubolag‘a, xitob, takror, istiora, saj‘, madhiya, ta‘rif – tavsif, tanosib; sujet sathidagi ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi kurash; kompozitsiya yo‘sinida asarning bir qismini ikkinchi qismiga qarshi qo‘yish holati B. Boyqobilov “Yangi Xamsa” sining “Sokin Xuroson” va “Qonli Xuroson” qismlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xalq maqollari qo‘llangan o‘rinlarda saj‘ ko‘zga tashlanadi. Asarda xalq og‘zaki ijodiga xos sirli – sehrli romantik ruhni ham, lirik mayinlikni (tabiat tasvirlarida) ham sintezlashtirgan. Bu us-

lub asarning lirik haroratini oshirgan. Buyuk shaxslarning daholik qudrati olami sug‘ro (inson mikroolami) va olami kubro (makrokosm)ni o‘z ichiga sig‘dira olganligidan dalolatdir. Muallif “Yangi Xamsa”da ana shu ikki olam uyg‘unligini poetik sintezlashtirgan holda Navoiy siymosi timsolida gavdalantirishga erishgan.

Mustaqillik davrida Navoiy haqida bolalarga mo‘ljallangan doston ham yozilgan. Aytish mumkinki, bu kamyob hodisa bo‘lib, masalaga bunday yondashuv nihoyatda dolzarb edi. Shoir Mirzajon Islomovning “Navoiy bobo va ziyrak Samira” dostoni ana shunday asar. Navoiyshunos Aziz Qayumov kitob muqaddimasida shunday yozadi: “Alisher Navoiyning hayot yo‘li va ijodiy merosini yosh avlod o‘rtasida keng targ‘ib etmoq bugungi kunning g‘oyat muhim vazifalaridan biridir. Agar ilmiy doiralarda bu sohada ozmi-ko‘pmi natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, yosh avlod – maktab o‘quvchilari, bolalar bog‘chalarida tarbiya topayotgan avlodga mo‘ljallangan ishlarimiz mutlaqo yetarli emas. Shu nuqtayi nazardan ushbu dostoni o‘z vaqtida yaratilgan bir asardir. U sodda tilda, yosh o‘quvchilar uchun yengil, tushunarli shaklda yozilgan. Bu dostonida o‘quvchi Samira va Navoiy boboning suhbatlari orqali ulug‘ shoirning hayoti va ijodi yoritilgan”<sup>220</sup>.

---

<sup>220</sup>Қайумов А. “Навоий бобо ва зийрак Самира” дostonи тўғрисида // Исломов М. Навоий бобо ва зийрак Самира. – Фарғона, 2007. – Б. 3.

Muallifning nomi hammaga ham ma'lum bo'lmagani uchun olim uni shunday tanishtiradi: "Doston muallifi o'z imkoniyat va qobiliyati darajasida yaxshi amalga oshirgan"<sup>221</sup>. Muallifning o'zi doston haqda shunday yozadi: "o'qigan-bilganlarimdan foydalanib kaminada hazrat Navoiyning hayoti va o'lmas ijodiy meroslar yaratishdagi ayrim voqealaridan kichik bir asar yaratishga jazm qildim va bu bilan buyuk Navoiyning muxlisi va o'quvchisi sifatida, burchimni zarracha bo'lsa-da, ado etgan bo'laman, degan ezgu niyatni qalbinga jo qilib, yozgan dostonimga "Navoiy bobo va ziyrak Samira" deb nom qo'ydim"<sup>222</sup>.

Asar kompozitsiyasi Samira va Navoiy bobo o'rtasidagi dialoglar asosiga qurilgan. Samira savol beradi, Navoiy esa uning savollariga munosib javoblar berib boradi. Doston shunday boshlanadi:

Samira:

*Opoqi, maktabda ustoz, muallim  
Navoiy bobodan bermoqda ta'lim.  
Nafaqa paytingiz, o'zingiz olim,  
Navoiy bobodan nimalar ma'lum?*

Muallif:

*Samira, ziyrak qiz bo'lib o'saver,  
Kitobga mehr qo'y, kitob yig'aver.*

---

<sup>221</sup> Ўша ерда.

<sup>222</sup> Исломов М. Навоий бобо ва зийрак Самира. – Фарғона, 2007. – Б. 6. (Keyingi ko'chirmalar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi)



*O‘zing o‘xshasang-da nozik niholga  
Tutding opoqingni katta savolga.  
Hazrat Navoiydan so‘zlayin, tingla,  
Olamday kengligin so‘ng o‘zing angla (51).*

Keyingi savollar esa bevosita Navoiyning o‘ziga yo‘naltirilgan:

*Navoiy bobojon, oltin merosim,  
Sizsiz o‘tmas yurtida biror marosim.  
Suhbat qiling, bobo, dilim yorishsin,  
Ijod-u niyatlar birga qorishsin (9).*

M. Islomov Navoiy tilini bolalarning o‘ziga xos yosh imkoniyatlarini e‘tiborga olgan holda tuzishga harakat qiladi. Dostonda ma‘rifat masalasiga ustuvorlik berilgan. Muallifning asosiy maqsadi Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan ilk marta tanishtirish bo‘lgani uchun ham ayrim tafsilotlarga e‘tibor berilgan o‘rinli tuyuladi.

O‘quvchilar Navoiyning hayoti va ijodi bilan tanishtiriladi. Bunda Navoiyning o‘z nutqidan foydalanish usuli qo‘llangani esa muallif yumushlarini yengillashtirgan. Bunda adibning tarjimai holi uning o‘z asarlarida mujasamlashgani, turkiy til sha‘nu shavkati uchun kurashgani va uni ulug‘lagani, Hirotda tavallud topgani, shoirning temuriylar hukmronligi davrida yashagani, Samarqandning Iskandar tomonidan bunyod etilgani, otasining temuriylarga daxldorligi, Sabzavor shahrida xokim bo‘lgani, Husayn Boyqaroning “bolalik

do‘sti” ekani she‘riy misralar mazmuniga o‘rinli singdirilgan.

Savol-javoblar asnosida Navoiyning to‘rt yoshdan ilk saboqni ola boshlagani, maktab davri, ilk ustozlari, o‘qigan kitoblari (Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston” asarlari, Farididdin Attor, uning ”Mantiq ut-tayr” dostoni, Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy) haqidagi ma‘lumotlar she‘riy misralar mazmunini tashkil etadi.

Samiraning savollari doston voqealarining bir mantiqiy ipga tizilishidagi o‘ziga xos vosita bo‘lgan. Yangi sahifalarga, yangi mavzularga o‘tishda ayni mana shu savollar pillapoya vazifasini ado etadi. Savollar bahonasida Navoiyning hayoti, sarguzashtlari bayon etiladi. Shunday qilib Navoiyning ixcham tarjimayi holi bunyod bo‘la boshlaydi. Biz “bayon etiladi” ifodasini tasodifan emas, balki ataylab keltirmoqdamiz. Zero, kitobdagi asosiy ohang ayni shu so‘zda mujassmlashgan. Muallif uslubida bayonchilik ustuvor xususiyatga aylangan.

Bolalarga Mirkarim Osimning tarixiy hikoyalardan ma‘lum bo‘lgan fakt va hodisalarning takroran aytib berilishi ham unchalik o‘rinli ko‘rinmaydi. Ulardagi yangilik, bu tafsilotlarga she‘riy shakl berilishida ko‘rinadi, xolos. Afsuski, bu shakl har doim ham tegishli badiiy kashfiyot darajasiga ko‘tarilgan emas.

*Hidlab turkiy tilning go‘zal gulini,  
Ochti hazrat unga olam yo‘lini (7). –*

singari baytlar esa ancha pishiq va puxtaligi, sodda va samimiyligi bilan e‘tiborni tortadi.

*Sharofiddin Yazdiy – donishmand erdi,  
Aql-zakovatda bemonand erdi, –*

kabi misralarning bolalar uchun yengil, oson va tushunarli bo‘lganini ham qayd etish joiz. Kitobda bunday o‘rinlar oz emas.

Dostonda Navoiy siymosi, asosan, ikki usulda yoritib berilgan. Birinchi usul – bevosita Navoiyning o‘zini so‘zlatish orqali. Bu usul kitobda ustuvor mavqe tutadi. Oqibatda, Navoiyning hayot yo‘li ixcham va ishonarli tarzda ko‘rsatib beriladi. Navoiy siymosiga xos bo‘lgan kuzatuvchanlik, hodisalarning asl mohiyatini ilg‘ashga oid bo‘lgan zukkolik, voqealarga real va to‘g‘ri baho bera bilish, donishmandlik singari fazilatlari ishonarli va samimiy tarzda ko‘zga tashlanadi. Olam hodisalariga muallif bergan baho ham Navoiy tilidan ifodalanadi.

Ikkinchi usul esa Navoiyga navnihol Samira-ning munosabatlari orqali oydinlashtirilgan. O‘rni-o‘rni bilan Navoiy asarlariga murojaat, ularning ayrim misra va bandlaridan foydalanish ham Navoiy obrazining yorqinroq tasavvur etilishi uchun xizmat qilgan. Jumladan, erta yoshligida badiiy adabiyotga bo‘lgan havasi, ayniqsa, Farididdin At-

tor asarlarini o‘qishga bo‘lgan ishtiyoq tasvirida bevosita adib asarlaridan olingan ko‘chirmalar o‘rinli va ta’sirli bo‘lgan, deb aytish mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida o‘zlashma so‘zlarning, xususan, arab va forscha so‘zlarning ancha katta miqdorda qo‘llangani ham, buning ijtimoiy-tarixiy asoslari ham mutaxassislar uchun yaxshi ma’lum. Muallif kitobining bolalarga atalganini yaxshi biladi. Shuning uchun ham ko‘chirmalarning imkoni boricha bolalar ong-u tafakkuriga qiyinchilik tug‘dirmaydigan, ularga nisbatan tushunarli bo‘lgan poetik leksika ishtirok etgan parchalarni tanlashga harakat qiladi

Muallif o‘z asari ustida ishlash jarayonida Alisher Navoiyning ijodiy merosi mutolaasi bilan shug‘ullangan. Navoiy haqidagi tarixiy, adabiy-badiiy hamda ilmiy asarlarni ham imkoniyati doirasida ko‘rib chiqqan. Muallif uchun asosiy tayanch manba Izzat Sulton qalamiga mansub “Navoiyning qalb daftari” asari bo‘lgan. Boshqa asarlar ham, asosan, shu kitob orqali keltirilgan.

Shularga qaramay, kitobda bir qator me’yoriga yetmagan ifodalar, nomukammal misra va baytlar ham uchraydi. Ularning ayrimlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Kitob maktabgacha tarbiya yoshidagi, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, qo‘laversa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining

o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Shunday ekan, uni taqdim etishda bolalarning mazkur davrdagi yosh xususiyatlari, dunyoqarashlari, tasavvurlari, adabiy tajribalari e‘tiborga olinishi lozim edi. Bunga nomuvofiq holat bir qator o‘rinlarda o‘zini namoyon etib turadi.

2. Ayrim epizodlar doston oldiga qo‘yilgan maqsad va muddaolar bilan uyg‘un emas. Jumladan, Navoiy va uning uyida tunab qolgan kanizak voqeasi ifodasi o‘rinli chiqmagan.

3. Ayrim misra va bandlarda she‘riy nutq talablari buzilgandek, nasrning ohanglari ustunlashib ketgandek tuyuladi:

*Ijod meroslari keldi bizgacha,*

*Ming shukr sof keldi bo‘lmay o‘zgacha.*

*Yarim ming yil aslo emas kichik yil,*

*Asarlari bosib o‘tgan ulug‘ yo‘l. (8)*

*Uning satrlari so‘zga aylanar*

*Xira nigoh ravshan ko‘zga aylanar...(8)*

*Ming chandon bobomga mehrim ortmoqda...(9)*

*Farididdin Attor ulug‘ning biri,*

*Mashhur Jaloliddin Rumiyning piri (13).*

Oxirgi misolda faqat qofiya taqazosiga ko‘ragina “biri-piri” so‘zlari keltirilmoqda. “Biri” “ulug‘ning” so‘zi bilan hozirgi holatda tabiiy emas, balki sun‘iy tarzdagina bog‘lanib turibdi, xolos. Zero, “ulug‘” birlikda qo‘llangani uchun “ulug‘ning biri” so‘z birikmasi sifatida to‘g‘ri tuzilgan bo‘lmay

qoladi. Aslida, shu konstruksiyada “ulug‘larning biri” shakli maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Vaznga sig‘may qolish xavfidan qochib shu variantning tanlanishi baytdagi mantiqsiz jumla tuzilishiga olib kelgan. Keyingi baytda esa qofiyadagi sustlik ko‘zga tashlanadi:

*Forsiy shoirlarning eng mashhuridan,  
Qush tilin sayratgan beozoridan (13).*

Gap faqat tovush ohandorligining pastligi ustida borayotgani yo‘q. Bu yerdagi sun‘iylik mantiqiy fikr ifodasi bilan bog‘liq. Aniqrog‘i, ifodada mantiqning to‘la bo‘y ko‘rsatolmay qolgani ochiq ko‘rinib turibdi. Muallifning o‘quvchiga nima demoqchi ekanligi noaniq. Har holda, “Qush tili”ning “beozori” orqali qanday fikr aytilishi lozimligini o‘quvchi tasavvur qila olmaydi. Bu xildagi tegishli badiiy-estetik talabalarga to‘la javob bera olmaydigan asarlar haqida N.Rahimjonov “Hozirgi she‘riyatimizda keng palak yozgan fikrsizlik: o‘rtamiyonalik, taqlidchilikning ildizlaridan biri – bu sarjin-sarjin she‘rlarda xalqimiz uchun, ijtimoiy taraqqiyot uchun, ma‘naviy-intellektual kamolot uchun xizmat qiladigan zarur gaplarning – ma‘noning yo‘qligida. Shoirlarimiz esa o‘z xalqiga aytadigan eng zarur gaplarni – haqiqatni voqelikdan topa bilmasligida; she‘r tilida, obrazli qilib ayta olmasligida”<sup>223</sup>, – deganda to‘la haq edi.

<sup>223</sup> Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 188-189.

2. Quyidagi misralarni o‘quvchi yoshlarning tushunishini tasavvur ham etib bo‘lmaydi:

*Shohlarga kerakdir nuri farosat,*

*Hamda shunosolig‘ ichra qiyosat (??) (20).*

3. Noqulay bo‘lsa-da, aytish lozimki, ayrim misra va baytlarda oddiy hayotiy mantiqqa putur yetgan holatlar ham oz emas:

*Yengansiz mardona duch kelsa to‘g‘on,*

*So‘zda davom eting, ayting, bobojon (25).*

Tarixiy voqea-hodisalar, siymolar tasviri jara-yonida, tabiiyki, har bir davr mohiyatini, koloritini berishga yordamchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘z, tushuncha va iboralardan foydalanish mumkin, ammo bunda ham me‘yor va tegishli mezonlarga amal qilish joiz. Aks holda, ular foyda keltirish o‘rniga qo‘shimcha muammolarni ro‘para qilishi mumkin. Ularning bir namunasi mana bu misralarda ko‘zga tashalanadi:

*Besafar ne bilsin yurt farog‘atin,*

*G‘urbatsiz kim, vatan – rafohiyatin (18).*

Ushbu baytdagi gap qurilishi, qo‘llangan so‘z-larning bir-birlari bilan umumiy aloqadorligida sustlikdan tashqari, ikkita so‘zning juda noqulay-lik tug‘dirayotgani ochiq ko‘zga tashlanadi. Bu baytning dastlabki hamda oxirgi so‘zlaridir. Bi-rinchi so‘z – “besafar” shoirning nazarida “sa-farga chiqmagan odam”, “umrida safar qilib ko‘r-magan kishi” ma’nosini berishi kerak edi. Ko‘rinib

turibdiki, hozirga holatda u so‘z mazkur ma’noni ifodalab bera olgan emas.

“Rafohiyat” so‘zi garchi Navoiy davri uchun so‘zlashuv tilida ham qo‘llanish ehtimoliga ega bo‘lishiga qaramasdan, bugungi o‘quvchi uchun mutlaqo tushunarli emas. Uning “farovonlik”, “osudalik”, “osoyishtalik” singari ma’nolarga ega-ligini lug‘atlarga qaramasdan turib anglab olish oson bo‘lmaydi.

1. Kitobda imlo xatolari, uslubiy notugallik-lar, she’riy ifodalar mazmuniga putur yetkazadi-gan gap qurilishlari, qofiya uchungina tuzilgan bandlar anchagina. Ularning bir qismini zo‘rma-zo‘raki misralar deb ham aytish mumkin. Afsuski, bu fikrlar kirill yozuvidagi qismga qanchalik aloqador bo‘lsa, lotin yozuvidagi qism uchun ham shunchalik xosdir.

2. “So‘zdor” singari yasama so‘zlarning (8-bet) o‘zbek tili qonun-qoidalariga mos va munosib emasligi ham ko‘rinib turibdi.

3. “Chamandan kengaydi bu gul bo‘stoni” misrasi (8) shu turishida mantiq buzilishining namunasi bo‘la oladi. Dastlabki so‘z o‘xshatish qo‘shimchasini olganida (“chamanday”) uning ifoda quvvati, shubhasiz, ortgan bo‘lar edi.

4. Kitobga ilova qilingan izohlarda mualliflar, asarlarning nomlari juda pala-partish berilgan. Har holda yosh avlodga, xususan, o‘quvchilarga



mo'ljallangan kitobda bunday ehtiyotsizliklarga yo'l qo'yilmagani ma'qul.

Ijodma'suliyati haqida to'xtalib, xalq yozuvchisi P.Qodirov: "Adabiyotni hayot bilan bog'laydigan barcha ildizlar yozuvchilarning ichki dunyolaridan boshlanadi yozuvchining o'z qalbida olijanob ehtiroslar va ma'naviy boyliklar xazinasini bo'lishi kerak. Kitobxonning ichki dunyosini ochish uchun bizda o'z ichki dunyomizdan boshqa kalit yo'q"<sup>224</sup>, - deb yozgan edi. Darhaqiqat, badiiy asar yurak haroratining insoniy dard bilan uyg'unligi hosilasi deyish mumkin.

---

<sup>224</sup> Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – Б. 4.

## II BOB XULOSALARI

1. Navoiyga qaytish – uzluksiz va ilhombaxsh jarayon. Uning davomiyligini o‘rganish ham ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Shuning uchun Navoiy yashagan davrdan boshlab bugunga qadar buyuk shoir siymosi badiiy talqin etilgan. Mustaqillik davrida ham mutafakkir shoir tajribalariga tayanib did, saviya va mahoratni yuksaltirish har bir iste’dod uchun ijodiy muvaffaqiyat garoviga aylandi.

2. Mustaqillik davri ijodkorlari kimdan, nima, qanday o‘rganishi kerak degan savollarga javobni aynan Alisher Navoiy ijodidan topdi. Navoiy siymosiga millat ulug‘ligining dalili va timsoli sifatida qaraldi. Shu bois Navoiy bu davrda ham ko‘plab shoirlar uchun estetik ideal darajasiga ko‘tarildi, yorqin kelajakka boshlovchi rahnamo o‘laroq talqin etildi. Navoiy ijodiga mutlaq hurmat pozitsiyasida turilgani, u bekam-u ko‘st qabul qilingani, ayniqsa, lirik merosiga muhabbat bilan qaralgani – bu davr shoirlari uchun xos eng umumiy jihatdir.

3. Alisher Navoiy obrazini yaratish jarayoni mustaqillik davri she’riyatida silliq kechayotgani yo‘q. Bu jarayon ba’zan yuksalish tarzida namoyon bo‘lsa, ayrim hollarda obrazli tasvir o‘rnini sayozlik, bayon egallashi ham kuzatiladi. Biroq biz

bugun istiqlol she'riyatida Alisher Navoiy obrazi tasvirining tadriji haqida fikr yuritish imkoniga egamiz. Chunki buyuk mutafakkir obrazini yaratish jarayoni muntazam tus oldi, izchillik kasb etdi.

4. Alisher Navoiy nafaqat ijodi, balki shaxsiyati va amali bilan ham zamonaviy she'riyat vakillari tomonidan namuna sifatida qabul qilindi. Uning axloqiy fazilatlarini, xayrli ishlari, ijod va amal birligiga qat'iy rioya qilgani barkamollik timsoli o'laroq badiiy e'tirof etildi.

5. Mustaqillik davrida Navoiy obrazini yaratish yo'lida eng ko'p asarlar yaratilgan adabiy tur lirika bo'ldi. Zamonamiz shoirlarining Navoiyga murojaat etmagani, u haqda maxsus she'rlar yozmagani deyarli yo'q. Shu bois bu davr she'riyatidagi Navoiy obrazi tasvirlarini o'rganishni eng xarakterli jihatlariga ko'ra tasniflab – alohida lirik asarlar, turkum she'rlar va dostonlar tarzida o'rganish zarur.

6. Navoiy haqida yaratilgan alohida lirik asarlarda Navoiy shaxsi yoki ijodidan tuyulgan hayrat, buyuk shoir haqidagi bir yorqin tasavvur yoki haqiqatning lirik ifodasi ustuvor. Turkum she'rlarda esa shoir obrazining kengroq tasviri uchraydi, shoir ijodi to'g'risidagi muayyan tasavvurlar silsilasi, kechinmalar tizimi badiiy gavdalantiriladi. Bu borada Jamol Kamol va Abdulla Sherning turkum she'rlari Navoiy obrazini nisbatan mukammalroq aks ettirishini ta'kidlash kerak.

7. Bu davrda Navoiy ijodiyotidan ilhomlanib bir necha dostonlar ham yaratildi. Shoirlar doston janrining imkoniyatlaridan foydalangan holda Navoiy obrazini keng planda tasvirlashdi. O‘zlarini qiynagan masalalarni poetik talqin etishdi, Navoiy siymosi, u yashagan davr bilan bog‘liq voqealarni zamonamiz kishisi nigohidan ko‘rsatib berishdi. Bu tipdagi asarlarni Navoiy obrazini yaratish jarayoniga nisbatan alohida adabiy hodisa sifatida baholash mumkin.

8. Mustaqillik davri she‘riyatida Alisher Navoiy yaratgan obrazlar tizimining o‘zi ham ijodkorlar uchun tasvir obyekti bo‘la oldi. Bu qahramonlarning donishmandligi (Iskandar), mard va tantiligi (Farhod), beqiyos go‘zalligi (Shirin, Layli, Dilorom) ishqda sobit va vafodorligi (Farhod, Majnun, Shayx San‘on, Shirin, Layli, Dilorom va boshqalar) ijodkorlarimiz uchun ilhom manbayiga aylandi.

9. Mustaqillik bergan keng imkoniyatlar tufayli Navoiy hayoti va ijodi mazmunini asl holicha o‘rganish imkoni ortdi. Bu davr shoirlari Navoiyning nafaqat chuqur anglash boshladilar, balki unga muvofiq, u foydalangan badiiyat mezonlari mos ijod qilishga ham intilishdi. Navoiydan topganlarini Navoiyga xos usullarda tasvirlashga e‘tibor qaratishdi. Shu ma‘noda, Navoiy mustaqillik davri she‘riyatida mumtoz an‘analar jonlanishiga ham asos berdi.

10. Alisher Navoiy obrazi – zamonaviy she’riyatimiz idealining asosi. O‘zbek she’riyati bu davrda ulug‘ shoir obrazini yaratish borasida chin ma’noda yuksalishga erishdi, bu – Navoiy asarlaridagi ma’rifiy g‘oyalarni qayta idrok etish va badiiy tasvirning kuchayganida namoyon bo‘ladi. Mustaqillik davri milliy she’riyatimizning badiiy-estetik ideali sifatida buyuk mutafakkir obrazi bugungi kun yoshlarini insoniy komillikka, Vatan va millat manfaatlarini har narsadan ustun bilishga chaqirish timsoliga aylandi va mana shu kabi jihatlardan alohida qimmat kasb etdi.

### **III BOB. NASRDA ALISHER NAVOIY OBRAZINI YARATISH TAJRIBASI**

#### **3.1. Hikoya va esselarda Alisher Navoiy siymosi**

O‘zbek nasrida hozirgacha Alisher Navoiy obrazi yaratilgan asarlar talaygina. Ularning yuzaga kelishiga adiblarning katta qismi munosib hissalarini qo‘shib kelishmoqda. Bular orasida ayrim hikoya va qissalar ham mavjud. XX asrning mustaqillikkacha bo‘lgan davrida ham ularning barakali mehnatlari tufayli ulkan xazina to‘plandi. Bu xazinani bunyod etuvchilar qatoriga Sadrid-din Ayniy, Fitrat, Oybeklardan boshlab, adabiy ijodini o‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlagan ko‘plab qalam ahlini kiritish mumkin. Mustaqillik davri adabiyoti bu doira chegaralarini yanada kengaytirgani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Bugungi o‘zbek kitobxonni Alisher Navoiyning badiiy siymosi yaratilgan ulkan panoramaga yonma-yon turibdi. Adabiyotshunoslik fanining vazifasi esa mana shu yonma-yonlikni samarali hamkorlikka, kitobxon va navoiynoma turkumiga oid asarlar bilan birga yashashlari uchun amaliy yordam berish, masalaning mohiyatini yoritib berishdan iboratdir.

O‘tgan asrda Navoiyning badiiy siymosi yaratilgan yagona roman va dramani esga olaylik.

Mana shu ikki asar butun o‘zbek xalqining Alisher Navoiy haqidagi tasavvurlari uchun bosh asos va omil vazifasini ado etgani sir emas. “Navoiy” romanida bosh qahramon sifatida tanlangan Alisher Navoiy, uning yonidagi o‘nlab tarixiy shaxslar obrazlari talqini orqali o‘sha davr ziddiyatlari, temuriyzoda shahzodalar, Husayn Boyqaro tevaragidagi saroy ahli, ulamolar, harbiy lashkarboshilardan tortib, san‘at va ilm-fan homiylari, arboblari hayoti, kurashi, intilishlari bilan chambarchas bog‘liqlikda tasvirlanganini ko‘rish mumkin<sup>225</sup>.

Janr imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalana olgan yozuvchi Navoiy shaxsining naqadar buyukligini aql-u idroki, ma’naviy olami ulkan insoniy qalbi timsolida anglata olgan. Daholik qudrati bilan butun bir davr siyosati, davlat ravnaqi, ulus tinchligi va farovonligi, ilm-u ma’rifat ravnaqini ta’minlashga intilgan Navoiyday buyuk inson kechinmalari, iztirob-u hasratlari, ijodiy faoliyati, quvonch-u yo‘qotishlari tarixiy roman talablariga ko‘ra ko‘lamdor epik tasvirda jonlantirilgan edi. Shu sabab, “Navoiy” romani nafaqat yigirmanchi asr o‘zbek nasrining, balki,

---

<sup>225</sup> Bu haqda qarang: Kўshjoнов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1965; Каримов Н. Ойбекнинг шох асари (Ойбекнинг “Навой” романига сўзбоши). – Тошкент: Шарқ, 2009; Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт. – Тошкент: Шарқ, 2001; Ахмедов Н. Ўзбек Адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994.

butun adabiyotimizning durdona asari sifatida qadrlı bo‘lib qolgani tabiiy. Navoiy siymosi ta’siri davrlar osha yangi rakurslardan badiiy kashf etilayotgan bo‘lsa-da, hanuz o‘ziga xos adabiy-estetik muammo sifatida ijodkorlar diqqatini jalb etmoqda.

Mustaqillik davri hikoyachiligi ham Alisher Navoiy badiiy siymosini yaratish yo‘lida harakat qilmoqda. Ulug‘ mutaffakkir va buyuk inson shaxsining ochilmagan qirralarini badiiy so‘z qudrati bilan kashf etishga intilgan ana shunday yozuvchılardan biri Urfon Otajon bo‘lib, uning “Dilkusho bog‘lar” nomli kitobidan tarixiy hikoyalar o‘rin olgan. Qator hikoyalarida XV asrning ikkinchi yarmidagi Hirot adabiy muhiti, adabiyot va san’at ahlining obrazlari gavdalantirilgan.

“Ishq bog‘i holati” hikoyasi 1499-yil voqealari bilan boshlanadi: “Bugun hazrat Alisher Navoiy Sulton Husayn oliy hazrat tarafidan Ansoriya ostonasining shayxi etib tayinlangani munosabati bilan Hirot ulug‘lari, fozillarining duoyi fotihalarini olish uchun katta yig‘in o‘tkazdi.

Hazrat Alisher Navoiyni bu oliy maqom va martaba bilan Sayfiddin Ahmad Taftazoniy, ahli irshod jumlasidan Shayx Abu Said Purraniy, mavlono Kamoliddin Husayn Koshifiy, allomayi zamona mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiylar muborakbod etdilar va duolar qildilar”<sup>226</sup>.

<sup>226</sup> Отажон Урфон. Дилкушо боғлар. 1-китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 58.



Kingadir bayonchilik bo‘lib ko‘rinishi mumkin bo‘lgan bunday parchalarning zimmasiga yuklangan bir qator vazifalar bor:

1) ular muallif ko‘zda tutgan ijtimoiy-ma’naviy muhit haqidagi tasavvurlarni hosil qiladi;

2) tarixiy haqiqat namunalari sifatida badiiy tasvirga ishonch ruhini singdiradi;

3) Alisher Navoiy siymosining boshqa tarixiy shaxslar qatoridagi mavqe va obro‘yini yana bir marta tasdiqlash vazifasini ado etadi.

Agar asar tiliga e’tibor qaratisa, muallifning voqealar bayonini bir maromda sokin, ravon nutq bilan tasvirlab borayotgani e’tiborni tortadi. Kitobxon ko‘z o‘ngida Navoiyning nuroniy chehrasi jonlanadi, qalbidan sizib chiqayotgan ilohiy nur jismini yoritib turganday tasavvur o‘yg‘onadi. Bir qadar mahzun, o‘ychan qiyofaga yashiringan ma’nolar, o‘y-kechinmalar sababi hazrat Navoiy tilidan izohlanadi: “Tongga yaqin tush ko‘ribmen. Makkayi Munavvaraga, Baytulloh tavofiga borgan emishman. Karbaloda Sulaymon ismli bir mavlono benihoya nazokat va lutf ila uyiga taklif etibdur. Hovliga kirsak, vo ajab, rayhonlar ekilgan gulzor oldidagi supada hazrat Nizomiy, mavlono Lutfiy, Hofiz Sheroziy, mavlono Atoiy, mavlono Hoqoniy, hazrat Jomiy va yana men tanimagan ikki zot o‘tiribdilar. Shul zamon mavlono Sulaymon uydan bir go‘dakni ko‘tarib chiqdi-da, bolani hazrat

Nizomiyga berib: “O‘g‘limiz Muhammad bugun bir yoshga to‘ldi, duo qilsalar,” – dedi. Hazrat Nizomiy bolaning peshonasidan o‘pib, mavlono Lutfiyga berdilar. Mavlono Lutfiy ham uning peshonasidan o‘pib, duo bilan mavlono Xoqoniyga berdilar...”<sup>227</sup>.

Kitobxon ko‘z o‘ngida jonlangan manzara ortida ulkan ma‘no yashirin: hazrat Navoiyning tushlarida ulug‘ zotlardan duo olgan bolakay bo‘lg‘usi buyuk shoir Fuzuliy ekani haqida qisqa izoh berilgan. Ajib karomatli tush qay darajada tarixiy haqiqat ekani kitobxon uchun noma‘lum, ammo yozuvchi tush motivini kiritish orqali ruhan yaqin insonlar ikki olamda ham hamkor, fikrdosh, suhbatdosh bo‘lishlarini ta‘sirchan chizib bera olgan. Ulug‘lar duosini olgan bo‘lg‘usi so‘z san‘atkorining hayot va ijod yo‘li yorqinligi o‘ziga xos tarzda izohlangan. Kitobxon ko‘z o‘ngida Navoiy siymosi keksalikka xos nuroniy, jiddiy, mulohazakor qiyofada namoyon bo‘ladi. Ta‘kidlash kerakki, Urfon Otajon ushbu tush lavhasining asosini Navoiy ijodidan olgan, ya‘ni Navoiy o‘z “Xamsa”sining yakunida Nizomiy, Xusrav kabi buyuuk ustoz shoirlar bilan uchrashganini tasvirlagan. Faqat u yerda voqealar rivoji va tafsilotlar boshqacharoq.

Hikoya muallifi xat-noma motividan ham foydalanadi. Sulton Husayn Boyqarodan kelgan

---

<sup>227</sup> Ўша нашр. – Б. 63.

nomani o‘qib, hayajon tuyg‘ularini tuygan Navoiyning chehrasi yozilajak g‘azal baytlari kabi haroratli, serma’no. Husayn Mirzodan kelgan nomaga ilova qilingan g‘azalga musaddas bog‘lab yozgan yangi g‘azali esa muallifi ruhiyatini ochib berish vositasiga aylangan:

*“Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni,  
Har zamon bor ta’magir muhlik adosidin meni.  
Hajr xud kuydurdi dardi bedavosidin meni,  
Ham o’lum qilg‘ay xalos oning jafosidin meni.  
Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni,  
Bir yo’li qutqar ulusning mojarosidin meni”*<sup>228</sup>.

Shu tariqa, Urfon Otajon Navoiy haqidagi tasvirlarni yaratishda Navoiyning ijodidan, undagi turli epizodlardan mahorat bilan foydalanadi, ularni o‘z ijodiy niyatidan kelib chiqib yangicha talqin etadi.

“Rustami doston surati” nomli hikoya buyuk iste’dod egasi musavvir Kamoliddin Behzodning o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlik surati tasviri bilan boshlanadi. “..injlil arig‘i qirg‘og‘ida mo‘ylabi endi sabza ura boshlagan xushsurat yigit uzoq-uzoqlarga tikilib o‘tiribdi”. Hikoyada chinakam iste’dod egalarining ijod onlaridagi sirli holati nogahoniy his-hayajonlar tug‘yoni ta’sirida yaratilgan hayratli san’at asarining dunyoga kelish tarixi yoritilgan. Mirak naqqosh, Pir Sayid Ahmad Tabriziy,

---

<sup>228</sup> Ўша нашр. – Б. 62.

Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro kabi buyuk zotlar tarbiyasidan bahramand bo'lgan Kamoliddin Behzod obrazi hikoyada o'ziga xos talqin etilgan. Muallif obrazlarda o'z xayollari, kechinmalarini suratlantirar ekan, epik bayon usulidan foydalanadi. Ayrim voqealarga matn ortidan izoh beradi.

Fikrimizcha, ilohiy ilhom onlari – ijod dardini boshdan kechirayotgan damdagi iste'dod sohiblari holati, ruhiyati yanada yorqin manzaralarda tasvirlanganda, bayon izoh usulidan ko'ra ruhiyat tasviriga muallif ko'proq erishganda, hikoyalar markazidagi tarixiy shaxslar obrazi yanada yangi qirralarda kashf etilgan bo'larmidi?

Hikoyaning dastlabki qismlari istisno qilinsa, keyingi qismlarda badiiy emas, ko'proq ilmiy-ommabop uslub ustuvorlik qila boshlagan. Bu hikoya ruhiga ijobiy emas, salbiy ta'sir ko'rsatgan. Muallif fakt va tafsilotlar bosimi ostida qolib ketgan.

Rus adabiyotshunosi Aleksandr Seytlinning bir yaxshi ifodasi bor: “tarixiy belletristika muallifi manbalarni har tomonlama o'rganishga vaqt va kuchini sarflash uchun qizg'ongan holatlarda uning obrazlari ham badiiy jihatdan kambag'al bo'lib qoladi”<sup>229</sup>. Bu mulohazalarni o'zbek adabiyotidagi

---

<sup>229</sup> Цейтлин Александр. Труд писателя. Вопросы психологии творчества, культуры и техники писательского труда. – Москва: “Советский писатель”, 1968. – С. 109.

ayrim nasriy asarlarga nisbatan ham qo‘llash o‘rinli bo‘ladi.

Voqealar bayoniga berilish “Tafarruj” hikoyasida ham ko‘zga tashlanadi. Hikoya 1487-yilning bahor oyi tavsifi bilan boshlanadi: “Hirotd. Dorussaltana bu bahor ham g‘oyat go‘zal, “Xuroson kelini” degan shoirona nomiga munosib ko‘rk kasb etgan: Bog‘i Safid, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Jahonoro, Bog‘i Nav, Xiyobon, Taxti safarda yashnagan bulbullar basmas xonish qiladilar. Yurt tinch, raiyat farovon. Bir necha kundan beri ko‘ngli g‘ash Sulton Husayn Boyqaro hech kim kutmaganda ahli saroy, harami bilan taxti safarga saylga chiqdi”<sup>230</sup>.

Sulton Husayn Boyqaro bilan hazrat Jomiy uchrashuvi, ularning huzurbaxsh suhbatlari; Boyqaroning Navoiy haqidagi o‘y-xayollari, sog‘inch tuyg‘ularining ham yoritilishi hikoyada bayon usulida berilgan. “Noyob sovg‘a” hikoyasida ham mashhur musavvir, noyob iste‘dod egasi Kamoliddin Behzod obrazi yangicha talqin etilgan. Uning podshoh Husayn mirzoning Bog‘i Jahonorodagi saroyida hayajon ila o‘tirishi; podshoh va oliy majlis ahliga Amir Temur suratini taqdim etish chog‘idagi hayajoni kitobxon ko‘z o‘ngidajonligavdalanadi. Ahli majlis ishtirokchilari ichida Alisher Navoiy ham bor.

Hikoyada Navoiy obrazi epizodik tarzda namoyon bo‘ladi: goh iste‘dod egalariga homiy,

<sup>230</sup> Отажон Урфон. Дилкушо боғлар. 1-китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 80-81.

goh fikrdosh, tuygʻudosh, goh Boyqaro va boshqa fozillar davrasida tasvir etiladi.

“Fitna” hikoyasi voqealari esa bevosita Navoiyning horgʻin va mahzun qiyofasi tasviri bilan boshlanadi. Mahzun kayfiyat Sulton Husaynni Zahiriddin Muhammad Bobur mirzoga cherik ila yordam berishga koʻndira olmagani tufayli ekani ayonlashadi. Yozuvchi tarixiy voqealarning sabab-oqibatlarini – Husayn Boyqaroning Bobur Mirzo iltimosini rad etib, Shayboniyxonga qarshi madad kuchini berishdan bosh tortish oqibatlarini Navoiydek yetuk arbob va aql-zakovat egasi chuqur tushungani uchun aziyat chekkanini mantiqan asoslay olgan.

Albatta, Navoiy yashagan davr va zamonning ham oʻziga xos ziddiyatli, murakkab tomonlari boʻlgan. Husayn Bayqaro davlat tepasiga chiqquncha Navoiy hayotidagi qiyinchiliklar, yosh shoir duch kelgan azob-uqubatlarni navoiyshunos olimlar qayta-qayta izohlashgan. Lekin shoirning keksalik paytidagi dardu hasratlari ham haqiqatda yengil boʻlgan emas: u ayni qarilik chogʻida katta umidlar bilan bunyod etilgan davlatning tanazzuliga guvoh boʻlgan. Ayni damda, zodagonlarning ayni shu davrdagi uzoqni koʻra olmay qolishlari oqibatida chiqarilgan hukm – xulosa nafaqat Bobur mirzo taqdiri, balki Boyqaro saltanati kelajagi

qismatida fojaviy o'pirilish yasagani tarixdan ma'lum.

Hikoyadagi Xadichabegim obrazi bilan tani-shish muallifning an'anaviy qarashlarga bo'lgan mayl va rag'batini ko'rsatib turibdi. Xadichabegim ayni tarixiy haqiqatni harakatga keltiruvchi kuch-lardan biri sifatida tanlangan va uning "makr-hiyalari" ta'siriga tushgan Boyqaroning holati, muhim siyosiy masalalarni hal etish chog'idagi ikkilanishlari asarda tabiiy, ruhiy holatlarga bog'-lab gavdalantirilgan.

Yozuvchining Shayboniyxon obraziga yonda-shuvi ham o'ziga xos. Uning Hirot tomon ot surishiga monelik qiluvchi kuchning Navoiy siyomosida ko'rsatilishi ko'plab o'quvchilarning Navoiygagina emas, balki Shayboniyxonga ham mehrini tovlantiradi.

Navoiyning bevaqt vafotigina podshohdagi Hirot orzusini kuchaytiradi. Tarixdan Shayboniy-xon siyosat bobida ancha ko'zi o'tkirlar toifasiga kirishi yaxshi ma'lum. Yozuvchi undagi bu xu-susiyatni Fitna obrazi vositasida badiiy reallikka aylantira olgan.

"Fitna" Shayboniyxon bergan laqab bo'lib, bu juvonning asl ismi Nozikoyim edi. U Andalusiyada tug'ilib, bundan sakkiz yil oldin Samarqandga ko'-chib kelgan. Shayboniyxon Nozikoyimning fav-qulodda go'zalligi va oqila ayolligi uchun Nizomiy

vasf etgan Fitna sharafiga shunday nom qo‘ygan. Nozikoyimning eri Shayboniyxon bahodirlaridan biri bo‘lib, Bobur mirzo va Shayboniyxon o‘rtasida Andijon uchun bo‘lgan kichik to‘qnashuvda o‘ldirilgan. Shundan beri Nozikoyimning Bobur Mirzoga adovati bor edi. Buni Shayboniyxon yaxshi bilgani uchun, Bobur Mirzoga putur yetkazuvchilardan ba’zilarini unga topshiradi. Bu ayolning husn-u latofatiga o‘zi maftun bo‘lsa-da, siyosiy fitnalarda foydalangani uchun haramiga kirgizmagandi. Nozikoyim nisbatan ozod va erka bo‘lib, Shayboniyxonning Bobur Mirzoga qarshi kurashida fidoyi, nishonga bexato teguvchi qurol edi. Ayni to‘qima obraz va u bilan bog‘liq bu kabi tafsilotlar, albatta, yozuvchi ijodiy fantaziyasining yaxshi namunasidir.

Ayni mana shu davrda Bobur Mirzo Samarqanddan madad bo‘lishiga ko‘z tutar edi. Shayboniyxon kuch to‘plab qamalga o‘tmog‘i mumkin. Husayn Boyqaro eng yaqin do‘sti, ma’naviy suyangan tog‘i Alisher Navoiydan judo bo‘lgach, bir necha oy garang holda do‘stining so‘nggi iltimosini eslab, elchilarning Samarqandga yetib borgan-bormaganlarini surishtiradi. Zudlik bilan karvonni hozirlab Xoja Afzal boshchiligidagi elchilarni jo‘natishga buyruq beradi. Shayboniyxon esa bu elchilarni qanday bo‘lmasin to‘xtatish chorasini ko‘radi.



Voqealar mantig'ini buzmagani holda yozuvchi badiiy to'qimadan mahorat bilan foydalana-  
di. Fitna orqali Hirotidagi holat o'rganilib, tahlil  
qilinib, Xadichabegimning podshohga ko'rsatajak  
ta'siridan o'z maqsadi yo'lida foydalanish rejasi  
tuziladi. Kitobxon hikoya sarlavhasi ortidagi Bo-  
bur Mirzo tilidan keltirilgan epigraf ma'nosini  
chuqur anglaydi: "O'zini oqila tutar edi, vale beaql  
va purgo'y xotin erdi"<sup>231</sup>.

Voqealar Xadichabegim – Fitna uchrashuvlari  
tomon rivojlanib boradi. Xadichabegim ko'ngliga  
oralagan vahima ziddiyatli munosabatlar, Bobur  
Mirzoga nisbatan ishonchsizlik malika vositasida  
podshoh Husayn Boyqaro ko'ngliga ham g'ulu  
soladi. Qalbida qarama-qarshi tuyg'ular jo'sh  
urib, ehtiyotkorlik chorasini ko'rishga undaydi.  
O'z elchilarini Bobur mirzo saroyiga emas, Shay-  
boniyxon huzuriga bitim tuzish uchun yuborishga  
ahd qiladi. Shu tariqa chiqargan noto'g'ri qarori  
o'zi bilmagan holda Samarqandning qamal qilinib,  
Shayboniyxon qo'lga o'tishi, Hirot taxtining ham  
xavf ostida qolishiga sabab bo'ladi.

Yozuvchi hikoya so'ngida tarixiy voqealarni  
qistirib o'tgan: bu voqealardan bir muddat – bir ne-  
cha oy o'tib, Bobur Mirzo jangda Shayboniyxon-  
dan yengilib, Samarqand qal'asiga berkinadi; besh  
yil o'tib Sulton Husayn Boyqaro Shayboniyxonga

---

<sup>231</sup> Ўша нашр. – Б. 47.

qarshi yurish paytida vafot etadi. Yana bir yildan so‘ng Hirot Shayboniyxon qo‘liga o‘tadi.

“Bobur va Behzod” hikoyasida ham Navoiy siymosi bilvosita tasvirlar tipiga kiradi. Uning asosiy qahramonlari sarlavhada aks etgan. Alisher Navoiy haqidagi tasvirlar bu yerda Boburning Hirot xotiralari sifatida qalamga olinadi: “Churda o‘tirib, laziz lahzalar, Hirotdagi nafis majlislar, bazmlarni xotirlaydi. Mavlono Behzodning Bog‘i Jahonorodagi ijod uyida bo‘lib o‘tgan uchrashuv ko‘z o‘ngida jonlanadi: Shayx Sa‘diy “Bo‘ston”iga chizilmish suratlar. Sulton Husayn Mirzo suratlari. Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga va Hazrat Mir Alisher Navoiyning ulug‘vor siymosi tasvir etilmish suratlar ayricha mehr ila chizilmish. “Bul suratlar Ustod Behzodning hazrat Navoiyga bo‘lgan benihoya ehtirom va hurmati timsolidir. Qo‘linda aso tutgan Navoiyning bahor mavsumida bog‘ sayri chog‘i tasvir etilmish surati chehrakusholik san‘atining barkamol namunasi emasmu? Aning ta‘rifida Hiriylar zariflari orasinda hanuz ajib rivo-yatlar yurmish... Go‘zal bog‘, anvoyi gullar Alisherbekning xushxulq atvoriga, chiroyli, rangin qushlar Navoiy navosiga, taboqdagi sochqi uchun qo‘yilmish zarlar saxovatiga nozik ishoradek fikr beradur. Bundayin mukammal tasvirni Ustod Behzod qalamigina cheka olur”<sup>232</sup>.

---

<sup>232</sup> Ўша нашр. – Б. 202-203.

Bobur Mirzoning xilma-xil hayotiy mashaqqatlar ham sinovlarni yengib o'tishda hayotning o'zidan olgan saboqlari qatori ulug' pirlarning ilohiy ruhiy madadi katta ma'naviy kuch-qudrat vazifasini o'tagani hikoyada tasvirlangan voqealar ortidagi badiiy umumlashmadan anglashiladi. Tarixiy voqealar tasviriga singdirilgan o'ziga xos ishoralar Navoiy dahosi nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham naqadar ulkan ma'naviy qudrat, ilohiy nur timsoli ekanligi Bobur Mirzo taqdiridagi tarixiy voqealarga bog'lab ifodalanadi.

Yozuvchi Urfon Otajonning "Dilkusho bog'lar" kitobiga jamlangan hikoyalar so'nggi yillar o'zbek tarixiy hikoyachiligini yangi obraz va talqinlar bilan boyitdi. Xususan, sohibqiron Amir Temur, Sul-ton Husayn Boyqaro, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy va ularga zamondosh iste'dod sohiblaridan Kamoliddin Behzod singari adabiyotda hali hanuz yetarli darajada badiiy talqin qilinmagan insoniy qiyofalarning turfa ko'ngil olami o'n beshinchi asr ikkinchi yarmi Hirot madaniy muhiti tarixiy voqealar bilan bog'liqlikda talqin qilingan. Shayboniyxon obrazi haqida ham shunday deyish mumkin.

Yirik tarixiy shaxslar qiyofasi ortidagi rangin ruhiyat olami, qalb kechinmalari, o'y-xayollari har birining betakror surat va siyratlari manzarasini tasavvur etish imkonini beradi. Yozuvchi

taqdimidagi jonli tasvir, go‘zal chizgi, jozib manzaralar kitobxonni zavqlantiradi, o‘ylatadi. Tarixiy voqealarning bilimdoni sifatida real epizodlar, aniq ro‘y bergan hodisalar ortidagi sabab va oqibatlarni teran mushohada etib, ulardagi obrazlarning yashirin qirralarini kashf etishdagi badiiy mahorat kitobxon e‘tiborini tortadi. To‘qima obrazlarga oid voqealar tasviri hikoyalar sujetini tig‘izlashtirib, kompozitsiyasiga ham o‘ziga xos pishiqlik bag‘ishlaydi.

Q. Qahramonov Alisher Navoiyga atab bitilgan she‘riy namunalarda har ikki yo‘nalish – ham shoir obrazi yaratilgan, ham uning boqiyiligini ulug‘lovchi asarlar ko‘plab yaratilmoqda, – degan edi<sup>233</sup>. Bu mulohazalar shu davr nasriga ham to‘la muvofiq keladi, deyish mumkin. Chunki bu davr nasrida ham Navoiy siymosini badiiy tadqiq etish, shoir asarlari va qarashlarining barhayotligini anglash, shu asosda uni zimdan ulug‘lashga intilish seziladi. N.Ahmedov ta’kidlaganidek, “O‘tmishda yashagan buyuk tarixiy shaxslar hayoti va ijodining badiiy tadqiqi – bu bevosita tarixiy taraqqiyot talabi, insonlarning ruhiy ehtiyojlari tufayli amalga oshadigan g‘oyaviy-estetik jarayon natijasidir”<sup>234</sup>.

---

<sup>233</sup> Қаҳрамонов Қ. Замонавий шеърятда Навоий образининг поэтик талқини // ТДПУ Илмий ахборотлари. Илмий-назарий журнал. 2017, № 1 (10). – Б. 83.

<sup>234</sup> Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари: Филол фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 3-4.

To‘plangan materiallarni saralash jarayonida bir qiziq holat yuzaga keldi. Ular orasida anchagina “badiia” hamda “esse” nomi ostida ham asarlar yig‘ildi. Ularning ayrimlarida Navoiy obrazi juda xarakterli tasvirlangani bois ularning ayrimlarini tahlilga tortdik. Jumladan, Dadaxon Nuriyning “Azim chinorlar panohi” kitobi badiia-qissa va esselardan iborat. Unda Navoiy bilan aloqador bo‘lgan ayrim ixcham, lekin e‘tiborga molik lavhalar ham mavjud. Ular qiziqarli fakt va talqinlar bilan tanishishga, munosib xulosalarga imkon beradi. Adib Alisher Navoiy shaxsiyati bilan aloqador asriy shon-sharaf va shuhratning oddiy xalq o‘rtasida ham, shuningdek, ziyolilar doirasida ham ancha ommalashganiga alohida urg‘u bergan. Bu nomning ijodkor qalblar uchun har doim aziz va mo‘tabar bo‘lganini ta’kidlagan.

Mazkur kitobda, shuningdek, “Bo‘riboy do‘xtir” sarlavhasi ostida bir esse keltirilgan bo‘lib, u shunday boshlanadi: “Bo‘riboy — tibbiyot oliygohiga kirish ilinjida bo‘lgan bu yigit bilan katta shaharda kecha boshlagan musofirotning dastlabki kunlari tanishib qolganman. Toshkentning Qoratosh dahasidagi yolg‘iz keksa onaxonnikida ijarada turib, kirish imtihonlariga birga tayyorgarlik ko‘rganmiz. Talabalik “unvoni”ni Parkentda, Bo‘riboylarnikida nishonladik. O‘shanda bu maskan ko‘zimga xuddi adabiyot darsliklarida

tasviri bosilgan Navoiy bobomiz tavallud topgan yurt — Hirot shahrining aynan o‘ziga o‘xshab ko‘ringan. “Qishloq” (bu so‘zimdanda oshnam bir oz ranjiganday bo‘lib, Bobur Mirzo o‘z davrida Parkentni “shahar” deb ataganini ta’kidlab, menga tanbeh bergandi)ning chiqar tomonini baland qo‘rg‘on devoriga o‘xshash tepalik o‘ragan bo‘lib, uning etaklarida shahar yastanib yotibdi. Bo‘riboy hovlimizdagi baland ayvondan turib qarasangiz, xuddi Hirotni ko‘rganday bo‘lasiz, derdi. Gapida jon bor ekan”<sup>235</sup>. Bunda yozuvchining tasavvurlari qahramonlarga ko‘chgandek, shu bois qahramonlar Navoiy ijodi, hayotining bilimdonlaridek tasavvur uyg‘otadi.

Alisher Navoiyga bilvosita aloqalar fonida ham Navoiy siymosini ulug‘lash ochiq ko‘zga tashlanadi. “Biz bilmagan Oybek” essesinde shunday holat ko‘zga tashlanadi. Unda Oybekning “Navoiy” romani ustida ish jarayoni badiiy lavhadek tasvirlangan: “Biz zamonning ko‘p alg‘ovdalg‘ovli kunlaridan bexabar ikki talaba xuddi tushga o‘xshab ketadigan, biroq bor haqiqatdan iborat Zarifa opaning hikoyasini tinglardig-u beixtiyor ko‘z oldimizda kutilmagan, tasavvur qilib ham ko‘rmagan boshqa Oybek gavalanib ketardi: mana, u tancha yonida qo‘nishib o‘tirib olib, kerosin chiroq yorug‘ida davrimizning buyuk

<sup>235</sup> Нурий Дадахон. Азим Чинорлар паноҳи (Бадиа-қисса, эсселар). – Тошкент: «SHARQ», 2010. – Б. 39-40.

asari sifatida tan olinajak “Navoiy” romanini yozmoqda. Qahraton qish sovug‘i bir amallab tiklab olingan ochiq ayvon yonidagi torgina xonani ham o‘z domiga tortgan. Yozuvchining qalam tutgan qo‘llari sovukdan uvushib, o‘ziga itoat etmay qoladi. Shunda u barmoqlarini labiga tutib, qalb harorati bilan iliqlik baxsh etadi. Yana yozishga kirishadi... Ozginadan keyin qalam oppoq qog‘oz ustida beixtiyor to‘xtab qoladi. Navqiron, endigina o‘ttiz yetti yoshni qarshilayotgan Oybekda ortiqcha majol yo‘q. U nihoyatda charchagan, ochiqqan ham. Doim yonida hamdam, hamnafas umr yo‘ldoshiga biron yegulik bormi, deya iltijoli qarash qiladi. Urush qahatchiligi bu xonadonga ham allaqachon o‘z ta’sirini ko‘rsatgandi. Uy bekasi ko‘zlarida paydo bo‘lgan yoshni yashirish uchun o‘rnidan turib, tokchalarga qo‘l yugurtirib chiqadi. Biron bo‘lak qattiq non ham qolmagan. Xayriyat, hovonchada ozgina talqon hamda bo‘z xaltada un yuqi qolgan ekan. Xurmachadan yarim qoshiqcha yog‘ chiqdi... Ulardan bitta kosa to‘larto‘lmas “issiq ovqat” tayyorladi. Oybek uch-to‘rt qoshiq totinadi, xolos, qolganini ertalab bolalar ichar, deb chetroqqa olib qo‘yadi. Qo‘llarini birbiriga ishqab, barmoqlarini uqalab, yana yozishga tushadi”<sup>236</sup>.

Zarifa opaning hikoyasi tarzida keltirilgan mazkur parchada, birinchidan, Oybekning asar

---

<sup>236</sup> Ўша нашр. – Б. 84-85.

ustidagi ish jarayoni, ayni o‘sha paytdagi siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy hayot holati yaxshi urg‘ulangan. Qishning qahratoni hamda oilaviy sharoitning og‘irligi, hatto, oddiy oziq-ovqat tanqisligi sharoitida ijodkorning o‘z ishiga berilib mashg‘ul bo‘lishi ostida uning shaxsiy xarakterini aniq va ishonarli tasvirlashdan tashqari hazrat Navoiyga bo‘lgan buyuk muhabbati ham juda ta’sirli tarzda o‘z aksini topgan. Hikoyaning davomida esa adib boshiga tushgan musibat – qora kunlarning ixcham tavsifi berilgan. Bunday lavhalarning bizning zamondoshlarimiz, ayniqsa, o‘sib kelayotgan avlod uchun ham katta ijobiy tarbiyaviy ta’sirini inkor etish mumkin emas.

Bir qarashda Navoiy nomi shunchaki sanab o‘tilganday tasavvur uyg‘onadigan lavhalar (“Sarg‘ish chakmon” essesi<sup>237</sup>) mavjud. Ayni mana shunday o‘rinlar ham mutafakkir adibning millionlab qalblarda abadiy qoluvchi inson qiyofasini gavdalantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shib turganini tan olishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Ularda katta avlod ijodkorlarning Alisher Navoiy asarlariga, adibning shaxsiga bo‘lgan mehr-u muhabbatlari o‘ziga xos tarzda aks etgan.

Bu borada “Abdulla Qahhorning dutori” essesi yanada o‘ziga xos. Unda Alisher Navoiy asarlarining ziyolilar o‘rtasidagi mashhurligi ham, adib

---

<sup>237</sup> Ўша нашр. – Б. 26.



dahosining ko‘plab ijodkorlar boshini qovushtirib turishning o‘ziga xos vosita va sababchisi ekani ham ko‘rsatib berilgan. Ixchamgina lavhada “Qora ko‘zum” g‘azalining ijrosi, shu bahonada ikki buyuk ijodkor: Abdula Qahhor hamda Yunus Rajabiylarning ijodiy hamkorliklari juda yoqimli va ta’sirchan shaklda tasvirlab berilgan.

Hikoya va esselar Navoiy siymosining o‘ziga xos tasvirlar majmuasini yaratgani bilan e’tiborli. Ularda kichik lavhalar vositasida adibning hayoti va ijodi, uning yuksak insoniy fazilatlari, shaxs va ijodkor sifatidagi keyingi davr avlodlarga, jumladan, ijodkorlarning shakllanishi va kamolotidagi ta’sir o‘ziga xos tarzda ko‘rsatib berilgan.

### 3.2. Alisher Navoiy obrazining epik tasviri

Mustaqillik davrida ko‘plab adabiy janrlar kabi o‘zbek romanlarida ham muayyan evrilish jarayonlari ko‘zga tashlanmoqda. Bu mutaxassislarning hamjihatlik bilan bildirgan e’tiroflaridan ham ayon bo‘lib turibdi. Bunday o‘zgarish tarix va tarixiy shaxslarga estetik munosabatda yaqqol namoyon bo‘layotgani Alisher Navoiy obrazi tasviriga bag‘ishlangan asarlarda ham kuzatiladi. “Hazrat Navoiy garchi hayotining mazmunini ijod qilishda deb bilsa ham, davlat va xalq manfaatini o‘ylab, xalq osudaligi yo‘lida Sulton yonida turib muhim davlat ishlarini bajardi. Navoiy amiri kabir – bosh vazir sifatida uzoq yillar davlat boshqaruvi-ning eng muhim va nozik bo‘g‘inlarida, sudadliya, ichki ishlar, soliq tizimi, tashqi diplomatik aloqalar, ichki nizolar, chegara muammolari, umumxalq yig‘inlari va tadbirlarida davlat va xalq manfaatlarini uyg‘unlashtirdi va himoya qildi. Hazrat Navoiy davlat xizmatini mansab va obro‘ uchun emas, balki millat qadriyatlarini tiklash va butun dunyoga tan oldirishdek ulkan vazifani amalga oshirish uchun bir imkoniyat va vosita deb bildi”<sup>238</sup>. Ushbu haqiqatlar mustaqillik davri nasrida xususan, Omon Muxtor, Isajon Sulton, Muhammad Ali, Muzaffar Mirzo romanlari

<sup>238</sup> Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – Тошкент: Adabiyot, 2022. – Б. 5.

tasvirida yorqin ko‘zga tashlanadi<sup>239</sup>. Shu o‘rinda mazkur romannavislarning aksari navoiyshunos Sh. Sirojiddinovning asarlari<sup>240</sup>dan manba sifatida foydalanganligini ham qayd etish kerak.

Ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy shaxsi va ijodi barcha zamonlarda ilm va ijod ahlini hayratga solib, ilhomlantirib kelgan. O‘zbek adabiyotida buyuk allomaning obrazini yaratishga bo‘lgan harakatlarning o‘zi bir tarix. Mustaqillik davri romanchiligi ham bu jarayonda munosib o‘ringa ega. Bu davrda Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” nomli kitobidan joy olgan “Ishq ahli” va “Buyuk farrosh” romanlari, Asad Dilmurod qalamiga mansub “Pahlavon Muhammad”, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” hamda Muzaffar Mirzoning “Sham va shamshir” romanlarida Navoiy siyomosining badiiy talqinlarini ko‘zatish mumkin.

Bu asarlarni birlashtirib turuvchi jihatlar oz emas. Ularning barchasi bir mavzuda yozilgan, ularda u yoki bu tarzda Alisher Navoiyning o‘ziga xos badiiy obrazi yaratilgan. Barchasini nisbatan keng bo‘lgan epik qamrov ham irlashtirib turadi. Adabiy qahramonlarning ijtimoiy-maishiy

---

<sup>239</sup> Султон Исажон. Алишер Навоий (роман). – Тошкент: Adabiyot, 2020; Мухаммад Али романининг қўлёмаси (чоп бўлмаган); Мирзо Музаффар. Шам ва шамшир. – Тошкент: Ижод-пресс нашриёти, 2021.

<sup>240</sup> Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011; Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – Тошкент: Adabiyot, 2022.

hayot faoliyatlariga berilgan urg‘u ham umumiy mushtarak nuqtalardan birini tashkil etadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy va boshqalar doirasidagi jarayonlar tasvirida tarixiy haqiqatga mumkin bo‘lgan darajada tobora ko‘proq yaqinlashishga harakat seziladi. Ular o‘rtasidagi ayirmalar esa asar mualliflarining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatishi bilan e‘tiborga molik<sup>241</sup>. A. Alimbekov qayd etganidek, “Tarixiy siymolarga bir inson sifatida qarash, ularning ko‘ngil evrilishlarini berishga harakat qilish” ushbu romanlarning barchasi uchun xos<sup>242</sup>.

Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” asari ulug‘ shoir va inson hayotiga bag‘ishlangan ikki romandan iborat. “Ishq ahli” bilan “Buyuk farrosh”ni mantiqan birlashtirib turuvchi estetik asos xotira motivining ishtirokida (rassom Abulxayr chizgan suratlar, Navoiy tasvirini yaratish orzusida kuzatishlari bayon etilgan daftarlar, esdaliklar) ko‘proq namoyon bo‘ladi. Rassom buyuk dahoga xos ko‘ngil olamini suratlantirish ilinjida Navoiyni anglash tomon qadam tashlaydi, undan ko‘p narsalarni o‘rganadi. Navoiyni anglash yo‘lida o‘zi ham ma’naviy yuksalib boradi.

Rassom Abulxayrning shu yo‘ldagi izlanishlari, ijodiy mashq va mashaqqatlari, ma’naviy o‘sish-

---

<sup>241</sup> Bu haqda qarang: Оманова М. Истиқлол даври ўзбек романларида шайх валийлар образининг бадий талқинлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. автореф. – Жиззах, 2022.

<sup>242</sup> Алимбеков А. Тарих жозибаси // Моҳият, 2005. – 30 декабрь.

o‘zgarishlar aks etgan o‘y-fikrlari tasviri insoniy tafakkur miqyoslari haqida darak beradi. Navoiyni anglash uchun uning siyratiga kira olish, ko‘ngil olamini his qilish lozimligini anglab yetgan mu-savvir shu yo‘lda ruhiy iztiroblarni, ijodiy ma-shaqqatlarni yengib o‘tadi. “Taxminan 50 yildan oshdi. Lekin men uni hamon “taniy” olmadim. Hayoti qanday?! Ijodi nimadan iborat?! Tushunib yetdim, deyo olmayman. Qancha azoblanmay Uni Ko‘kdan Yerga tushirishga erisholmayapman... hali hech kim Bu Osmon qa‘riga ko‘tarilmagan! Hali, hech kim Bu Ummon tubini ko‘rmagan. Biz ilk qarashda turibmiz. Biroq uning butun hayoti – sir... yozgani jumboq, chaqishga “tish” kerak!”<sup>243</sup>.

Omon Muxtorning mazkur asari e‘lon qilin-ganidan hozirgacha bo‘lgan oraliqda ko‘plab maqola va tadqiqotlar obyektini bo‘lib kelmoqda. Q. Yo‘ldoshev bu asarda “qadimgi asl milliy qadriyatlar, qachonlardir yuz bergan tarixiy ho-disalar yigirma birinchi asrning sog‘lomlash-gan tafakkuri asosida qaytadan taroziga solinib, boshqadan o‘lchab ko‘rilganligi”ni qayd etadi<sup>244</sup>. Olimning “Agar akademik Izzat Sulton bir vaqtlar Navoiyning o‘zi va uning zamondoshlari bitgan asarlarga tayanib, buyuk adibning ilmiy qiyofasini yaratishga erishgan bo‘lsa, O.Muxtor Alisher

<sup>243</sup> Muxtor Omon. Navoiy va rassom AbuLхайr. Романлар. – Тошкент: Шарк, 2006. – Б. 7-8.

<sup>244</sup> Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 109-110.

Navoiyning o‘z asarlariga tayanib, ulardan kelib chiqib, shoir ruhiyatini ilg‘almoqchi, uning insoniy qiyofasini chizmoqchi bo‘ladi. Ta’kidlash kerakki, adib ulug‘ shoir hayoti va ijodini tadqiqotchilarga xos sinchkovlik hamda izchillik bilan o‘rgangan. Mutafakkir siymosiga doir jihatlarni nozik ilg‘ab, mahorat bilan aks ettirgan”<sup>245</sup> singari e’tiroflari asarga berilgan haqqoniy baholardan biri sifatida qabul qilinishi mumkin. Sanjar Sodiq Omon Muxtorning o‘zidan oldin o‘tgan adiblar ijodidagi sujet va motivlarni “takrorlamaslikka intilganini alohida qayd etgani holda, asarning umumiy badiiy kashfiyot sifatida baholanishiga e’tirozlari ham aks etgan”<sup>246</sup>.

Muallifning “...bu mulohazalarning aksariyati romandek epik janr tabiatiga mos ravishda emas, balki obrazli tafakkurdan ko‘ra ko‘proq boshqa sohalarni, xususan, ilm-fanga xos fikrlashni eslatuvchi ohangda” singari qaydlariga qo‘shilish mumkin. Shunga qaramay, “ohangiga, jumlar tuzilishiga ko‘ra romanga qaraganda ko‘proq Bo‘riboy Ahmedov yoki Turg‘un Fayziyev kabi olimlarning tarix faniga oid monografiyalarini, maqolalarini eslatadi. Xuddi muarrixlardek yozishga o‘tgach, muallif tarixiy manbalar asosida Navoiyning bolaligiga oid dalillarni ketma-ket

---

<sup>245</sup> Ўша ерда.

<sup>246</sup> Содиқ Санжар. Романми ё рисола? // ЎзАС газетаси, 2004, 30 январь сони. – Б. 3.

qalashtirib tashlaydi” singari mulohazalarda haqiqat unsurlari yo‘q emas, biroq biznincha, ularda hodisaning mohiyati ko‘proq bo‘rttirib yuborilgandek tasavvur uyg‘otadi.

Y.Solijonov ham romanga “Oybekdan keyin ulug‘ Alisher Navoiyning monumental qiyofasini yaratish yo‘lidagi buyuk jasoratdir”<sup>247</sup> degan yuksak bahoni beradi. Ushbu roman haqida G.Muhammadjonova, A.Ahmadjonovalarning ham jo‘yali mulohazalari bor<sup>248</sup>.

Omon Muxtor esa o‘z qahramoni (musavvir) tilidan Navoiy obrazining tasviriga o‘zigacha bo‘lgan munosabatni shunday baholaydi: “O‘z davrida emas, keyin ham rassomlar Alisherni negadir o‘ta muloyim, shikasta-miskin qiyofada tasvirlashgan... Bu tasvirlarda ichki g‘urur, shiddat yo‘q... to‘rt ilmiy mizojga Alisher “sig‘maydi”<sup>249</sup>. Aytish mumkinki, ushbu baho asar muallifining Navoiy obrazining adabiy tasviriga munosabatini ham aks ettiradi. Muallif romanida Navoiy obrazi shu munosabatga hamohang badiiy gavdalanadi.

Yozuvchi ayni jumboqlarni tahlil qilishga kirishib Navoiy nima uchun o‘zini “gado” deb hisoblagani mohiyatini anglashga kirishadi. Ni-

<sup>247</sup>Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. – Тошкент: Адиб, 2013. – Б. 54.

<sup>248</sup>Муҳаммаджонова Г., Аҳмаджонова А. Ўзбек ва жаҳон адабиётида мусаввир образи // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari. – Toshkent: “Mashhurpress”, 2020. – Б. 47.

<sup>249</sup>Мухтор Омон. URL: [https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2007-5/\(12.10.2019\)](https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2007-5/(12.10.2019))

ma uchun o‘zi “chin” deb o‘ylagan so‘zlari “yolg‘on” ekanini ta’kidlaydi? O‘z umrini “g‘aflat birla nodonlikda kechdi” deya anduh chekadi? Bularning bari so‘fiylik yo darveshlik tariqatimi?! Yo dunyoning azaldan sarob ekanligiga ishorami? Muallif o‘y-mushohadalari musavvir Abulxayr o‘ylari, his-tuyg‘ulari orqali talqin etilgani roman uslubiga xos jihatlarning eng muhimi. Rassom Navoiy portretini chizishdan oldin uni butun vujudi, qalbi, ong-u tafakkuri, sezimlari orqali anglab, insoniy dunyosiga kirishga harakat qiladi. Navoiy qalbini, shuuri, kechinmalari tagzaminidagi yashirin ma’nolarni uqishga, “kashf etishga” intiladi. Shundagina Navoiy siymosini “devordagi surat” emas, jonli inson sifatida gavdalantirish mumkin, deb hisoblaydi. Adib ham Navoiy obrazining badiiy talqini tarixiy davr mojarolari-yu ziddiyatlari mohiyatini ochish vositasi emas, tarixiy voqelikni jonlantirish quroli emas, balki insoniy qismatlar zanjirining asosiy halqasi sifatida, tirik inson sifatida talqin etilishi kerak, degan nuqtayi nazarga tayanib qalam tebratgan. Zotan, “bir zamonlar tarixiy mavzudagi asarlar uchun o‘tmishda nima bo‘lganini tasvirlash muhim hisoblangan bo‘lsa, endilikda o‘tmishdagi bo‘lmishlar inson sezimlarida qanday iz qoldirganligini ko‘rsatish zarurroq sanaladi”<sup>250</sup>.

---

<sup>250</sup>Йўлдош Қозокбой. Моҳият реаллиги ифодаси. Навоий ва рессом Абулхайр. (Романга сўнги сўз). Романлар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 417-431.



Islom Yoqubov tarixiy shaxslarning badiiy adbiyotdagi talqinlariga oid bir qator maqola va kitoblar muallifidir. Uning badiiy adabiyotda Feruz timsoli, Pahlavon Muhammad bilan bog‘liq kuzatishlari olimning bu borada ancha jiddiy va muntazam tadqiqotlar olib borayotganini ko‘rsatib turibdi<sup>251</sup>. Islom Yoqubov Oybekning “Navoiy” romani bilan birgalikda Omon Muxtorning ushbu romanini jiddiy o‘rgangan, tahlil qilgan<sup>252</sup>. Muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, “holatlarni optimistik tragizm asosida jonlantirish, obrazlarning intilish va kechinmalar olamini ishonarli tahlil qilish, qahramonlar xarakterining shakllanish sabablarini ochish, sujet qurishning retrospektiv usullaridan imkon qadar foydalanishga urinish, hodisalarni zamonda sababiy ketma-ketlikda joylashtirish, personajlar obyektiv faoliyatiga ko‘proq e’tibor qaratish oqibatida inson ruhiyatidagi jarayonlar, lirik harorat taqchilligi, makoniy o‘zgarishlardagi harakat birligi va dramatik sujet rivojida bir qadar sustlashishning kuzatilishi, qahramonlar qalbining ijtimoiy jarayonlar kuchli ta’siri ostida tebranishiga ahamiyat qaratish”<sup>253</sup> – kabi masala va muammolarga alohida e’tibor qaratil-

---

<sup>251</sup> Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сехри. – Тошкент, 2011. – Б. 155-164; 193-202.

<sup>252</sup> Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2006. – Б. 57-71; 164. Яна қаранг: шу муаллиф. Бадий-эстетик сўз сехри. – Тошкент, 2011. – Б. 84-87.

<sup>253</sup> Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2006. – Б. 80.

gan. Olimning “Badiiy-estetik so‘z sehri” kitobida o‘zbek navoiynomachiligi, ayniqsa, uning epik yo‘nalishidagi asosiy adabiy hodisalar (xususan, Omon Muxtor asarlari) jiddiy tahlilga tortilgan<sup>254</sup>. Ta’kidlash kerakki, mazkur tadqiqotlarga qaramay hali roman to‘kis bahosini olgan deyish qiyin, qolaversa, uni mustaqillik davri adabiyotida Navoiy obrazini yaratish kontekstida o‘rganishga ehtiyoj mavjud.

“Omon Muxtor “Ishq ahli” romanida badiiy zamindan hayotiy mantiq izlaydi. Navoiy yaratgan rubobiy she’riyat bag‘ridan ko‘ngil timsolini topadi. Shoir yaratgan lirik obrazlar sharhi orqali Navoiyning mushohada olamiga kirib boradi, bu shaxs haqidagi tasavvurlar tugalligini ta’minlaydi. Natijada, xayoliy muhabbat falsafasi, lirik-dramatik lavhalar bag‘ridagi jozibali ruhiy holatlar – ko‘ngil kayfiyati-yu fuzun dardlarini mutasavvuf-valiylar e’tiqodi bilan chambarchas bog‘lab idrok etadi. Navoiy suvratini tahayyulda yaratishdek mushkul vazifani ishtiboh-u hayronlik, umid-u ishonch hislari qorishiqligida uddalaydi. Misralar talqinidan komil va solim ma’nolar topadi. Romanni o‘qir ekanmiz, Navoiy ko‘z o‘ngimizda go‘zal xayoloti-yu istak-mayllari, shirin xotiroti va mujrimona tazarrulari bilan namoyon bo‘ladi”<sup>255</sup>.

<sup>254</sup> Ёкубов И. Бадийий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент, 2011. – Б. 181-191.

<sup>255</sup> Ёкубов И. Бадийий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент, 2011. – Б. 42.

Roman uslubiga xos yana bir jihat yozuvchi Navoiy va u yashagan tarixiy davr chigalliklarini Navoiy tegrasida uyg'unlashtirib, bu ziddiyatlar mohiyati oxir-oqibat inson muammosidan iborat ekanligiga diqqatimizni qaratishidir. Bugungi kundagi inson jumbog'i bilan Navoiy va unga zamondosh tarixiy shaxslar hayoti, qismatidagi o'xshash nuqtalarga e'tiborimizni jalb etadi. Yaratuvchi, iste'dodli insonlar hayotiga xos kundalik turmush tashvishlari ularning ijodiy erkinligini, ruhiy kengliklar, osudalik, ijod qilish maylini cheklab-chegaralab turishi; iste'dod egalarining nodir ijodiy kashfiyotlari o'z davri uchungina emas, balki kelajak uchun ham buyuk ma'naviy xazina vazifasini ado eta oladi.

Ayni paytda, iste'dod egalari hayotidagi chigalliklar, ziddiyatlar atrofdagi yovuz kuchlar: xoinlar, hasadchilar, fisq-u fasod, yaramaslar tufayli sodir bo'lishi, ularning ayanchli fojialarni keltirib chiqargani, iste'dod egalariga xos imon-e'tiqod mohiyatiga zid a'mol bilan yashagan xudbin kimsalar kirdikorlari tufayli buyuk shaxslar hayotida katta-kichik ma'naviy talofotlar yuz berishi mumkinligi ham haqiqat. Omon Muxtor shu haqiqatning "kecha" va "bugun"gi kun kishilari: tarixiy shaxslar bilan zamondoshlarimizga xos o'y-kechinmalarga bog'lab talqin qilishga harakat qiladi. Zero, rassom Abulxayr, uning rafiqasi,

do'stlari, dushmanlari – zamondoshlarimiz, Navoiy va uni qurshab turgan kishilar esa buyuk ajdodlar, tarixiy o'tmishdir.

Musavvir Abulxayrni o'ylatgan jumboqlardan yana biri Navoiy sevgisi bilan bog'liq. Navoiyga xos buyuk qalbni kim ishg'ol etgan? Navoiy necha yoshida ilk muhabbat tuyg'usini his etgan? Rivoyatlardagi mahbubaning real asosi bormi? Navoiy g'azallaridagi go'zal yor kim bo'lgan? “Lekin Navoiy uchun ishqning egasi emas, Ishqning o'zi muhim! Yurgan yo'lida uchragan kishiga yaxshilik, ezgulik ulashgan Alisher hech qachon alohida bir kishiga o'zini bag'ishlamagan, bag'ishlayolmagan”, – deb hisoblaydi musavvir. Aslida buyuk insonlar o'zligini, o'z baxtini insoniyat baxtida his etganlar, umuminsoniyat baxti, tinchligi, ravnaqi, baxt-u iqboli yo'lida nainki sevgisi, balki huzur-xalovati-yu o'zligidan voz kechganlar!

Xo'sh, Alisher va Guli voqeasi chindan ro'y berganmi? “Zanjirband sher” tasviri ortida qanday ma'nolar yashirin? Bu sher Alisherning o'zimi yoki Ali shermi? Uni kim zanjirband etgan?

Musavvir shu jumboqlarni yechish uchun uzoq tarixiy davrga xayolan safarga otlanadi. Safar boshidan oxirigacha u Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarning musbat hamda manfiy qirralari mohiyatini uqib olishga intiladi. “Alisherning

Husayn bilan avvaldan “kindigi bog‘langan”. Alisher hayotining har bir damida Husayn “ro‘parada” turadi. Va aksincha, Husayn hayotining ostonasi ham, mehrobi ham – Alisher!.. Bu ikki insonni kichik maslaklardan tashqari yagona, katta maslak birlashtirgan: mamlakatni qo‘lga kiritish va saqlab turish dardi!..

Xuroson taxtini ikki kishi yoshlikdan qo‘lga kiritishni orzu qilgan va taxtni egallagach, ikkov birga Saltanatni boshqargan edi: kuchi, jasorati bilan – Husayn!

Aqli zakovati bilan – Alisher!..

Ular–San’atkor va Sulton, odatdagi muxolifatga zid, aravani bir tomonga tortadi. Bir yoqadan bosh chiqaradi.

Alisher vafot etgan kuni Husaynning ham asosan hukmi tugaydi”<sup>256</sup> singari xulosalarini yon daftarga yozib boradi. Navoiyni anglash uchun Husayn Boyqaro shaxsini, ruhiyatini, sezimlariyu hissiyotlari mohiyatini anglash zarurligini aniq idrok etadi.

Samarqandga kelganda Alisher allaqachon Xuroson va Movaunnahrda tanilgan, butun Arab, Ajamda e’tibor qozongan shaxs edi.

Xo‘sh, Sulton Husayn-chi? U qanday shaxs edi? Uning maqsadi nima edi? Navoiy Husaynning orzudagi shoh bo‘lishini istadi. Uning o‘zi-chi?

---

<sup>256</sup>Мухтор Омон. Навоий ва рассом Абулхайр. Романлар. – Тошкент: Шарк, 2006. – Б. 26.

Shaxs – katta bo‘lgan sayin, bir xil holatdan ko‘p holatlarga qarab boraveradi. Goh tashqi, goh ichki, goh ichki va tashqi holat qarama-qarshiligi (ziddiyat) insonning buyukligini belgilaydi. Alisherning “muloyim”ligi (“xafaqon”ligi) yashirin tug‘yonlar (boy, rangin holat) oldida tortilib turgan pardadir. Menga rassomlar hali “parda orqasiga” o‘tmagandek tuyuladi...

Musavvir navbatdagi jumboqlarni yechish uchun yana xayolot olamida, uzoq tarix silsilasida kezadi: “Albatta, Husayn – shoh!

U mamlakatni boshqaradi.

Hamma qatori Alisher ham uning oldida qo‘l qovushtirib turadi.

Ammo osoyishtalik – Alisherning vazifasi. Umuman, saltanatni qo‘lga kiritgan – Husayn!

Saqlab turgan – Alisher!

Saltanat oldida Husayn qanchalik mas‘ul bo‘lsa, Alisher shunchalik javobgar!..

Saltanat Alishersiz “nafas ololmaydi” kabi mulohazalarga keladi.

Qisqasi: Husayn – o‘z unvon-darajasi, soxt-sumbati, yurish-turishi bilan haybatli. Vajohatli.

Biroq Alisher – undan kuchli.

Husayn buyurgan xizmatni bajaradi Amir. Uning xizmatini joyiga qo‘yadi. Unga mehr-sadoqat ko‘rsatadi...

Yozuvchi Navoiy shaxsini rassom Abulxayr o‘y-fikrlari tarzida yoritarkan, “kundalik daftar”

uslubini qo‘llab, uchinchi shaxslar – Odil va Barno obrazlari vositasida talqin qiladi. Go‘yo musavvir o‘z daftarlarini Odilga “omonat topshirgan”, u esa daftarlarni rassomning muxlisi Barnoga o‘qib, tanishish uchun yuboradi. Besh jilddan tarkib topgan daftarlar Abulxayrning ijodkor sifatida Navoiy shaxsini, Navoiy dahosini anglash yo‘lidagi izlanishlari, mulohaza, muhokamalari “topilmalari” edi. Ayni damda, ko‘z o‘ngimizda Navoiy dunyosini Abulxayr obrazi vositasida kashf etayotgan yozuvchi Omon Muxtor qarashlari – muallif timsoli ham namoyon bo‘ladi.

“Ijodkor – his etganingni tasvirlaysan”. Dunyoda yashab, butun his etganingni emas. Banda butun his etganini tasvirlayolmaydi. Baribir, yarim ashula. Kentik joyi qoladi! Mukammallik Ollohga xos! Dunyoda mukammal tasvir bo‘lishi qiyin. Ijodkor turli sabablarga ko‘ra “tugatmagan” manzarani ko‘rish, hisning “rasmini topish”ga urinish – keyingi avlodlarning ishi!”<sup>257</sup> kabi hukm-xulosa yozuvchiga tegishliday tasavvur uyg‘otadi.

Romanda Navoiy hayotida sodir bo‘lgan g‘ayri ilohiy hodisalar uning ilohiy irfoniy sifatlar egasi sifatida yaratilganiga urg‘u berish maqsadida talqin qilingan: Yazd cho‘lida ot ustida mizg‘ib, karvondan ortda qolib ketgan 8-9 yoshli Alisher uyqu zo‘ridan egardan yerga sirg‘alib tushadi,

---

<sup>257</sup> Ўша нашр. – Б. 68.

yalang yerda tosh qotib uxlab qoladi. Oftob yoyilganda o‘zini yerga cho‘zilib yotgan holda ko‘rib, nima bo‘lganini tushunadi. Yo‘l izlab, har yonga ot suradi. Qorni och. Oftob dasht-biyobonni gurillab yondiradi. Tashnalik azobi kutilmaganda olis nuqtada nimadir qora ko‘rinadi. Alisher shu tomon ot soladi. Yaqinlashganda, dong qotadi. Kattakon yog‘och idishda suv! Qiziq joyi, idishni hozirgina kimdir bu yerga keltirib qo‘yganga o‘xshardi! Suv muzdek, tiniq, toza, totli edi. Ro‘y bergan holat unga buyuk bir mujda bo‘lib tuyuladi. Karvon qo‘ngan tomon to‘g‘ri yo‘lni topib berishi ham bir mo‘jiza edi. Xo‘sh, bu voqealar zamirida qanday ma’no mujassam? Navoiy hayotida sodir bo‘lgan eng muhim, g‘ayrioddiy hodisalar uning shaxsini anglash, daholik, so‘fiylikka, valiylikka xos xislat, imon-e‘tiqod egasini tanish imkonini beradimi? Ha, albatta.

Shayx Yazdiy “eng fazilatli kishi”, “qalami husnixat bituvchi jahon xushta’blarining nozik so‘zlisi”, “Oqillik burjining porloq yulduzi” kabi ta’riflar egasi bilan yosh Alisher uchrashuvi tasodifmi? Mavlono Jomiy va Lutfiyning muborak nazarlari tushgani Alisher Navoiyning kelajagidan bashorat emasmi?

Cho‘lda yolg‘iz qolib ketgan Alisher qo‘rquvni, yolg‘izlikni, tashnalikni chuqur his etganmi? Avval dahshatni, so‘ng yog‘och idishdagi suvni



topgach, hayratni his etgan; har ikkisi vujudiga singishgan; dahshat vujudini qamragan kezlari hayrat bosh ko‘tarib, uni siqib chiqargan. Bunday ruhiy po‘rtanalarni rassom Abulxayr quyidagicha tasavvur qiladi. “Dahshat va Hayrat uning vujudida doimo bir-biri bilan kurashib yashagan... u tushkunlikka tushib... umuman hayotdan qayoqlargadir bosh olib ketgisi, qochgisi keladi”. Lekin Dahshat quturib, u taslim bo‘la boshlaganida bexosdan Hayrat tug‘iladi. Yangi to‘lqindek ko‘tarilib, Dahshatni surib tashlaydi. Yengadi. Ezilgan, tolgan vujudini G‘olib Hayrat egallaydi! U ehtiros kuchidan endi o‘z-o‘ziga sig‘maydi. Shermi, Qaqnusmi bo‘lib, xalqqa va har bir insonga o‘zini fido qilgisi keladi...”<sup>258</sup>.

Yozuvchi musavvir orqali Navoiy hayotida sodir bo‘lgan jiddiy voqealar uning ko‘ngil olamiga, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib, sezilarli iz qoldirganiga diqqatni qaratadi. Navoiyga xos valiylik uning “ishq ahli”dan ekanligini bildiradi. U jaholatni jinoyat deb biladi. “Ishq ahli” – oshiqlar uchun e’tiqod – Ishq. Ular Shaxs erkinligi, hayotsevarlik tarafdori; Ollohga ruhan yaqinlashuvni Ruhning kamolotga yetishi deya talqin etadilar. Qadah, may – ishq ramzi. Zuhd olami – zuhd ahli (zohidlar) falsafasiga asoslanadi. Ishq Ahli falsafasi ular bilan bahslarda yorqin aks etadi. Shu bois, Navoiy

---

<sup>258</sup> Ўша нашр. – Б. 70.

ijodida bunday bahslar yorqin ma'nolarga ega. Rassom Abulxayr bu ma'nolarni o'z tafakkuri orqali topganga o'xshaydi: "...Zuhd olamiga o'nlab, balki yuzlab marta qarshi chiqqan, isyon ko'targan Alisher Oshiqlik (rindlik) bilan Zohidlik (mutaassiblik)ning chegarasini ajratib, negadir azoblana boshlaydi, ikkilanayotgandek bo'ladi:

*Masjidqa necha-ahli riyodek yetayin,*

*Yo rind kabi – azimati dayr etayin.*

*Maqsud topilsa, yaxshi yo'qsa, netayin,*

*Boshimni olib qay sori emdi ketayin?!"*

Bu nima, u Zuhd ahli bilan Ishq Ahli orasida parishonlanib turgan paytlar ham bormi? "Qay sori ketishni bilmay? U avvaliga Oshiqlikning o'zi maqsad, deb o'ylaydi. Oshiqning Zohidlardan eng katta farqi hayotni Aql bilan birga, asosan, Ko'ngul bilan qabul qilishadi! Keyin qarasa. Buning (Ishqning) o'zi maqsad (maqsud) bo'lolmaydi..." Go'zal bir namoyishda yaratilgan Inson" (oyat) butun kuch-qudrat, aql-zakovati bilan qayoqqa shoshib-telbalanib borayotir?! Uning nomukammalligi, be'mani turish-turmushi, kibr-havosi, ochko'zligi, xudbinligi, bir-biriga xiyonati, qabihliklaridan maqsud qani?! Yovuzlik – osiyligi ayon holatda badbaxtligi-yu, hech bir gunohsiz holda, yorqin bir lahzalardan tashqari, muttasil himoyasizligi, baxtsizligi – bulardan maqsud qani?!"<sup>259</sup>.

---

<sup>259</sup> Ўша нашр. – Б. 75.

*“Ishq Ahlig‘a harom – uyqu...”*

Navoiy bir umr ilm o‘rgandi, ilmi orqali dunyoga hayrat ko‘zi bilan boqdi, dunyo sir-sinoatlari tubidagi haqiqatlarni anglashga, yashirin ma‘nolarga o‘ralgan pardalarni ko‘tarishga urinadi. “Alisher baxtli bo‘lishi mumkin edi, biroq uning Alisher bo‘lishi uchun yolg‘izlik va hijron kerak!” – deb hisoblaydi Abulxayr. “Dunyoning telbaligi: Shular borki, u Buyuk Ishlar qila olgan! Alisher o‘rtanib, azoblanib, go‘yoki atay Yolg‘izlik va Hijron tomon yuradi. Alisherdan hech kim xalq bilan birga, dunyodan iztirob chekib o‘tishni talab qilgani yo‘q! Uning o‘zi shu “qattig‘” yo‘lni tanlagan. U o‘zini “jilovlagan”, xolos!

Darvoqe, “Zanjiband sher”. Mana, endi men bu rasmning ma‘nosini angladim.

Uning ruhi – Qaqnus

Jismi – Zanjirband sher.

Men uni shunday tasvirlayman:

Tashqi – horg‘inlik:

Ichki – toqatsizlik”<sup>260</sup>.

Romanda qahramonlarning ko‘plab jihatlari qiyoslab boriladi. Bunda muallifning Alisher Navoiyga bo‘lgan muhabbati ham ochiq ko‘rinib turadi. Rassom Abulxayr oxir-oqibat Navoiy qalbi va Shaxsini uyg‘unlikda anglaydi, his qiladi va o‘z tasavvurlariga tayanib, uning timsolini

---

<sup>260</sup> Ўша нашр. – Б. 105.

suratlantirishga erishadi. Ammo, Odil o‘z xatida ma‘lumot berishicha, rassom Navoiy tasviridan ko‘ngli to‘lmaydi, bu suratni hech qaysi ko‘rgazmalarga qo‘ymagan.

Yana bir jumboq. Nima sababdan bugungi avlod olimlar-u san‘atkorlar hanuz Navoiy siymosini to‘la anglashga, tanishga, his qilishga erisholmayaptilar? Bu savollarga muallif “Buyuk farrosh” orqali, aniqrog‘i, rassom Abulxayrning esdaliklari orqali javob beradi. Shu tariqa, rassom Abulxayr Navoiy siymosini mukammalroq yaratish istagida hazrat umrining oxirgi davriga xayolan yetib boradi, tasavvurlariga erk beradi: “Yosh ulg‘aygan choqda (yoshi 60 ga yaqinlashganda) za‘f yuzlanib (kasallanib) Alisher “qattig‘ holatda” bo‘lganligi rost. Lekin o‘shanda, sal mug‘ambirlik qilib, xastaligini “bo‘rttiribroq” ko‘rsatgan edi. Nega? Alisher saltanatdan, dunyo tashvishlaridan butkul yuz burib, qolgan umrini rahmli va Mehribon Ollohga toat, ibodat bilan o‘tkazmoqchi. Bunga hech imkon topilmayapti. Husayn unga “yopishib” olgan. Ortiqcha “qimir” etgani qo‘ymaydi. Alisherning haj safariga urinishlari ham zoe ketadi. Boyqaroning xohishiga qarab ish tutish, sharoit bilan hisoblashishga majbur edi.

Rassom Abulxayr Navoiy hayotining oxirgi yillari kechirgan ruhiy iztiroblarni taxminan quyidagicha tasavvur etadi: Navoiy o‘z hayotining

o‘lchov vaqtini “oltmish yaqinig‘acha” deb belgilagan. Shu bois, “xayrbod qilish” vaqti yaqinligini his etgan. Mamlakatda ahvol og‘ir. Notinchlik, o‘lponlar, xalqning qashshoqlashuvi, umidsizlik, zulm, fitna... G‘animat umrini shu ziddiyatlarni bartaraf etishga sarflagan. Alisher o‘z erksizligidan ozor chekadi. Boyqaroning birovlar gapiga kirib, o‘z so‘zidan qaytish odati bor edi... Eng yaqin kishisini ham nohaq kamsitib, ozor yetkazishi mumkin... Badiuzzamon sulh tuzishga rozi bo‘lib turganda Husayn yo‘llagan xufyona xatni o‘qib, Alisherga istehzo bilan farmonni o‘qib berganda u yuz xijolat chekib Balxdan uyatli holda chiqib ketgani... Alisher umr bo‘yi odamlarni g‘arib (g‘aroyib, ezgu) ishlarga da‘vat etdi. To‘g‘rilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, xalqparvarlik biron payt uni tark etgani yo‘q. Bu haqda rassom Abulxayr yozadi: “Foniy dunyoda boqiy bo‘lishning iloji yo‘q. “Baqo guliga sabot” yo‘q, faqat “yaxshilik” bila ot (nom) qolishi” saodatdir.

Shu o‘rinda roman sarlavhasi mag‘zidagi ma‘no anglashiladi: “Buyuk farrosh”. Navoiy o‘z davri uchun “Buyuk farrosh” edi. Rassom Abulxayrga zamondosh bo‘lgan Barno, Odil, Xolid – o‘z davri farroshlari. Ular Buyuk Insonlar darajasini zabt etmagan bo‘lsalar-da, odamlarga ezgulik ulashuvchi, ezgulik yaratuvchi insonlar sifatida o‘z yaratilari bilan, o‘z nafasleri bilan havoni pokiza tutgan insonlardir.

Yozuvchi Omon Muxtor har ikkala romanni rassom Abulxayr esdaliklari orqali mantiqan bir-lashtirib, hazrat Navoiy siymosini uning ruhi-yati, tarixiy hodisalar silsilasidagi kurash va in-tilishlari, insonlararo munosabatlar o‘ramida suratlantirishga intilgan. Bu intilishlari o‘ziga xos sujet va kompozitsiya, bayon tarzi, voqealar tizimi va yetakchi Shaxs – Navoiy obrazini “ichdan” yoritish, ruhiyati tasvirini talqin qilishda qo‘shimcha vositalar: badiiy detal, tush va xayolot olami tasviri, esdaliklarga tushirilgan mulohazalar “ong osti” va “ong usti” qatlamlarini bog‘lovchi tasavvurlar manzarasiga uyg‘un qo‘llangan. Bu jihatlar romanlar uslubining o‘ziga xosliklari, albatta. Ammo tafsilotlar, tasavvurlar, xayolot olami ichra Navoiy siymosini “kashf etish” uchun unga yaqinlashishi, Navoiy hissiyotlarini kechirish, Navoiy iztiroblarini his qilish zarurligini bot-bot ta’kidlab borgan yozuvchi oxir-oqibat Navoiyni anglash uchun uning darajasini zabt etish darkor, degan xulosaga keladi.

Navoiy e’tiqod qo‘ygan haqiqat (adolat yo‘li) zulm va zo‘ravonlikka, jaholat, yovuzlik va yol-g‘onga qarshi kurash yo‘li edi. Yolg‘onning dunyoda yengilmas kuchga aylanmasligi uchun Navoiy haqiqat bilan adolatni himoya qildi. Eng og‘ir gunoh – yolg‘onga, yolg‘ondan tug‘ilajak xiyonatga, munofiqlikka, qabihlikka qarshi dadil

kurashdi, shu taxlit dunyoni razolatdan asrashga buyuk hissa qo'shdi. Navoiy obrazi ana shu mazmunni ifoda etadi, ayni ma'nolarni o'zida harakatlantirib turadi. Alisher Navoiy ko'tarilgan yuksak daraja maqomi xalqqa, el-yurtga hizmat, himmat, ofiyat – hayot mazmuni!

*“Naf’ing agar xalqqa beshak durur,  
Bilki, bu naf’ o’zinga ko’prak durur”<sup>261</sup>.*

Rassom Abulxayr tasavvurlarida jonlangan ulug' siymo tasviri ana shunday ma'nolarni ifoda etadi. Asarda rassom kundaligi tarzida bayon etilgan ayrim fikrlar takror qo'llangan, mantiqan bog'lanmagan, ifodaviy yolg'iz, tugallanmagan mulohazalar uchrasa-da, ular “lop etib” xayolga kelgan oniy kechinma, fikr tarzida qabul qilinishi lozim. Ijodkorda ko'chadagi transportda, hatto uyqusida, tushlarida kutilmagan, favqulodda holat tuyish “yarq” etgan fikr, tuyg'u uyg'onishi mumkinki, bunday holatda tugallik, mantiqiylikka zid ruhiy sarosima kechiriladi; oylab tagiga yetolmagan, “mag'zini” chaqolmagan jumboq favqulodda yechiladi. Yozuvchi o'zi boshidan kechirgan ijodiy po'rtanani, oniy ehtirolarni rassom Abulxayr dunyosi, ruhiyati, tasvirlar olami orqali yorqin ifodalay olgan.

Nazarimizda, Alisher Navoiy siymosini badiiy jihatdan yaratishga urinish ham mana shunday

---

<sup>261</sup> Navoiy Alisher. *Ҳикматлар*. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 94.

muhabbat, sadoqat va e'tiqodning ochiq namoyon bo'ladigan shakllaridan biridir. Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" asari inson umrining mazmuni, insonning, insoniylikning mohiyati haqida bahs yuritadi. Zero, aslida, badiiy adabiyotning bosh maqsadi ham mana shudir.

Omon Muxtorning "Ishq ahli" romani ham inson umrining mohiyati haqida bahs yuritadi. Kitob mustaqilligimizning ilk yillarida yuzaga kelgan. Q.Yo'ldoshevning bu haqdagi bir mulohazasi e'tiborli: "Bizningcha, o'tgan yili (2001 yil – G.A.) yaratilgan ko'pchilik romanlarga xos birinchi jihat – tarixni, tarixiy shaxslarni bugungi estetik, falsafiy, ijtimoiy va siyosiy tafakkur asosida qayta idrok va badiiy tadqiq etish zarurligining anglanishidir. Ayni shu zarurat natijasi o'laroq taniqli yozuvchi Omon Muxtorning Navoiy haqida "Ishq ahli" romani yuzaga keldi. Badiiy asar saviyasini yuksaltiradigan omil uning kim yoki nimaga bag'ishlanganligi emas, balki qanday yozilganligidir. Tarix va undagi ulkan ijtimoiy evrilishlar odamlar tomonidan amalga oshirilishi, tarixiy shaxslar ma'naviy qiyofasining tarixiy hodisalar ijtimoiy salmog'ini tayin etishi ijodkorlarimiz tomonidan anglab yetilmoqda"<sup>262</sup>.

Darhaqiqat, asar bilan tanishish Omon Muxtorning ushbu muammolarni Alisher Navoiyning

---

<sup>262</sup> Йўлдош Қ. Моҳият реаллиги ифодаси. Навоий ва рассом Абулхайр. (Романга сўнги сўз). Романлар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 417-432.



hayoti va ijodi misolida yoritishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yganini ko‘rsatadi. Navoiy bahona tarix va zamon, kecha va bugun, odam va olam, otalar va bolalar, shaxs, jamiyat va oila, vijdon, or va nomus, do‘stlik va ahillik, hushyorlik va loqaydlik haqidagi tushuncha va tuyg‘ular ifodasi asosiy urg‘uni olgan.

Muallif yangicha ifoda yo‘sinini izlagan, nazarimizda, uni topgan ham. Roman haqida mulohaza yuritgan adabiyotshunos mutaxassislarning ko‘plari bu borada hamfikir. Jumladan, I. Yoqubov: “Ishq ahli” romani Omon Muxtorning Alisher Navoiyni qanday tushunish, tasavvur etish va anglash haqidagi yangicha izlanish va kuzatishlari asosiga qurilgan. Bosh obrazni shoirning ijodi orqali yaratishni ko‘zlagan muxtasar roman romantik va realistik motivlar bag‘ridan shaxsiy individual va ijtimoiy muammolarga javob izlaydi. Ijod psixologoyasiga ahamiyat qaratib tarixiylik va badiiyatni uzviy tutashtira oladi”<sup>263</sup>, – deb yozadi.

B. To‘xliyev esa adib qo‘llagan usullardan biri haqida shunday yozadi: “Navoiy dahosi osmoniy o‘lchovlar bilan baholanishi kerak. Unga zaminij andozalar kamlik qiladi. Adibning bizga berayotgan birinchi xulosasi shu. Ammo bu xulosa shunchalik chiqarib qo‘ya qolinmaydi. Bu xulosaga

---

<sup>263</sup> Ёкубов И. Ўзбек романларида Жомий образи // Жомий ва ўзбек адабиёти. Халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент: Маворауннахр, 2005. – Б. 4.

o‘quvchining o‘zi ham mustaqil holda yetib kelishi uchun sharoit va imkoniyat yaratiladi”<sup>264</sup>.

Romanda Navoiy – Husayn Boyqaro ikkiligi yangicha talqin etilgan. Omon Muxtorning bu ikkiligi hamkor va hamjihatligi bilan ajralib turadi. Ulardagi hamfikrlilik yanada bo‘rtgan holda nazarga tushadi. Ammo endi muammoga ancha yangicha nuqtayi nazar bilan qaralgani ochiq sezilib turadi. Q.Yo‘ldoshev Omon Muxtorning “Ishq ahli” romanidagi asosiy yutuqlarni quyidagilarda ko‘radi: Omon Muxtor “Uning manglayiga DAHO bo‘lish uchun avvaldan fojia muhri bosilganini” topdi, kashf etdi. Alisher Navoiyning daholigi uning shaxsiy hayotdan voz kecha olganida, uning o‘ziga emas, balki jamoaga, millatga yoki undanda katta bir auraga tegishli ekanligidadir. Navoiyning darveshlikka intilgani, biroq darvesh bo‘lmaganligi, har doim “siyosiy hayot markazida turishga mahkumliligi ishonarli tasvirlangan”. “Ishq ahli”ni o‘qish uchun ruhiy muvozanatdan chiqish, befarq kuzatuvchilikdan asar qahramonlari hissiyoti olamiga ko‘chish lozim bo‘ladi”<sup>265</sup>. Bular qatorida muallif Omon Muxtor tasvirlaridagi ayrim notugalliklarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, “Agar romandagi

---

<sup>264</sup> Тўхлиев Б. Таҳлил ва талқин уйғунлиги. URL: <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2009-sp-1644464618/> (12.03.2020)

<sup>265</sup> Йўлдош Қ. Моҳият реаллиги ифодаси. Навоий ва расом Абулхайр. (Романга сўнгги сўз). Романлар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 417-432.

o‘ziga xos ohang Navoiy shaxsiyati, uning tirik odam sifatidagi qirralari tasviri bilan uyg‘unlashib ketganda katta badiiy yutuq qo‘lga kiritilgan bo‘lardi. Afsuski, muallif shunga erisholmagan”<sup>266</sup>.

1. Yozuvchi hodisaning asl mohiyatini obyektiv ko‘rsatishga, “tashqaridan aralashuvlar”ni chetlab o‘tishga harakat qiladi.

2. Tasvirlarda rassom va yozuvchi nuqtayi nazari birlashgan holda namoyon bo‘ladi.

3. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabati adib talqinida chuqur ildizga ega. Bu ildizlar katta ajdodlar tomiriga borib tutashadi.

Umuman olganda, asarda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning bolaligidan boshlab umrining oxirigacha bo‘lgan hayot yo‘li yangicha talqin va uslub bilan yoritib berilgan.

Navoiy ruhiyatini idrok etish uchun birinchi navbatda uning o‘z asarlari mohiyatiga kirish, ularning mag‘izini chaqish, ulardagi mavjud real hayot izlari va xayolot mahsullari uyg‘unligini yaxlit holda tasavvur etish lozim. Bularning yonida tarixiy voqealar, bu voqealar silsilasida esa alohida olingan tarixiy shaxslarning o‘rni, ularning o‘zaro munosabatlari, ichki kechinmalari, shaxsiy fazilatlar ham nazardan qolmasligi kerak. Asarni o‘qigan kishida bunday talablar yozuvchining diqqat markazida turganiga ishonch paydo bo‘ladi.

---

<sup>266</sup> Ўша ерда.

Navoiyning buyuk shoir, yirik mutafakkir, favqulodda yirik davlat arbobi, tabiiyki, nodir shaxs bo‘lib yetishuvidagi oilaviy, ma‘rifiy, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy muhit sinchiklab tahlil qilinadi. Bunda badiiyat qonunlarini chetlab o‘tmaslikka, o‘sha qonuniyatlar mehvarida turib harakatlanishga urinish e‘tiborlidir. Navoiy va oilaviy munosabatlar, Navoiy va shaxsiy hayot, Navoiy va alohida shaxslar, Navoiy va jamiyat singari yo‘nalishlar kitob sahifalarida mehr bilan tasvirlangan. Bularning asosida Navoiyning olamga va odamga bo‘lgan muhabbati, Navoiy va ishq yo‘nalishi ustuvor mavqe tutadi. Omon Muxtor hatto Navoiy va Guli mavzusini ham e‘tibordan chetda tutmaydi. Faqat bunda adibning o‘z asarlariga murojaat etib, “dalillar”ni Navoiyning o‘z ijodiy merosidan to‘playdi. Ularni go‘zal va barqaror badiiy mantiq tizimiga keltirishga harakat qiladi.

Navoiy she‘riyatidagi “yor”ning manzilini aniqlashtirishga bo‘lgan intilishlar ham tabiiy va samimiyligi bilan ajralib turadi. Uning Olloh, shoh, xalq, oddiy inson, mahbuba singari talqinlari maroqli. Ayniqsa, hozirgacha Navoiy taqdiridagi noma‘lum Go‘zal talqiniga bag‘ishlangan sahifalar o‘quvchini e‘tiborsiz qoldirmaydi.

Omon Muxtor hazrat Navoiyning o‘z asarlaridan, she‘riy misralaridan nihoyatda go‘zal lirik hikoyalar tuzadi. Ularni mantiqning tarang ipi-

ga marjondagi alohida durlar kabi terib chiqadi, natijada tom ma'nodagi yangi va huzurbaxsh badiiy olam yaratiladi.

Ta'bir joiz bo'lsa, Omon Muxtorning Navoiyi samimiy va dono, mutafakkir, oshiq, tinib-tinchimaydigan ijod egasi va zukko davlat arbobi, behudud hayrat va bitmas-tugunmas zavq egasi, nodonlik va jaholatning dushmani, qat'iyatli va keskin, ayni paytda bosiq, mulohazakor va parhezkor shaxs. Eng muhimi, o'quvchiga boshqa xulosalar qatorida quyidagi umumlashmalar ham havola etiladi: "Navoiy shunday bir zotki, uni bir umr o'rganmay iloj yo'q...".

Asarning tili haqida alohida to'xtash joiz. Tarixiy mavzulardagi asarlarning ko'pida eskirgan so'zlar, tarixiy so'zlarning qalashtirib tashlanishiga duch kelinadi. Omon Muxtor bu yerda ham me'yor mantig'iga mustahkam tayanadi. Tasvir aniqligi, ifodalarning ixchamligi, mantiqning o'tkirligi esa asarga favqulodda ta'sirchanlik ham bag'ishlaydi:

"Alisher Husayn davrida yashagan shoir emas, Husayn – Alisher davrida yashagan shohdir!" "Umuman, ular bir-biriga sira o'xshamagan Ikki Inson edi..."

Shunga qaramay, "Hali hech kim bu osmon qa'riga ko'tarilmagan" (8), "Sevgilisi(ning) saroyga tushib qolgani Alisherning ham qulog'iga yetib keladi. U oh chekib, o'zini sovuq yerga tashlaydi.

Burdalaydi” (13) “Zafarnoma” Sharfiddin Ali Yazdiyini bayonsiz yuksaklikka ko‘taradi (62) tarzidagi gaplar tarkibidagi ayrim so‘zlarning tasodifiyligi, matn mazmuniga yopishmay qolgani ham kuzatiladi.

Kitobdagi ikkinchi roman “Buyuk farrosh” deb nomlangan. Bu ham Navoiy haqida. Navoiy haqida har kuni, har davrada gapirish kerak. “Bizda beshikdagi bola ham Navoiy nomini biladi”. Bu birinchi kitobdagi mantiqni inkor etadigan gap emas. Bu – hayotiy haqiqatning namoyon bo‘lish shakllaridan yana biri, xolos.

Navoiy shaxsiyatidagi eng nozik nuqtalar favqulodda o‘tkir zehn va savqi tabiiy bilan topilgan. “O‘z boshi uchun emas, boshqalar uchun ham! – dunyodagi barcha ayb-u gunohlar uchun ham har qanday diyonatli inson javob berishi kerak”.

“Buyuk farrosh”da ikkita yonma-yon hodisalar tasviri davom etadi. Bu, bir tomondan, bevosita yozuvchi (Omon Muxtor) ning shaxsiy hayoti va ikkinchi tomonda, buyuk Navoiy tasviri. Shaxsiy hayot tasvirining o‘ziyoq kitobxonni loqayd va e’tiborsiz qoldirmaydi. U yerda inson qalbiga “tegib ketadigan”, uni junbushga keltiradigan lavhalar oz emas (Shahriyaning betoblighi, uning kasalxonadagi holati bilan bog‘liq tasvirlar).

Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligi haqidagi jumlar aslida ijodkor shaxsiga, mullif nuqtayi

nazari orqali esa butun insoniyatga daxldor bo‘lgan hukm sifatida jaranglaydi. Asardagi lirik qahramon tilidan aytilgan:

*“Men umrimda ko‘p og‘riqli shovqinlarni eshitdim.*

*Men umrimda ko‘p noxush manzaralarni ko‘rdim.*

Lekin meni Alisher g‘aflatdan uyg‘otdi” singari e’tiroflar kitobxonni loqayd qoldirmaydi, balki uni faol munosabatga, hayotga nisbatan, buyuk Navoiyga nisbatan katta mehr va muhabbat bilan qarashga undaydi, unda Navoiy asarlarini o‘qish uchun ishtiyoq va rag‘batning uyg‘onishiga sabab bo‘ladi.

Navoiy uchun “olamda oshiqlik – ish, ishq – esh” bo‘lganini tasvirlashga salmoqli sahifalar ajratilgan. Tasvirga tortilgan hodisalarning teran nigoh bilan kuzatilgani, har bir kichik detal ustida ham kuchli mantiq tarozisi hamda uning ro‘parasida nozik badiiyat ko‘zgusi turganini his etish qiyin emas. Voqealarning barchasi Navoiyning Abdulla Ansoriy maqbarasida “jorubkash” maqomiga intilishi va shu jarayondagi hodisalar tasviri bilan aloqador.

Navoiyning hajga borish istagi, uning uzlatni ixtiyor etishi singari oddiy hayotiy voqealar zahirida o‘sha davr tarixiy hodisalari qayta mushohada qilinadi. Ularga badiiy-estetik baho

beriladi. Hirotning o‘sha paytdagi madaniyat va san’at markazi bo‘lgani qayd etilar ekan, tasvirda shunday jumlar ham uchraydi: “Bu – qanchalik Husaynning himmatidan bo‘lsa, shunchalik teng Alisherning sharofatidan edi”.

Navoiyning mamlakat va yurt ravnaqi, uning farovonligi, tinchligi – osoyishtaligi uchun olib borgan kurashlari hayotiy lavhalarda ko‘rsatib berilgan. Asarda Navoiyning ilm-hunar egalariga qilgan mehri, shafqati, homiyligi yaxshi yoritilgan.

“Alisherning ijod bobida ham ishi boshidan oshib yotibdi”.

Muallifning tili shirali, ta’sirchan. Buning ustiga hayotiy hikmatlar bilan sug‘orilgan. Shuning uchunmi, ular e’tiborni tortadi, mushohadaga chorlaydi:

*“O‘zni o‘zgacha ko‘rsatish – oson.*

*O‘zgacha bo‘lish – oson emas”<sup>267</sup>.*

“Ezgu inson bo‘lishning o‘zi xizmat emasmi?! Qayerdadir o‘qigan edim, odamlar nafasidan havo yaralib, Butun Havoning tiniq yoki buzuq bo‘lishini belgilar emish!”

Quyida keltirilayotgan jumlar Navoiy shaxsiyatini butun qamrovi va ziddiyatlari bilan ko‘rsatishga yo‘naltirilgan: “Alisher aniq maqsad, fidokor mehnat, jur‘at-jasorat egasi. Kuchli, shiddatli, hatto isyonkor ruh uning har bir satrida

<sup>267</sup> Мухтор Омон. Навоий ва rassom Абулхайр. Романлар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 110.



barq urib turibdi. U o‘zini ham, boshqalarni ham ayamaydigan murosasiz haqiqatparvar. Shu bilan birga o‘ta shafqatli, chumoliga ozor yetsa, joni og‘riydigan inson”<sup>268</sup>.

“Haqiqat va Adolatning mezoni bo‘lgan inson” degan bahoni xalq bermoqda. Bu tasodif emas. Uning real asoslari bor. Kitobda buning jonli tasvirlari, badiiy dallilari keltirilgan.

Kitob mutolaasidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biri shuki, Navoiy bilan yaqinlashgan kishi, Navoiy asarlarini mutolaa qilgan qalb yomonlik va razolatdan uzoq bo‘ladi, aksincha, ezgulik va go‘zallikka oshno bo‘ladi. Uning zamondoshlar, ayniqsa, yoshlarga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda katta. Shulardan biri sifatida uning kitobxon yurtdoshlarimizga buyuk bobokalonimiz, hazrat Navoiy hayoti va ijodidan o‘ziga xos saboq berishidir.

Asardagi ko‘plab qahramonlarga oid badiiy tasvir va talqinlar zamondoshlarimizni ezgu va xayrli ishlarga undab, o‘zlarida olam va odam haqida tegishli xulosalar chiqarishga undaydi.

Omon Muxtorning asarida Alisher Navoiyning ilmiy, tarixiy, badiiy asarlaridan ko‘chirmalar bor. Ular adibga o‘z fikrlarini tasdiqlash, kitobxonni ishontirish, olam hodisalarining rang-barangligi

---

268 Ўша нашр. – Б. 111.

va o‘z hayotiy mantiqiga ega ekanini ko‘rsatish uchun kerak bo‘lgan. Kuzatuvchi muallif tomondan bildirilgan fikr-mulohazalar ham ma‘rifiy ahamiyatga ega. Kitobda ixcham tarixiy-adabiy tadqiqotlar ham ko‘zga tashlanadi. Ular o‘quvchi ongini boyitishga, tafakurini charxlash, tuyg‘ularining rang olishiga ko‘mak beradi. Birgina misol: “Alisherning otasini goh mashhur kishi, goh bahodir, goh qahramon deyishadi (nima bilan mashhur?! Nega bahodir?! Qanday qahramonlik ko‘rsatgan?! Bizga qorong‘i). Shu bilan birga, u G‘iyosiddin Kichkina nomi bilan tanilgan. Oldingi sifatlarga “kichkina” so‘zi yopishmaydi! Uni kichik jussali yoki fe‘li kichik (tor) deyolmaymiz. (“Kichkina baxshi” degan asossiz bir gap ham uchraydi. To‘g‘ri, bu yerda terma-doston aytuvchi emas, mug‘anniy va hofiz ko‘zda tutilgan. O‘sha paytda to‘rt kishidan biri musiqani bilar, o‘zicha kuylashga ishqiboz edi! “Baxshi” so‘zi yana ba‘zan kotib-mirza mazmunida keladi! Lekin hofizmi, kotibmi?! – bu sifatlar tarjimayi holga singmaydi. Ayniqsa, Amir Temur huzurida bunday kishilar(ning) chinakam mavqe topishi aqlga sig‘maydi. Asosli gap boshqa). Husaynning otasi ham G‘iyosiddin (“ulug‘ nomdor sulton G‘iyosiddin Mansur Mirzo”) bo‘lganidan, bu G‘iyosiddinni Kenja (undan keyingi) ma‘nosida Kichkina deb atashgan bo‘lsa, ehtimol! Shunisi tabiiyroq tuyuladi (29).

“Albatta, Husayn – shoh, U mamlakatni boshqaradi. Hamma qatori Alisher ham uning oldida qo‘l qovushtirib turadi. Ammo Osoyishtalik – Alisherning vazifasi (faqat o‘zi emas, mamlakat osoyishta bo‘lishi kerak!) (Umuman, saltanatni qo‘lga kiritgan – Husayn! Saqlab turgan – Alisher!) Husayn jangga, ovga ketadimi, sayohat-safargami – Hirotga egalik qilib turishni Alisherga qoldiradi. Shu holdagina u biror bir fitna ro‘y bermasligi, taxt qo‘ldan ketmasligiga ishonadi” (44). Yozuvchi adibning otashin oshiq, zukko davlat arbobi, Buyuk inson, sadoqatli do‘st, hassos shoir sifatidagi xislatlariga urg‘u beradi. Kitobda aytilganidek: “Mukammallik Oллоhga xos! Duniyoda mukammal tasvir bo‘lishi qiyin”<sup>269</sup>.

“Navoiy va rassom Abulxayr”da rassom Navoiyni devordagi jonsiz surat emas, jonli inson sifatida chizmoqchi, buyuk siymoni osmondan yerga tushirib tasvirlamoqchi edi. Romanning boshidan oxirigacha shu haqda gap ketadi. Niho-yat, rassom, mana, rasm tayyor bo‘ldi deb xabar beradi. Demak, ish bitdi, Navoiy portretini ishlash nihoyasiga yetdi... Lekin o‘sha portretni o‘quvchi ko‘rmaydi. Anogrog‘i, rassom uni ko‘rsatmaydi. Roman Hirot ko‘chasini to‘ldirib, tirikchilik tashvishida yurgan xaloyiqning chor-nochor ahvolini tasvirlash bilan tugaydi. Navoiy rasmi nima

---

<sup>269</sup> Тўхлиев Б. Таҳлил ва талқин уйғунлиги // ЎзАС, 2006 йил, 57-сон.

bo‘ldi, u qanday rasm edi, degan savolga javob yo‘q. Shu holida asar tugallanmagandek taassurot qoldiradi.

Afsuski, muallif bugun oramizda yo‘q. U tirik bo‘lganida men roman uchun shunday xotima taklif etgan bo‘lardim: “Mana, nihoyat rasm tayyor bo‘ldi. Men uni yop-yorug‘ ayvonga olib chiqdim. Uzoqdan, yaqindan, o‘ng tomon, chap tomonga o‘tib, razm soldim. Yuragimga allaqanday g‘ashlik cho‘kdi. Nimadir yetishmayotganga o‘xshardi. Ko‘zimni bir lahza chirt yumib, keyin, yana tikildim. Yo Oллоh, qarshimda Navoiy emas, tamom begona kishi turar, u chuchvarani xom sanabsan, degandek, meni masxara qilib kulayotgandek edi. Shunda...men tushundim. Miyamga go‘yo qon urdi! Jon-jahdim bilan rasmga tashlanib, uni parcha-parcha qilib, atrofga uloqtirdim-da o‘zimni yerga otdim. Ko‘ksimdan bo‘g‘iq bir faryod otilib chiqti. Yo Oллоh! – dedim, – men xom sut emgan banda chindanam chuchvarani xom sanabman... Navoiydek, buyuk zotni yuksakdan tubanga tushirib chizib bo‘lar ekanmi?! Aksincha, biz ojiz bandalarga o‘sha yuksaklikka ko‘tarilish joiz emasmi?! Tangrim, o‘sha yuksaklikni bizga nasib et!

Shu alpozda ko‘ksimni yerga berib allamahalgacha yig‘lab yottim. Bir payt boshimni ko‘tarib qaragam, men yirtib uloqtirgan rasm parcha-

lari ko‘rinmadi. Ularni shamol uchirib ketgan edi...”. Nazarimizda, ana shu xotima bilan tasvir mantiqiy adosiga yetadi va roman yangicha ohang kasb etadi (G.A.).

Sh. Doniyorova asardagi asosiy kamchilik sifatida tasvir emas, balki oddiy bayonchilikning ko‘proq nazarga tushishi haqida gapiradi: “Omon Muxtorning tarixiy romanlarida keng ko‘lamli badiiy tasvirdan ko‘ra bayonchilik ustuvorlik qilgandek yoki badiiy niyat bilan adib tanlagan poetik uslub o‘rtasidagi mantiqiy muvozanat buzilgandek taassurot qoldiradi. Professor Sanjar Sodiq ta’kidlaganidek, Omon Muxtor o‘zining ushbu asarida tarixiy romanchilik an’analarini ma’lum darajada yangilashga bo‘lgan urinishlar ko‘zga tashlanadi. Qolaversa, Alisher Navoiy siymosini ishq ahlining qalb iztiroblari va tafakkur olamining kengliklari tarzida ifodalashga harakat qilgan. Natijada, Navoiy obraziga xos yangi talqinning chizgilarini chizadi. Yuqorida tahlilga tortilgan asarlarning xuddi ana shu jihatlari uchun Omon Muxtor tarixiy romanchilikning yangi shakl va mazmun namunalarini yaratdi, deyish mumkin”<sup>270</sup>. Professor D.To‘rayev ham bu fikrlarga hamohanglik bildirgan: “O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi” nomli

---

<sup>270</sup> Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 24.

monografiyasida “dolzarb mavzu ham, turmush materiali ham, romandagi tabiat tasviri ham, qahramonlardagi o‘z kasb – koriga doir chuqur bilim bayoni ham – agar yetuk xarakterlar, davrning badiiy tiplari darajasida ko‘rinmas ekan, asarning umrboqiyiligini ta‘minlay olmaydi”<sup>271</sup>, – deb yozadi. Bu borada mashhur rus tanqidchisi N.G.Chernishevskiy yanada lo‘nda qilib aytgan: “...agar asarda tasvirdan ko‘ra tavsif cho‘zilib ket-sa, bu mahorat belgisi emas. Aniq badiiy bo‘yoq-dorlik badiiy asar tilining birinchi belgisidir”<sup>272</sup>.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti uchun muhim jihatlarni namoyon etishi bilan birga, ijod-korga o‘zi istagan qahramon obrazini yaratish huquqini ham berdi. Barcha adabiy janrlar kabi o‘zbek romanlarida ham muayyan evrilish jarayonlari ko‘zga tashlandi. Xususan, bunday o‘zgarish tarixga munosabat va tarixiy shaxslarga estetik munosabat tarzida yaqqol namoyon bo‘la-yotganini Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani misolida ko‘rish mumkin.

Isajon Sulton Oybek domlanning Navoiy romanidan qariyb sakson yil o‘tib, Navoiy haqida roman yozdi. Kitobni mushohada bilan o‘qish lo-zim. Roman tezda, yo‘l-yo‘lakay o‘qiladigan asar emas. Asarda yozuvchi ko‘p izlangani, mashaqqat chekkani bilinadi. Romannning tili ham ravon.

---

<sup>271</sup> Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 28.

<sup>272</sup> Чернишевский Н.Г. Поли. собр. сочинение. – М.: Искусство, 1978. – С. 34.

Isajon Sulton asarini “Alisher Navoiy” deb atadi. To‘g‘ri, birinchi nomda salobat, ulug‘vorlik bor. Ikkinchi nomda esa samimiylilik bilan oddiylik, ko‘ngilga qandaydir yaqinlik ustunday tuyuladi.

Oybek roman yozishdan oldin Navoiy haqida she‘r yozdi, qissa va doston yozdi. Isjon Sulton tarixiy mavzuga qiziqishini juda erta namoyon qildi. U dastlab shu mavzuda bir emas, bir necha asarlarni yozdi. Undan keyingina “Alisher Navoiy” romani yuzaga keldi.

“Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani faqat yangi mafkuraviy qarash asosida emas, balki globallashuv davri zamonida tobora insoniyat uchun ideallashib borayotgan, adibning o‘z iborasi aytganda, “OLIIY AXLOQ IDEALI – NAVOIY” shaxsiyatini qaytadan keng ko‘lamda ko‘rish, tahlil etish, his etish uchun ham yozildi. Aslida, har ikki yozuvchi Oybek va Isajon Sulton o‘z romanlarida Alisher Navoiyni turkiy tilning ilk asoschisi, shu tilda ilk bor go‘zal asarlar yaratib, bu tilning boyligi va latofati fors-tojik tilidan aslo kam emasligini asarda asosiy fokusga oladi”<sup>273</sup>.

Asarda Alisher Navoiyning inson sifatidagi ko‘ngli, hayoti, quvonchu qayg‘usi, iztiroblari, ishqi, orzusini his etamiz. Tarixiy fojeliq – Mo‘min

---

<sup>273</sup>Кўчқорова М. Алишер Навоий ҳақида икки романнинг қиёсий таҳлили – // Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta‘lim texnologiyalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Nukus: 2022. – B. 189.

Mirzoning qatli asarda jonli, kalbni o‘rtaguvchi tasvir bilan yoritiladi. Mo‘min Mirzo qatl chog‘ida: “Bobom bu qilmishi uchun u dunyoda Tangrining oldida javob beradi” – degan hayqiriq yuraklarni larzaga soladi. Romandagi ushbu epizod Oybekning romanidan ko‘ra yaxshiroq yoritilganligini aytish mumkin. Moddiy dunyo ota-bola orasida ziddiyat va nafrat tug‘dirsa, Navoiy hamisha sulh va murosa yo‘lidan yuradi.

Abulmuhsin o‘g‘li isyoniga Husayn Voiz Koshifiy yuboriladi. Ammo, jazavaga tushgan o‘g‘il uni tinglamaydi. Majbur bo‘lgan Boyqaro Alisher Navoiydan najot so‘raydi. Oqibatda, shahzoda qalbini faqat Navoiygina yaxshilik tarafga o‘zgartira oladi.

Yozuvchi maktub – xat motividan o‘rinli foydalanadi: Navoiyning shahzodalarga yozgan maktublari va nasihatlari alohida axloqiy-ma’naviy yuk tashiydi. “Ota-sening vujudi sababing, Ota oldida dol, lol bo‘lish kerak. Men sening oldingga “sin” harfiga o‘xshab oqib keldim”, – tarzidagi mulohazalar nutq egasining tiynatini ham ko‘rsatib turadi.

Asarda Alisher Navoiyning yaqin qarindoshlari, tog‘alarining o‘rni, uning Husayn Boyqaro bilan munosabatlari juda go‘zal ifodalangan. Navoiyning dinga homiylik qilgani haqida gap boradi. Shu tarzda asar o‘quvchiga yangi va yaxshi ma’lumotlar



ulashadi. Ulug‘ Navoiyning tug‘ilganidan boshlab to vafotiga qadar bo‘lgan tafsilotlar asarda izchil aks etiriladi.

Isajon Sulton hozirgi adabiyotimizda jiddiy va dadil odim otib kelayotgan adiblarimiz silsilasida o‘z o‘rniga ega. Uning tarixiy mavzuga oshuftaligi allaqachon ko‘plab o‘zbek kitobxonlari ko‘ngliga ham maqbul va manzur bo‘lib ulgurgan.

Adib bugungi kunda ayni mana shu mavzu va muammoga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarni yaxshi ilg‘adi. Shuning uchun ham u o‘z romanini nisbatan qisqa muddatlarda yozib tugatdi. Roman yomon kutib olinmadi. Buning sabablari ko‘p. Zero, “Roman yozishga kirishgan ijodkor bir paytning o‘zida ham zargar, ham duradgor, ham sangtarosh, ham arxitektor, ham sinchi bo‘lishi kerak”<sup>274</sup>. Isajon Sulton bu vazifani qanday ado etdi? Olimlarimiz bunday o‘ziga xos ijodiy ish samarasiga turli xilda yondashishgan. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari tasviri va talqinida adib ancha keng va chuqur qarashlarga egaligini ko‘rsatgan. Bu tarixni puxta o‘rganish, tarixiy hodisalar mohiyatini ilmiy va mantiqiy, qolaversa, falsafiy, eng muhimi, haqiqiy ijodkor xalqiga berilgan tug‘ma intuitsiya va uchqur xayol – badiiy fantaziyaning go‘zal omuxtaligi bilan

---

<sup>274</sup> Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий танқидий мақолалар, суҳбатлар. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. — Б. 17.

kuzatish va baholashda ochiq ko‘rinadi. Natijada, bu munosabatlar zamiridagi bor haqiqatning asosiy qirralari e‘tibor markazida bo‘lgan.

Asar sujeti va kompozitsiyasi puxta o‘ylangan. Bir qarashda u anchayin sodda bo‘lib tuyulishi ham mumkin. Voqealar rivoji go‘yo vaqt oqimiga qo‘yib berilgan. Avval Navoiyning bolaligi, keyin yigitlik chog‘lari, yetuklik davri, umr poyoni... Darvoqe roman qismlari ham o‘ziga xos. Ular to‘rt bo‘lakdan iborat. Qismlar “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoe’ ul-vasat” hamda “Fovoyid ul-kibar” deb nom olgan. Ammo bu oddiylik shu qadar tabiiy va samimiyki, sahifadan sahifaga o‘tgan sayin, kishi kitobga bog‘lanib qolayotganini, uning keyingi sahifalariga intilish va qiziqishining tobora kuchayib borayotganini ko‘proq his qilib boradi.

Qismlarning nomlanishi tasodifiy emas. Ularda lirik ohang sezilib turadi. Asarning butun ruhida ham mana shu ohangning ustuvor mavqei his etiladi. Bu narsa qahramonlar ruhiyati tasvirida ham, Isajonning so‘z tanlashi va qo‘llashida ham nazardan chetda qolmaydi. O‘rni kelganida ta’kidlash joizki, asarda Alisher Navoiy asarlariga, ayniqsa, lirik merosiga murojaat ham ancha salmoqli mavqega ega. O‘rni-o‘rni bilan ularning tahlil va talqinlari ham shoirona, ijodkorona nigoh bilan kiritib o‘tilgan. Bu talqinlar kitobxonni mutafakkir

yashagan tarixiy muhitning ichiga olib kiradi, Alisher Navoiyning lirik olami bilan yaqindan tanishtiradi. Shunga qaramay, ularning asardagi umumiy salmog‘i me‘yordan oshib ketganday ham tuyuladi. Ayniqsa, voqealar oqimiga bog‘liq bo‘lmagan holda ularning sharhiga kirishib ketilgan o‘rinlarda bu holat aniq sezilib turadi.

Asarda Abdurahmon Jomiy obrazi o‘zgacha mehr bilan tasirlangan. Buning uchun adib ko‘plab adabiy shakl va usullardan juda ustalik bilan foydalangan.

Nazarimizda, Isajon Sulton uchun akademiklar Vohid Abdullayev hamda Botirxon Valixo‘jayevlarning Navoiyning Samarqanddagi hayotiga oid tadqiqotlari<sup>275</sup>, shuningdek, Izzat Sultonning “Navoiyning qalb daftari” asari asosiy e‘tiborda bo‘lgan. B. Valixo‘jayev Navoiyning Samarqanddagi hayotining muhim nuqtalaridan biri bo‘lgan Abullays bilan bog‘liq jihatlar haqida shunday yozadi: “Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayoti va ijodi haqida so‘z ketganda, xususan, Abullaysiylar xonadonining e‘tibori va ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Chunki Navoiyning o‘zi ham asarlarida bu xonadonning zabardast vakili Fazlulloh Abullaysiy, uning farzandlari Xoja Xovand Abullaysiy, Xoja Abulqosim Abullaysiylarni nihoyatda hurmat bilan

---

<sup>275</sup> Валихўжаев Б. Навоий Самарқандда // “Ёшлик” журнали, 1988, 2-сон.

eslaydi, keyinchalik Hirotga borgan o'g'illarini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada Xoja Abulqosim Abullaysiy ancha taniqli adabiyotshunoslardan biriga aylanadi"<sup>276</sup>. Romandagi Samarqand bilan bog'liq tasvirlar mazkur ilmiy qarashlar bilan muvofiq. Isajon Sulton romanining tili ham ravon, o'qishli. Kitobxonni bezdirmaydi. Zarur tarixiy-arxaik so'zlar izohlab ketiladi.

Adabiyotshunos Ilhom G'ani romanni "buyuk so'z salafi, ulug' mutafakkir bobomizning hayoti, ijodi bilan yanada yaqindan tanishishga imkon, hazratning ma'naviy-ruhiy, islomiy-irfoniy, e'tiqodiy olamini anglash sari qo'yilgan yangi bir shaxdam qadamdir", – deya baholaydi.

Ilhom G'anining mana bunday kuzatishlari ham e'tiborga molik. Kitobda ana shunday hikmatnamo jumlar borki, ular o'quvchini ulug' shoirimizning ijtimoiy-siyosiy, islomiy-tasavvufiy qarashlarini anglash, daho san'atkorning bolalik, o'smirlik, o'rta yosh va keksalik davridagi o'y-kechinma, taxayyul va tafakkuri bilan chuqurroq tanishish imkonini beradi: "Johil faqat yeb-ichishni va o'z oromini o'ylaydigan kimsadir. Yetuk kishi esa yaratuvchi, bunyod qiluvchidir! Siz ayrim o'simliklarni ko'rgansiz, o'sib-ungay, ammo mevasi yer tubida bo'lgay. Sizning hayot daraxtingiz ham shunga o'xshaydi, ba'zi mevalarini bu olamda

---

<sup>276</sup> Ўша ерда.

ko‘rsangiz, yana allaqanchasini mangulik diyorida ko‘rasiz. Ularning bir qanchasi aytgan so‘zlaringiz tufayli bunyodga keladi”. Bu o‘rinda olimning “hikmatnamo jumlar” haqidagi mulohazalariga to‘la qo‘shilish mumkin. Haqiqatda ham, Isajon Sultonning asardan asarga, romandan romanga qarab o‘tib kelayotgani, agar aytish joiz bo‘lsa, tobora barkamollashib borayotgani seziladi.

Roman haqiqatda ham Alisher Navoiyning bolalik, o‘smirlik, o‘rta yosh va keksalik davridagi o‘y-kechinma, taxayyul va tafakkuri bilan tanishtiradi. Biz ataylab “chuqurroq” degan so‘zni olib tashladik. Romanda shunday ijodiy harakat seziladi. Lekin u, nazarimizda, adib hayoti bilan keng va chuqur tanishtirishga emas, balki mullifning bosh g‘oyasini sxemalashtirishga, voqealar rivojidadagi sxematizmga olib kelgan. Ularda ijodkorning chuqur tahlili o‘rniga tarixiy voqea-hodislarning juda katta hajmda jalb etilishi qahramonlar harakatidan ko‘ra tarixiy asarlardagi bayonlarga yon bosguday holatlarga ham kelib qoladi.

Professor Nusratullo Jumaxo‘ja ham Isajon Sulton romanidagi yangiliklar qatorida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari talqiniga yangicha ijobiy yondashuvni, shuningdek, Alisher Navoiyning adabiy siymosini yaratishda ilgorigidek adibning “dinga qarshiligi”

emas, balki uning dindorligiga ham urg‘u tushayotganini qayd etadi<sup>277</sup>. Uning “Romanda Isajon Sulton Alisher Navoiyning noziktab shoir maqomidagi badiiy obrazini haqqoniy yaratishga muassar bo‘lgan. Uning ilhom va ijod onlarini, ba’zi asarlarining vujudga kelish jarayonlarini ishonarli, ta’sirchan ifodalashga erishgan”, singari qaydlari, nazarimizda, roman mohiyatidagi asosiy nuqtalardan birini to‘g‘ri ifodalaydi. Olimning asarda ona obraziga nisbatan enaga obrazining batafsilroq tasvirlangani haqidagi e’tirozlari bilan ham fikrimiz uyg‘un.

Ilhom G‘ani yana bir masalada haq: “Asarda u yoki bu munosabat bilan Navoiy asarlariga murojaat qilinganligini turlicha izohlash mumkinki, bu endi alohida masala, qolaversa, bir maqola doirasida buni yoritish imkonsiz”. Bu o‘rinda muallifning “bir maqola doirasida buni yoritish imkonsiz”ligi haqidagi e’tirofiga qo‘shilish mumkin. Navoiy asarlariga havolalar esa haqiqatda ham asarda turlicha vazifalarni ado etadi. Misol uchun, Majolis un-nafois”dan: Mir Said — el orasida “Kobuliy” laqabi bila mashhurdur. Faqirg‘a tag‘oyi bo‘lur. Yaxshi tab’i bor erdi. Turkchaga mayli ko‘proq erdi. Bu tuyuq aningdurkim:

*Ey muhiblar, yetsangiz gar yoza siz,  
Gul adoqinda xumori yozasiz,*

---

<sup>277</sup>Жумахўжа Нусратулло. Ҳақиқат талқинлари // Шарқ юлдузи. 2021, 4-сон.

*Gar men o'lsam, turbatimning toshig'a,  
"Kushtai bir sho'x erur" deb yozasiz.*

Sulton Abu Said Mirzo ilgida Saraxs qo'rg'onida shahid bo'ldi. Qabri shahrdadur<sup>278</sup>.

Muhammad Ali — "G'aribiy" taxallus qilur erdi. Ul ham faqirg'a tag'oyi bo'lur erdi. Mir Said Kobuliyning inisidur. Xush muhovara, xush xulq va xushtab' va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi. Xututni xub bitir erdi. Agarchi bu faqirning qavm va xayli Sulton sohibqironning boyri qullari va mavrusiy bandalaridurlar, ammo bu mazkur bo'lg'on salohiyatlar jihatidin ul hazratning iltifoti inoyati aning bila o'zgalardin ko'proq erdi. Bu turkcha matla aningdurkim:

*Dardi holimdin agar g'ofil, agar ogoh esang,  
Hech g'amim yo'q sen manga gar dilbaru dilxoh esang.  
Bu forsiy matla' ham aningdurkim:  
Chashmi bemori tu hardam notavonam mekunad,  
La'li jon baxshi tu, jono, qasdi jonam mekunad.*

Sulton sohibqiron xizmatidin g'ariblik ixtiyor qilib, Samarqandda qolg'onda og'asining qotili shahodat martabasig'a yetkurdi<sup>279</sup>.

Orazin yopqach ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

---

<sup>278</sup> Навоий Алишер. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 66. Бу ифода романнинг 70-бетига.

<sup>279</sup> Навоий Алишер. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 66-67.

O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach  
quyosh...

G‘azal matla‘sidagi bunday go‘zal o‘xshatish  
Lutfiy davrasidagilarning diqqatini tortdi. Turk-  
chada “bo‘yla”, ya’ni “bundoq” deb shu yaqin  
oradagi, “o‘yla”, ya’ni undoq, andoq deb olisdagi  
narsaga aytiladi. Ilk misradagi “yopqach” bilan  
ikkinchi misradagi “bo‘lg‘ach” orasiga yulduzlar-u  
quyosh joylangani esa o‘zgacha bir she’riy  
kashfiyotdan darak berardi.

*Qut bir bodom-u yerim go‘shayi mehrob edi,  
G‘orati din etti nogah bir balolig‘ ko‘z-u qosh.*

Xurosonning keksa shoiri o‘n ikki yashar  
o‘spirinning g‘azalini kaftini qulog‘iga qo‘yib  
tinglardi. Bu yerda qo‘llanilgan ifsho san‘ati avvalgi  
bayt ruhiyatini yanada rang-baranglashtirib taqdim  
qilibdi, kun bo‘yi quti, ya’ni yemishi bir bodom,  
joyi mehrob, zohidlar kabi ibodat-la mashg‘ul edi,  
biroq balo ko‘z-u qoshdan yetib, butun toat-ibodatni  
g‘orat qildi. Ilg‘ar-ilg‘anmas yana bir ishora qosh  
bilan mehrobning o‘xshashligida: mehrob Tangri  
taologa sig‘inish uchun bo‘lsa, unga o‘xshash qosh  
dindan chiqarmoqqa sabab bo‘lgani aytilgan edi.

*Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,  
Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr fosh.  
Bo‘sae qilmas muruvvat asru qattiqdur labing  
Desam, og‘zi ichra aytur la‘l ham bor nav‘i tosh.*



Shu yerga kelganda Lutfiy botiq yelkalari silkinib-silkinib kulib yubordi: yosh shoir to‘satdan so‘zni suhbat tarzidagi mutoyibaga ham buribdi, la‘ldek lablarning bir bo‘sa muruvvat qilmas darajada qattiqmi desam, dediki, aslida la‘l ham bir tosh emasmi?

*Novaking ko‘nglumga kirgach jon talashmoq bu ekin,*

*Kim, qilur paykonini ko‘nglum bila jonim talosh.*

“Novak” deb o‘qning o‘zi, paykon deb uning temir uchi aytiladi. Paykonni mo‘ljalga yetkazish uchun novak darkor, novak ko‘ngilga kelib tegdi-yu, paykon jonga sanchildi. Ayni misrada Alisher haligacha g‘azalda hech kim ishlatmagan turkcha “talosh” so‘zini qofiyaga olgan, u shunchalik o‘z joyiga tushgan ediki:

*Umri jovid istasang fard o‘lki, bo‘ston Xizridur,  
Sarvkim, da‘b ayladi ozodalig‘ birla maosh.*

*Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,  
Gar budur mehrob, bir-bir qo‘yg‘usidur barcha bosh<sup>280</sup>.*

Romanda Navoiy siymosi ba‘zan g‘ayrishuuriy bo‘lib ko‘rinadi. U zotning yozgan asarlari, qilgan ishlari, namunali hayoti ko‘z ilg‘amas va qo‘l yetmas balandlik ekani haqiqat. Lekin bu kabi ma‘lumotlarning ko‘pligi romandagi badiiy voqelikka qay darajada uyg‘unligi jiddiy

<sup>280</sup>Султон Исажон. Алишер Навоий (роман). – Тошкент: Adabiyot, 2020. – Б. 74-75.

mulohazaga chorlaydi. Asarlardan olingan ko‘chirmalar ham shu siraga kiradi. Ularni umumiy tarzda shunday guruhlashtirish mumkin:

1) adibdan olingan iqtiboslar muayyan tezisning isboti yoki inkori uchun qo‘llanadi;

2) tasvirning umumiy holatiga lirik ruh kiritadi;

3) tarixiy koloritni yaratishda muhim rol o‘ynaydi:

4) Alisher Navoiyning ijodkor shaxs sifatidagi maqomini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Albatta, Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratish har doim yangi va yaxshi asarning yuzaga kelishi bilan yakunlanmayotganini ham e‘tirof etish kerak. Ya‘ni asarlarning barchasi qusur va kamchiliklardan mutlaqo xoli, degan tasavvur va xulosada emasmiz. Qolaversa, bu borada mutaxassislar ham tegishli tarzda o‘z mulohazalarini bildirishgan.

Muzaffar Mirzoning “Sham va shamshir”<sup>281</sup> (“Navoiy va Bayqaro”, 2020-yil) romanida Husayn Boyqaro va Navoiy munosabatlari to‘g‘risida, Alisher Navoiyning yoshlik yillari voqealari hikoya qilinadi. Yozuvchi usluban o‘zbek adabiyotida Oybek, O. Yoqubov, P. Qodirov tomonidan yaratilgan tarixiy roman an‘analarini davom ettirishga intilgan. Asarda Alisher Navoiyning Samarqandga

---

<sup>281</sup> Мирзо Музаффар. Шам ва шамшир (роман). - Тошкент: Ижод-пресс нашриёти, 2021. – 496 б.

“ixroj” bo‘lishi tarixi, muazzam shahardagi hayoti va faoliyati, “hasbi hol” – tarjimayi holi buyuk mutafakkirning zamondoshlari xotiralari va tarixiy hujjatlar negizida batafsil hikoya qilinadi. Asarda Alisher Navoiy obrazi yosh bo‘lishiga qaramay taqdirning shiddatli uqubatlariga bardosh bera olgani, hayotidagi turli qiyinchilik tafsilotlari tasvirlanadi. Ilm va ma’rifatga intilgan o‘spirinning ustozlari taqdiri yoritiladi. Buyuk adibga “ota masobasida (o‘rnida)” otalik qilgan insonlardan biri, olim-u fozil Said Hasan Ardasherga bitilgan nazmiy maktub romanining asosiy g‘oyasini belgilagan. Tarix nuqtayi nazaridan “Xazoyin ul - maoniy” devoniga kirgan bu masnaviy “hasbi hol” bayonidir.

Muallif ulug‘ mutafakkirning yoshlik yillari haqidagi tarixiy ma’lumotlar borasida Sh. Sirojiddinovning “Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili” kitobiga tayanganini ta’kidlaydi. Asarning har bir bobini Alisher Navoiyning ustozlari Sayid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubidan keltirilgan parchalar bilan boshlanadi. Garchi bu she’riy maktub keyinchalik yozilgan bo‘lsa-da, ulug‘ shoirning yoshlik yillaridagi mashaqqatli hayoti va ruhiy iztiroblarini yorqinroq ochib berishga xizmat qilgan. Yozuvchi mavzuga oid tarixiy manbalarni o‘rganib chiqqan, bir qator sujet voqealari, epizodlar chindan

ham muarrixlar qayd etgan voqea-hodisalar asosida badiiyashtirilgan. XV asrda aygʻoqchi va xufyalarning ish tartibi, Alisher Navoiyning oʻsmirligida nochor yashaganligi, kasalga yoʻliqqani, bolaligida Yazd sahrosidagi kechmishi kabilar shular jumlasidan.

Romantik asarlarda tarixiy voqelikdan koʻra ijodkorning ifoda etmoqchi boʻlgan poetik gʻoyasi muhimroq hisoblangan, masalan, “Saddi Iskandariy” dostoni kabi asarlarda. Biroq realistik asarlardagi badiiy haqiqat tarixiy haqiqatga zid kelmasligi zarur. Alisher Navoiy 16-17 yasharliligida Mashhadda betob boʻlib yotganda Shayx Kamol Turbatiy va Pahlavon Muhammad bilan uchrashadi. Alisher Navoiy, zamondosh tarixnavislar, S. Ayniy, Y. Bertelslar ham shu maʼlumotni asarlarida keltirib oʻtishgan. M. Mirzo Alisher Navoiyning Mashhadda kechgan oʻsmirligidagi voqealarni negadir Samarqandga koʻchirib tasvirlaydi<sup>282</sup>. Aslida, Navoiy ilk bor Samarqandga 1466-yil 25 yoshlarida keladi. Nazarimda, yozuvchi Mashhadni koʻrmaganligi, yaxshi bilmaganligi bois voqea joyini oʻzgartirgan koʻrinadi. Asarda, albatta, yozuvchi badiiy toʻqimadan foydalanadi, biroq bu toʻqima badiiy yolgʻonga aylanmasligi kerak.

Jumladan, Alisher Navoiyning Abdurahmon Jomiy va Abdurazzoq Samarqandiy suhbatlariga

<sup>282</sup> Қараңг: Ҳасанов Ш. Роман ва бугунги давр. URL: <https://nodirabegim.uz/archives/3805>. (14.02.2019)

bostirmaostidanxufyalardekquloqsolishi, Mirzobek Sipohiyning o‘zidan to‘rt asr keyin yashab o‘tgan Huvaydo baytlarini o‘qishi, hazrati Jomiyning farzandini Ko‘rkiboy deya talqin etishi kabi qator masalalar roman mazmun-mundarijasini nihoyatda bachkanalashtirgan. Muallif bugungi odamlarning yurish-turishi, muomalasi, dunyoqarashi, maishiy hayot tarzini XV asr kishilariga baxsh qilib yuboradi. Ayrim sahifalarda choy ichish epizodlari mavjud. Vaholanki, Navoiy zamonida choy degan tushunchaning o‘zi bo‘lmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmida yozilgan manbalarda “choy” atamasi uchrab qoladi va bu o‘sha paytda endigina udumga aylanayotgan edi.

Bu siradagi asosiy kamchiliklar tasvir maromida bayonchilikka berilib ketish bilan belgilanadi. Yana bir mulohaza esa ko‘plab asarlarda takrorlanib turadigan tarixiy fakt va epizodlar bilan aloqador. Albatta, davr, tarixiy sharoit, hatto ishtirokchi qahramonlarning asosan takrorlanib turganidan keyin nima bo‘lishi mumkin, takror tabiiy ravishda ro‘y beradi-da, deyish ham joizday ko‘rinar. Aslida, yozuvchining mahorati ham ayni mana shu jarayonlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Buning amaliy namunalarini yuqorida qisman ko‘rdik. Badiiy asarda voqeanavislik eng jiddiy qusurlardan biri sanaladi. Yozuvchi voqealarni birin-ketin qalashtirib tashlash va hissiz bayon

qilishdan ehtiyot bo‘lishi lozim. Chunki qahramon ko‘p voqealar yuki ostida qolib, muallifning asosiy g‘oyaviy niyatini yechimga qadar ko‘tarib ketolmay qoladi”<sup>283</sup>.

“Ma’lumki, mustaqillikka erishganimizdan keyin tariximizga munosabat tubdan o‘zgardi. Shu paytgacha qora bo‘yoq bilan chaplangan tarix sahifalaridan nur va haqiqatni izlashga e’tibor kuchaydi. Dostonlar, dramalar, qissa va hikoyalardan tashqari, har yili tarixiy mavzuda yozilgan talay romanlar dunyoga kelayotgani ana shu say’i harakatning samarasidir. Bu tabiiy hol va tariximiz nechog‘lik ko‘p yoritilsa, kelajagimiz shunchalik ravshan bo‘ladi. Shunga qaramay, hali xalqimiz tarixida “ochilmagan qo‘riq”lar juda ko‘p va ular o‘zlashtirilishini intizorlik bilan kutib turibdi”<sup>284</sup>.

Har bir ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichida o‘z millati, vatani manfaatlarini yoqlagan va kurashgan real shaxslarning fe’li faoliyatiga ko‘ra, ezgulik, adolat, go‘zallik singari bashariy qadriyatlariga munosabati, nuqtayi nazariga ko‘ra milliyliigi namoyon buladi<sup>285</sup>.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqadigan xulosalarni aytishdan oldin, yana bir ko‘chirmaga e’ti-

---

<sup>283</sup> Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий танкидий мақолалар, суҳбатлар. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. — Б. 23.

<sup>284</sup> Ўша нашр. — Б. 44.

<sup>285</sup> Раҳимжонов Н., Кубаев К. Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди. — Тошкент: Адолат, 2005. — Б. 79.

bor qaratish munosib ko‘rinadi. Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul bir suhbatda ijtimoiy-estetik ehtiyoj haqida gapirib turib shunday deydi: “Har bir davrning o‘z bitigi bor. Uni o‘qish, uqish va yozish ijodkorlikdir. Kiyimlar, qurollar, badiiy vositalar, shiorlar, odatlar, urflar davrlar o‘tishi bilan eskiradi, ammo ezgulik va yovuzlik, go‘zallik va xunuklik, ulug‘lik va tubanlik, ya’ni dastlabki badiiy asarlar ta’riflagan Rahmon va Shayton o‘rtasidagi kurash mavzusi eskirmaydi. Bu kurash jarayoni shaklini, qiyofasini o‘zgartirib, davrga moslashib, davr talab qilgan ko‘rinishlarga o‘tib turadi, xolos. Inson ko‘nglida ezgulikka, go‘zallikka, yaratuvchanlikka, shafqatga, mehrga, muhabbatga ehtiyoj turar ekan va bularga qarshi xavf-xatar bor ekan, ijodkorga ish topiladi”<sup>286</sup>. Aytish mumkinki, mana shunday ezgu ehtiyojlar tufayli mustaqillik davrida yuzaga kelgan tarixiy shaxslar, jumladan, Alisher Navoiy obrazi yoritilgan asarlar bugungi kunimiz uchun munosib javob sifatida o‘z vazifasini ado etmoqda. Ayrim istisnolar esa mualliflar ijodiy saviyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ulkan jarayondagi tabiiy va kichik hodisalardir.

---

<sup>286</sup>Эшонқул Назар. Мен нима учун ёзаман? Шермурод Субхон ёзиб олди. – // URL: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/nazar-eshonqul-mendan-mengacha.html> (01.07.2021)

### III BOB XULOSALARI

1. Mustaqillik davrigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida Navoiy obrazi yaratilgan nasriy asarlar talaygina. Ularning yuzaga kelishiga adiblarning katta qismi munosib hissalarini qo‘shishgan. Mustaqillik davri adabiyoti bu doira chegaralarini yanada kengaytirgani bilan ahamiyatli bo‘ldi. Bu hikoya va esselar, ayniqsa, shu davrda yaratilgan romanlarda o‘zining munosib ifodasini topdi.

2. Mustaqillik davri nasrida ham tarix va uning buyuk namoyondalarini qayta idrok etish kuchaydi. Bu holat, bir tomondan, tarixiy sharoit bilan izohlansa, boshqa tomondan, yangilangan estetik tafakkurning tabiiy taqozosi bilan aloqadordir. Ushbu jarayonda Alisher Navoiy shaxsiyatini qayta badiiy tadqiq etish ishlari ijodkorlar tomonidan alohida qiziqish va mas’uliyat bilan amalga oshirilgani alohida e’tiborga molik.

3. Mustaqillik davri nasrida Alisher Navoiy obrazini yaratishda Urfon Otajon, Omon Muxtor, Asad Dilmurod, Isajon Sulton, Muzaffar Mirzo singari ijodkorlar ancha barakali mehnat qilishgan. Bu davr prozasidagi jiddiy adabiy hodisalar sirasiga “Dilkusho bog‘lar” hikoyalarini, “Navoiy va rassom Abulxayr”, “Alisher Navoiy” romanlarini kiritish mumkin.

4. Zamonamiz kitobxoni Alisher Navoiyning badiiy siymosi yaratilgan ulkan panoramaga yon-



ma-yon turibdi. Ushbu navoiynomaning bir kichik qismi ham, kattaroq qismi ham Navoiy obrazining o'ziga munosib qirrasini aks ettiradi. Biroq ular birgalikda Alisher Navoiy obrazini yanada kengroq va yorqinroq aks ettiradi. Adabiyotshunoslik fanining vazifasi mana shu yonma-yonlikni samarali hamkorlikka aylantirish, kitobxon navoiynoma turkumiga oid asarlar bilan birga yashashi uchun amaliy yordam berish, asarlar va masalaning mohiyatini yoritib berishdan iboratdir.

5. Navoiy obrazini yaratishga bag'ishlangan nasriy asarlarni birlashtirib turuvchi jihatlar ko'p. Ularning barchasi bir mavzuda yozilgan. Ularda u yoki bu tarzda Alisher Navoiyning o'ziga xos badiiy obrazi yaratilgan. Barchasini nisbatan keng bo'lgan epik qamrov birlashtirib turadi. Adabiy qahramonlarning ijtimoiy-maishiy hayoti, faoliyatlariga berilgan urg'u ham umumiy mushtarak nuqtalardan birini tashkil etadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy va boshqalar doirasidagi jarayonlar tasvirida tarixiy haqiqatga mumkin bo'lgan darajada tobora ko'proq yaqinlashishga harakat ochiq seziladi. Ular o'rtasidagi ayirmalar esa mualliflarning uslubiga xos jihatlarga dalolat qiladi.

6. Mustaqillik davridagi hikoya va esselarda Navoiy siymosining o'ziga xos tasvirlar majmuasi yaratilgan. Ularda kichik lavhalar vositasida

adibning hayoti va ijodi, uning yuksak insoniy fazilatleri, shaxs va ijodkor sifatidagi keyingi davr avlodlarga, jumladan, ijodkorlarning shakllanishi va kamolotidagi ta'sir o'ziga xos tarzda ko'rsatib berilgan. Tarixiy haqiqat va badiiy to'qima yaxshi uyg'unlashtirilgan. Ammo bu davr hikoyachiligida Navoiy obrazi yetarli darajada badiiy kashf etilmagan.

7. Nasriy asarlar Alisher Navoiyning keng qamrovli faoliyatini nisbatan obyektiv, haqqoniy yoritgan hamda badiiyatning asosiy talablariga mos bo'lgan adabiy asarlar, o'zbek adabiyotining mustaqillik davridagi munosib namunalari sifatida yuzaga kelgan. Bu adabiy turdagi Navoiy obrazi talqinlari ijodkor shaxs konsepsiyasiga sig'maydi. Bu turdagi asarlarda Navoiy fenomeni, avvalo, inson, buyuk qalb sohibi, qolaversa, ijodkor, sodiq do'st, davlat arbobi, chinakam oshiq timsoli o'laroq gavidalantirildi.

8. Navoiy siymosini yoritishga oid Omon Muxtor tasvirlarida zamon chegaralari ko'rinmas holatga kelgan, aniqrog'i, unda tarix va bugun munosabatlarida o'ziga xos sintez – zamonlar qorishuvi amalga oshgan bo'lsa, asar oxirida bu borada bevosita emas, balki bilvosita yondashuv ustuvorlik kasb etgan. Omon Muxtor romanlarida Navoiy fenomenini badiiy tadqiq etish, undagi butun murakkabliklarni tushunishga intilish, shoir-

ning buyukligidan hayrat tuyish yaqqol ajralib turadi. Adib romanlarida Navoiy oshiq obrazida gavdalanadi.

9. Isajon Sulton esa Navoiy siymosini yaratishda xronologik tadrijiylikka tayanadi. Mana shuning o'zidayoq boshqalarga o'xshamaydigan yo'l axtarilayotgani seziladi. Tasvirda yangi va xolis tarixiy faktlarga suyanadi. Badiiy to'qima va talqinlarda ma'lum tarixiy haqiqatlar doirasida mustahkam tura oladi. Bu hol, ayniqsa, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari tasvirida aniq namoyon bo'lgan. Uzuq-yuluq tarixiy voqealar yaxshi asoslangan va ilhom onlari ishonarli tasvirlangan. Romanda "shoir Navoiy" obrazi yaxshi ochib berilgan. Shuningdek, Navoiy obrazining ilm-u hikmatga oshno, ilohiy ma'rifat mubtalosi sifatidagi talqinlari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

10. Muzaffar Mirzoning "Sham va shamshir" romani ham Navoiy siymosini buyuk qalb va iroda sohibi sifatida talqin etgani, Navoiy va Boyqaro do'stligining nozik jihatlarini keng badiiy tasvirlashga harakat qilgani bilan ahamiyatli. Lekin ushbu romanda tarixiy haqiqat va badiiy talqin chegaralari buzilgan o'rinlar ham yo'q emas. Umuman, nasriy asarlarda ham ayrim istisnolar – mavzuning tabiati va mohiyatini yetarlicha tasavvur eta olmaslik, me'yordan ortiqchalik,

poetik mahoratning yetishmasligi singari holatlar ham uchrab turadi. Ta'kidlash kerakki, mazkur asarlar zamondoshlarimiz – Navoiy muxlislarining o'tmishimiz, xususan, Alisher Navoiy shaxsiyati haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Ularning qalbida buyuk ajdodlarga vorislik va munosiblik tuyg'ularini tarbiyalashga munosib darajada hissa qo'sha oladi.

## IV BOB. DRAMATURGIYADA ALISHER NAVOIY OBRAZI

### 4.1. Alisher Navoiy ko‘pqirrali faoliyatining dramatik tasvirlari

Mustaqillik davri dramalarida Alisher Navoiy siymosining aks etishi mutlaqo tasodifiy emas. Aslida, o‘zbek dramaturgiyasi tarixiy mavzu tasvirida ancha katta tajribaga ega. Bu yo‘lning boshidayoq Fitrat “Vose qo‘zg‘oloni” nomli sahna asarini yaratgan edi (asar tojik tilida yaratilgan, uni Rahim Muqimov va Hamidulla Boltaboyev o‘zbek tiliga o‘g‘irgan)<sup>287</sup>. Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi ham shu yo‘ldagi jiddiy urinishlar mahsuli. Tarixiy mavzuning badiiy tadqiqida “Abulfayzxon” nafaqat Fitrat ijodida, balki XX asr o‘zbek adabiyotida ham alohida o‘rin tutuvchi asarlardan biridir<sup>288</sup>. Keyinroq Maqsud Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarini yozdi. Ozod Sharafiddinov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Ikki tarixiy asar: “Jaloliddin Manguberdi” bilan “Mirzo Ulug‘bek” xalqimizning ulug‘ bobokalonlari sharafiga qo‘yilgan

---

<sup>287</sup>Bu haqda qarang: Фитрат А. Танланган асарлар. III жилд. Драмалар, публицистик мақолалар. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Х. Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2003.

<sup>288</sup>Назаров Б. Фитрат // XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 131.

badiiy haykallar bo‘ldi”<sup>289</sup>. Uyg‘unning “Abu Rayhon Beruniy”, “Abu Ali ibn Sino”, “Zebuniso”, “Alisher Navoiy” dramalari esa ushbu silsilaning bebaho javohirlaridir. Akademik Baxtiyor Nazarov to‘g‘ri uqtirganidek: “Mohiyat e‘tibori bilan u salkam yarim asrlik o‘zbek dramaturgiyasi tarixiy taraqqiyotining sintezi o‘laroq maydonga keldi hamda dramaturglarimiz uchun “Abulfayzxon”, “Muqanna”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek”lar qatorida tarixiy dramaning o‘ziga xos bir namunasi bo‘lib qoldi”<sup>290</sup>.

Mustaqillik davrida Alisher Navoiy siymosini aks ettirgan dramalarni mavzu va masalaga yondashuv nuqtayi nazaridan shunday tasniflash mumkin:

1. Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatidagi siymosi gavdalantirilgan, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ijodiy faoliyati tasviri yetakchilik qiluvchi dramalar.
2. Alisher Navoiy hayoti, xususan, uning muhabbati, qalb kechinmalaridagi dramatism tasviri usuvorlik qiluvchi asarlar.

Bu turga mansub asarlarning barchasini kuchli dramatism, dramatik lahzalar tasvirigagina urg‘u berilishi kabi jihatlar umumlashtirib turadi. Shunga qaramay, har bir dramaning o‘z tabiati va mazmuni ham mavjud. Ta’kidlash kerakki, mustaqillik davri

---

<sup>289</sup>Шарафиддинов О. Шайхзода // XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 320.

<sup>290</sup> Назаров Б.

dramaturgiyasida Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini badiiy kashf etish, saroydagi foaliyatiga oid ziddiyatlarni yoritishga intilish, Boyqaro bilan munosabatlarini idrok etish ishtiyoqi kuchaydi. Shu ijodiy niyat bilan ko'pgina dramalar yaratildi.

Xususan, Muhammad Ali "Navoiy va Boyqaro" nomli besh parda, 11 ko'rinishli tarixiy drama-da 1495-1498-yillarda Xurosonda bo'lib o'tgan voqealarni qayta badiiy gavdalantirishga harakat qildi. Asarda Navoiy, Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Mirzo, Mo'min Mirzo, Behzod, Xadicha begim, Xondamir, Sulton Ali Mashhadiy kabi qator tarixiy shaxslar obrazlari harakat qiladi. Ular Navoiy shaxsini, uning ulug' mutafakkir va davlat arbobi sifatidagi qiyofasini ochishga, ayni damda, Xurosondagi voqealar silsilasida ishtirok etib, davr ziddiyatlari bilan Navoiy dunyoqarashi, ko'ngil olami, ezgu tilaklari, kurashlararo ziddiyatlar mohiyatini yoritishga xizmat qilgan. Dramadagi Opoq begim, me'mor, parvonachi, sardorlar, lashkarboshi, kanizaklar kabi personajlar saroydagi fitnalar, siyosiy o'tishlar oqibatida yuz bergan hayotiy fojialar dramatzimini ta'minlashga bo'ysundirilgan.

Bu asar qayta-qayta tahrirlanib, Navoiyning ijtimoiy-adabiy faoliyatini, uning zamoni va zamondoshlari haqida muallifning yangicha qarashi,

ohorli talqinlari orqali tasvirlandi. Milliy akademik teatr sahnasida namoyish etilgan bu spektaklni tomoshabin hayajon ila qabul qildi. Drama premerasida atoqli adabiyotshunos, teatrshunos olim va mutaxassilar tashrif buyurdilar. Akademik Baxtiyor Nazarovning va Shuhrat Rizayevlar asarining muvaffaqiyatli chiqqani haqida o‘z mulohazalarini bildirishdi. Chunonchi, aynan bu sahna asarining yaratilishi va oxirgi talqiniga qadar adabiy jamoa hamfikir bo‘lgani, oxirgi ko‘rinish yoritilishigacha bo‘lgan davrda mutaxassislar o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlarini aytib o‘tishdi. Xo‘sh, Muhammad Alining bu dramasi Navoiy haqida shu paytgacha yaratilgan asarlardan nimasi bilan farq qiladi?

Muhammad Alining “Navoiy va Boyqaro” dramasi Navoiy obrazini yaratishda dramaturgiyamiz tarixida yangi sahifa ochdi. Dramada buyuk shoir va tarixiy shaxs Navoiyning hayoti va faoliyatining o‘ziga xos bir qirrasini – Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro do‘stligi tasviri yangi rakursda kitobxoniga taqdim etildi. Bu, avvalo, Navoiy biografiyasining eng muhim tomonlari ko‘rsatilgani bilan belgilanadi.

Asarda dramaturg Navoiy bilan Boyqaro munosabatlaridagi eng muhim jihatlar talqiniga e‘tiborni qaratgan: shoh va shoirning samimiy, qudratli do‘stligi tufayli saltanat bilan yurt tinch-



ligi, farovonligining ta'minlangani, adolat qaror topgani; oqibatda, Xurosonning gullab-yashnaganining bosh sababi to'g'ri va yaxshi ochib berilgan.

Prolog bilan boshlangan voqealarga Xondamir va Behzodning dialoglari orqali aniqlik kiritiladi. Ular Hirotidagi dorulzamon hayotdan zavqlanadilar. Yurt tinchligini ta'minlagan Boyqaro va uning tayanchi, do'sti Amir Alisher haqida g'ururlanib so'zlaydilar:

*Sizga aytsam tengi yo 'q zot ulug' Amir,*

*Sherlar ichra zanjirband sher, ammo oliy sher!*

(Oliy bazm tushunarli, ammo sherning oliy va oliy emas turi bo'ladimi?)

Keyingi voqealar Mir Alisher Navoiyning buyuk "Xamsa" asarini yozib tugatgani sharafiga uyushtirilgan kecha tasviriga ulanadi. Asardagi she'rxonlik mushoiralari chog'ida Navoiy va Boyqaro hazratlarining nozik didi, she'riyat, ijod, ilhom onlarini chuqur his qilishi, fikrdosh ekani, ko'ngil olamlaridagi yaqinlik, o'xshashliklar yorqin namoyon bo'ladi.

Dramaturg voqealar shiddatini, drammatizmini ta'minlash maqsadida voqealarni Badiuzzamon Mirzoning Hirotga yurishiga bog'laydi. Ota-o'g'il o'rtasidagi ziddiyatlar qonli urushga borib taqalmasligi oldini olish maqsadida Navoiy shahzoda huzuriga o'tlanadi:

Boyqaro: Yaxshiyamki, siz borsiz, Alisher!  
Lekin... Bu... qandoq bo'ldi? Axir Jahonoroda...

Navoiy: Hoziroq yo‘lga chiqishim darkor, podshohim! Vaziyat charsillab turubdur. Vaqt ketmasun. Yurtning tinchligi har narsadan ko‘ra ham muhimroqdur. Bilaylik-chi ne vajdin Badiuzzamon Mirzoda bunday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi ekan?... Ko‘ndalang bo‘lgan savollarga javob olish uchun hazrat shahzoda bilan diydorlashib, uni murosaga undaydi:

*Zakiylar der: boyligingdir otang, yolg‘izing,  
Otangga ne qilsang – qilg‘ay o‘g‘ling va qizing...  
Rost aytdingiz, o‘g‘lini deb ota qon yutar...  
Oqil farzand otasini sarafroz etar...*

Shahzoda Navoiy nasihatlariga quloq tutib, lashkarni ortga qaytarish haqida farmon bergan vaqtda otasi – shahanshoh Husayn Boyqaroning vaziri va Xadicha begim uyushtirgan yangi fitna haqida xabar topadi. Ular ota bilan o‘g‘ilni qonli jangga kirishmoqlari uchun o‘ylab topgan “farmon” tufayli Badiuzzamon Mirzo va Boyqaro o‘rtasidagi ziddiyatlar chigallashadi. Bu o‘rinda tarixiy fakt va badiiy talqin muvozanati juda yaxshi saqlangan.

Dramani o‘qiganimizda Navoiy va Husayn Boyqarodan boshqa tarixiy shaxslar, xususan, Mo‘min Mirzo bilan ham tanishamiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, dramada tarixiy ruh bo‘rtib turadi. Unda qahramonlar konkret tarixiy sharoitda harakat qiladi. Qahramonlarsiz tarixiy jarayonni, tarixiy jarayonsiz qahramonlarni tasavvur qila

olmaymiz. Bular bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, o‘zaro dialektik birlikni tashkil qiladi.

Nusratullo Jumaxo‘janing “Haqiqat talqinlari” maqolasida “Shu paytga qadar badiiy adabiyotda Husayn Boyqaroning suyuqli xotini Xadichabegimning tarixiy obrazi alohida va keng yoritilmagan edi. Izzat Sulton va Uyg‘unning “Alisher Navoiy” dramasida “Ishtirok etuvchilar” ro‘yxatidan Xadichabegim mutlaqo o‘rin olmagan. Asarda to‘qima obrazlar Guli, Gulining onasi Xosiyat, Gulining dugonasi Qunduz, Gulining enagasidan boshqa birorta saroy xonimi yo‘q. Bu asar va yozuvchilarning kamchiligi emas, balki asar yozilgan davr navoiyshunosligining darajasi bilan bog‘liq hodisadir”<sup>291</sup>, deb to‘g‘ri ko‘rsatilgan. N. Jumaxo‘ja ko‘rsatib o‘tganidek, “Tarixan, Navoiyning Xadichabegimga munosabati drama-dagidan farq qiladi. Navoiy biror o‘rinda u haqda salbiy fikr bildirmagan”<sup>292</sup>.

Dramada XV asr uchun xarakterli bo‘lgan voqealar ko‘z o‘ngimizda jonlanadi. Ammo adib Navoiyni faqat siyosat maydonida ko‘rsatishnigina o‘ylagan emas. Asarda Alisher Navoiy siymosi ancha keng va rang-barang yo‘nalishlarda talqin va tahlil etilgan. Biz Alisher Navoiyni davlat arbobi, samimiy do‘st, chinakam oshiq sifatida ko‘ramiz.

---

<sup>291</sup> Жумахўжа Н. Ҳақиқат талқинлари // ЎзАС. 2017 йил, 12 май, № 20 (4419).

<sup>292</sup> Ўша ерда.

Shuningdek, Muhammad Ali Navoiy biografiyasi va davriga oid faktlarning muhimlarini tanlab olishda, adib siymosini o'ziga xos qilib tasvirlab berishda mohirlik bilan yondashgan. Muallif Navoiy obrazini yaratishda uning eng xarakterli belgilarini saralab oldi. Uni badiiy obraz darajasiga ko'tarib, shu paytga qadar dramaturgiyada Navoiy obrazini yaratgan (Izzat Sulton va Uyg'unning "Alisher Navoiy", Omon Muxtorning "Amir Alisherning dardi", Shuhrat Rizayevning "Iskandar", Naim Karimovning "Navoiy va Guli", Aron Shalamayevning "Oltin qafas ichra", Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" kabi) dramalardan farqli o'laroq, Navoiy siymosining yangicha, ohorli badiiy talqinini yarata oldi. Dramaturg ijodiy laboratoriyasida yangicha talqin birinchi navbatda Navoiy va Boyqaro munosabatlari tasvirida ko'rinadi.

Hayot haqiqatiga mos keladigan Navoiy va Boyqaro do'stligi dramada Alisher obrazining mukammal badiiy tip darajasiga ko'tarilishida, asar dramatzimini kuchaytirishda ko'rinadi. Xadicha begim, Nizomulmulk, Husayn Boyqaro ruhiyati kuchli dramatzim to'lqinida obrazlar xarakterini ochishda muhim rol o'ynagan. Yozuvchi bu obrazlar orqali ham tarixiy fakt, ham realistik dalillarga asoslanib, o'tmish tariximizni badiiy idrok etib drama voqeliklarini qalamga olgan.

Muhammad Ali asarda tarixiy shaxslar obrazi psixologiyasini ochishga personajlarning hayot yo‘llari, ularning individual xarakterlaridan kelib chiqib yondashgan.

Buyuk insoniy do‘stlik, qalb iztirobi, quvonch-u qayg‘ulari xalq va davlat o‘rtasidagi munosabat, xalqning jamiyatdagi roli va taqdiri muammosi “Navoiy va Boyqaro” dramasi g‘oyaviy mazmunini tashkil qiladi. Navoiyning hayoti va faoliyati tasvirida davr ruhini ko‘rsatishga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Navoiyning adolatli shoh ideallari uchun olib borgan kurashi, yovuzlik fojiasi hamda fojiani tug‘dirgan omillar dramada mohirlik bilan ochib berilgan.

Navoiy hamisha xalqqa chin ma‘noda jonfidolik qilgan. Vaziri a‘zam lavozimida bo‘lgan davrda ham xalqning uqubatli hayotiga chin dildan achinib, kuyingan. Yurt kulfatini o‘z kulfatiday his qilish, shu kulfat, shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish, elda adolat o‘rnatish uchun tinimsiz kurashish – Navoiy gumanizmining asosini tashkil qiladi. Shoir hayotning ma‘nosini xalq uchun qayg‘urish, uning turmushini yaxshilash yo‘lida tinimsiz dadil harakat olib borishdan iborat deb biladi. Lekin o‘zining butun ijtimoiy va ijodiy faoliyatini insoniylik tantanasiga bag‘ishlagan bu inson hamisha insonga munosabatda islohkorlik zaminida turdi.

*Odami ersang demagil odami,  
Onikim, yo 'q xalq g'amidin g'ami.*

Nohaqlikka qarshi adolat, zolimlarga qarshi odillik, jaholatga qarshi ma'rifat va saxovat, farovon hayot aqidalarini bayroq etib, til, tafakkur, insoniy fazilatlar g'alabasi uchun tinimsiz kurashdi.

Dramada Husayn Boyqaro va uning o'g'li Badiuzzamonning o'zaro toj-taxt uchun olib borgan kurashlari, farzand va ota munosabatlari tasviri xarakterlar rivojida muhim bosqich sifatida ko'rsata oladi. Yuz bergan fojialar, ayniqsa, Mo'min mirzoning o'limi oqibatida ota va o'g'il orasining buzilishi tarixiy voqelik asosida dramada ishonarli yoritilgan. Badiuzzamon bilan Husayn Boyqaro o'rtasida mehr urug'ini yana qadashi kabi holat tasviri Alisherning haqiqiy do'st va ustoz, chin insoniylik qiyofasini tomoshabin ko'z o'ngida jonlantirish imkonini beradi.

Husayn Boyqaro Navoiy ta'siri oqibatida shohlik qudratini mustahkamlaydi. Ayni paytda, uning Navoiy bilan umr bo'yi fikrdosh bo'lgani ham alohida ta'kidlangan. Navoiyning yurt obodonchiligi, fan, san'at va adabiyot ravnaqi yo'lidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu hol, Majdiddin boshchiligidagi yovuz kuchlarning Navoiyga qarshi zimdan kurashishlarini keskinlashtiradi. Mahdi ulyoning ig'volari, o'ta makkor, amalparast, munofiq Majdiddinning Na-

voiyga qarshi keskin kurashga kirishishi yangi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Navoiy o‘z ideal-larining sulton Husayn Boyqaro saltanatida ro‘-yobga chiqishini orzu qilgan. Ayniqsa, Husayn Boyqaro bilan do‘stligi haqqi hurmati saltanatiga va xalqqa xizmat qilishni o‘zi uchun muqaddas burch deb biladi. Uning yovuz kuchlarga qarshi kurashda jasur va tadbirkor inson sifatida qilgan harakati ana shu burchining taqozosi o‘laroq sodir bo‘lgan. Dramada bu jihatlariga ham alohida e’ti-bor qaratilgan.

Yovuz kuchlarning Navoiyning xayrli ishlariga qarshi zimdan keskin kurash olib borishi, sulton Husayn Boyqaroni o‘z ta’siriga tushishi natijasida Navoiy xayoli bilan haqiqiy hayot o‘rtasida kes-kin ziddiyat mavjudligini guvohi bo‘ladi. Yurtda zolimlarning iflosliklari, yolg‘on riyolarga duch keladi. Shunday bo‘lsa-da, umidsizlanmay dadil kurashishda davom etadi. Yuragi turli sitam, ig‘vo-yu tuhmatlardan to‘lib toshgan chog‘ida shogirdi Xondamir Navoiyga shoh Husayn Boyqarodan kechib ketish haqidagi taklifni aytganda, u do‘stga sadoqati (shoh Husayn Boyqaroga haqiqiy do‘st ekanligi) haqqi hurmati bunga rozi bo‘lmaydi. Bu hol, shoir o‘z hayotini xalq ishiga va tengsiz do‘stlikka bag‘ishlanganidan, go‘zal kelajakka yuksak ishonch bilan qaraganidan darak beradi. Drama asosini tashkil qilgan kurashning bu usuli

chindan ham tarixiy haqiqat in'ikosidir. Muhammad Ali dramasi o'ziga xosligi ana shu nuqtada o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, Navoiy haqida yozilgan boshqa dramalardan farq qiladi.

Dramada tasvirlanishicha, xalq va shoh oldida Navoiyning obro'-e'tibori nihoyatda baland bo'lganidan yovuz kuchlar unga qarshi oshkora kurashishga jur'at etolmay, uni yo'q qilish uchun yashirincha harakat qilib, fitna-fasodni kuchaytirib, unga "nihoni igna sanchar" edilar. Husayn Boyqaro – uncha-munchaga laqillamaydigan, yuz o'lchab bir kesadigan, voqea hodisa va kishilar xarakteri, holati, xatti-harakati mantiqidan birdan-bir to'g'ri xulosa chiqarib ola biladigan dono, tadbirkor bo'lgan. Shuning uchun ham toj-u taxtni eng murakkab sharoitlarda qirq yilga yaqin o'z qo'lida ushlab turolgan. Dramada bu jihatlar ishonarli tasvirlangan.

Shuningdek, Mo'min mirzoning o'ldirilishi oqibatida voqealar rivoji jarayonida vazir va Mahdi ulyo qilmishlari ochiladi. Uni konflikt taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan voqealarning o'zi, personajlar qilmishi ochib beradi. Xuddi shu masala Oybekning "Navoiy" romanida birmuncha muvaffaqiyatli hal qilingan. Bunda reaksiya kuchlar namoyandasi vazir Nizomulmulk Mo'min mirzoni o'ldirish haqidagi farmonga shohning qo'lini sevikli xotini Xadicha begimning hiylasi



orqali qo‘ydiradi – olovni boshqalar qo‘li bilan ushlaydi. “Shoh nabirasi fojiasiga, dastavval, Xadicha begim sababchi ekanini bilsa-da, unga biror chora ko‘rish xususida o‘zining ilojsizligini bo‘yniga olgan kabi, boshini quyi solib, jim” qoladi. Demak, ma‘lum sabablarga ko‘ra, shoh Mahdi ulyoni qilmishiga yarasha jazolay olmaydi. Jazolay olmasligini Xadicha begim oldindan biladi, shu boisdan shahzodani qatl etishday eng fojiaviy ishga jur‘at etadi. Ulug‘ tariximiz solnomalarida zikr etilgan ushbu hayotiy hodisalar Navoiy haqida yaratilgan deyarli barcha sahna asarlari markaziga qamrab olingan. Valiahd shahzodaning o‘g‘li, Navoiyning suyukli shogirdi navqiron Mo‘min Mirzoning qatl etilishi bilan bog‘liq voqealar Omon Muxtorning “Amir Alisherning dardi” dramasing ham finalini tashkil etadi. Har ikki dramaturg real hodisalarni turli rakurslardan badiiy talqin etganlar. Davr fojialari Navoiydek buyuk shaxs, yirik davlat arbobi, mutafakkir hayotidagi fojialarga aylanganini drama janri imkoniyatlaridan foydalangan holda jonlantirishga erishganlar.

Agar Omon Muxtor Navoiy qalbini o‘rtagan armon-u iztiroblari, dardlari mohiyatini yoritishda real tarixiy tafsilotlardan foydalangan bo‘lsa, Muhammad Ali Navoiy va Boyqaro munosabatlaridagi yorqin, ezgu, samimiyatga yo‘g‘rilgan do‘stlik tuyg‘ulari Xurosonning gullab-

yashnashiga, Boyqaro saltanatining mustahkamligiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgani, natijada yurt farovonligi ta‘minlanganiga e‘tibor qaratadi. Faravonlikni Navoiy shaxsi bilan Boyqaro siyimosidagi o‘xshash tuyg‘ular, yaqinlik fikriy ezgu maqsadlar birlashib, ma‘naviy qudrat kasb etganida, har ikki buyuk shaxs ham alohida, ham jipslikda butun temuriylar saltanatining mustahkamligi, qudrati timsoliga aylanganida deb tushunadi va shunday talqin etadi. Navoiy bu saltanatning “hidoyat sohibi, din-u davlat arboblari sarasi, xayr-u ehsonlar peshvosi, saltanat ustuni”, Boyqaroni “adolat, ma‘rifat, yorug‘lik, tinchlik va taraqqiyot tomon yetaklovchi, xalq peshvosi hamda umidi”, “muqarrabi sulton”, “haqiqat va din nizomi – Nizomiddin Mir Alisher” – “o‘z davrining yirik Shaxsi, ming yillarda bir yaratilmish ulug‘daho!” - deya ulug‘laydi.

Darhaqiqat, dramaturg Boyqaroning jo‘yali va zaif jihatlari ham tarixiylik tamoyiliga monand, haqiqat ko‘zgisida suratlantirgan: Xadicha begim, Majididdin kabilar qutqusi, fitnalariga dosh berolmagan kezlari uning zaif jihatlari ko‘zga tashlanadi.

Dramaturg Boyqaro shaxsiyatidagi ziddiyatli jihatlarni yoritib, obraz hayotiyiligini, ta‘sirchanligini ta‘minlay olgan. Qozikalon, vazir, parvonachi Navoiy bilan Boyqaro munosabatlariga rahna solmoqchi bo‘lib, “Xamsa”dagi zolim

podshohlar haqidagi fikrlarni ro‘kach qilganlarida podshoh asarni to‘la o‘qib, fahm qilganidan “shoir barchamizni zulmkorlikdan ogoh etmoqda” deya misralar mag‘zini zukkolik bilan sharhlaydi, Navoiyga bo‘lgan ishonch-u ehtiromini namoyish qiladi. Muborak haj safariga ruxsat so‘ragan chog‘i “u yurtga posbon, do‘stim bordir, ko‘ngillar tinch, yurt dorilomon!” kabi xayollar qurshovida izn bermaydi. Har safar uning iltimosini turli bahonalar bilan ortga suradi. Ayni tarixiy haqiqatning badiiy talqini Navoiy haqidagi deyarli barcha asarlarda, xususan, sahna asarlarida ham uchraydi. Sababi, dramaturglarning tarixiy asoslardan asar to‘qimasini yaratishda foydalanib, Navoiyning yurt-ulus uchun, davlatning tinchligi, osoyishtaligi uchun nechog‘lik ulkan ahamiyat kasb etganini ko‘rsatish maqsadi bilan izohlanadi.

Asarning eng dramatik pallasida g‘am-anduhda iztirob chekayotgan Navoiyga Xondamir: *“Hazrat, avf etadilar... Sulton Boyqaro sizning yaqin do‘stingiz bo‘la turib, sizga ozor yetkazdi, ardoqli Mo‘min Mirzoni – o‘z nabirasini qatl ettirdi! Shunday qabohatga yo‘l qo‘ygan kishi bilan do‘st bo‘lish mumkinmi? Hazrat! Bundoq kishidan yuz o‘girmoq eng to‘g‘ri yo‘ldir!”* – deya o‘z g‘azabini izhor etganida valiylik valiysi: *“Podshohdan yuz o‘giring, deysiz... Qandoq yuz o‘giray? Shoh G‘oziy birlan bir umrlik do‘stdir biz, umrimning*

*boyligi Sulton Husayn birlan do'stligimdir. Umrin poyoniga yetib turg'onda, nogahoniy bir sabab deb, qandoq qilib bir umrlik toat-ibodatimdan ayrilay, bu dunyoligimni sovuray? Bu adolatdan ermas! Ha, Mo'min Mirzo mening ardoqli shahzodam edi...Uning musibati har qancha og'ir bo'lsa ham bizning Shoh G'oziy bilan do'stligimizga daxl qilmakdan ojizdur!.. Shoh G'oziy bu gunohni bilib emas, bilmasdan g'aflatda qilib qo'ydi! Hozir do'stinga juda ham og'ir, unga malomat toshini otish emas, balki dardini yengillatadurg'on malham so'zlarni aytmagim, yupantirmagim joiz. U yolg'iz! Uning mendan o'zga do'sti yo'qdir! Hammasi – Ollohning irodasi!”<sup>293</sup> – deya javob qaytardi.*

Navoiy yuz bergan fojialar tag zamirida mulk talashishgina emas, balki Navoiy bilan Boyqaro do'stligiga rahna solib, ikki do'st qudrati bilan qad ko'tarib turgan saltanatni qo'porish, Boyqaroni yakkalab qo'yish va oxir-oqibat Navoiyning undan yuz o'girishi tufayli davlatning o'z ustunidan ayrilib, zaiflashishi, elning noroziligi, podshohga ixlos-u ishonchi, hurmatining so'nishi, ichki va tashqi nizolar kuchayishiga sabab bo'lishini chuqur anglagan holda ish yuritadi, fikrlaydi. Dramaturg tarixiy voqealarning hozirgacha badiiy talqinini to'laqonli aksini topmagan nuqtalarga

---

<sup>293</sup>Али Мухаммад. Навоий ва Бойқаро. – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 2018. – Б. 131.

diqqatimizni tortgan, Navoiy shaxsini kitobxon-  
ga yangi jihatlardan tanish va anglash imkonini  
bergan. Navoiyga xos ulug‘lik, pir-u valiylik,  
donishmandlik qudrati shu tariqa Boyqaro bilan  
do‘stlik rishtalarining bu qadar mustahkamligi  
sabab-oqibatlarini talqinida namoyon bo‘ladi.

Erkin Samandar Navoiyning ko‘ngil olamiga  
kirish vositasi sifatida yaratgan Gulnigor obrazi  
esa Samarqanddagi bir necha yilli hayoti bilan  
chambarchas bog‘liqlikda gavdalantirilgan. U  
go‘yo shoirning ilhom parisi timsoliga o‘xshaydi.  
Josuslar bu yerda ham Navoiyni tinch qo‘ymaydi-  
lar, ortidan soyadek ergashadilar. Shahar hokimi  
Ahmad Hojibek kabi diyonatli odamlar tufayli  
Navoiy shaxsi va hayoti himoya qilinadi. Ayni  
damda Navoiy Abdulloh va Bozorgul muhabbatini  
himoya qilib, asossiz tuhmatlar qurboniga aylangan  
oshiq yigitni dor ostidan qutqarib qoladi. Adolat  
tantanasi qaror topadi. Hirotdan yiroqda bo‘lsa-da,  
Navoiy hamisha adolatni tik turib himoya qiladi,  
begunoh odamlar joniga qasd qilgan qozi, mir-  
shab kabi gumroh amaldorlarni fosh etadi.

Dramaturg Navoiy hayotining ma‘nosi, imon-  
e‘tiqodi, el-ulus tinchligi, farovonligi uchun ku-  
rashdan iborat bo‘lganini yangi qirralardan xilma-  
xil odamlar hayotidagi dramalar fonida yoritir  
ekan, podshohdan tortib oddiy fuqarogacha unga  
adolat, shafqat, dono yo‘lboshchi timsoli sifatida

ishonch ko'zi bilan qaraganiga diqqatni tortadi. Erkin Samandar o'z asarida Navoiyni ziddiyatli tarixiy voqealar, urushlar, nizolar ichida emas, ko'proq odamlar orasida, olimlar davrasida tasvirlaydi. Asardagi oddiy mudarris Shoshiy ham hokim Ahmad Hojibek, Abulaysiy kabi taniqli olim ham, ilmi tolib Abdulloh, devona mulkiy singari oddiy xalq vakillari ham Navoiyni buyuk iste'dod sohibi, ma'rifatparvar, adolatparvar, mard inson sifatida qadrlaydilar, izzat-ikrom ko'rsatib, samimiy munosabatda bo'ladilar. Holbuki, asarda Navoiyning 25-29 yoshlardagi hayotidan lavhalar qamrab olingan. Demak, o'ttiz yoshga to'lmasdan u Hirot-u Marv, Samarqand-u Astrobodga tanilgan iste'dod sohibi bo'lgan. El nazariga tushgan, ulus mehr-u hurmatiga sazovor bo'lgan. Asarda Navoiyning Samarqanddagi qisqa hayoti umr kitobining eng lazzatli, unutilmas, mazmunli, ijod va ilm o'rganishga baxshida etilgan sokin ham maroqli davri bo'lgani; Navoiyni Samarqandning ikkinchi osmoniga aylantirgan Amir Temur tuzuklari, Ulug'bek Ziji, Abulaysiy ustod bergan ilm-u hikmatlar, ezgu amallari bilan elga xizmat qilgan Ahmad Hojibek kabi pok dilli insonlar suhbatlari, olimlar davrasi... Navoiyning Samarqand ahliga ko'rsatgan cheksiz mehri, sahovati, nazm durdonalari edi. Navoiyning Samarqandga munosabati ham bir xil yo'sinda tasvirlangan.

Xususan, Alisher Navoiyga samarqandliklarning hamda Alisher Navoiyning ularga boʻlgan munosabati ustuvor mavqe kasb etadi. Bunda munosabatlarning rang-barangligi, hatto, birgina mehr-muhabbat, eʼzosi, ikrom qilishning ham rang-barangligiga alohida eʼtibor berilgan.

Dramada Navoiy shaxsining yuksalishi imon-eʼtiqod sobitligi, ilm-u ijoddan olgan maʼnaviy kuch-qudrat bilan birlashib uni ulugʻvor iqbol zinasiga olib chiqqani; Samarqandda qad rostlagan bu yorugʻ zinadan Navoiy osmon qadar koʻtarilib borganligi asar soʻngidagi Abulaysiy monologi orqali ifoda etilgan.

Shuhrat Rizayev nafaqat taniqli adabiyotshunos, balki mohir dramaturg ham. Olim ilmiy izlanishlari, xususan, jadid dramaturgiyasi haqidagi monografiyasida ilgari surilgan teran mulohazalar, fikrlar ifodasi kitobxonni befarq qoldirmadi. U “Iskandar”, “Ona”, “Diskoteka” singari qator dramatik asarlarning muallifi. Shuhrat Rizayevning “Maʼnaviyat manzillari: pyesalar va maqolalar”<sup>294</sup> (2008) kitobiga “Iskandar” nomli ikki perda, sakkiz koʻrinishli drama ham kiritilgan. Bu asar, aslida, oʻtgan asrning 90-yillarida Alisher Navoiy “Xamsa”si ohanglarida bitilgan. Asarning boshi va oxirida keltirilgan Alisher

---

<sup>294</sup>Ризаев Шухрат. Маънавият манзиллари: Пьесалар ва мақолалар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – Б. 4-33.

Navoiy va shayx Nuriddin Jomiy suhbatlari istisno qilinsa, dramaning har bir ko‘rinishida Navoiy obrazi kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Mazkur ko‘rinishlar so‘ngida u voqea-hodisa va holat-kechinmaga mutanosib kuy-ohanglarda sahna oldida paydo bo‘lib, tomoshabinga qarata xitoblar qiladi<sup>295</sup>.

Navoiy dostonlari nega dramaturg diqqatini jalb qildi, degan haqli savol tug‘iladi. Bizningcha, “Xamsa”dagi qissa va hikoyatlar barcha zamon va makonlarda ham ahli donish hamda ahli ma’ni e’tibori-yu e’tirofida bo‘lib kelgan. Agar diqqat qilinsa, dramaga asos bo‘lgan “Saddi Iskandariy”ni yozishda Navoiy qisman afsonaviy, ammo o‘z davri uchun mo‘tabar bo‘lgan manbalarga tayanib ish ko‘rgan<sup>296</sup>. Jumladan, doston muqaddimasida Odam Atodan to Muhammad Mustafo (*s.a.v*) gacha o‘tgan podshohlar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Nazarimizda, ulardan quyidagi muddaolar ko‘zlangan:

*Birinchidan*, foniy dunyoda sarvar topib mag‘rurlikka berilish aqldan emas. Zotan, mulklar asl egasi ham, jon ato etib uni olg‘uvchi ham Tangridir.

<sup>295</sup>Qarang: Биринчи парда, – Б. 9,11,15; Иккинчи парда, – Б. 17, 22, 25, 30.

<sup>296</sup>Алишер Навоий асарларида тарихда тўрт минг уч юз ўттиз икки йилу ўн ой ҳукмронлик қилган тўртта сулола: пешдодийдар, қаённийлар, ашқонийлар ва сосонийлар ҳақида мухтасар маълумотлар келтиради. У таянган “тарих” ларда ўтмиш муайян даражада афсонавий характерда баён қилинган. Айрим шоҳлар беш юз йил, эҳтимолки минг йил ҳукмронлик қилишгани ҳақидаги ахборотлар бу фикрни тасдиқлайди.



*Ikkinchidan*, dahri dun tashlab ketiluvchi mas-kan ekan, shoh o‘zining butun e‘tiborini hukm-dorlik rusumini e‘tiqod, adolat, donolig-u tad-birkorlik, xalqparvarlig-u bunyodkorlikka qara-tishi, saxovatpesha bo‘lmog‘i darkor. Zotan, zulm va sitamkorlik qilgan Zahhok, Afrosiyob va Ashki Doro; ishratparast Qubod ibn Feruz, Parvez ibn Bahrom; azizlarni xor qilgan Sheruyaga o‘xsha-gan kimsalar olamga ustun bo‘la olishmagani ibrat olgulik misollardir, – degan fikrlar tasdig‘i uchundir. Demak, Navoiy odam-u olamga aql va tafakkur nazari bilan qarashga da‘vat etmoqda. Anglashiladiki, drama mehvarida ham ana shu da‘vat ruhi turadi.

Shuning uchun, dramaning birinchi pardasi ritmida kuzatilgan rud sozining hazin va fig‘onli ovozi asta-sekin dilkash va orombaxsh sadolar bilan almashinadi. Ikkinchi pardada esa, pahlaviy kuylari nag‘ma-ohangiga xos g‘amgin qo‘shiq yangrab, asta-sekin “Shohnoma” shijoatkor ohanglari bilan almashinadi. So‘ngra qayg‘u-hasratni unutish tilagidan kelib chiqib, shodlik qo‘shig‘i yangraydi. Ammo keyingi ko‘rinishda dunyodan navo tilab, benavolig‘ yo‘lini tutgan shoir ruhiy po‘rtanalariga mutanosib tarzda chang mungli kuyiga fig‘onli yig‘i jo‘r bo‘ladi. So‘ngra nayning rohatbaxsh navolari taraladi. Drama finalida esa, Qur‘on tilovati sadolari yangraydi.

Ko‘rinadiki, g‘am – shijoat – xurramlik – mung – sokinlik ohanglari kitobxon (*tomoshabin*) ong-u ruhiyatiga ta‘sir etadi. Almashinayotgan ritmga monand kechuvchi jarayonlar go‘yo inson umri – insoniyat taqdiriga ishoradai tuyuladi.

“Xamsa” da Navoiyning inson, borliq, o‘zlik, ilohiyot, din, tasavvuf haqidagi falsafiy va hayotiy qarashlari ifodalangan. Ayniqsa, “Saddi Iskandariy” qahramonlik eposi shoirning adolat va ma‘rifat haqidagi estetik ideali, ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasining yorqin ko‘zgidir. Doston leyt-motivida markazlashgan davlat uchun kurash motivi, adolatli shoh romantik obrazi yotadi<sup>297</sup>. Navoiy poetik fantaziyasiga ko‘ra, jamiyatda adolat, ma‘rifat, osoyishtalik va farovonlik qaror topishi ideal qahramon siymosidagi ibrat bo‘lgulik ezgu xislatlarga bog‘liq. Tiynatida shoh va olimlik sifatlari uzviy tutashgan Iskandar timsolini XV

---

<sup>297</sup> Ma‘lumki, qadimgi dunyo mashhur lashkarboshisi va davlat arbobi “Iskandar” obrazi Klitarx, Oneskrit, Plutarx tarixiy-biografik asarlari; grek, fors, miyion, baqtriya, shak, parfiyoniy, xorazmiy va boshqa xalqlar afsona-rivoyatlarida yashab kelgan. Ilohiy qudrat simvoli - Iskandar haqidagi tasavvur va talqinlarda ahmoniylar sulolasi hukmronligini yemirib, zardushtiylikka barham bergan zulmkor kimsa xarakteri va nasl nasabigacha mutlaqo o‘zgarib ketgan. U dastlab misrlik va keyinchalik eroniy hukmdorga aylanib afsonaviy-tarixiy xarakter kasb etgan. “Iskandar va Devona”, “Iskandar va xoqon” tipidagi rivoyatlar, “Iskandari Zulqarnayn” kabi ertaklarda u donishmand, xalqparvar, olijanob inson sifatida idrok etilgan. Mahmud Qoshg‘ariy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Bayzaviy, Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy va boshqa ko‘plab adiblar asarlari hamda folklor namunalari bilan yaqindan tanishgan Navoiy ham adabiy an‘anaga ijodiy yondashib, jahongir falasuf obrazini yaratgan. Batafsil ma‘lumot uchun qarang: Ismoilov I. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезиси ва поэтикаси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2022.

asrga yaqinlashtirgan Navoiy mazkur fozil shaxs obrazidan muayyan amaliy maqsadlarni ko'zlagan. Ya'ni o'z davri ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'rifiy muammolariga urg'u bergan.

Dostonda bosh qahramon hayoti-faoliyati silsilasi bir necha epizodlar asosiga quriladi va aksariyat "sarguzasht"lar shohning olimlarga munosabati va ular bilan hamkor-hamnafasligi negizida kechib, asar ijtimoiy-falsafiy mohiyati chuqurlashadi. Dramaturg esa o'z asariga Navoiyning butun boshli dostoni emas, balki Faylaqus hayotining so'nggi kunlari, Iskandarning taxtga chiqishi va Doro bilan muzokaralari hamda ikki lashkar to'qnashuvi jarayonlarini asos qilib oladi. Dramaga teranroq razm solinsa, aslida hukmdorlar emas, balki donishmandlik va jaholat to'qnashib, adolat qaror topadi.

Iqtidorli shahzoda Iskandar oqil, olijanob ma'rifatli inson. Ilm-fan homiysi va bag'rikeng, beg'araz amallar sohibi. U tadbirkor, muruvvatli, karami keng va qanoatli shoh timsoli. Shohning bunday go'zal fazilatlari Arastuning otasi Naqumojis ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq tarzda izohlanadi. Valiahd otasi Faylaqusning o'rniga toj-u taxtni egallash jarayonlari g'oyatda hayratangiz tarzda tasvirlangan. U og'ir va mas'uliyatli vazifani egallashga mutlaqo shoshilmaydi. Bilim va tajriba orttirishga shaylangan shahzoda o'zini "notavon"

va qobiliyatsiz sanaydi. Hukmdorlikni qabul qilishda turli andishalarga boradi. U mol-davlat-u mansab-martabaga intilmaydi.

Yuqoridagi singari jihatlari beixtiyor Xoqon taklif qilgan toj-u taxtga talpinmagan ilm-hunar, tajriba-malaka orttirishga harakat qilgan Farhodni esga soladi. Har ikkala qahramon ham xudbinlikdan yiroq, oqil-u dono, kamtarin kishilar, ideal timsollari. Ular mamlakat osoyishtaligi, el-yurt farovonligi uchun fidoyi kishilar ekani bois taxtga munosib. Jumladan, Iskandar el-yurt ra'yiga ko'ra taxtga chiqib, boshqaruvda adolat o'rnatilishi, mamlakatda osoyishtalik va farovonlik barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Xususan, qisqa fursatda amalga oshirilgan ishlar: fuqaroni ikki yillik xirojdan ozod qilish, zulmkor amaldorlarni mansablaridan chetlashtirish va jazolash, bozorlarda ko'zbo'yamachilikka barham berish, haqsizliklarga chek qo'yish kabi hollar shular jumlasidandir.

Binobarin, Navoiy konsepsiyasiga ko'ra: shoh – fuqaroga insof, adolat yetkazuvchi shaxs. Zolimlar zulmini kesuvchi najotkor. Shuning uchun Iskandar Rumning otasi hukmdorlik paytida Doroga to'layotgan xirojini to'xtatadi. Shoh Doro g'azabi hamda urush xavfini bartaraf etib, raqibini kechiradi. Hatto, Doro vasiyatiga amal qilib, suiqasdchilarni jazolaydi. Uning qarindosh-urug'iga aziyat

yetkazmay, qizi Ravshanakka uylanadi. Bularning barchasi, Iskandar olijanobligining yorqin belgilari sifatida talqin etiladi.

Mustaqillik yillarida xalqimizga yanada yaqinlashgan Navoiy dostonlari va ularga xos ohanglarda yangi drama yozilishi Navoiy siymosi, uning ijodiga, qahramonlari va shaxsiyatini bilishga intilishni ko'rsatadi. Dramada Navoiy davrida Yaqin va O'rta Sharqqa yaxshi ma'lum bo'lgan, "Saddi Iskandariy"da tasvirlangan: Arastu (Aristotel), Suqrot (Sokrat), Aflotun (Platon), Xurmus (Germes), Buqrot (Gippokrat) va boshqa faylasuflarning obrazlari mavjud. Ammo Navoiy kabi dramaturg yunon allomalari tarixiy obrazini yaratish yoxud ular ijtimoiy-falsafiy qarashlarini sharhlash maqsadini ko'zlashmaydi.

Bilamizki, mazkur obrazlar Navoiy dostoni voqealari va uning g'oyaviy motivlari rivojida muhim o'rin tutib, pirovardida Iskandar obrazini to'ldirish hamda takomillashtirishga xizmat qildiriladi. Zotan, Iskandar har bir murakkab masalada olimlar bilan kengashib, ularning oqilona fikr-mulohazalariga amal qiladi. Muammolarni olimlar ko'magi bilan hal etib, xavf-xatarlarni bartaraf qiladi. Allomalarning ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralashuvi, aslida, Navoiyning ilm-ma'rifat va sog'lom tafakkurning hayotiy natijalariga bo'lgan ishonchidan oziqlanadi. Shunday ekan, dramada

ham ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy muammolar olimlar tilidan bayon qilinishi tabiiy hol. Chunki Navoiy davri ilmiy yutuq va farazlari, shoirning insonparvarlik qarashlari ular nutqi hamda suhbatlari orqali oydinlashadi.

Dramaturg xamsachilik an'anasining Navoiy ijodiga kirib kelishini Jomiy shaxsi bilan chambarchas bog'laydi. "Xamsa" yaratish nechog'lik murakkab va mas'uliyatli, zahmattalab ijodiy mashg'ulot ekani haqidagi bu kabi o'rinlarda biz Jomiyini ijodiy ta'lim berish va Navoiyini esa uni o'zlashtirish jarayonida kuzatamiz. Navoiyning xamsa yoza olamanmi yoki yo'q deya andishaga borishi Iskandarning daf'atan shohlikka rozi bo'lmagan holiga qiyoslanadi. *"Ajab, shu choqqacha g'oyibdan kelgan kuch qudrat ko'nglimda zavq-shavq o'tini yana alangalatadi-yu, biroq xayolda "uddalay bilamanmi-yo'qmi", degan qurquv tug'yoni charx uraveradi. Baayni shohlik taxtidan oyoq tortgan Iskandar kabi..."*. Karami keng Tangridan yetgan ulug' fayz – g'oyibona ilhom kuch qudrati bois Navoiy bu vazifani qoyilmaqom uddalaganki, *"Xiradnomai Iskandar"* asarida Jomiy: *"Osmondan maqtov yog'sin ul qalamga"* deya e'tirof etishga majburiyat sezadi. Darhaqiqat, *"Xamsa"* yaratish o'sha davr talabi, turk qavmi orasidagi xushta'b va sof idrok kitobxon ehtiyojini mas'ullik ila anglagan Navoiy ruhiyati, tafakkur yuksakligi, poetik mahorati nishonasidir.

Dramaning ikkinchi ko‘rinishida biz Iskandarning otasi Faylaqus obrazini uchratamiz. U o‘z ahvoliga tafakkur ko‘zi bilan boquvchi, taqdirga tadbir yo‘qligini yaxshi anglagan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Qarilik ranj-uqubatlaridan shikoyat qilsa-da, o‘tgan umriga shukrona bilan yashayotgan va o‘z ixtiyori bilan toj-taxtni topshirish istagida bo‘lgan bu shaxs tutumlari uning baland ma‘naviy darajasini ko‘rsatadi. U ota sifatida tiriklik ayyomidayoq o‘g‘lining yurt so‘rashidan mamnuniyat sezsa, hukmdor sifatida boshqaruvda el manfaatini ko‘zlash g‘oyasini oshkor etadi. Otabolaning e‘tiqodi but. Faylaqus o‘g‘li Iskandarning fe‘lida kuzatiluvchi “*ta’bi tozalik*” istiqbolda saltanat ishida xaliqit berishi mumkinligidan xavotirda. Qizig‘i shundaki, Iskandar xokisorlikni shohlik, deb biladi. Shu bois dunyo ishlariga beparvolik bilan qaraydi. Hatto, uning ko‘ngli darveshlikni tilaydi. Shohlikday mushkul savdoni odam bolasi uchun ortiqcha yuk, deb hisoblaydi. Bunday hollar Iskandar qalbi halimlikka moyil ekanini ko‘rsatadi.

Albatta, u hukmdorlik aql va tadbir bilan bo‘lishi, rahmdillik hamda qahr-u g‘azab qo‘shilsagina shohlik poydor bo‘lishini biladi. Otasining astoydil o‘tinchi yurt va fuqaro tashvishini zimmasiga olib, siyosatga faol aralashadi. Ammo padari kutganiday, uning tabiati keskin o‘zgarmaydi. Shunday bo‘lsa

ham, mamlakatga begonani qo‘ymaydi. Otasi nomus-orini ko‘z qorachig‘iday saqlab, shon-shuhratini yanada orttiradi.

Sh. Rizayev estetik konsepsiyasida ham dunyo bir nafaslik va g‘animat maskan. Moddiy olamdagi mavjud narsalarning baqosiga umid yo‘q ekan, toj-u taxt ham o‘tkinchi, degan navoiyona dunyoqarash ta’siri ko‘zga tashlanadi. Demak, falak bevafoolidan shikoyat ruhi ustuvor bo‘lgan kezlarda jaranglagan rud vafosiz jahon bilan vidolashuv, dunyoni unutmoq kuyini taratadi. Anglashiladiki, dramaturg asarining “Xamsa” ohanglarida bitilganiga alohida urg‘u berishi bejiz emas ekan. U fikran va ruhan dunyo g‘amlariga chora izlagan Navoiy va uning qahramonlari safida turadi. Ko‘ngil istagi va ota vasiyatidan qay birini tanlashini bilmay, ikki o‘t orasida qolgan kimsasiz hamda tasalliga muhtoj Iskandar o‘z g‘amlariga chorasizlikdan chora topadi.

Dramaturg ayni lahzada gadolikni ixtiyor etgan mag‘riblik podshoh va hukmdor Iskandar muloqotini berib, fikrni yanada chuqurlashtiradi. Gado himmati qoshida nafaqat hayron va lol, balki ta’rifga sig‘mas darajada xijolatda qolgan Iskandar uning jo‘n bir faqir emas, balki to‘la oqil va olim ekanini e’tirof etishga majbur bo‘ladi. Mol-dunyoga rag‘bati bo‘lmagani bois toj-taxtdan yiroqligidan baxtiyor bo‘lgan darvesh koshonani emas, vayronani maskan tutgan. Illo, bu maskan



ham omonat. Shunday ekan, jahon ahlining o‘zaro bevafofigida biror mantiq bormi? Dunyo g‘am chekishga arziyasiz manzil ekan, mol-dunyo, zebziyat ilinjida bir-biriga firib berishni kasb qilib olgan qavmda farosat mavjudmi? Bizningcha, dunyoga etak silkigan darvesh obrazi orqali Navoiy shohlikdan gadolikni afzal sanagan. Chunki jahondardan ko‘ra darveshni ozodroq ko‘rgan. Shuning uchun ham Darvesh dunyodan dil uzib, ruhlarga ulfatlikni saodat deb biladiki, shoh va gado problemi ya‘ni, insonning jamiyatdagi mavqeyi masalasida paydo bo‘luvchi nizo va nifoqlarni Navoiy darveshning himmati foydasiga hal etadi:

*Darvesh: Hargiz qabristonda kezar ekanman, bir muammo dilimni o‘rtaydi. Bu so‘ngaklarning qay biri shohnikiyu, qay biri gadoniki? Bu ikki mato o‘lgandaku bir, nechun tiriklikda nizo qiladilar?!*

*Iskandar: Ha, o‘ylaring adoqsiz, savdolaring kushoyishi gumon ekan. Ammo himmatning balandligi meni lol etdi. Bu himmat ulug‘ martabalarga xos. Voqian sening rutbang shohlig‘ ekan.*

Ko‘rinadiki, faqirlik – hushyor aql va tafakkur nishonasi. Faqirlikdan faxr etish – ulug‘ himmat va kamtarlik belgisi. Zotan, olamda intihosiz hayot, boqiy yigitlik, abadiy boylik va bezavol shodlik yo‘q. Shuning uchun ham drama ritmida ohanglar uzluksiz almashinadi. Tangrining karamidan umidvor Navoiy odam-u olam haqidagi qayg‘uli o‘ylar-

dan siqilgan kezlarda o‘kirib-o‘kirib yig‘laydi. Bunday lahzalarda yangragan fig‘onli kuy uning o‘ylarini yanada kuchaytiradi. Kitobxon jahon g‘am-kulfatiga qo‘l siltashning yagona yo‘li faqirlik va kamtarlik ekanini uqtirayotgan Navoiy hazratlari bilan fikran va ruhan uchrashadi. Shoir talqinicha, ro‘yi zamin shohlari: o‘limning yo‘lini to‘shish, vaqtni jilovlash, taqdirga tadbir belgilash, shodlik va g‘amning o‘zaro o‘rin olmashinuviga chora ko‘rishdan ojjizdirlar. Demak, genial shoir va unga ergashgan dramaturg estetik konsepsiyasiga ko‘ra faqirlik martabasi – ikki dunyo asroridan ogohlik o‘laroq, himmat bobida shohlik mansabidan ulug‘dir.

Binobarin, bunday ibratangiz misollar kelib chiqishi jihatidan kayoniylar hukmdori hisoblanuvchi<sup>298</sup> Iskandar qissasi bayoni uchun o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi. Olimlar pand-

---

<sup>298</sup>Шарқ мамлакатларида Искандар, Искандар Зулқарнайн номлари билан машхур бўлган македониялик саркарда ва давлат арбоби Александр (Искандар Макдуний) нинг каёнийларга дахли йўқ. Аммо у қадимги дунёнинг энг йирик салтанатларидан бирини (географик хуудди Хинд дарёсидан Дунайга қадар чўзилган) бунёд этгани тарихий ҳақиқатдир. Отаси Филипп II, устози Аристотел, рафиқаси Равшанак (Роксана аслида Оксиартнинг кизи); рақиби Эрон подшоси Доро III ҳақидаги воқеалари тарихий ҳақиқатга қисман мос келади. Достонда Навоий эстетик идеали билан боғлиқ тарзда юзага чикувчи бадиий тўқима ва идеаллаштириш ғоятда кучли. Шоир уни объектив феномен сифатида тасаввур қилган. Шу модел асосида ўз даври ҳукмдорларини тушунишга интилган. Адабий қаҳрамонларга дахлдор бу жиҳатлар драмада тўла сақлаб қолинган. Бу ҳақда тўлиқроқ маълумот олиш учун қаранг: Ковалев С.И. Александр Македонский. – Ленинград, 1937; Тревер К. Александр Македонский в Согде. // “Вестник истории”, 1947, № 5; Бертельс Е.Э. Роман об Александре и его главные версии на востоке. – М.: Наука, 1948.

nasihatlari bosh qahramonni sabr-u irodaga undaydi. Ular hamdardligi ko'ngliga taskin bersa, pandlari esa teran xulosalariga asos bo'ladi. Iskandarni hayotga tafakkur va mulohaza nazari bilan qarashga o'rgatadi. Uning basirat ko'zlari yorishadi. Vujudida pinhon sifatlarni kashf etishni o'rganadi. Vujud libos ekanini anglagach, uning ortidagi qalb olami tilsimlari sari talpinadi. Dramada Sh.Rizayev buni Rumiya rivoyatlar asosida tasdiqlaydi va qissadan hissa chiqarish yo'lidan boradi. O'rni bilan shohlik "tuzuklari"dan ogoh etib, ulardan ibrat olishni Iskandar, ayni paytda kitobxon (tomoshabin) ixtiyoriga qoldiradi. Orombaxsh kuy taralgan lahzalarda biz benavo dil sohibi bo'lmish Navoiy qalbi dilkash sadolarga mushtoq ekanini tuyamiz.

Demak, dramada tasvirlangan Iskandar aqlli, donishmand va olijanob obraz. Ilm-u hikmat ishini qo'llaydigan zabardast va dilovarsifat yigit sifatida namoyon bo'lgan. U Eron-u Rum osoyishtaligini tilaydi. Ammo voqealar rivoji uning istagiga zid tarzda davom etadi. Dramada pahlaviy kuylari nag'ma ohangi taralishi bizga afsona ravon davom etayotganidan darak beradi. Muhimi, dramaturg inson tabiatiga zid bormaydi. Chunki odamlar tutumini ularning ichki mayllari boshqaradi, deb biladi. Har bir ishda tafakkur yo'lboshchi, qanoat hamroh bo'lishi lozimligini yoqlaydi. Shu bois

uning talqinidagi allomalar ham taqdirga rizo, ayriliqqa sabrli bandalar, xolos. Zotan, Tangri irodasiga ko'ra ochun shunday tartib asosida qurilganki, olam harakati intiholi va uning ajralmas uzvi bo'lmish odam bolasi ham omonatdir. Shunday ekan, hukmdor farosati uning ziyrakligi belgisidir. Beaqlning johilligi tufayli urush oloviga moy purkalganida Navoiy ham "Shohnoma" ohanglariga mayl bildiradiki, kin va adovat jangi mahalida lashkarga shijoat zarurdir. Shijoatki, u shoir qalami bilan jahondan osoyishtalikni ketkazishga qodir bo'lgan fitna quyuniga qarshi la'nat o'qiydi.

Adabiyotimizda zamonaviy mavzu juda muhim bo'lgani holda, tarixiy mavzu ham zarur. Zotan, zamonaviylik faqat shu kunlardan olib yozilgan asarlar orqaligina hal qilinmaydi. Yozuvchi tarixga, o'z el-yurti iqboli uchun jonfidolik qilgan, hayoti va ijodi bugungi avlod uchun ibrat bo'lgan buyuk shaxslar hayotiga murojaat etish orqali bugunimiz uchun muhim xulosalarni topishimizga turtki beradi. Tarix qatidan o'rnak olsa arzirli haqiqatlarni topib, bizga taqdim etadi. Chinakam yozuvchi o'tmishni hozirgi zamon orqali kelajak bilan bog'lovchi ko'prik tarzida tarixga kiradi.

Navoiy obrazini yangi jihatlardan badiiy talqin etishga intilish tendensiyasini o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodi misolidagina emas, o'zbek

tilida yozilgan Isroil yozuvchisi Aron Shalamayev qalamiga mansub yana bir drama orqali ham kuzatish mumkin. Ijodkorning “Oltin qafas ichra” nomli dramasi II parda VIII ko‘rinishdan iborat bo‘lib, unda ham qator tarixiy shaxslar obrazi: Navoiy, Boyqaro, Xondamir, Sayfiddin Ahmad Taftazoniy, Shayx So‘fi Ali Mashhadiy kabilar harakat qiladilar. Mohtal’at, Ahmadiy, usta Salom, Matmuso Jurjoniy, Abdulhay tabib kabi epizodik va to‘qima obrazlar Navoiy obrazi tasvirini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Dramaturg asarining Navoiy haqidagi yaratilgan asarlarga o‘xshash jihatlari talaygina. Izzat Sulton va Uyg‘unning “Alisher Navoiy” dramasi-dagi Guli obrazi ushbu asarda Navoiy ko‘ngil qo‘ygan, ammo bevaqt o‘lim tufayli umri xazon bo‘lgan yor sifatida tilga olinadi. Omon Muxtor va Muhammad Ali asarlaridagi Navoiyga cheksiz muhabbat bog‘lagan, uning e’tibor-u hurmatiga sazovor bo‘lgan ayollar obrazi kabi “Oltin qafas ichra” dramasi-dagi ham Mohtal’at obrazi harakat qiladi. U Navoiyni chin dildan sevgan, unga cheksi muhabbat bog‘lagan. Ammo yoshligida otasi bu sevgiga qarshilik qilgan. Shayxlarni hajv etgan shoirga qiz bermasligini ma’lum qilgan; qizini oilasini Hindistonga ko‘chirib ketib, bir boy oila bilan quda bo‘lgan. Ammo farzandsizlik tufayli ayol bu xonadonni tark etib, bir tabibga

cho'ri bo'lib yollangan; tibbiyot ilmini o'rgangan. Yillar o'tib, u Navoiyning xastaligini eshitib, uni davolash maqsadida huzuriga kelgan. Asarda bu obraz Navoiy ko'ngil olamini ochish vositasi sifatida harakat qiladi.

Asar voqealari Navoiyning haj safariga otlanish taraddudidagi holati bilan boshlanadi. Xo'sh, bu safar u orzulariga erishadimi? Sulton Husayn Boyqaro unga izn beradimi? Sog'ligi, yurt tinchligi, safar tayyorgarligiga to'siq bo'lmasmikan? Ayni damda Usta Salom Navoiyning haj safariga otlanganidan foydalanib saroydagi Ahmadiy, Shayx So'fi Ali kabi amaldorlar uch ming xonadonni Xorazmga badarg'a qilish rejasini amalga oshirmoqchi. Navoiy xalq arz-u dodini tinglab, adolat o'rnatilishiga ishonch bildiradi. Saroyda shayxlar Navoiyni ularning ustidan shakkoklik qilib, mazax qiluvchi she'rlar yozganlikda ayblab, fisq-u fasodni kuchaytirib, qasd olish rejalarini tuza boshlaydilar. Navoiyni hajga borishiga ruxsat beruvchi podshoh farmonini tayyorlaydilar. Navoiy hayratda, nima sababdan ular Navoiyni safarga jo'nashini bu qadar istab qoldilar, nima sababdan ular bu qadar shoshilmoqdalar? Ma'lum bo'lishicha, saroy a'yonlari Navoiyning safarga jo'nashidan manfaatdor. Xorazmga ko'chirinishi rejalashtirilgan xonadon aholidan pora olish, ularga noqonuniy soliqlar solish orqali boyishni

ko‘zlagan nafs va hirs qurbonlari xalqni talashni ko‘zlaganlar. Voqealardan xabar topgan Navoiy bu safar ham murodiga yetolmay, xalq tashvishidan yuz o‘girib ketolmaydi. Adolat qaror topishi uchun kurashadi. Navoiy tadbirlaridan va o‘zlarining fosh bo‘lishlaridan g‘azablangan amaldorlar Navoiy ijodi, asarlari din-u islomga xilof degan tuhmat bilan kuforda ayblab, jazavaga tushadilar. Din-u shariatga xilof ash‘orlar bitgan Navoiyning hajga bormog‘i mumkin emas!” – degan fatvoni Shayx So‘fi Ali podshoh huzurida bayon etadi.

Navoiy ijodini chuqur o‘rgangan, o‘zi ham nafis g‘azallar bitgan shoh va shoir Husayn Boyqaro shayxning da‘volarini, u tilga olgan asarlar, obrazlar mohiyatini sharhlash orqali rad etadi. Afsuski, bu kabi fitnalar Navoiyning sog‘lig‘ini yemiradi. Umri davomida u ig‘volar, saroy fitnalari, temuriyzodalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, el-yurt tinchligi va obodligi, ulus farovonligi, adolat tantanasi uchun kurashdi. Boyqaro Navoiyga tuhmat qilib, xalqni talagan Ahmadiyni qafasdagi it yoniga solib, jazo beradi. Ammo Navoiy bir umr o‘zini “zanjirband sher” kabi his etganini suratda ifodalaydi. Tasvirni ko‘rib Husayn Boyqaro lol qoldi: “Ajabo!!? Yo‘q, yo‘q.. Mir Alisher hech qachon zanjirband bo‘lmagay...

Navoiy: Afsuski, zanjirband sher birgina men emasman... Hattoki Sulton Sohibqiron ham

inchunun darig‘o, Sulton Sohibqiron, saroy fitnachilarining zanjirini uzolmaysiz. Zeroki, don ombori borki, sichqonlar o‘ziga makon aylagay. Sizni ular o‘z izmiga solmoq uchun hamisha intilgay va Siz ham zanjirband sherga o‘xshayursiz”<sup>299</sup>.

Asar so‘ngida Navoiy saroyini tark etadi, o‘z kulbasiga, ijodiga qaytadi. Asar Navoiyning “Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulga tikandek oshyon bo‘lmas emish” misralari bilan yakunlanadi. Zotan, bu ruboiy Navoiy hayot yo‘lining epigrafiga o‘xshaydi. Ya’ni Navoiy uchun saroy, amal-u martaba – oltin qafas, lekin u ijodkor shaxs, she’riyat bulbuli, shu bois unga o‘z kulbasi – ijodxonasi barchasidan afzal. Dramaturg asar sarlavhasini ayni epigraf mazmun-mohiyatiga moslab tanlangani sezilib turadi. Sarlavhada asar g‘oyasi harakatlanib turganday tasavvur uyg‘onadi.

---

<sup>299</sup>Шаламаев Арон. Олтин кафас ичра (Алишер Навоий). Ахароннома. Книга третья. Пять пьес. – Израил: 1994. – С. 36-62.



## 4.2. Dramalarda Alisher Navoiy shaxsiy hayotining talqinlari

Keyingi yillarda Alisher Navoiy obrazi yaratilayotgan sahna asarlarining muayyan o'xshash jihatlari e'tiborni tortadi. Xususan, Omon Muxtor qalamiga mansub "Amir Alisherning dardi" dramasi markazida Navoiy hayotining dramatik pallalarini, qalb kechinmalaridagi jiddiy evrilishlar tasvirini qamrab oluvchi 1498 – 1500-yillar oralig'idagi voqealar turadi<sup>300</sup>. Yetakchi obraz tevaragida ham qator real tarixiy siymolar: Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Majididdin Muhammad, Xondamir singari davlat arboblari, san'at va ilm ahllari harakat qiladi. Sahna asari chigal dramatik kolliziyalarga boyligi sabab iztirob, kechinmalar tasvirida ham muntazam foje holatlarga mutanosiblik seziladi.

"Amir Alisherning dardi" (Ikki parda, o'n ikki holatdan iborat fojia) asarining birinchi pardasidanoq Navoiy holatidan uni qurshab turgan muhit ziddiyatlari, unga yaqin odamlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklaryuki his qilinadi. Mamlakatning notinch ahvoldan iztirob chekayotgani, el-ulus hayotining ichki nizolar tufayli kundan kun og'irlashib borayotgani; Hirot qirq kundan ortiq qamal holatida bo'lishiga bir qavm, bir ulus,

---

<sup>300</sup> Мухтор Омон. Амир Алишернинг дарди // Ёшлик. 2011, № 2. – Б. 16-31.

qarindosh-urug‘, ota-o‘g‘il o‘rtasidagi ziddiyatlar sabab ekanligidan Navoiy afsus-nadomatli holatda tasvirlangan. Dramada tasvirlanishicha, Husayn Boyqaro va Badiuzzamonning ham o‘z haqiqatlari bor: “Men nima, bekorga jangga otlanibmanmu? Orada muxolifatni boshlag‘on menmu? Padari buzrukvor... o‘zlari doim badmehrlik ko‘rsatmadilarmu?.. Mening jon-jigarim Mo‘min Mirzoni zindonga soldi. Mast holda farmonga qo‘l qo‘yib, u nozik niholni o‘ldurdi. Men bunga qandoq chidayman?”<sup>301</sup>.

Amir Alisher siymosida shahzodalarning bu kabi g‘am-anduhlari aksi, ayni damda do‘sti, hukmdor Husayn Boyqaroning iztiroblari izi bo‘rtib ko‘rinadi. Oxiri yo‘q ziddiyatlarni bartaraf etish yukini yolg‘iz Navoiy o‘z yelkasida ko‘taradi; har ikki tarafni insofga chorlaydi. O‘z otasidan yetgan zahmatlar, alamlar azobidan Badiuzzamon Mirzo ham, o‘g‘illarining isyonidan ozorlangan Boyqaro ham faqat Navoiyga ishonadi, faqat Navoiyninggina najot yo‘lini topishiga umid qiladi. Kitobxon yoki tomoshabin ayni dramatik lahzalarni ancha jiddiy qabul qiladi. U ham mana shu iztiroblarga to‘la hayot bag‘riga ko‘chib o‘tgandek bo‘ladi. Ayni paytda u Navoiydek buyuk insonning sabr-u bardoshiga, fikrlash tarziga, aql-u idrokiga qoyil ham qoladi. Mana shunday sahnalar

---

<sup>301</sup>Ўша нашр. – Б. 16-31.

muallifning haqiqiy poetik mahoratini ko‘rsatib beradi.

Tarixiy voqealarga asoslangan holda dramaturg Navoiy obrazini yaratar ekan, e‘tiborni uning o‘z zamonasi uchun nechog‘li muhim, zarur, yirik siyosiy arbob bo‘lganiga ham qaratadi. Muallif adibni siyosiy diplomatiyani yuksak ma‘naviy-ma‘rifiy hamda madaniy saviyada birlashtirgan davlat arbobi sifatida ko‘rsatishni maqsad qilib olgan. Shunga ko‘ra, Navoiy ota va o‘g‘il o‘rtasidagi oxirgi rishtalarni saqlab qolishga astoydil harakat qilayotgan jarayonda ko‘rsatiladi. Buning uchun har ikki tomonni islom qadriyat-lari, imon tamoyillari asosida murosaga keltirishda ruhiy ta’sir ko‘rsatish san’atini namoyon qiladi: “tirik podshoh – otaga qarshi Siz, aziz shahzoda, butun Xuroson mulkini qo‘lga olmoq maqsadi bila harakatda ekaningiz rasman ham, shar’an ham munosib ko‘rinmaydir. Sizga, to‘ng‘uch o‘g‘ulga, taqlidan ukalaringiz Abulmuhsin Mirzo-yu birodari Muhammad Muhsin Mirzo birlashib, urush va isyon yo‘lin tutayotg‘onlari tashvishli va o‘kinchli. Yangidan fitna-fasod qo‘zg‘olib, begunoh kimsalar qoni to‘kulishidan asranmoq lozim...”<sup>302</sup>.

Asarda Navoiyga xos millatsevarlik, yurt-parvarlik xislatlari davlat arbobi sifatidagi aql-zakovati bilan uyg‘unlikda gavdalantirilgan. Ayni

---

<sup>302</sup> Ўша нашр. – Б. 16-31.

mana shu holat Alisher Navoiyni davrining yirik Shaxsi sifatida namoyon bo‘ladi. Obrazga xos ko‘lamdorlik Navoiyni o‘ta ziddiyatli voqealar ichida tasvirlashni taqozo etadi. Muallif buni amalga oshirish uchun bir qator dramatik holatlarni topa olgan.

Alohida ta’kidlash lozimki, sahnada harakatlanayotgan ushbu qahramonlarning asosiy qismi tarixiy shaxslar, Alisher Navoiyning zamondoshlari edi. Dramaturg tarixiy shaxslardan tashqari qator to‘qima obrazlar ham yaratgan. Nozanin – Navoiyning muhabbati ramzi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, Shijo‘uddin Zunnun – lashkar sarkardasi; Haydarbek – buzg‘unchi; Keksa Muarrix, Mavlono Sohibdoro – Navoiyning do‘sti, elchilar, muazzin va some’lar, sipohilar va boshqalar bosh qahramon bilan aloqador bo‘lgan tasavvurlarga to‘ldirish, aniqlash, unga turli tomonlardan yondoshish imkonini beradi.

Muarrix, muazzin va some’lar voqealar rivojini, chigal vaziyatlar dramatismni ta’minlash, keyingi voqealarga “turtki” yoki sharh berish vazifasini ado etadi.

Hirotning qamal holatidagi mushkul vaziyatidan foydalangan bir guruh talonchilar rastalarni, xonadonlarni talab, odamlarga jabr yetkazadilar. O‘z jinoyatlarini to‘da boshlig‘i Haydarbek quyidagicha izohlaydi: “Kimki meni yomon ishlar

qilayapti, yomon yo‘lga kirgan, deya o‘ylasa, adashadi. Men bir tartibga qarshi isyon ko‘tardim. Saltanatni ko‘tarib tashlamoqchiman. Ro‘yi zaminda ojiz kishilar emas, faqat teng, ozod, kuchli kishilar yashashga haqli”.

Shu tariqa dramaturg Navoiy siymosini uch qutbdan: Navoiy – ulug‘ davlat arbobi; Navoiy – yurtparvar, elparvar fidoyi inson; Navoiy – buyuk dard egasi sifatida tasvirlagan.

Navoiyning saltanatdagi yurt tinchligi, el osoyishtaligi uchun kurashi Husayn Boyqaro va Badiuzzamon munosabatlari, saroydagi fitnalar gavdalantirilgan voqealar orqali jonlansa, xalqparvar fidoyi inson sifatidagi sa’y-harakatlari buzg‘unchi olomoni insof-u diyonatga chorlab, ular sardori Haydarbek bilan yuzma-yuz kelgan chog‘da ko‘proq namoyon bo‘ladi: “Yurtni ichdan buzmoq istag‘on, turkiy el-ulus ahil bo‘lishi, bir yoqadan bosh chiqarishiga doim rahna solg‘on dushmanlar! Sening barcha aytg‘oning ham ularning so‘zi... Sening mulking – odamlarga nafrat, mening mulkim – muhabbat!” sifatida namoyon bo‘lgan, deyish mumkin.

Alisher Navoiy siymosini badiiy tahlil qilishimizda bu shaxsdagi buyuk dard, shoirona qalb tasviri asosiy urg‘u oladi. Shunga ko‘ra, Nozanin obrazi Navoiy qalbini, dard-u iztiroblari mohiyatini anglash vositasi. U Navoiy yaratgan paripaykar,

yor, gul, ishq timsoli. Ayni damda ulug‘ shoirning ishq dardiga malham, xayoliy parisi. Navoiy yurak sirlarini xayolan unga to‘kib soladi, u bilan suhbatlashganda ko‘nglida osudalik, ruhida zavqni tuyadi, dardini ungagina so‘zlaydi: “Umrimga oyoq ostida loydek xorlanib-toptalishlarni ham, loydan yasalg‘on ko‘zadek qo‘llarda ko‘tarib alqashlarni ham ko‘rdum. Meni nigun holatda yerga kirib ketishdan, farahli-ko‘rkam holatda o‘zimni osmon deb o‘ylashdan So‘z, Nazm, Adabiyot asradi. Umrimga so‘ngigacha men shu Qora Mehnatga va Senga fidomen, pariruxsor!”<sup>303</sup>.

Nozaninning Navoiyga savol (ritorik savol desak ham bo‘ladi) bilan murojaati, ayni paytda Navoiy ma’naviyatining yana bir qatlamini yoritishi bilan e’tiborli: “Nozanin: ... Nahotki, sizning mehnatga berilib iztirob chekkaningiz shu telba olomonga kerak bo‘lsa? Nahotki, azaldan nokomil hayot alal-oqibat izga tushadi, xatolardan, gunoh qilishdan umrida hayiqmagan odamlar o‘zgaradi, inson tuzaladi, deb o‘ylasangiz? Yerdan haqiqat hukm surishi, Adolat qaror topishi uchun birov o‘lguncha kuyib-yonishi – nahotki shart deb bilsangiz? Bunga ishonsangiz?”<sup>304</sup>.

Navoiyning hajga borish ishtiyoqi aks etgan lavhalar ko‘plab asarlarda aks etgan. Jumladan, mazkur dramada ham shu mavzu qalamga olingan.

---

<sup>303</sup> Ўша нашр. – Б. 16-31.

<sup>304</sup> Ўша нашр. – Б. 16-31.

Muallif buni ham Alisher Navoiy va Nozanin dialogi vositasida ko'rsatishga jazm etgan.

Dramaning "Amir Alisherning dardi" deb nomlanishi ham, bizningcha, ayni ishq dardiga ishora. Ulug' so'z sultoni Amir Alisher hazratlari qalbini zabt etgan buyuk muhabbat dardi uning hayoti, kurash-intilishlari mazmun-mohiyatini tashkil etadiki, dramaturg asarda ishq va yurt, ulus dardini ko'ngliga sig'dira olgan buyuk inson siymosini gavdalantira olgan.

Drama so'ngida Navoiyning cheksiz sahro tomon ketishi, unga ergashganlarga qarata aytgan iztirobli so'zlari voqealar dramatzimining kulminatsiyasini tashkil etadi. "Ergashganlar" epizodik umumlashma obraz – yurt, xalq timsoli sifatida jonlanadi. Ularning o'tinchi, arz-u dodini tinglamaslikning iloji yo'q. Bu gal ham hazrat yiqqanini yurtga topshirib, umid bilan boqqan insonlar g'am-tashvishini zimmasiga oladi, el yukini ko'taradi. Bu holatni dramaturg endi Navoiyning monologi sifatida aks ettiradi: "... Yillar uzlatga chekindim. Ammo hayot g'avg'osi va savdosi menga biron payt osoyish bermadi, intilg'onim bilan, Ka'baga yetib borolmayapman. Ro'y berayotgan ahvol, odamlarning bir-birini anglamasligi, bir-biri bilan kelisholmasligi, johilligi, xudbinligi meni o'rtab yuborayapti. Men Yer yuzida irqi, millati, diniga qaramay,

Tangri taolaga itoatda bo'lg'on insonlar ahil, erkinlikda, hur yashashini orzu qildim! Ammo insonlar aksar isyonda bo'ldilar... do'stlik qilishni istamadilar. Xudoga, bir-biriga bo'yinsunmadilar... Men sizlarga doim yordam berishni istayman. Taassuflar bo'lsunkim, yordam berolmayapman... Yo parvardigor! Mening qavmimga va barchaga dunyoda tinch-osoyishta, baxt-saodatli yashashni buyurgin!"<sup>305</sup>.

Nutqda tabiiylik va samimiylilik yetishmayotgandek tuyuladi. Bu iltijomi, buyruqmi? Aslida, o'tinch ohanglari asnosida mazkur nutq parchasida yaratgandan bu bandalarga imkon berilishi haqida gap borsa ma'qul bo'lmasmidi?! So'nggi vido kitobxonni mana shunday o'ylarga toldiradi.

Alisher Navoiy jahon adabiyoti va san'atining ulkan so'z san'atkorlaridan biridir. Ulug' shoir, ustoz mutafakkir hamda insoniyat baxt-saodati, xalq osoyishtaligi, yurt obodligi, ilm-fan ravnaqi, adabiyot-san'at taraqqiyoti, madaniy hayot gullab-yashnashi uchun butun ongli faoliyatini baxshida etgan. Binobarin, Alisher Navoiy donishmand jamoat arbobi ham edi. Shuning uchun uning shaxsiyati va ijodiy merosi barcha davr kishilari qalbida hayrat tuyg'ularini uyg'otib kelmoqda.

Bu o'rinda Navoiy faoliyati va merosining o'rganilish tarixi xususida mufassal so'zlash

---

<sup>305</sup> Ўша нашр. – Б. 16-31.



imkonsiz<sup>306</sup>. Ammo, muammoni oydinlashtirishda xalq og‘zaki ijodida yaratilgan “Navoiy va yigit”, “Navoiy va qirq vazir”, “Navoiy va Guli”, “Mirali va Sulton Suyun” (“Mir Alisher va Sulton Husayn”) turkumidagi afsona, ertak, latifa va hikoyalarning muhim o‘rni borligini ta’kidlash lozim. Ayonki, ijodkor xalq o‘z tushunchasidagi shoir obrazini yaratgan mazkur badiiy asarlarda tarixiy faktlar aynan bayon qilinmagan. Ammo mazkur asarlarda bu ulug‘ inson shaxsiyati va ijodiga bo‘lgan muhabbat va ardoq aks etgan. Uning tabiatiga xos donishmandlik, vafo-sadoqat, saxovat, olijanoblik fazilatlarini ulug‘langan. Ayrim ertaklarda Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari bog‘bon qizi Guli obrazi bilan bog‘liq tarzda talqin qilingan. Mazkur xalq asarlarining tili esa nihoyatda sodda va ravon.

Ammo zamonaviy dramatik asarlar tili haqida har doim ham bunday deb bo‘lmaydi. Dramatik asar, birinchi navbatda, sahnaga mo‘ljallangan. Shunday ekan, bunda harakat, so‘z, uning ifodasi alohida e‘tiborni talab qiladi. Ushbu jarayonda qahramon nutqining alohida o‘rni bor. Shu jihatdan dramatik asarlarda quyidagi holatlar qayd etiladi:

1. Qahramon nutqiga alohida e‘tibor bilan yondashilgan asarlar.

---

<sup>306</sup>Qimmatli faktik ma’lumotlar beruvchi birlamchi manbalar sirasiga kiruvchi Navoiyning o‘z asarlari; Jomiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Bobur, Vosifiy; Lutfiy, Alibek Ozar, Som Mirzo, Rizoqulixon Hidoyat, Hiraviy, Mirzo Haydar, Abdulmo‘minxon va boshqalarning bitiklarini; navoiyshunoslik yutuqlarini eslash mavzudan chalg‘ituvchi uzundan-uzoq sanoqni yuzaga keltirgan bo‘lar edi (G. A.).

2. Qahramon nutqining “sahnaviy hayot” mazmun-mohiyati, ayni holati bilan uygʻunligining eʼtibordan chetda qolishi.

Albatta, asosiy holatlarda birinchi turkumning yetakchi mavqeda turganini eʼtirof etish lozim. Shunga qaramay, mustaqillik davrida Alisher Navoiy siymosi aks etgan sahna asarlarida mualliflarning ushbu mavzu va muammolarga yaqinlik darajasi, ularning umumiy ijodiy natijalari hamda badiiy mahorat darajasida hal qiluvchi rol ado etadi.

“Amir Alisherning dardi” pyesasidagi Badiuzzamon nutqida “Men bunga qandoq chidayman?” degan savol mavjud. Ushbu jumladagi “qandoq” soʻzi tarixiy kolorit nuqtayi nazaridan qahramon nutqiga yopishmay turadi. Oʻrni kelganda aytish kerakki, ushbu soʻz Navoiy asarlarida umuman qoʻllanilmagan.

Sahnalar almashinuvida Alisher Navoiy siymosining yangi qirralarini ochishda yoki muayyan holat va xususiyatni alohida taʼkidlashga xizmat qilishi koʻzda tutilgan. Masalan, Nozaninning sahnadagi ishtiroki bir necha vazifalarga boʻy-sundirilgan. Ularni shunday guruhlashtirish mumkin:

1. Tarixda xotin-qizlar tutgan mavqeni koʻrsatish orqali mazkur holatni badiiy asoslash.

2. Alisher Navoiy hayotining oʻquvchiga yanada qiziqarliroq boʻlgan jihatlariga badiiy tasvir berish.

3. Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy hamda maishiy hayotidagi lahzalar talqiniga samimiylilik singdirish.

Akademik M.Qo‘shjonov o‘z paytida L.Batning “Hayot bo‘stoni” hikoyasi tahlili munosabati bilan “Yozuvchi asar davomida Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarini ta’kidlab boradi. U shoirni biror muhim voqea yoki biror muhim shaxs bilan to‘qnashtiradi. Shu munosabat bilan Alisher Navoiyda ma’lum bir falsafiy fikr paydo bo‘ladi va shu planda u mulohaza yuritadi. Yozuvchi ana shu mulohazalarni ifodalaydi”<sup>307</sup>, - deb yozgan edi. Ayni usulni mustaqillik davrida yaratilgan epik asarlarda, shuningdek, dramalarda ham kuzatish mumkin.

Navoiy siymosining dramaturgiya sohasidagi ifodasi yaxshi an’analarga boy. Ularda tarixiy manbalarga, xalq og‘zaki ijodida yaratilgan turli janr va mavzulardagi asarlarga tayanish asosiy o‘rin tutgan.

Xususan, Oybekning “Navoiy va Guli” asari, Uyg‘un va I.Sultonning “Alisher Navoiy” dramalarida o‘sha manbalarga ergashish hollari ko‘zga tashlanadi. Keyinchalik O.Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” roman-dilogiyasi, N.Karimovning “Guli va Navoiy” musiqali dramasi, o‘tgan asrning 90-yillarida Alisher Navoiy

---

<sup>307</sup> Қўшжонов М. Инсон сабоқлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – Б. 103.

“Xamsa”si ohanglarida bitilgan Sh.Rizayevning “Ma’naviyat manzillari: pyesalar va maqolalar” (2008) kitobiga kirgan “Iskandar” nomli ikki parda, sakkiz ko‘rinishli dramada ham bunday intilishlar bo‘y ko‘rsatadi<sup>308</sup>.

O.Muxtor, N.Karimov va Sh.Rizayevlar o‘z oldiga Oybek, Uyg‘un, Izzat Sultonlar qalamiga mansub doston-u dramalardan “o‘tkazib nimadir deyish, ifodalash” vazifasini qo‘yishmagan. Agar diqqat qilinsa, Oybek “Guli va Navoiy”da xalq afsonalariga tayangani, Uyg‘un va Izzat Sulton dramasida bunga qo‘shimcha tarzda Navoiy obraziga ko‘chgan aksariyat sifatlar shoirning o‘z asarlaridan olingani ayon bo‘ladi. Binobarin, agar bu asarlar qiyosga tortilsa, qahramonlar tiynati ifodasida muayyan nuqtalarda mualliflar qarashlari birligi yuzaga chiqadi. Binobarin, so‘z yuritmoqchi bo‘lganimiz N.Karimov qalamiga mansub dramada ham folklor motivlariga ergashish ko‘zga tashlanishi mutlaqo tasodifiy emas. Chunki qadim davrlardan bizgacha yetib kelgan o‘zbek ertagi bizni Alisherning oilaviy hayoti bilan aloqador bo‘lgan hodisalarning sir-u asroridan voqif etganday bo‘ladi. Qolaversa, muallifning salafllari an’anasiga ergashishi ham adabiyot tarixida uchraydi.

---

<sup>308</sup>Ризаев Шухрат. Маънавият манзиллари: Пьесалар ва мақолалар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2008. – Б. 4-33.

Masalaning mantiqiy asoslaridan biri shundaki, bizning ishonish va ishonmasligimizdan qat'iy nazar, o'sha ertakda ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy va uning dil malhami bo'lmish Guli siymosi yaratilgan va hamon xalq og'zaki ijodida va badiiy adabiyot qahramoni sifatida yashab kelmoqda. Agar shoir o'tmishida hassos qalbida ishq olovi yonmaganida, ehtimol Shirin-u Layli-lar obrazi ham bu qadar tiniq ranglarda yaratilmagan bo'lardi. Chunki ishq-muhabbat, vafo-sadoqat, fidokorlik o'zining barcha ranglari bilan Navoiy qalbi otash haroratidan taft olgan. Drama muallifi asar finalida aytganiday:

*Ertak tinglab erishamiz biz kamolotga,  
Zero, undan esib turar o'tmish nafasi.  
Yashay bersin avlodlardan o'tib avlodga  
Guli bilan Alisherning foje qissasi<sup>309</sup>.*

Inson taqdirining foje bu qissasi turli davrlarda adabiyot va dramaturg erki, ijodiy-estetik ideali nuqtayi nazaridan turli xilda talqin qilingan. Masalan, o'z davrining farzandlari bo'lgan Uyg'un va Izzat Sulton dramasida xarakterlararo munosabatlardan sinfiy va ijtimoiy konflikt izlashga urinishlar ko'zga tashlanadi. Muhimi shundaki, tarixiy shaxslarga yondashuvdagi bu kabi biryoqlamalik hollari mustaqillikning erkin va plyuralistik tafakkuri ustuvor bo'lgan davrida asta-sekinlik bilan bo'lsa-da bartaraf bo'lib bormoqda.

---

<sup>309</sup> Каримов Н. Гули ва Навоий. Муסיқали драма // Шарқ юлдузи, 2013 йил, 6-сон. – Б. 83.

Naim Karimov xalq og‘zaki ijodi asosida yozgan “Guli va Navoiy” musiqali dramasida ayni holatni kuzatish mumkin. Drama uch parda va o‘n bir ko‘rinishdan iborat. Asarning bosh qahramonlari: Alisher Navoiy va uning sevgilisi Guli. Drama voqealarida shoirning do‘sti Husayn Boyqaro, ustozi Jomiy, ukasi Darveshali, vazir Majididdin, mashhur rassom Behzod, Gulining dugonalari: Sarvinoz, Gulnoz, Feruza, Shahnoza, Anora, Sitora, otasi Solih bog‘bon, shuningdek, Bobo, Haramog‘a kabi qahramonlar ishtirok etishadi. Muallif dramada o‘rni bilan Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro (Husayniy) g‘azallaridan barakali foydalangan. Shubhasiz, barcha obrazlarga mufassal to‘xtalish ishimiz maqsadiga kirmasligini nazarda tutib, asosan, Navoiy siymosining poetik talqini masalasiga to‘xtalamiz.

Asar muqaddimasida Navoiyning umri poyoni va shunga monand tabiatning mahzun manzaralari, ya’ni kuz fasli va quyosh botishi tasvirlanadi. Xazon fasli – qishning darakchisi. Dunyo charxi shu taxlit davom etishi, umrning oqar daryoday shiddat bilan kechishi-yu dunyoning bevafoligi, ya’ni bog‘ yaratgan ham, davron surgan ham qazo kuni yorug‘ olamni tark etishi muqarrar ekanligi haqidagi haqiqat dramada quyidagi ifodada aks etgan:

*“Qag‘-qag‘” deya kelar qarg‘alar,  
Ammo ketar ne-ne darg‘alar<sup>310</sup>.*

---

310 Ўша нашр. – Б. 64.

Navoiyning umr poyonida amalni gʻanim va qalamni doʻst bilgani haqiqatdir. Yuqoridagi misralar buni kech ilgʻaganiga iqror boʻlayotgan shoir koʻnglidagi armonlar ifodasidir. Bizningcha, shoir koʻngli umrini butkul ijodga baxshida etolmaganidan ozurda. Chunki uning nigohi makon va zamon chegaralaridan oʻtib, kelajakka tikilgan. Shoir ona tilida bitilgan va forsiyda yozganlaridan bahra olib, hukm chiqaruvchi donishmand kitobxon didiga ishongan holda, turkiy tildagi asarlari har ikkala til sohiblariga manzur boʻlishidan masrurlik tuygan holda: “... umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, soʻzum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi aʻlo darajadin oʻzga yerni beganmagay”<sup>311</sup>, – deya istiqbolga umid nazari bilan boqqan edi.

Muallif Gulining hayotdan erta ketishi, Ali-sherning oila baxtidan mahrum oʻtgan umrini nadomatlari bilan bogʻlab talqin etadi. Muallif bu fikr tasdigʻini shoir dostonlarining Shirin-Farhod, Layli-Majnun, Dilorom-Bahrom, Mehr-Suhayl singari juftliklari poetik talqinlaridan qidiradi. Mardona hayotida yor yoʻlida boʻzlab, sevgi faslida mangulikka qolib ketgan Farhod, Layli ishqida oʻrtangan Majnun, muhabbat bogʻining podshohi Bahrom, mehrga tashna Suhayl kabi obrazlar ishq tasviri, Navoiyning estetik ideali, shaxsiyati,

<sup>311</sup> Навоий Алишер. Муҳокаматул-луғатайн. МАТ. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 27.

ruhiyati, taxayyulining mahsuli emasmi?! Navoiy o‘zi yaratgan qahramonlar: Shirin, Layli, Dilorom va Mehrdagi ishqni Gulidan qiyos olmaganmikin?

Navoiyning ishq orqali haqiqat va haqqa yetganligi haqidagi fikrlar navoiyshunoslarimiz tomonidan aytilgan. Shunday ekan, uning Guliga va Gulining Alisherga bo‘lgan muhabbati miqyosi Navoiy asari qahramonlarining tuyg‘ularidan bir necha baravar yuksak bo‘lgani shubhasiz. Adabiyotshunos N.Karimovning Guli va Navoiy haqidagi bu dramani yozishga turtki bergan sabab ham ayni shu tuyg‘ularni yoritish bo‘lgan, deb aytish mumkin.

Dramaturg Navoiyni ulusning tinchligi va farovonligi yo‘lida Sharafuddin singari tadbirkor beklarga tayanuvchi fidoyi jamoat arbobi sifatida ham tasvirlaydi. Ayrim o‘rinlarda Alisher – kamtarin inson, onaizor ruhi pokiga sadoqatli farzand, ustoz Jomiy qoshida musallam shogird qiyofalarida namoyon bo‘ladi. Muhimi shundaki, muallif talqinida Navoiy odamlarni faqat iqtisodiy imkoni nuqtayi nazaridan saroy ayonlari va fuqaroga ajratadi. Aslida esa, insonni tabaqasiga ko‘ra emas, balki ko‘nglidagi yaxshi-yu yomon sifatlariga ko‘ra farqlaydi. Ayni shu jihati bilan musiqali dramadagi bu obraz sho‘ro davrining sinfiylikka asoslanuvchi talqinlaridan jiddiy farqlanadi.

Muallif ushbu holatlarda mutafakkir adibning o‘z asari – “Mahbub ul-qulub”ga murojaat etgani



ham ibratlidir. Ko‘chirma asarning 78-tanbehidan ayrim o‘zgartirishlar bilan olingan<sup>312</sup>. Alisherning Guli bilan bo‘lgan muloqot asnosida aytgan so‘zlariga diqqat qilaylik: “Yaxshi inson – yirtiq to‘ni, yirtiq ko‘ylagi bilan ham go‘zal. Gulning to‘ni qirq yamoq bo‘lsa ham, husn-u ifori inson zotini maftun etmasmi? Zuhul baland osmonda turgani bilan Sharq quyoshi bo‘lolmas, dev jannat liboslarini kiygani bilan pari bo‘lolmas”<sup>313</sup>.

Dramada Alisherning bog‘bon xonadoniga sovchi sifatida borishi, bir qarashda, dramatismni yuqori darajaga ko‘taradi. To‘g‘ri, dramada Sulton Husayning Alisher va Guli muhabbatidan bexabarligiga urg‘u berishga harakat qilingan. Shunga qaramasdan, baribir, bu ziddiyatda biroz sun‘iylik ko‘zga tashlanadi. Eng kamida hayotiy bir mantiq – o‘zbek xonadoniga uylanmagan bo‘z yigitning sovchi bo‘lib borishi o‘zini oqlamaydi.

Dramaturg Navoiyning do‘sti va mamlakat hukmdori farmonini ado etish uchun Solih bog‘bon xonadoniga sovchi bo‘lib boradigan yigit qalbini sadpora qilgan favqulodda vaziyatlarda ham taqdirga rizo bir mo‘min sifatidagi ruhiy dramasini ishonarli tasvirlashga erishgan. Faqir kishining yelkasidagi zalvorli yuk, uning mahzun holatidagi ruhiy zilzilalar kitobxon tuyg‘ularini

---

<sup>312</sup>Навоий Алишер. МАТ. Йигирма томлик. Ўн бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 106.

<sup>313</sup>Каримов Н. Ўша нашр. – Б. 72.

muvozanatdan chiqarishga qodirligi bilan ham estetik qimmat kasb etadi. Hukmdorning iltimos-u xohish-irodasi farmon maqomiga ega ekanini yaxshi anglagan Alishergina emas, Guli va Solih bog‘bonlar ham tizginsiz iztirob og‘ushida, nochor ahvolda qolishadi. Ammo, qizig‘i shundaki, ulug‘vor inson Navoiy Sulton Husaynni olijanob va ma‘rifatli inson, yuragi ishq dardidan bahramand oshiq deb biladi hamda undan nafratlanmaydi. Darhaqiqat, shoh Gulini saroyga cho‘ri va kanizak emas, balki malika bo‘lish uchun chorlaydi.

Ikki marta rad javobini olgach esa majburan olib keltiradi. Biroq mamlakat hukmdori inson ko‘ngliga hukm o‘tkaza olmaydi. Ya’ni, sadoqat-u vafoda tengsiz, “qaysar qiz”ni bo‘yin egdirishga ojiqlik qiladi. Shoh ham o‘z ozurda holiga malham, ko‘ngliga taskin axtaruvchi bir banda o‘laroq behad qiynaladi. Shunga qaramasdan, “kelin”ning iltimosi bilan nikoh kechasini qirq kun keyinga suradi. Demak, musiqali dramaning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri: ayol (keng ma’noda inson) dilini anglamoq azaliy jumboq ekani tahlili va poetik tadqiqida namoyon bo‘lishidir. Ya’ni, Guli qoshida ilojisiz qolgan shoh obrazining ishonchli yaratilishi ham asarning o‘qimishli chiqishini ta’minlagan asosiy omillar sirasiga kiradi.

Muhabbat dardida o‘rtanib belidan quvvat, oyog‘idan darmon, ko‘zidan nur ketib qirq kunlab

yotib qolgan Navoiy qay bir jihatlari bilan ertag-u dostonlarning qahramonlariga o‘xshab ketadi. Ayni paytda, noziktab bu insonning shunday ahvolga tushishi realligi bilan ham bizni ishonтира oladi. Uning do‘stlik hurmati uchun pinhon tutilgan “sir”ining oshkor bo‘lishi xarakterlar dramatzmining kulminatsion nuqtasi bo‘lsa ajab emas. Zotan, shoirning bu izhori dili shohni ham ikki o‘t o‘rtasiga tashlaydi. Ayni shu nuqtada Sulton Husayn do‘stlik va ishq iskanjasida qolib sarosar kezadi, o‘rtanadi.

Musiqali drama finalida “bevafo shoiri” qo‘lida omonatini topshirgan Guli pokiza muhabbatiyu sadoqati, uning vafotidan birday o‘rtangan ikki do‘st ruhiyatidagi bo‘ronlarga xos mungni faqat “Ne navo soz aylagay” ashulasigagina sig‘dirish mumkin edi. Biroq N.Karimov dramani mahzun kayfiyat ritmi bilan tugatishni istamaydi. Shuning uchun ham, asardagi mungli kuy sekin-asta hayotbaxsh ohanglar bilan boyib boradi. Bu esa ulug‘ shoir ardoqli xotirasining zamonlar osha yashovchanligiga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Alisher Navoiyning badiiy va ilmiy ijodidagi olamshumul muvaffaqiyatlaridan so‘zlaganda, uning mazkur xizmatlarini olimlar, ilm ahli allaqachon e’tirof etganini, bu hodisaning Alisher Navoiy zamonidayoq ko‘plab kitoblarda qayd

etilganini esga olish joiz. Navoiyshunos olimlar ushbu faktni u yoki bu tarzda tilga olishgan. Jumladan, akademik V. Abdullayev juda to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Navoiyni, avvalo “ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil qilgan Movarounnahr aholisining buyuk shoiri deb, so‘ngra, shuning bilan birga o‘z xalqiga qilgan ulug‘vor xizmatlari tufayli barcha taraqqiyparvar xalqlar shoiri deb tushunish lozim”<sup>314</sup>.

Ayniqsa “firdavs monand” Samarqand yosh shoirning nainki fikr, tuyg‘u, mushohada hayoti, balki ijodiy salohiyatining mukammallashuvida ham alohida ta’sir o‘tkazgan edi. Chunki Navoiy Samarqandga kelganida, ilm-fan, adabiyot, maorif va madaniyati tanazzulga yo‘liqqan Hirotdagidan ko‘ra boshqacha holat – olimlar, shoirlarning Ulug‘bek an‘analarini jonlantirish yo‘lidagi harakatlarining guvohi bo‘lgan edi<sup>315</sup>. Murakkab bir davr, ziddiyatli zamon voqea-hodisalariga to‘g‘ri nazar tashlashda ham, ilm va ma’rifat kuch-quvvatiga ishonchning o‘sishi hamda adabiyotning jahoniy yuksakliklarga olib chiqish sir-asrorini yanada teran o‘zlashtirishda ham Samarqand ilmiy-adabiy va madaniy muhiti Navoiyga yaqindan yordam ko‘rsatgan edi.

Samarqanddan ustoz Sayid Hasan Ardasherga yozilgan she’riy maktub Navoiyning kelajakda

---

<sup>314</sup> Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 101.

<sup>315</sup> Ўша асар. – Б. 64.

umumbashariy mavzu va g‘oyalarni badiiy talqin etishga qodir, o‘z qadri va imkonini xatosiz anglagan chinakam haqgo‘y san’atkor o‘laroq shakllanganidan guvohlik beradi. Shuningdek, Navoiy ijod olamining boyishi va mohiyat e’tibori bilan kengayib borishini Movarounnahr aholisi hayoti, shahar va tabiat manzaralari, olim, shoir, hunarmandlarining axloqi, faoliyatlarining tasvirlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Amir Temurning jahongirliги, Ulug‘bekning ma’rifatparvarliги va Xoja Ahrori Valining kashf-u karomatlariga eshik ochgan Samarqandda o‘tgan hayot, ilm va irfon darg‘alaridan olingan tahsil, madaniy-ma’rifiy muloqotlar Navoiyni ilm-u donish, odil siyosat, iqtisodiy ma’urchilikka asoslangan buyuk davlatchilik tajribalari xususida o‘ylashga ham yo‘llab turganki, o‘sha fikr-mulohaza va xulosalarning ma’lum bir qismi keyinchalik daho shoirning asarlari, xususan, “Xamsa” dostonlaridan o‘rin olganiga shubha yo‘q. Xullas, Samarqand o‘zining “salobatli tarixi, qizg‘in iqtisodiy va madaniy hayoti bilan ham Alisher zehnida chuqur va yoqimli xotiralar qoldirgan”<sup>316</sup>. Ko‘p yaxshiyomon, nurlı va nursız voqea-hodisotlarnı ko‘rib, boshdan kechirgan Samarqandda yaratish iztirobi va ehtirosi kuchli ijodkorni tarixiy mushohadaga ilhomlantirib, ko‘ngilda muzaffar moziy so-

<sup>316</sup> Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент, 1969. – Б. 160.

gʻinchini uygʻotuvchi sirli ruh, samoviy shukuh mavjuddirki, Navoiyning koʻhna Samarqandda maʼnan yayrab, qalbini ilmiy-ijodiy niyatlar bilan quvvatlantirib yashaganligining asosiy sabablaridan biri ham ana shu.

Iqbol Mirzoning “Samarqand sayqali”<sup>317</sup> nomli bir parda, sakkiz koʻrinishli dramasi markazida ham Navoiy obrazi turadi. Boshqa sahna asarlaridan farqli ushbu dramada 24-28 yoshlardagi Navoiyning Samarqanddagi hayoti tasvirlangan. Abu Lays Samarqandiy, Ahmad Hojibek, Davlatshoh Samarqandiy kabi qator tarixiy shaxslar obrazlari qatorida muallif ijodiy fantaziyasining mahsuli sifatida yaratilgan Moʻysafid – 90 yoshlardagi nuroniy chol, Ahmad Hojibek saroyiga Hirotdan yuborilgan josus, bir necha yosh shoirlar obrazlari; Navoiyni taʼqib etuvchi kimsa – sharpa; qiz – Abu Lays Samarqandiyning 18 yoshlardagi qizi va jiyani Feruza kabilar harakat qiladi. Voqealar 1465 – 1469-yillarda Samarqandda boʻlib oʻtishi izohlab oʻtiladi.

Movarounnahr va Xurosonda notinchlik. Alisherbek ota mol-mulki musodara etilib, hovli-joylari tortib olingach, Samarqandga kelib, madrasalarda ilm oʻrganishga kirishadi. Tahlikali zamondan shikoyat qilib, oʻz anduhlarini quyidagicha bayon etadi:

---

<sup>317</sup>Мирзо Иқбол. Самарқанд сайқали // Шарқ юлдузи. 2016, 3-сон.

*“Bu olam mulkida hamma yo‘lovchi,  
Sayyohdir dunyoga kelgan har odam...  
Nechun odamiymas odam bolasi,  
Nechun bir-birining qoniga tashna?  
Aziz va mukarram yaralmish banda  
Nechun Tangriningmas, nafsining quli?”*

Odamzotga urush nechun zarur, degan savoliga mo‘ysafid urush tufayli boyib, g‘aznasi tilloga to‘lguvchilar borligini, ularning qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lib, jon olib jon bergan nodonlar qancha deb javob beradi. Ular “Azroilga dastyor, shaytonga malay, Do‘zax qilmoq bo‘lar yer yuzini ham!”.

Samarqand hokimi Ahmad Hojibekka Hirot-dan josus orqali maxsus maktub yo‘llanib, unda Navoiyni doimiy nazoratda, kuzatuvda bo‘lishi shartligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, Samarqand ahli, ilm-ma’rifat namoyandalari ulkan mehr-iltifot bilan kutib oladilar. Abu Lays Samarqandiy o‘z huzuriga chorlaydi; uning madrasasida tahsil olishni istagan Navoiy Samarqandlik shoirlar, olimlar, san’at va adabiyot namoyandalari bilan uchrashadi, nafis adabiyot, she’rxonlik kechalarida qatnashadi.

Dramaturg Navoiy haqidagi boshqa sahna asarlaridan farqli to‘rtinchi ko‘rinishda Abu Lays Samarqandiy ichki hovlisini tasvirlaydi. Voqealarga Alisherbek g‘azali bilan yangragan qo‘shiqqa monand so‘nggi baytlarni ovoz chiqarib o‘qiyotgan

qiz obrazi kirib keladi. Ma'lumki, Navoiy haqidagi ko'plab asarlarda shoir ko'ngil qo'ygan yor sifatida Guli obrazi (I.Sulton "Navoiy" dramasi, N.Karimov "Navoiy va Guli") yoki ulug' shoir ijodiga mehr qo'ygan go'zal Qiz obrazi (Iqbol Mirzo) yoxud ilmi Navoiyni o'ziga ustoz deb bilguvchi iste'dodli shoira obrazi (Erkin Samandar "Samarqandning ikkinchi osmoni" dramasida) o'ziga xos tarzda tasvirlanadi.

Zotan, har bir dramaturg Navoiy qalbidan joy olgan ayol siymosini o'z tasavvur va fantaziyasiga ko'ra yaratishga erishgan. Bu borada tarixiylik va hayotiylik tamoyillariga amal qilib, obraz yaratishda Navoiy siymosini diqqat markazida tutgan. Navoiy ko'nglini zabt etishi mumkin bo'lgan ul sanam nafaqat husnda, malohat-u nazokatda, balki aql, nozik did va qalb egasi, she'riy iste'dodga ega bo'lishini mantiqiy chuqur idrok etgan holda obraz tasviriga kirishishgan. "Samarqandning ikkinchi osmoni" dramasiidagi Gulnigor obrazi ayni jihatdan mazkur mantiqiy asoslarga mos tushadi. Iqbol Mirzo asaridagi Abu Lays hazratlarining qizi, ya'ni taniqli olim xonadonida tarbiya topgan, ilmi, iste'dodli qiz Navoiyga pinhona muhabbat qo'ygan bo'lsa, Gulnigor o'z ustozga bo'lgan sevgisini baytlari orqali izhor etadi. Navoiy ham unga befarq emas.



Asardagi qiz obrazlar talqini Navoiy muhabbatiga sazovor bo'lgan ayol kim bo'lgan, degan hayotiy savol – muammo yechimiga muallif javobi sifatida qabul qilinadi. Aytish mumkinki, Iqbol Mirzoning ushbu tasvirlari, masalaga yondashuvi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

## IV BOB XULOSALARI

1. Mustaqillik davri adabiyotida Navoiy obrazi yaratilishi nuqtayi nazaridan eng oqsagan adabiy tur dramaturgiya bo'ldi. Bu jarayon, bir tomondan, zamonaviy jamiyatning teatr san'atiga munosabati o'zgargani bilan, boshqa tomondan, dramaturglar faoliyatidagi uzilishlar bilan aloqador. Har qanday holatda ham bu davr adabiyotida dramaturgiya va uning namunalari mavjud. Ularning orasida Navoiy obrazi yaratilgan dramatik asarlarning ham borligi kishini quvontiradi.

2. Dramaturgiya o'z tabiatiga ko'ra Navoiy hayotining kolliziyalarga boy pallasiga diqqat qaratdi. Buyuk insonning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va shu asnoda namoyon bo'lgan qiyofalarini suvratlantirishga asosiy e'tiborni berdi. Shu ma'noda, mustaqillik yillarida yaratilgan sahna asarlarida Navoiy obrazi, avvalo, yetuk davlat arbobi, elparvar shaxs, tarix sahnasida o'chmas iz qoldirgan siymo sifatida badiiy gavdalantirildi.

3. Ijodkorlar dramatik tur imkoniyatlaridan kelib chiqib, Navoiy obrazini yaratishda, asosan, Navoiy hayotining dramalarga boy lavhalarini tasvirlashga harakat qilishgan. Bu jarayonida tarixiy davr voqealaridan, Navoiy hayotiy biografiyasiga doxil ma'lumotlardan, ayniqsa, shoirning siyosiy faoliyatidan samarali foydalanishgan,

tarixiy shaxslarni badiiy obrazlarda jonlantirish, badiiy g'oya mazmun-mohiyatini ochuvchi qator to'qima obrazlarni mahorat bilan yaratishgan.

4. Mustaqillik davrida Alisher Navoiy siyomosini aks ettirgan dramalarni mavzuga yondashuv nuqtayi nazaridan ikki guruhga ajratish mumkin: 1) Alisher Navoiy ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy faoliyati va uning mohiyatini aks ettirgan dramalar; 2) Navoiy siyomosini inson, buyuk qalb va ishq sohibi sifatida ko'rsatishga ustuvorlik berilgan dramalar. Shuningdek, Navoiy obrazi yaratilayotgan sahna asarlarida yagona mavzu tufayli tipologik jihatlar yuzaga kelgan.

5. Dramaturglar Navoiyning ko'ngil olamini, oddiy inson sifatidagi qiyofasini jonlantirishga ham katta e'tibor berishdi. O'z davri, xalq, davlat, ilm-u ijod ravnaqi uchun ham, kelajak uchun ham ulkan vazifalarni bajarishga doxil inson ekanligini tasvirlashga turli qutblardan harakat qilganlar. Navoiyning ishq qissasi turli davrlarda adabiyot va dramaturg erki, ijodiy-estetik ideali nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilingan. Jumladan, Uyg'un va Izzat Sulton dramasida xarakterlararo munosabatlardan sinfiy va ijtimoiy konflikt izlashga urinishlar ko'zga tashlanadi. Muhimi shundaki, tarixiy shaxslarga yondashuvdagi bu kabi biryoqlamalik mustaqillikning erkin va plyuralistik tafakkuri ustuvor bo'lgan davrida bartaraf bo'lib bormoqda.

6. Dramalarda Navoiy hayotining 25-29 yoshlar yoxud so‘nggi davriga oid ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar avj olgan palla – temuriylar saltanatining Husayn Boyqaro tomonidan boshqarilishi va parchalanish tomon borish yillari ko‘proq qalamga olindi. Shu jarayonda Navoiy bu davlat qudratiga qudrat qo‘shgan, ham siyosiy, ham madaniy-ma’naviy jihatdan saltanat “ustuni”ga aylangan, davlat siyosatini adolat, xalqparvarlik g‘oyalariga yo‘naltirib turgan mutafakkir, yirik siyosiy arbob sifatida badiiy kashf etilgan, Navoiyning kurash va intilishlari tarixiylik tamoyiliga monand qalamga olingan.

7. Navoiy nafaqat yirik siyosiy arbob, balki yetuk mutafakkir, daho shaxs, benazir ijodkor. Navoiy siyomosida birlashuvchi bu sifatlar uning muayyan missiyani ado etish uchun ilohiy qudrat ila yaratilgan inson ekanligidan dalolat beradi. Navoiy shaxsiga xos so‘fiylik, avliyolik alomatlari ham fikrimizni asoslaydi. Dramaturglar Navoiy obrazini yaratishda bu jihatlarni ham e’tibordan soqit qilmaganlar. Sahna asarlaridagi ayrim voqealar yechimi yoki fojia sodir bo‘lishidan oldingi “xabarlar”ning Navoiy ko‘rgan tushda ayon bo‘lishi yoxud intuitsiya orqali his qilinishi, “ko‘ngil bezovtaligi” kabi ruhiy holatlar orqali tasvirlanishi ayni mantiqning badiiy talqinlari hisoblanadi.

8. Sahna asarlarida mualliflar xalq og‘zaki ijodiga xos ifoda unsurlaridan (askiya, aytishuv,

payrov kabi), masxarabozlar, dorbozlar, xalq qo‘shiq-lari orqali folklorga xos obrazlardan unumli foydalangan holda qiziqchilar tilidan real hayotga baho berish, asosiy obrazlar va tarixiy hodisalarga xalq munosabatini ifoda qilishga harakat qilganlar. Bu uslub xalqona ifoda yo‘sini orqali dramalarning xalqchilligini, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qilgan.

9. Dramaturglar o‘z asarlarida Alisher Navoiy, Lutfiy, Yassaviy, Husayn Boyqaro she’rlaridan o‘rinli foydalanganlar. Bu uslub obraz ruhiyati bilan ko‘ngil olamini yoritishga xizmat qilgan. Ayniqsa, Guli, Gulinigor, Nozanin kabi ma’shuqa obrazlari bilan bog‘liq Navoiy ishqiga oid tasvirlarda lirik ohanglar kuchli. Mualliflar “oshiq Navoiy” obrazini yaratishda shoirning o‘z asarlari va folklordagi talqinlarga suyangani sezilib turadi.

10. Mualliflar Navoiy obrazi yaratilgan barcha sahna asarlari orqali ulug‘ shoir hayoti va ijod yo‘lini bilish, asarlarini o‘qib o‘rganish bilan birga uning siymosida ma’rifat, ezgulik, iste’dod nurlari balqib turishini his qilishga, bu ulug‘ inson shaxsiyatini anglashga undaydilar. Buyuk inson daholik qudrati bilan yaratgan ma’naviy merosdan bahramand bo‘lish va uni e’zozlashga chorlaydilar. Navoiy siymosini milliy qahramon va ideal namunasi sifatida ko‘rsatishga intiladilar.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Mustaqillik davri ijodkorlar oldiga ulkan vazifalarni qo‘ydi. Ulardan biri milliy ruh va qadriyatlarga asosiy e‘tiborni qaratib, ularni o‘z asarlarida badiiy gavdalantirish edi. Bu esa milliy o‘zlikni qayta anglash hamda ma‘naviyatimiz asoslarini jiddiy o‘rganishni taqozo etdi. Mazkur milliy ehtiyoj va ruhiy tashnalik tufayli Alisher Navoiy ijodi mustaqillik davri shoirlari uchun e‘tiqod, o‘qib o‘rganish manbayiga aylangan.

2. Alisher Navoiyning shaxsiyati, hayot tarzi, axloqi o‘z zamonidayoq ham oddiy xalq, ham ijod ahli uchun namuna edi. Zamonamiz ijodkorlari ham Alisher Navoiy shaxsi va ijodini xuddi shu tarzda qabul qilishdi. Uning har bir asari va qarashini bugungi kun uchun ma‘rifiy boylik, ma‘naviy poklik, fikriy yetuklik va badiiy yuksaklikning maktabi, insoniy kamolotning andozasi sifatida ko‘rsatishdi. Alisher Navoiyni buyuk rahnamo, barkamollik timsoli sifatida talqin etishdi.

3. Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy sharoit taqozosi tufayli o‘tmish mavzusi ustuvor mavqe qozondi. Bu yo‘nalishda tarixdagi buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari hamda ijodkor shaxslar asosiy tasvir obyektiga aylandi. Ular orasida eng katta salmoqni Alisher Navoiyga bag‘ishlangan asarlar tashkil etadi. Buning eng

asosiy sabablari Alisher Navoiy shaxsi va hayotining serqiqqa ekanligi hamda ijodkorlar uchun ruhan yaqinligidir.

4. Tarixiy mavzuda yaratilgan asarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, ijodkorning o'zi tasvirlayotgan tarixiy davrni va tasvir obyekti (hayoti va ijodi)ni qanchalik chuqur bilishi bilan bog'liq. Agar ijodkor o'z obyektini yaxshi bilsa, uning mohiyatini anglab yetsa, tasvirlari ham haqqoniy va ta'sirli bir shaklda yuzaga chiqadi. Tarix – eng ishonchli tarixiy material hamda badiiyat mezonlariga mos talqin uyg'unlashgan nuqtada qayta badiiy jonlanadi.

5. Ijodkorlar Alisher Navoiy obrazini yaratishda prototip, badiiy to'qima va estetik idealni sintezlashga harakat qilishdi. Tarixiy fakt va badiiy talqin masalasida tarixiy haqiqatga xos umumiy mantiqni buzmaslik, imkon qadar asl haqiqatlarga yaqinlashish tendensiyasi kuzatildi. Tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi asosiy mezonlarga rioya etishga intilishgan.

6. Adabiy-estetik tafakkurning mafkuraviy tazyiqlardan qutulishi ijod ahliga iste'dodini to'laroq namoyon qilish uchun munosib muhitni yuzaga keltirdi. Ayni holat millatning bundan keyingi taqdiri va kelajagini taavvur qilish, o'z idealini belgilab olish sari chaqiriq vazifasini ham ado etdi. Mustaqillik davri adabiyotida shonli o'tmish

hodisotiga qiziqishning sezilarli tarzda kuchayib borishi xuddi shu fenomenal hodisa bilan ham bog'liq bo'ldi. U turli tazyiqlardan xoli, tarixiy haqiqat tom ma'noda haqqoniy yoritilgan, adabiy-estetik ideal sifatida millat qahramoni darajasidagi obrazlarni yaratish zaruratini paydo qildi. Bu davr adabiyotida Alisher Navoiy shaxsi va ijodi estetik ideal obyektini sifatida qabul qilingan va mazkur zaruratlar taqozosi bilan badiiy qayta ishlangan.

7. O'zbek she'riyati bu davrda ulug' shoir obrazini yaratish borasida yuksalishga erishdi, bu – Alisher Navoiy asarlaridagi ma'rifiy g'oyalarni qayta idrok etish va badiiy tasvir kuchayganida namoyon bo'ladi. Istiqlol she'riyatida Alisher Navoiy obrazi tasvirining tadriji, turli tendensiyalari haqida fikr yuritish mumkin. Chunki bu davrda buyuk mutafakkir obrazini yaratish jarayoni muntazam tus oldi, izchillik kasb etdi. Alisher Navoiy obrazini yaratish yo'lida eng ko'p asarlar yaratilgan adabiy tur aynan lirika bo'ldi.

8. Alisher Navoiy obrazining bu davr she'riyatidagi talqinlarini eng xarakterli jihatlariga ko'ra tasniflab – alohida lirik asarlar, turkum she'rlar va dostonlardagi talqinlar tarzida o'rganish maqsadga muvofiq. Ta'kidlash kerakki, mustaqillik davri she'riyatida Alisher Navoiy obrazini yaratish jarayoni silliq kechayotgani yo'q. U ba'zan yuksalish tarzida namoyon bo'lsa, ayrim hollarda



obrazli tasvir o‘rnini sayozlik, bayon egallashi ham kuzatiladi.

9. Alisher Navoiy obrazi yaratilgan alohida she’riy asarlarda shoir shaxsi yoki ijodidan tuyulgan hayrat, buyuk shoir haqidagi bir yorqin tasavvur yoki haqiqatning lirik ifodasi ustuvorlik qiladi. Turkum she’rlarda esa shoir obrazining kengroq tasviri uchraydi, shoir ijodi to‘g‘risidagi muayyan tasavvurlar silsilasi, kechinmalar tizimi badiiy gavdalantiriladi.

10. Alisher Navoiy obrazi dostonlarda janr imkoniyatlaridan foydalanilgan holda keng plan-da, jarayonda tasvirlandi. Ijodkorlar o‘zlarini qiynagan zamonaviy va adabiy masalalarni poetik talqin etishdi. Alisher Navoiy siymosi, u yashagan davr bilan bog‘liq voqealarni zamonamiz kishisi nigohidan ko‘rsatib berishdi. Bu tipdagi asarlarni Alisher Navoiy obrazini yaratish jarayoniga nisbatan alohida adabiy hodisa sifatida baholash mumkin.

11. Mustaqillik davri nasri o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazini yaratish doirasini yanada kengaytirdi. Bu hodisa kichik janrlar, ayniqsa, bu davrda yaratilgan romanlarda o‘zining munosib ifodasini topdi. Mustaqillik nasrida ham tarix va uning buyuk namoyondalarini qayta badiiy tadqiq etish tendensiyasi kuzatiladi. Nasrda Alisher Navoiy obrazini yaratish jarayoniga Urfon Otajon,

Omon Muxtor, Asad Dilmurod, Isajon Sulton, Muzaffar Mirzo singari ijodkorlar munosib hissa qo‘shishdi. Bu davr prozasidagi jiddiy adabiy hodisalar sirasiga “Dilkusho bog‘lar” hikoyalarini, “Navoiy va rassom Abulxayr”, “Alisher Navoiy” romanlarini kiritish mumkin.

12. Mustaqillik davrida yuzaga kelgan hikoya va esselarda Alisher Navoiy siymosining o‘ziga xos tasvirlari yaratilgan. Kichik lavhalar vositasida adibning hayoti va ijodi, uning yuksak insoniy fazilatlari, shaxs va ijodkor sifatidagi keyingi davr avlodlarga, jumladan, ijodkorlarning shakllanishi va kamolotidagi ta‘sir o‘ziga xos tarzda ko‘rsatib berilgan. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima yaxshi uyg‘unlashtirilgan. Biroq bu davr hikoyachiligida Alisher Navoiy obrazi yetarli darajada badiiy kashf etilmagan.

13. Alisher Navoiy obrazini yaratishga bag‘ishlangan nasriy asarlardagi mushtarak jihatlar sifatida bir mavzu, epik qamrov, qahramonlarning ijtimoiy-maishiy hayoti va faoliyatiga urg‘u berilishi, talqinda tarixiy haqiqatga mumkin bo‘lgan darajada yaqinlashishga harakatni ko‘rsatish mumkin. Ular o‘rtasidagi ayirmalar esa mualliflarning uslubi, mahorati bilan bog‘liq jihatlarga dalolat qiladi.

14. Dramaturgiya Alisher Navoiy obrazi yaratilishi nuqtayi nazaridan mustaqillik davri ada-

biyotida nisbatan sust rivojlangan adabiy tur bo'ldi. Alisher Navoiy obrazi faqat dramalarda badiiy tasvirlandi. Bu davrda mavzuga aloqador komediya yoki tragediya namunalari yaratilmagan. Mavjud dramalarda Alisher Navoiy hayotining yigirma besh – yigirma to'qqiz yoshlar yoxud so'nggi davri, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar avj olgan palla – temuriylar saltanatining Husayn Boyqaro tomonidan boshqarilishi va parchalanish tomon borish yillari ko'proq qalamga olingan. Shu jarayonda Alisher Navoiy davlat siyosatini adolat, xalqparvarlik g'oyalariga yo'naltirib turgan mutafakkir, yirik siyosiy arbob sifatida badiiy kashf etilgan. Alisher Navoiyning kurash va intilishlari tarixiylik tamoyiliga monand qalamga olingan.

15. Mualliflar sahna asarlarida xalq og'zaki ijodiga xos ifoda unsurlaridan (askiya, aytishuv, payrov kabi), folklorga xos obrazlar (masxaraboz, dorboz, shuningdek, xalq qo'shiqlari namunalari) dan unumli foydalangan holda qiziqchilar tilidan real hayotga baho berish, asosiy obrazlar va tarixiy hodisalarga xalq munosabatini ifodalashga harakat qilganlar. Bu uslub xalqona ifoda yo'sini bilan dramalarning xalqchilligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

16. Mustaqillik davri dramaturgiyasi o'z tabiatiga ko'ra Alisher Navoiy hayotining kolliziyalarga boy pallasiga diqqat qildi. Buyuk

insonning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va shu asnoda namoyon bo'lgan qiyofalarini badiiy tasvirlashga asosiy e'tiborni qaratdi. Shu ma'noda, mustaqillik yillarida yaratilgan sahna asarlarida Alisher Navoiy obrazi, avvalo, yetuk davlat arbobi, elparvar shaxs, tarix sahnasida o'chmas iz qoldirgan siymo, shuningdek, buyuk qalb va pok muhabbat sohibi, oddiy inson qiyofasida badiiy gavalantirildi.

17. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan Alisher Navoiy obraziga oid talqinlar ijodkor shaxs konseptiga sig'maydi. Bu davr adabiyotida Alisher Navoiy fenomenining ijodkorlik bilan bog'liq jihatlaridan tashqari buyuk qalb sohibi bo'lgan inson, davlat arbobi, chin oshiqlik bila bog'liq jihatlari ham keng badiiy talqin etilgan. Shu ma'noda, bugungi kitobxon Alisher Navoiyning badiiy siymosi yaratilgan ulkan panoramaga yonma-yon turibdi. Uning kichik qismi ham, kattaroq qismi ham Alisher Navoiy obrazining munosib qirrasini o'zida ifodalaydi. Biroq ular birgalikda Alisher Navoiy obrazini kengroq va yorqinroq aks ettirishga xizmat qilgan.

18. Navoiyga qaytish – uzluksiz va ilhombaxsh jarayon. Uning davomiyligini o'rganish, muayyan davr adabiyotidagi xosliklarini tadqiq etish ham ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Shu bois buyuk mutafakkir siymosi o'zi yashagan davrdan boshlab bugunga qadar badiiy talqin

etilgan. Mustaqillik davrida ham shoir tajribalariga tayanib did, saviya va mahoratni yuksaltirish har bir iste'dod uchun ijodiy muvaffaqiyat garoviga aylangan. Alisher Navoiy timsoli orqali davr va o'zlik masalalarini adabiy-estetik mushohada qilish, muammolarga yechim izlash hamda insonlarni ezgulikka chorlash, bugun va ertangi kun uchun zarur yo'l-yo'riq ko'rsatish ustuvorlik kasb etgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2016, 14 май.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиغا киришиш тантанали маросимиغا бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. – 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга кураамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

4. Мирзиёев Ш.М. «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини ҳалқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масаллари» мавзuidaги ҳалқаро конференция иштирокчиларига йўлланган табрик // Халқ сўзи, 2018 йил, 8 август.

## II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

### 1) Milliy nashrlar:

5. Абдулҳаким Нурбой. “Руҳим хари-таси”дан “Дил фасли”гача. – // Сирожиддин Саййид. Сўз йўли, Икки жилдлик танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 356 – 371.

6. Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. – Тошкент: Фан, 1968. – 136 б.

7. Абдулхайров М. Навоий асарларида сўз ва иборалар. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2009. – 239 б.

8. Abdurahmonov A. Turk adabiyotining qadimgi davri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 376 б.

9. Аҳмедов Н. Тарихий шахс талқини. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 128 б.

10. Аҳмедов Т. “Хамса” қаҳрамонларининг характер жозибаси. – Тошкент: Фан, 1986. – 67 б.

11. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: “O‘QITUVCHI” нашриёт матбаа уйи, 2020. – 392 б.

12. Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами и литературах народов Востока. – Москва: Наука, 1985. – 366 б.

13. Алишер Навоий: 1441-1501 йил. Адабиётлар кўрсаткичи // Тузувчи З.Бердиева, А. Туропова. – Тошкент: 1991. – 250 б.

14. Алишер Навоий. Ғазаллар. Шарҳлар. – Тошкент: Камалак, 1991. – 176 б.

15. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2011. – 352 б.

16. Аристотель. Поэтика. Русчадан М.Маҳмудов, У.Тўйчиевлар таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 150 б.

17. Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Tafakkur, 2020. – 25 с.

18. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Таржимон, сўзбоши, шарҳ ва изохлар муаллифи У.Жўрақулов. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 288 б.

19. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002. – 560 б.

20. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.

21. Болтабоев Ҳ., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 2-жилд: Ўрта асрлар. Уйғониш даври (IV-XVI). – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – 434 б.

22. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 286 б.

23. Буало Н. Поэтик санъат. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 35 б.



24. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adaboyoti. // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017. – 352 b.

25. Ҳайдарова Р. Тарихий ҳақиқат, бадиий тўқима ва уйдирма. URL: <http://uchildiz.uz.uz/тарихий-ҳақиқат-бадиий-тўқима-ва-уйди/> (10.12.2019)

26. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. –Т.: Фан, 1963. – 173 б.

27. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. –Т.: Ўқитувчи, 1993. - 216 б.

28. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. -184 б.

29. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. –Т.: Фан, 2007. – 224 б.

30. Ҳазрат Навоийга эҳтиром. Шеърлар, дostonлар, мухаммаслар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Р.Мусурмон, Г.Ашурова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 308 б.

31. Ҳайдар Аёзий Мирзо Муҳаммад. Тарихи Рашидий. –Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – 704 б.

32. Имомназаров М. Ҳақиқат ва мажоз. (2-3-мақолалар) // Шарқ юлдузи, 1989. – №4; 1991. – № 4.

33. Имомназаров М. Мусулмон минтақа маданиятини ривожда “Мажоз тариқи” босқичи. 2-китоб. Алишер Навоий. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2022. – 510 б.

34. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 319 б.

35. Жабборов И. Абдулла Орипов шеърятда тарихий шахс талқини. – Тошкент: Фан, 2008. – 94 б.

36. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – 256 б.

37. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърят. – Т.: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2015. – 304 б.

38. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 224 б.

39. Жумахўжа Н. Навоий ғазалиёти талқинлари. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018 йил. – 384 б.

40. Жумахўжа Н. “Қаро кўзим...” ғазали талқини. – Тошкент: Muhammad, 2021. – 12 б.

41. Жўрақулов У. Фитратнинг талқинотчилик маҳорати. – Тошкент: Университет, 2003. – 124 б.

42. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – 203 б.

43. Жўрақулов У. Назарий поэтика масаллари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғ. Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.

44. Карим(ов) Б. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2004. – 12 б.

45. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 256 б.

46. Каримов Б. Истиклол адабиёти: назм ва наср. – Тошкент.: Firdavs-shoh nashriyoti, 2021. – 146 б.

47. Каримов Ҳ. Асқар Маҳкам феномени. – Тошкент, ”Yosh avlod matbaa”, 2022. – 324 б.

48. Каримов Ҳ. Истиклол даври адабиёти. Дарслик. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2010. – 364 б.

49. Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). – Тошкент: “Yangi nashr”, 2018. – 320 б.

50. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб – Тошкент, “O‘ZBEKISTON”, 2008. – 536 б.

51. Каримов Н. Ойбекнинг шоҳ асари. (Ойбекнинг “Навоий” романига сўзбоши). – Тошкент.: Шарқ, 2009. – Б. 2 – 3.

52. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – 96 б.

53. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: TAMADDUN, 2012. – 316 б.

54. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 448 б.

55. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 320 б.

56. Лутфиддинова Х. Зеби, Зеби зебона (Кеча ва кундуз: Чўлпонни ўқиб...). – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 40 б.

57. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижодиёти. –Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 384 б.

58. Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 304 б.

59. Мирзоев А. Камал ад-Дин Бинаи. – Москва: Наука, 1976. – 480 с.

60. Муҳаммадиев Н. Эстетик идеал ва адабиёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 1973. – 33 б.

61. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 208 б.

62. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 208 б.

63. Навоий ғазаллари (насрий баён, шарҳ ва изоҳлар). I китоб. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Тўхлиев. – Тошкент: Вауоз, 2015. – 288 б.

64. Назаров Б. Барҳаёт асар. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: “MASHNUR-PRESS”, 2019. – 88 б.

65. Назаров Ў. Романда бадиий хронотопнинг ўзига хослиги. – Тошкент: Муҳаррир, 2014. – 140 б.

66. Назаров Б. Фитрат. // XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 113-136.

67. Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. Адабий-танқидий мақолалар, эссе, хотира

ва суҳбатлар. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2015. – 320 б.

68. Олимов С. Ишқ, ошиқ, маъшуқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1992. – 80 б.

69. Ойбек М.Т. Адабий-танқидий мақолалар. МАТ. 19 томлик. 14-том. –Т.: Фан, 1979. – 438 б.

70. Қаҳрамонов Қ. Замонавий шеърятда Навоий образининг поэтик талқини. – // ТДПУ Илмий ахборотлари. Илмий-назарий журнал. 2017, № 1 (10). – Б. 83-85.

71. Қаюмов А. “Навоий бобо ва зийрак Самира” достони тўғрисида. – // Исломов М. Навоий бобо ва зийрак Самира. – Фарғона: нашриёти, 2007. – Б. 3 – 7.

72. Қаюмов А. Нодир саҳифалар. Навоийнинг кам ўрганилган баъзи асарлари тўғрисида. –Т.: Фан, 1991. – 144 б.

73. Қодирий Ҳабибулла. “Ўткан кунлар”. – // Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Роман. – Тошкент: SHARQ, 2014. – 400 б.

74. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – 248 б.

75. Қосимов Б. Излай-излай топганим... – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 272 б.

76. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Фан, 2007. – 12 б.

77. Кўшжонов М. Адабиётда эстетик категориялар. Адабийёт назарияси. Икки

томлик. 2-жилд. Адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1979. – 63 б.

78. Қўшжонов М. Ҳаёт ҳақиқати ва бадиий ҳақиқат. – Тошкент: “Фан”, 1982. – 60 б.

79. Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – 191 б.

80. Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 356 б.

81. Қўчқорова М. Алишер Навоий ҳақида икки романнинг қиёсий таҳлили –// *Globalashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami*. – Nukus: 2022. – Б. 188-191.

82. Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси. – Тошкент: Фан. 2008. – 178 б.

83. Раҳимжонов Н., Кубаев К. Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди. – Тошкент: Адолат, 2005. – 45 б.

84. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.

85. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тарақиёт тамойиллари). – Тошкент: “Qamar media”, 2020. – 320 б.

86. Расулова У. Ҳозирги ўзбек романлари поэтикаси. URL: [https://uza.uz/uz/posts/hozirgi-uzbek-romanlari-poetikasi\\_\(20.12.21\)](https://uza.uz/uz/posts/hozirgi-uzbek-romanlari-poetikasi_(20.12.21))

87. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.

88. Руф Квинт Курций. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. редактор А. А. Вигасин. – Москва: Изд-во МГУ, 1993. – 464 с.

89. Сабирдинов А. Ойбек дostonларининг бадий-услубий хусусиятлари. – Тошкент: Истиклол, 2003. – 78 б.

90. Самарқандий Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 224 б.

91. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – 32 б.

92. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 326 б.

93. Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – Тошкент: Adabiyot, 2022. – 196 б.

94. Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари эътирофида. – Самарқанд: Зарафшон, 1996. – 65 б.

95. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 326 б.

96. Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий танқидий мақолалар, суҳбатлар. / Й. Солижон. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – 148 б.

97. Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. – Тошкент: Адиб, 2013. – 128 б.

98. Султон И. Навойнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2010. – 376 б.

99. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 272 б.

100. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 95 б.

101. Туропова П. Адабий-эстетик идеал категориясининг трансформацияланиш жараёни (жиззахлик ижодкорлар мисолида). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2020. – 126 б.

102. Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. – 166 б.

103. Тўхлиев Б. ва бошқалар. Бадий уммон катралари. Монография. – Т.: ВАҶОЗ, 2015. – 112 б.

104. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2011. – 508 б.

105. Улуғов А. “Тарихнинг тиниқ тасвири, турмушнинг теран таҳлили”. // Муҳаммад Саид Ўрдубодийнинг “Қилич ва Қалам” романига сўзбоши. – Тошкент, 2022. – 773 б.



106. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
107. Воҳидов Э. Шоиру шеър ушуур. Адабий ўйлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 204 б.
108. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 1998. – 208 б.
109. Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ. Форс тилидан Комилжон Раҳимов таржимаси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 208 б.
110. Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри, – Тошкент, 2011. – 476 б.
111. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Fan va technologya, 2006. – 80 б.
112. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006. – 448 б.
113. Йўлдош Қ. Моҳият реаллиги ифодаси. – // Асад Дилмурод. Паҳлавон Муҳаммад. Роман. Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 417-431.
114. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”-сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. –Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – 144 б.
115. Юнусов М. Традиция ва новаторлик проблемаси. – Тошкент: Фан, 1965. – 212 б.
116. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. Иккинчи том. (XVасрнинг иккинчи ярми) –Т.: Фан, 1977. – 460 б.

117. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2004. – 83 б.

118. Ғаниева С. Алишер Навоий. Ҳаёти ва ижоди. Масъул муҳаррир А.Қаюмов. –Т.: Фан, 1968. – 148 б.

119. Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Тошкент.: Тошкент Давлат Шарқшунослик институти, 2000. – 164 б.

120. Ғаниев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – 178 б.

121. Шарафиддинов О. Шайхзода. -// XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 302-320.

122. Шарипов Ш. Алишер Навоийнинг «Лисон ут-тайр» достонининг генезиси ва гоъвий-бадий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1982. – 95 б.

123. Шарипов З. Балоғат фани: баён ва бадиъ илмлари. – Т.: Мовароуннаҳр, 2014. – 296 б.

124. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. –Т.: ЎзМЭ, 2006. – 430 б.

125. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. –Т.: Хазина, 1996. – 212 б.

126. Чўлпон Абдулҳамид. Адабиёт надир? – Тошкент: “Чўлпон”, 1994. – 240 б.

## 2) Xorijiy nashrlar:

1. Афсахзод А. Лирика Абд ар-Рахмана Джами. Проблемы текста и поэтики. – Москва. Наука, 1988. – 326 б.

2. Almaz Ülvi. Əlişir Nəvainin əsri və nəsri (elmi-filoloji və dini- təsəvvüfi əsərləri (monoqrafiya) // Almaz Ülvi (Almaz Qasım qızı Binnətova) elmi redaktorlar: akademik İsa Həbibbəyli (ön sözün müəllifi) və professor Şöhrət Siracəddinov.- Bakı, “Elm və təhsil”, 2020. – 570 səh,

3. Александрова С. В. Проблема идеала в русской литературе, критике, публицистике первой половины XX века. Автореф. дис. д-ра филол. наук. – Москва, 2005. – 250 с.

4. Андроникова И. От прототипа к образу. – М.: Наука 1974. – 194 с.

5. Араслы Н.Г. Низами ва турк эдабияти. – Баку. Элм, 1980. – 206 б.

6. Ауэзова Л. Исторические основы эпопеи “Путь Абая”. – Алма-ата: Наука, 1969.

7. Балухатый С.Д. Вопросы поэтики. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1990. – 320 с.

8. Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. Сочин В. IX томах. – Москва: Наука, 1964, Т. II. Ч.2. – 250 с.

9. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература. 1975. – 399 с.

10. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986. – 445 с.

11. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советский писатель, 1963. – 362 с.

12. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История литературы и культуры Ирана. – Москва: Издательство “наука” главная редакция восточной литературы, 1988. – 560 с.

13. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – Москва: Издательство “наука” главная редакция восточной литературы, 1965. – 449 с.

14. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Издательство “наука” главная редакция восточной литературы, 1965. – 524 с.

15. Боров Ю. Введение в эстетику. – Москва: Советский художник, 1965. – 327 с.

16. Боров Ю. Эстетика. – Москва: Издательство политической литературы, 1981. – 399 с.

17. Фольклор. Проблемы историзма. – Москва: Наука, 1988. – 296 с.

18. Гегель Г.В.Ф. Эстетика. III том. – Москва: Издательство “Искусство”, 1971. – 621 с.

17. Гребенкина Е. Образ Наполеона в стихотворениях поэтов XIX века. – // <https://nashahistory.ru/materials/obraz-napoleona-v-stihotvoreniyah-poetov-xix-veka> (10.02.2018)

20. Ковалев С.И. Александр Македонский. – Ленинград, 1937. – 10 с.

21. Лармин О. Эстетический идеал и современность. – Москва: 1964. – 155 с.

22. Mirxond bin Xovandshoh. Ravzat us-safo. J. 1. – Tehron: Piruz, 1337 (h.). – 712 s.

23. Мусукаева А. Ответственность перед временем: Проблемы эволюции романа и латаратурах Северного Кавказа. –Нальчик, 1987. – 224 с.

24. Мелетинский Е.М. Историческая поэтика новеллы. –Москва: Наука, 1990. – 280 с.

25. Методология современного литературоведения. Проблемы историзма. – Москва: Наука, 1978. – 368 с.

25. Муриан В. Эстетический идеал. – Москва: 1966. – 247 с.

26. Муродов О.М., Полякова Е.А. Трансформация мифологических и легендарных образов в таджикско-персидских хрониках XI – XV вв. – Душанбе: Дониш, 1986. – 220 с.

27. Нигматуллина Ю. Национальное своеобразие идеала и искусство. – Казань: Татгосиздат, 1970. – 212 с.

28. Осичнюк Е. Идеал и деятельность. – Киев, 1981. – 184 с.

29. Поляков М. В мире идей и образов. Историческая поэтика и теория жанров. – Москва: Совестький писатель, 1983. – 367 с.

30. Поспелов Г. Н. Теория литературы: учебник для филол. спец. ун-тов / Г. Н. Поспелов. — Москва: Высшая школа, 1978. — 351 с.

31. Потебня А.А. Теоритическая поэтика. — Москва: Высшая школа, 1990. — 344 с.

32. Рахмонов В. Шеър санъатлари. — Ленинобод, 1972. —180 б.

33. Siracəddinov Şöhrət. Əmir Əlişir: həyatı və yaradıcılığı. Monoqrafiya. — Bakı: İlm və təhsil, 2023. — 214 s.

34. Стеблеба И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. —Ленинград: Наука, 1985. — 220 с.

35. Теория литературы. В двух томах. Том 1. Н.Д.Тамарченко, В.И.Тюпа, С.Н.Бройтман. Теория художественного дискурса. Теорическая поэтика. — Москва: Академия, 2004. — 122 с.

36. Тревер К. Александр Македонский в Согде. // “Вестник истории”, 1947, № 5.

37. Хализев В. Е. Теория литературы: Учебник. 4-е изд., испр. и доп. — Масква: Высшая школа, 2004. — 405 с.

38. Велик А. Художественный образ Ф.М. Достоевского. — М.: Просвещение, 1974. — 97с.

39. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. —Москва: Высшая школа, 1989. — 406 с.

40. Виноградов В.В. Сюжет и стиль. — Москва: Наука, 1963. — 192 с.

41. Волков И.Ф. Творческие методы и художественные системы. – Москва: Искусство, 1978. – 264 с.

42. Введение в литературоведение. Под общей редакцией Л.М.Крупчанова. – Москва: ОНИКС, 2009. – 40 с.

43. Храпченко М. Б. Художественное творчество, действительность, человек. Издание 3-е – Москва: Советский писатель, 1982. – 416 с.

44. Шеллинг Ф.В. Философия искусства. – Москва: Мысль, 1966. – 496 с.

45. Цейтлин А. Г. Труд писателя. – Москва: Советский писатель, 1962. – 591 с.

### **III. Diniy manbalar, adabiyotlar**

1. Ал-Бухорий Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Саҳиҳи Бухорий. 1 китоб. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2008. – 712 б.

2. Ал-Бухорий Имом Исмоил. Саҳиҳи Бухорий. 2-жилд. Арабчадан Хожа Музаффар Набихон ўғли ва Хожа Баҳтиёр Набихон ўғли таржимаси. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1997. – 606 б.

3. Қуръони карим (маъноларининг таржимаси). Таржима ва изоҳлар муаллифи Аб-

дулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. – 617 б.

4. Рабғузий Носируддин Бурҳониддин. Қиссаси Рабғузий. Биринчи китоб. Нашрга тайёрловчилар Э.Фозилов, А.Юнусов, Ҳ.Дадабоев. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 240 б.

5. Рабғузий Носируддин Бурҳониддин. Қиссаси Рабғузий. Биринчи китоб. Нашрга тайёрловчилар Э.Фозилов, А.Юнусов, Ҳ.Дадабоев. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 240 б.

6. Ғаззолий Абу Ҳомид. Кимёи саодат. – Тошкент: Адолат, 2005. – 196 б.

#### **IV. Lug‘atlar**

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.

2. Алишер Навоий: қомусий луғат. Биринчи жилд / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq, 2016. – 536 б.

3. Алишер Навоий: қомусий луғат. Иккинчи жилд / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq, 2016. – 480 б.

4. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиёт-шунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 366 б.

5. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар П.Шамсиев, С.Иброҳимов. –Т.: Ғафур Ғулом



номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.

6. Қуронов Дилмурод, Мамажонов Зокиржон, Шералиева Машхура. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 400 б.

7. Словар литературоведческих терминов. Редакторы-составители Л.И.Тимофеев и С.В.Тураев. –Москва: Просвещение, 1974. – 509 с.

8. Фарҳанги забони тожики. Т. 1. – Москва: Советсака энциклопедия, 1969. – 951 с.

9. Философский словарь. Под редакцией И.Т.Фролова. –Москва: Издательствополитическо литературы, 1987. – 590 с.

## **V. Badiiy adabiyotlar**

1. Али Муҳаммад. Навоий ва Бойқаро: тарихий драмалар. – Тошкент: Чўлпон, 2018. – 352 б.

2. Шаламаев Арон. Олтин қафас ичра (Алишер Навоий).Ахароннома. Книга третья. Пять пьес.Израил,1994 г. 36-62 С.

3. Бойқобилов Б. Янги Хамса. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 540 б.

4. Фитрат А. Танланган асарлар. III жилд. Драмалар, публицистик мақолалар. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 256 б.

5. Ҳожиева Ойдин. Назокат: шеърлар, дoston, қасида, бадиалар, ўйлар. — Тошкент: Шарқ, 2007. — 160 б.

6. Исломов М. Навоий бобо ва зийрак Самира. — Фарғона: Фарғона нашриёти, 2007. — 171 б.

7. Камол Жамол. Сайланма. 1 – 6 жилдлар. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. — 500 б.

8. Карим Ғулом. Соҳибқирон ва аллома. Тарихий қиссалар. — Тошкент: Шарқ, 2002. — 240 б.

9. Каримов Н. Гули ва Навоий. Муסיқали драма. // Шарқ юлдузи, 2013 йил, 6-сон. — Б. 63-83.

10. Маҳкам Асқар. Табриз тупроғида. // ЎзАС, 2016 йил, 2 декабрь. № 49 (4396).

11. Мирзо Музаффар. Шам ва шамшир. — Тошкент: Ижод-пресс нашриёти, 2021. — 496 б.

12. Мухтор Омон. Амир Алишернинг дарди. — // Ёшлик, 2011, № 2. — Б. 16-31.

13. Мухтор Омон. Навоий ва рассом Абулхайр. Романлар. — Тошкент: Шарқ, 2006. — 224 б.

14. Мўминова Зулфия. Ишқ йўли. — // ЎзАС, 2016. 15 апрель, № 16 (4363).

15. Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ. 14-том. — Тошкент: Фан, 1998. — 304 б.

16. Навоий Алишер. Мажолис ун-нафоис. — Тошкент: Фан, 1997. — 282 б.

17. Навоий Алишер. Муҳокаматул-луғатайн ; М.Исмоилов / А.

18. Навоий : Адабиётшунослик. – Тошкент: Akademnashr, 2017. - 128 б.

19. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. Nashrga tayyorlovchilar: M.Hamidova V.Rahmonov. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2006. – 672 b.

20. Низом Тўлан. Навоий яшаган уйда. // ЎзАС, 2016, 15 апрель, № 16 (4363).

21. Нурий Дадахон. Азим Чинорлар паноҳи (Бадиа-қисса, эсселар). – Тошкент: «SHARQ», 2010. – 240 б.

22. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 382 б.

23. Орипов Абдулла. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – 784 б.

24. Отажон Урфон. Дилкушо боғлар (1-китоб). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 300 б.

25. Тошмуҳаммад ўғли , М. Ойбек. Навоий : роман / М. Тошмуҳаммад ўғли . - Тошкент : Илм-Зиё-Заковат, 2020. - 512 б.

26. Қурбон Шукур. Озорингни соғиндим. Юз кўшиқ. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – 140 б.

27. Салимова Ш. Ватан суврати. Тўплам. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 275-305.

28. Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 384 б.

29. Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 384 б.

30. Султон Исажон. Алишер Навоий (роман). – Тошкент: Adabiyot, 2021. – 512 б.

31. Суюн Азим. Андиз ўсган ерларда. Шеърлар, ғазаллар, кўшиқлар. – Тошкент.: Meriyus, 2010. – 68 б.

32. Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 416 б.

33. Восифий Зайниддин. Бадоеъул вақоеъ. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги АСН, 1979. – 216 б.

34. Худойбердиева Ҳалима. Сайланма : шеърлар, туркумлардан. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 448 б.

35. Шухрат. Танланган асарлар. 3 томлик. 1 том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969. – 400 б.

36. Чустий. Асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1999. – 74 б.

## VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. ном. дис. афтореф. – Тошкент, 1998. – 20 б.

2. Араслы Н.Г. Ариф Ардебилли и его поэма «Фархаднаме»: Афтореф. дис.канд. филол.наук. – Баку, 1969. – 27 с.

3. Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994. – 341 б.

4. Давлатова А.Р. Миллий ўйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол. фан. номз. автореф.. – Тошкент, 2011. – 26 б.

5. Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фан. д-ри. дисс.. – Тошкент, 2012. – 257 б.

6. Эркинов А.С. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV-XX аср манбалари. Филол. фан. док. дисс. –Т, 1998. – 220 б.

7. Эрматов Б.С. Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар). PhD. дисс. автореф. – Тошкент: 2019. – 56 б.

8. Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари:

Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2001. – 22 б.

9. Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезиси ва поэтикаси: фил. фан. д-ри. дисс.. – Тошкент, 2022. – 260 б.

10. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”-сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. автореф.. – Тошкент, 2017. – 73 б.

11. Каримова Ф.И. Ўзбек адабиётида дебоча. Филол. фан. номз. дис. –Т., 1993. – 126 б.

12. Каримов Ҳ. Тарихий шахс ва бадиий образ: Филол. фан. номз. ... дисс.. – Тошкент, 1999. – 151 б.

13. Карпушкина Л. А. Образ А.С. Пушкина в русской литературе конца XIX – начала XX веков и проблема литературной рецепции: д-я канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 150 с.

14. Лутфиддинова Х. Эстетические идеалы писателя и женские образы (на примере романов “Утган кунлар” и “Кеча ва кундуз”): автореф. дис. доктора филологических наук. – Ташкент, 1994. – 28 с.

15. Муҳаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси: Филол. фан. д-ри. дисс.. – Фарғона, 2022. – 230 б.

16. Муродов Ғ. Тарихий романнинг муштарақлик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муам-

молари. Филол. фан. д-ри. дис. автореф.. – Тошкент, 2018. – 79 б.

17. Нагиева Дж. Алишер Навои и азербайджанская литература (XV-XIX в.в.): Автореф... дисс. док. филол. наук. – Баку, 1986. – 51 с.

18. Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс.. – Тошкент, 1999. – 127 б.

19. Омонова М. Истиқлол даври ўзбек романларида шайх ва валийлар образининг бадиий талқинлари: фил. фан. бўй. фалс. д-ри. дисс.. – Жиззах, 2022. – 160 б.

20. Панченко С. Р. Образ Алишера Навои в Узбекской Советской литературе. Фунд. б-ка СамГУ, 891.709.11-168, 1964.

21. Кувватова Д.Х. XX аср иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент., 2016. – 102 б.

22. Ражабов Д. Бадиий образ ва ритмининг ўзаро муносабати (70-80-йиллари шеърининг мисолида). Филол. фан. номз. дис. афтореф. – Тошкент, 1946. – 26 б.

23. Расулмухамедова Д.Т. Истиқлол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. фан. номз. дисс. автореф.. – Тошкент: 2000. – 21 б.

24. Самандаров И. Ўзбек тарихий романларида тарихийлик: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1992. – 45 б.

25. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид XV-XIX асрларда асарларда яратилган форс-тожик манбалари (қиёсий-типологик, текстологик таҳлил). Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 45 б.

26. Тажибаева Д. Э. XX асрнинг сўнгги чораги ўзбек шеъриятида поэтик услуб муаммолари. PhD. дисс. автореф.. – Фарғона, 2018. – 53 б.

27. Тухлиев Б. “Кутадгу билиг” Юсуфа Хас Хаджиба и тюркоязычный фольклор (Мотивы Образная ситема. Принципы художественного изображения). Автореф. дис. док. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.

28. Тўлаганова С. Ижодкор шахси ва адабий қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри. дисс. автор.. – Тошкент, 2019. – 70 б.

29. Умарова М. Тарихий драмада бадий вақт концепцияси (Шекспир ва Фитрат драмалари мисолида). Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2011. – 24 б.

30. Хамраева М.А. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (насрий асарларда Амир Темур образи): Филол. фан. номз. дисс. автореф.. – Тошкент: 2010. – 22 б.



31. Yusupova M. Navoiy obrazining lirik va epik talqini. PhD diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – 53 b.

32. Юнусова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадиий талқини: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 26 б.

## **VII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar**

1. Абдуллаев В., Валихўжаев Б. Навоийнинг ўз кўлэзма девони // Шарқ юлдузи, 1979. - № 7. – Б. 223-225.

2. Аҳмедов Н. Мангу барҳаёт образ. // Шарқ юлдузи, 1988, № 4. – Б. 51-58.

3. Алимбеков А. Тарих жозибаси. // “Моҳият”, 2005. – 30 декабрь.

4. Алишер Навоий девонларига ёзилган дебочаларда шоир биографиясига оид маълумотлар / Адабий мерос. 1-китоб. – Тошкент, 1968. – 100 б.

5. Алишер Навоий ва XXI аср. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. –Т.: TAMADDUN, 2016. – 280 б.

6. Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. –176 б.

7. Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. Илмий-назарий анжуман маърузалари. –Тошкент: Фан, 2001. – 53 б.

8. Багиров А. Бадиий идеал ва тарихий ҳақиқат // ЎТА, 1997. № 2. – Б. 17-22.

9. Болтабоев Ҳ. Туркий тазкираларда Алишер Навоий сиймоси. // Жаҳон адабиёти, 2013 йил, 2-сон. – Б. 170-174.

10. Эшонқул Назар. Мен нима учун ёзаман? Шермурод Субҳон ёзиб олди. – // URL: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/nazar-eshonqul-mendan-mengacha.html> (01.07.2021)

11. Гегель. Эстетика. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – // Шарқ юлдузи, 2014. № 4. – Б. 68-78.

12. Жабборов Н. Тўрт ариқнинг шарбати надир // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2004, 19 март.

13. Жабборов Н. Ойбекнинг “Навоий” романида тарихий ҳақиқатнинг бадиий талқини. /“Ойбек – ўзбек халқининг буюк мутафаккири” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Ангрэн, 2005. –Б.47-51.

14. Жабборов Н. Алишер Навоий эстетик оламининг Сирожиддин Саййид шеърияти поэтик такомиллига таъсири. /Алишер Навоий

ва Шарқ Ренессанси II халқаро симпозиуми. Мақолалар тўплами. –Т.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2023. – Б. 245-271.

15. Жумахўжа Н. Ҳақиқат талқинлари.– // ЎзАС, 2017 йил, 12 май, № 20 (4419).

16. Жумахўжа Н. Навоийшунослик: муаммолар қачон бартараф этилади? // Шарқ юлдузи, 2021, 4 – сон. – Б. 66-72.

17. Камол Ж. Умрим, ҳайрат билан қайларга етдинг. // Ёшлик, 1993. 12-сон. – Б. 5-12.

18. Лутфиддинова Х. Эстетик идеал йулида. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. № 3.

19. Лутфиддинова Х. Кумушбиби – эстетик идеал намунаси. / / Ўзбек тили ва адабиёти 1994. № 4-5.

20. Лутфиддинова Х. Эстетик идеал ва ҳаётий ҳақиқат // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 1. – Б. 21-24.

21. Муҳаммадждонова Г., Аҳмадждонова А. Ўзбек ва жаҳон адабиётида мусаввир образи.– // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari. – Toshkent: “Mashhurpress”, 2020. – Б. 2 – 1.

22. Навоийнинг ижод олами. Мақолалар тўплами. –Т.: Фан, 2001. –199 б.

23. Қўшжонов М. “Ишқ аҳли” романи тўғрисида // Шарқ юлдузи, 2001, № 1. – Б.15.

24. Содик Санжар. Романми ё рисола? // ЎзАС газетаси, 2004, 30 январь сони.

25. Тўхлиев Б. Таҳлил ва талқин уйғунлиги.  
// ЎзАС, 2006 йил, 57-сон.

26. Валентина Славина. Религиозный идеал в соловьева как синтез истины, добра и красоты.  
URL: <http://rl-online.ru/articles/2-05/329.html>  
(31.08.19)

27. Шуҳрат домла / Ш. Сирожиддинов  
ҳақида. – Тошкент: Akademnashr, 2023.

28. XX аср ўзбек адабиёти масалалари.  
Илмий мақолалар тўплами. –Т.: Фан, 2012. –  
247 б.

## VIII. Internet saytlari

[http// dic / akademik / ru / dic.nsf/;](http://dic/akademik/ru/dic.nsf/)

[http // diction. chat/ru/;](http://diction.chat/ru/)

[# xzz 2 HOWXH 41 O](http://www.referun.com/n/issledovanie-zhizni-itvorchestva-alishera-navoi-zapadnoevropeyskom-vostokovedenii)

[http://www/payam-afab/cjm/en/news/3094/Ali-Shir-NBava](http://www.payam-afab/cjm/en/news/3094/Ali-Shir-NBava) 27 i

[psychologiya.com.ua x 3992-xronotop.html](http://psychologiya.com.ua/x3992-xronotop.html)

[newsmart. Livejournal.com 1981855.html](http://newsmart.livejournal.com/1981855.html)

[UchMet.ru library/material/159187/](http://UchMet.ru/library/material/159187/)

[sci.housefilosofiya-nauki/vremya.hronotop.](http://sci.housefilosofiya-nauki/vremya.hronotop.)

[disszakaz.com catalog ukr.hronotop](http://disszakaz.com/catalog/ukr.hronotop) v. Roman.

<https://uz.wikipedia.org>

<http://feb-web.ru/feb/litenc/encyclop/>

[kh-davron.uz](http://kh-davron.uz)

[ziyouz.com](http://ziyouz.com)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>4</b>
---------------------	----------

### **I BOB. TARIXIY SHAXS TASVIRIDA**

<b>ME'YOR VA MEZONLAR</b> .....	<b>13</b>
---------------------------------	-----------

1.1. Tarixiy shaxs tasvirida fakt va talqin muammosi.....	13
1.2. Alisher Navoiy estetik ideal obykti sifatida.....	52
Bob bo'yicha xulosalar .....	78

### **II BOB. SHE'RIYATDA ALISHER**

<b>NAVOIY SIYMOSINING BADIY IFODASI</b> .....	<b>83</b>
---	-----------

2.1. Lirikada Alisher Navoiy obrazi tasvirlari .....	83
2.2. Turkum she'rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik vosita sifatida .....	149
2.3. Dostonlarda tarixiy haqiqat va obraz uyg'unligi.....	178
Bob bo'yicha xulosalar .....	218

### **III BOB. NASRDA ALISHER NAVOIY**

<b>OBRAZINI YARATISH TAJRIBASI</b> .....	<b>222</b>
--	------------

3.1. Hikoya va esselarda Alisher Navoiy siymosi.....	222
3.2. Alisher Navoiy obrazining epik tasviri .....	242
Bob bo'yicha xulosalar .....	296

### **IV BOB. DRAMATURGIYADA ALISHER**

<b>NAVOIY OBRAZI</b> .....	<b>301</b>
----------------------------	------------

4.1. Alisher Navoiy ko‘pqirrali faoliyatining dramatik tasvirlari .....	301
4.2. Dramalarda Alisher Navoiy shaxsiy hayotining talqinlari .....	337
Bob bo‘yicha xulosalar .....	362
<b>UMUMIY XULOSALAR.....</b>	<b>366</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	
<b>RO‘YXATI.....</b>	<b>374</b>

ASHUROVA GULBAHOR NURULLAYEVNA

**MUSTAQILLIK DAVRI  
O‘ZBEK ADABIYOTIDA  
ALISHER NAVOIY OBRAZI**

**MONOGRAFIYA**

**“QAMAR MEDIA”** нашриёти.

Тошкент шаҳри.

Босмахонага 17.11.23 йилда берилди.

Босишга 00.00.23. йилда рухсат этилди.

Бичими: 84x108. “Times New Roman”

гарнитурасида

офсет босма усулида босилди.

Адади – 100 нусха. 98-сон буюртма.

**“QAMAR MEDIA”** МЧЖ босмахонасида  
чоп этилди. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани,

Қушбеги кўчаси, 6-уй.

Мурожаат учун телефон:

**+998946727111**